

Ilm kelajagimiz
ravnaqidir

№-3. 2024



СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасгимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-3 2024



ТАЪСИСЧИЛАР;
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТРАНСФЕРИ
МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ
ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Ҳар чоракда 1 марта чиқади.

**Jurnal 25-05-2020 yil. №11-079
raqami bilan ro'yxatga olingan.**

O'zbekiston Respublikasi OAK ning 2021 yil
12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati
asosida ro'yxatga olingan.

Ommaviy axborot vositasi davlat
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVONOMA N-11-079.

My.gov.uz. Yagona interaktiv davlat
xizmatlari portali.
N 8102-325e-cd96-f50a-53b3-3119-7970

Hujjat yaratilgan sana: 2020-05-25.

Ariza raqami: 19051279.

НАШР ИНДЕКСИ 190-111.

ЖУРНАЛ «ADAD PLYUS» МЧЖ
матбаа бўлимида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,
Бунёдкор кўчаси 28-уй.
Босишга рухсат этилди: 8.11.2024.
Қоғоз бичими 60x84 1/8.
Босма табоғи 12,0. Офсет босма.
Офсет қоғози. Адади 100.
Баҳоси келишилган нархда.
Буюртма № 48.

Техник ходимлар:
Мамаражабов Ғайрат
Қаршиев Ислон
Раҳмонов Маҳаммади
Саҳифаловчи:
Қўшоқова Моҳигул

Таҳририят манзили: Сурхондарё вилояти
Термиз шаҳри "Баркамол авлод" кўчаси 43 уй.
tursunovsafullo12@mail.ru
Тел: 876 223 07 66.
+99 891 577 90 50,
+99 894 200 49 55,
+99 891 229 22 29.

Бош муҳаррир:

Главный редактор:

Chief Editor:

Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич
Тарих фанлари доктори, профессор
Термиз давлат университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

Заместитель главного редактора:

Deputy Chief Editor:

Пардаев Тошкенбой Раджабович
Тарих фанлари доктори, профессор
Термиз давлат университети

Журналнинг илмий котиби:

Холмўминов Хусан Эшмўминович
Тарих фанлари доктори, доцент
Термиз давлат университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ:

Тошқулов Абдукодир
Аскарлов Аҳмадали
Каримов Соҳибназар
Муртазоева Раҳбархон
Сағдуллаев Анатолий
Воҳидов Шодмон
Виктор Агаджаниан
Юнусова Хуршида
Абдуллаев Улуғбек
Толипов Файзулла
Дадамирзаева Гулчехра
Хидиров Холмамат
Дониёров Алишер
Шамсиддинов Рустам
Обломуродов Наим
Эшов Баходир
Саидов Илҳом
Ҳайитов Шодмон
Ғаффоров Шокир
Мусаев Нуриддин
Бобожонова Дилором
Абдуллаева Яхшибека
Эргашева Юлдуз
Давлатова Саодат
Маткаримова Садоқат
Раҳмонов Фахриддин
Турсунов Нурулло
Тилеукулов Гауҳар
Бўриев Очил
Қурбонова Манзила
Турсунов Жавли
Ҳўшбоқов Панжи
Раҳимов Баходир
Акчаев Фаррух

Усмонов Муртоз

Ирискулов Олимжон
Турсунов Анвар
Якубова Диларам
Аҳмедова Гулчехра
Умаров Иқром
Назирова Бахтиёр
Мамаражабов Ғайрат
Дуланов Отабек
Қаршиев Ислон
Саидов Бахтиёр

**ЖАМОАТЧИЛИК
КЕНГАШИ:**

Турдиев Тоштемир
Алланов Қилич
Муртозоев Бобоназар
Шариф Ёқубов
Туропова Моҳдил
Эргашева Сайёра

TARIX

«KATTA QIRG'IN»NING KATTA TALOFOTLARI

Tursunov Saypulla Narzullayevich,

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası mudiri,**Tarix fanlari doktori, professor**e-mail: tursunovsafullo12@mail.ru.*

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-2553-6164>

Annotatsiya: Tariximiz sahifalarida mustabid tuzumning “siyosiy ta’sirlar”i tufayli unutilgan, maxsus “mutlaqo maxfiy” tutilgan hujjatlarni topish, tiklash, qayta o’rganish asosida xalqimizni og’ir qatag’on, surgun qilish, milliy kamsitish, milliy urf-odatlarini, an’analarini, marosimlarni tahqirlanishini hamda dunyoviy-diniy bilim va ilmlarini yo’qqa chiqarishga oid manbalar asosida yaratilgan ushbu maqola Surxon vohasining mustabid tuzum davri qatag’onlari to’g’risida hikoya qiladi.

Kalit so’zlar: «Katta qirg’in», NKVD, R.Shamsiddinov, Stalinning siyosiy raqiblari, Surxondaryo okrugi, qatag’on.

Аннотация: На основе поиска, восстановления и повторного изучения документов, забытых вследствие «политического влияния» и специальных «совершенно секретных» документов об авторитарном режиме на страницах нашей истории, жесточайших репрессиях, ссылках, национальных дискриминация, национальные традиции. Данная статья, созданная на основе источников, связанных с подавлением традиций, ритуалов и уничтожением светских и религиозных знаний и наук, рассказывает о репрессиях Сурханского оазиса в период авторитарного режима.

Ключевые слова: «Великая резня», НКВД, Р.Шамсидинов, политические противники Сталина, Сурхандарьинский район, репрессии.

Annotation: On the basis of finding, restoring, and re-studying the documents that have been forgotten due to "political influences" and special "absolutely secret"

documents about the authoritarian regime in the pages of our history, severe repression, exile, national discrimination, national traditions, This article, created on the basis of sources related to the suppression of traditions, rituals and the destruction of secular and religious knowledge and sciences, tells about the repressions of the Surkhan oasis during the authoritarian regime.

Key words: "Great massacre", NKVD, R.Shamsiddinov, Stalin’s political opponents, Surkhondarya district, repression.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). 1937-1938 yillarda amalga oshirilgan «Katta qirg’in» davrida otib tashlangan, qamoqqa olingan va umri konsentratsion lagerlarda xazon bo’lgan vatandoshlarimiz tarixini mukammal o’rganish, xalqimiz ongiga qatag’onlik va surgun siyosatini kengroq singdirish, ajdodlarimizni ruhlarini shod etish bugungi kun tarixchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ushbu maqolada berilgan ma’lumotlar Davlat xavfsizlik xizmati (2020-yil dekabr) va O’zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi (2020-yil dekabr) dan olingan bo’lib, unga R.Shamsiddinovning tadqiqotlari hamda muallifning dala tadqiqotlari natijasida aniqlangan ma’lumotlar kiritildi. 1937-1938 yillarda mingdan ortiqroq vohadoshimiz qatag’on qilinganligi tadqiqot davomida arxiv ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Ushbu

maqolada ular haqidagi ma'lumotlarni imkoni boricha yoritishga harakat qilindi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mamlakatimiz tarixida mudhish iz qoldirgan eng yirik va ommaviy davlat terrori shubhasiz, 1937-1938 yilgi «Katta qirg'in» hisoblanadi. Uning ko'lamining oldingi yillarda o'tkazilgan repressiyalardan ko'ra juda katta edi. Bo'lg'usi terrorga bir necha yil oldinroq tayyorgarlik ko'ri-la boshlandi. Chunki, bolsheviklar partiyasi sinfiy dushmanlarini to'liq tor-mor etib bo'lgach, ular o'rtasida hokimiyat uchun kurash qizigan edi. Bir tomondan Stalin boshchilik qilgan stalinchilar, ikkinchi tomondan, Troskiy, Kamenev, Zinovev, Rikov, Tomskiy, Buxarin etakchilik qilgan guruhlar o'rtasida shiddatli siyosiy kurash boshlanib ketdi. Stalin o'z raqiblarini bir-biriga qarshi qo'yib, avval Troskiyni mamlakatdan haydab chiqarishga erishdi. So'ngra, Kamenev va Zinovev ustidan sud uyushtirib, ularning kuchini qirib tashlashga muvaffaq bo'ldi. 1936-yil avgustida Moskva va boshqa shaharlarda bo'lib o'tgan yirik sud jarayonlari natijasida yuzlab kishilar troskizm va terrorchilikda ayblanib otib tashlandi. Bu kurashda Stalin o'z raqiblarini «aksilinqilobiy troskiychi-zinoviyovchi unsurlar», «xalqaro burjuaziyaning ilg'or siyosiy va tashkiliy otryadi» deb atadi. Bo'lib o'tgan sudlar xalq ongiga davlatni siyosiy dushmandan to'liq tozalash kerak, degan tushunchani singdirishi lozim edi.

Stalin o'zining siyosiy raqiblarini yo'q qilish uchun 1934-yil 10-iyulda Butunittifoq Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) tashkil etishga erishadi. Unga ko'ra, OGPU Davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi (GUGB)ga aylantirildi va NKVD tarkibiga kiritildi. Uning raisi bo'lgan G.G.Yagoda bir nechta yirik siyosiy jarayonlarni o'tkazgach, ishdan olinadi. O'rniga 1936-yil 26-sentyabrda SSSR Ichki ishlar xalq komissari lavozimiga N.Ejov tayinlanadi. Aynan N.Ejov NKVD boshlig'i bo'lgan davrda mamlakatda ommaviy qirg'in avj oladi.

1937-yil yozida Stalinning siyosiy raqiblariga xayrixohlik bildirgan bir guruh harbiylar otib tashlangach, navbat partiya va

davlat arboblari keladi. VKP(b) MQ siyosiy byurosining 1937-yil 2-iyuldagi «Sovetlarga qarshi unsurlar to'g'risida»gi qarori mamlakat bo'yicha «Katta terror»ning boshlanganligini anglatar edi. Dahshatli qirg'inda yirik partiya, davlat, jamoat va fan arboblari, oliy rutbali harbiylar, xo'jalik xodimlari, ziyolilar kolxozchilar, texniklar, kichik bo'g'indagi rahbarlar turli ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildilar. O'zbekistondagi repressiyalarni nazorat qilish uchun Markazdan VKP (b) kotibi Andreyev yuborildi.

1937-yil yozida Moskvada N.Buxarin qamoqqa olinishi bilan darhol u bilan yaqin aloqada bo'lgan barcha kishilar yoppasiga qamoqqa olina boshlandi. Ular orasida O'zbekistonning taniqli davlat arboblari – F.Xo'jayev, A.Ikromov, M.Shermuhammedov, A.Karimov va boshqalar ham bor edi. Joylarda sobiq davlat arboblari bilan birga ishlagan, suhbatlashgan, maslahatini olgan, hatto ularga xayrixoh bo'lgan kishilar ham jazolandilar.

Boshlanib ketgan yirik terrorda stalinchilar o'zlariga qarshi bo'lgan kishilarni yo'q qilish bilan birga qamoqdan chiqib kelgan quloqlar, ruhoniylar, sobiq oq gvardiyachilar, yirik boylar va boshqa siyosiy dushmanlaridan ham qutulishni rejalashtirishdi. Shu maqsadda 1937-yil 30-iyulda NKVD komissari N.Ejovning «Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa aksilsovet unsurlarni repressiya qilish bo'yicha operatsiya to'g'risida»gi 00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyrug'i chiqarildi. Unga ko'ra, 1937-yil 5-avgustidan boshlab barcha respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda sobiq quloqlar, faol aksilsovet unsurlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish operatsiyasi o'tkazilishi buyurildi.

Ularni qo'lga olishishlari O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRlarda 10-avgustdan, Uzoq Sharq va Krasnoyarsk o'lkasi hamda Sharqiy Sibirda 15-avgustdan boshlash belgilandi.

Qatag'on qilinuvchi kishilar ikki kategoriyaga bo'lindi:

1) birinchi kategoriyaga yuqorida qayd etilgan unsurlarning eng ashaddiylari kirib, ularni tezlik bilan qo'lga olish va ishlari

uchlik tomonidan ko'rilgan vaqtda otuvga hukm qilish;

2) ikkinchi kategoriyaga nisbatan faollar mansub bo'lib, ularni qamoqqa olib, 8-10 yil muddatga lagerga jo'natish, ulardan alamzadalari va ijtimoiy xavfli bo'lganlarni uchlik qarori bilan xuddi shu muddatlarda qamoqqa jo'natish buyurilgan edi[1;96-98].

Ushbu hujjatda respublikalar, o'lkalar va aholi zich viloyatlarda Uchlik sudlari joriy etildi. Ular o'rtasida odamlarni javobgarlikka tortish bo'yicha kim o'zarga musobaqalar o'tkazildi. Butun mamlakat bo'ylab juda ko'plab odamlar uchliklar chiqargan hukm asosida sudsiz jinoiy javobgarlikka tortildi. Chunonchi, O'zbekistondan birinchi kategoriya bo'yicha 750 kishi, ikkinchi kategoriyaga 4000 kishi, jami 4750 kishi repressiya qilinishi belgilab berildi[1;98]. Lekin amalda bundan ko'proq kishi jazoga tortildi. 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo'lgan vaqtda O'zbekiston bo'yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan, ulardan 3613 kishi 1-kategoriya bo'yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo'yicha 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Repressiyaga uchraganlarning yaqin qarindoshlariga «xalq dushmani»ning o'g'li, qizi, xotini, akasi, ukasi, qarindoshi, do'sti, gumashtasi, dumi kabi tamg'alar qo'yilgan, har jihatdan kamsitilgan, huquqlari toptalgan, ma'naviy jihatdan xo'rlangan[2;6].

«Katta qirg'in» vaqtida NKVDning Surxondaryo okrug bo'limi «qattiq» ishladi. Uning faoliyati natijasida ko'plab kishilar qirg'in qilindi. Jumladan, 1937 yil 25 oktyabrda O'zSSR NKVD qoshidagi Uchlik (Apresyan – O'zSSR ichki ishlar xalq komissari, davlat xavfsizlik mayori, Segizboyev – O'zbekiston XKS Raisi, Sheyndlin – O'zSSR prokurori, Yakovlev – O'zSSR NKVDsi Davlat xavfsizlik boshqarmasining 8-bo'lim boshlig'i) yig'ilishi tomonidan NKVDning Surxondaryo okrug bo'limi tomonidan taqdim etilgan jinoiy ishlar bo'yicha 26-sonli bayonnoma tuziladi. Unga ko'ra 101 kishi, shu jumladan, 58 kishi otuvga, qolganlari 8-10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga qamog'iga hukm qilingan. 1937 yilning 3 noyabrida Uchlik tomonidan qabul

qilingan 31-sonli bayonnomaga ko'ra, surxondaryoliklardan 63 mahbusga jazo tayinlandi. Ulardan 51 kishi otuvga, qolganlari 8-10 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi[2; 243-259, 411-421]. Jazolanganlarning ko'pchiligi ruhoniylar edi. Achinarlisi, ular orasida oilaviy (ota va uning o'g'illari, aka-ukalar) otib tashlanganlari ham bo'lgan.

O'zSSR NKVD qoshidagi Uchlikning rasmiylashtirilgan bayonnomalari qarang kuniga yuzlab, ba'zan minglab mahbuslarning hech qanday sud-so'roqsiz otuvga yoki turli muddatlarga qamoq jazolariga hukm qilinganligini ko'rish mumkin.

Uchlik tomonidan chiqarilgan bayonnomalari, hukm va qarorlarga tanqidiy jihatdan qarash lozim. Chunki ularning asosiy qismi to'qib chiqarilgan ayblovlar ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, sovet rejimiga qarshi kurash olib borgan kishilar – hayvon o'g'rilari va talonchilar, ruhoniylar – aksilinqilobiy targ'ibot va aholini ishdan qoldirib, diniy marosimlarga chaqirganlikda, amir amaldorlari – chet davlatlar bilan aloqada bo'lib, josuslik qilganlikda, quloqlar – kolxozga qarshi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, rahbar va texnik kadrlar – trokizm bilan sabotajda, milliy ziyolilar – burjua millatchiligi va aksilinqilobiy isyonchilikda ayblanganlar.

Ko'p hollarda NKVD xodimlari jinoyat ustida ushlab olingan yoki ilgari jinoyati uchun qamalib chiqqan shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri Uchlik hukmiga topshirishar edi. Ular tus jinoyatchilar, ya'ni, qotillar, o'g'rilar, tovlamachilar, kontrabandachilar va shu kabilar edi. Agar ularni sudga beradigan bo'lishsa, ma'lum muddat tergov-surishtiruv ishlari olib borilishi, bunda guvohlar va dalil-isbotlar ko'rsatilishi talab qilinardi. Sudda davlat qoralovchisi va advokatning ishtirok etishi, sud qaroridan norozi bo'lib, appelyatsiyaga berish imkoniyati borligi, sud hukmida yumshatuvchi omillar inobatga olinib, engilroq jazoning qo'llanilish istiqbollari NKVD tergovchilariga xush kelmas edi. Ana shularni hisobga olib, ular «o'zlarini qiynab o'tirmay», qamoqqa olingan shaxslarni tezroq va uzoqroq muddatga

qamash uchun Uchlik sudlariga berishgan. Shunda ham ularning ishiga haqiqiy jinoyatchi (ugolovnik) bo'lganligi yozib qo'yilgan.

Surxondaryo okrugidan ayblov xulosalarini rasmiylashtirib Toshkentga, uchlikka taqdim qilgan NKVD xodimlaridan Pogodin, Sidorov, Nazin, Avanesov hamda Antonov (17-sonli o'zbek chegara komendaturasi)larni aytib o'tish joizdir.

Yalpi terrordan SSSRdagi ko'pgina mahalliy partiya arboblari o'z manfaatlarini yo'lida foydalanib olmoqchi bo'ldilar. Ular Markazga muntazam ravishda telegramma yo'llab, birinchi va ikkinchi kategoriyalar bo'yicha repressiya qilish uchun qo'shimcha limit olishga intilishgan. Shu yo'l bilan o'z dushmanlaridan qutulmoqchi bo'lishgan. Oqibatda juda ko'plab begunoh odamlar jabr ko'rgan. Jazoga tortilganlar orasida ziyolilar, xo'jalik xodimlari, texniklar, olimlarning nihoyatda ko'pligi mamlakatda xodimlarning o'tkir etishmovchiligiga sabab bo'ldi. SSSRda «kadrlar ochligi» yuzaga keldi. Ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi. Ommaviy terrorning davlat uchun halokatli bo'lishini yaxshi tushungan Stalin 1938-yilning 24-noyabrida N.Ejovni ishdan olib, o'rniga L.Beriyani qo'yishga majbur bo'ldi. Stalinning buyrug'i bilan «katta qirg'in» to'xtatildi. Uchlik sudlari bekor qilinib, ishlar jinoiy sudlarga oshiriladigan bo'ldi. Ishi sudda ko'rilmagan mahbuslar ozodlikka chiqarildi. E'tiborli tomoni, «katta qirg'in»da faollik ko'rsatgan NKVD tergovchilari va mahalliy partiya arboblari qamoqqa olinib, sudga berildi. Yejovning o'zi 1940-yilda xalq dushmani sifatida otib tashlandi. Bu yo'l bilan Stalin, birinchidan, o'zining siyosiy dushmanlaridan qutulgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, terror vaqtida xalqqa juda ko'p zulm qilgan partiya, davlat va NKVD xodimlarini jazolatib, o'z obro'yini yanada mustahkamlab oldi.

1937-1938 yillarda butun Ittifoq bo'yicha aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib, 1 344 923 kishi qatag'on qilindi. Ulardan 681 692 kishi otuvga hukm qilindi, 634 820 kishi MTL qamoqxonalariga, 18 208 kishi surgunga, 10 203 kishi boshqa jazolarga hukm qilindi.

1939-yil boshlariga kelib, lagerlar, koloniyalar va qamoqxonalarda 2 mln. mahbus bo'lib, shuning 1 mln. 317 mingtasi lagerlarda jazoni o'tayotgan edi. Umuman olganda, 1921-1953 yillarda SSSR miqyosida aksilinqilobiy va davlat uchun xavfli bo'lgan boshqa faoliyatlar bo'yicha 4 060 306 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan, shundan 799 455 kishi otib tashlangan edi[4; 62-63, 65].

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1937-1939 yillarda O'zbekistonda to'qib chiqarilgan soxta ayblovlar bo'yicha hammasi bo'lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6920 nafari otib tashlangan. 1937-1953 yillarda Ichki ishlar xalq komissarligi – NKVD tomonidan O'zbekistonda 100 mingdan ortiq kishi qamoqqa olinib, 13 ming nafari otib tashlandi. Qolganlari uzoq muddatli qamoq va surgunlarga hukm etilgan[5]. Afsuski, 2011-yilga qadar qatag'on qilingan 100 ming nafar yurtdoshlardan nari borsa 20 mingi nomma-nom aniqlandi, xolos[3;44].

Akademik A.N.Yakovlev bolshevizmning insoniyat oldidagi jinoyatlarini umumlashtirar ekan, «1917-yilgi davlat to'ntarishi va uning izidan boshlanib ketgan qizil terror uchun, mamlakatda boshlangan fuqarolar urushi va uning oqibatida o'ldirilgan, ochlik va kasallikdan halok bo'lgan hamda muhojirlikka ketgan 13 milliondan ortiqroq odam uchun, dehqonchilikning yo'q qilinishi, ibodatxonalar, masjidlar, cherkovlarning buzilishi va ruhoniylarning qirg'in qilinishi, mislsiz soxtalashtirishlar, yolg'on ayblovlar, suddan tashqarida qabul qilingan hukmlar uchun, sud va tergovsiz otib yuborishlar, ta'qib, qiynoqlar, konslagerlar, jumladan garovga olingan bolalar, tinch aholiga qarshi zaharlovchi gazlar qo'llagani uchun, leninchastalincha repressiyada 20 milliondan ko'p kishi halok bo'lgani uchun bolshevizm javobgarlikdan qutila olmaydi» deb yozgan edi[6;11-12].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sovet hokimiyati o'zining siyosiy tuzumini o'rnatish, mustahkamlash va saqlab qolish uchun hamma vositalardan foydalanganligi uning amalga oshirgan siyosatidan bilib olish mumkin. Mustabid

tuzumni o'rnatish uchun hamma vositalardan foydalanildi, ya'ni sovet mafkurasi, harbiy kuchlari, huquqiy – ma'muriy idoralari, iqtisodiy va madaniy boshqaruv kuchlarini ommaviy birlashtirgan holda safarbar etdi. Shuningdek, mustabid tuzum kuchlariga qarshi chiqadigan har qanday siyosiy

kuchlarni qilish uchun faol o'ch olish siyosatini qo'llab, millatni millatga qarshi qo'yish, uning boshqaruv tayanchi bo'lgan ziyoli qatlamlarni yo'q qilish, o'rta hatto oddiy tushunchaga ega bo'lgan zaif qatlamlarni ham yo'q qilishga dadil kirishdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Россия. XX век. Документы. ГУЛАГ (Главное управление лагерей) 1917-1960. Составители: А.И.Кокурин и В.Н.Петров. Научный редактор В.Н.Шостановский. – Москва: Материк. 2000. –С. 96-98.
2. Шамсуддинов Р. Катагон курбонлари (1937 йил 10 август – 5 ноябрь). Иккинчи китоб. –Тошкент: Шарк, 2007. –Б. 6, 243-259, 411-421.
3. Шамсуддинов Р. Ўзбекистонда совет бошқарув тизимидаги рахбар ходимларнинг катагон қилиниши ҳақида янги маълумотлар // «Ўзбекистонда совет давлатининг катагон сиёсати: келиб чиқиши сабаблари ва фожиали оқибатлари». Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2012. –Б. 44.
4. Земсков В. Сталин и народ. Почему не было восстания. Узлы Российской истории. – Москва: Алгоритм, 2014. –С. 62-63, 65.
5. «Ўзбекистон овози» газетаси, 1991 йил 15 сентябрь.
6. Яковлев А.Н. Большевизм — социальная болезнь XX века // В кн: Куртуа С., и др. Черная книга коммунизма. Преступления, террор, репрессии. –Москва: Три века истории. 2001. –С. 11-12.

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI TARIXIDAN LAVHALAR (TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETIGA ASOS SOLINGANLIGINING 70 YILLIGIGA)

Shomat Samatov,

Termiz davlat universiteti falsafa kafedrasi professori,

falsafa fanlari doktori

UDK: 396(575.1)

<https://orcid.org/0009-0008-0221-9398>

Annotatsiya: Maqola Termiz davlat universiteti tashkil topganining 70 yilligiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, xalq maorifi, o'rta ma'lumot, oliy ma'lumot, maxsus bilim, ilm va fan.

Аннотация: Статья посвящается 70-летию образования Термезского государственного университета

Ключевые слова: Образование, народное образование, среднее образование, высшее образование, специальное образование, наука и знания.

Abstract: The article is dedicated to the 70 th anniversary of the establishment of Termez. State University.

Key words: Education, public education, secondry education higher education, special knowledge, science and techndogy.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi 2024-2025-o'quv yili Surxon vohasi xalqi uchun alohida shukuhli. Sababi, insoniyatning bu qadimiy sivilizatsiyon zaminida ilk bor oliy o'quv yurtiga asos solinganiga 70 yil to'ldi.

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qadimgi davrdan boshlab to bugunga qadar insoniyat tomonidan yaratilgan sivilizatsiyaning birorta bosqichi yo'qki, unda qadim Surxon vohasining o'ziga xos o'rni bo'lmasa. Ayniqsa, qariyb uch ming yillik davlatchilik tariximizda buni yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, hozirgi davr O'zbekiston davlatining barpo etilishida Surxon vohasining o'rni beqiyos. Isbot. Ma'lumki, 1924-yili hozirgi Markaziy Osiyoda (u paytda O'rta Osiyo deb atalgan) Milliy hududiy chegaralanishi o'tkazilgan.

Shu asosda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O'z SSR) tashkil topgan.

Sobiq Ittifoq talabi va tartibiga muvofiq milliy respublika maqomini olish uchun 3 ta muhim shart bo'lishi kerak edi. **Birinchi shartga** binoan aholisi bir milliondan ortiq bo'lishi; **ikkinchi shartga** binoan aholining ellik foizi (50 %) dan ortig'ini tub aholi tashkil etishi; **uchinchi sartga** binoan albatta, birorta chet mamlakat bilan chegaradosh bo'lishi shart deb belgilangan edi.

Bordi-yu, ana shu uchta shartdan bittasi kam bo'lsa ittifoqdosh respublika maqomidan mahrum bo'lib, avtonom respublikaga tushirilishi belgilangan edi.

Demak, O'zbekistonning ittifoqdosh respublika maqomini olishida uning Surxondaryo viloyatining Afg'oniston bilan chegaradosh ekanligi tufaylidir.

Men, Samarqand davlat universiteti tarix fakultetini bitirishimda "Surxondaryo okrug qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish tarixi" mavzusida diplom ishi yozishim uchun ancha vaqt Moskvada xalq xo'jaligini rivojlantirish Markaziy Davlat arxivida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordim. Shu vaqtga qadar yaratilgan birorta ham ilmiy ishda qo'llanilmagan muhim, nodir hujjatga duch kelganman.

Ma'lumki, Tojikiston Respublikasi to 1929-yilga qadar avtonom respublika sifatida O'z SSR tarkibida bo'lgan. 1929-yili esa ittifoqdosh respublika sifatida tashkil topdi. Uning territoriyasining 95% tog'lik hudud bo'lib bor yo'g'i 5 % qishloq xo'jaligi uchun yaroqli, xolos. Ana shuni e'tiborga olib "katta xo'jayin"-ya'ni Markaziy hokimiyat (Moskva) 1930 yili "O'zbekiston SSR ning Surxondaryo okrugini Tojikiston SSR tarkibiga o'tkazish to'g'risida" deb

nomlangan maxsus qaror bilan Tashkiliy Komissiya tuzgan ekan. Komissiyaga olti oy ichida masalani mukammal o'rganib hisobot tayyorlash yuklatilgan. Shunga asosan Tashkiliy Komissiya 6 oy mobaynida masalani o'rganib obyektiv xulosa berganki, bordi-y Surxondaryo okrugi Tojikiston SSRga o'tkaziladigan bo'lsa u holda O'zbekiston ittifoqdosh respublika maqomidan mahrum bo'ladi. Shu tariqa yuqorida nomi zikr etilgan qaror bekor qilinib tashkiliy komissiya tarqatilgan.

Nainki o'zbek millati, qolaversa butun Markaziy Osiyo xalqlarining faxri hisoblanmish buyuk davlat, siyosat va jamoat arbobi Nuriddin Akramovich Muhiddinovning ta'kidlashicha, Er kurrasining odam yashaydigan quruqligining oltidan bir qismini tashkil etgan sobiq sho'rolar imperiyasi davrida, hali 1956-yildayoq Termiz "Janub darvozasi" degan maqomga sazovor bo'ldi.

Ammo sho'rolar hukmronligi davrida chekka o'lkalar madaniy rivojiga o'gay ko'z bilan qarab kelingan. Buni Surxon vohasi misolida ko'rsak bo'ladi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1954-yilgacha 20,1 ming kv. Km. hududga bor-yo'g'i bitta pedtexnikum bo'lgan, xolos. Umumiy majburiy ta'lim etti yillik. Xohlovchilar esa tuman markazida 8-sinfni yoki Termizda pedtexnikumda o'qishini davom ettirishi mumkin.

O'quvchilik davrimni juda yaxshi eslayman. Qishlog'imizga to 1953-1954 o'quv yiliga qadar oliy ma'lumotni, texnikum ma'lumotini qo'ying hatto 10-sinfni tugatganligi to'g'risidagi attestatga ega bo'lgan o'qituvchini ham ko'rganimiz yo'q. 1953-yildan boshlab o'qituvchilardan, hech bo'lmaganda, attestatga ega bo'lishlik talab qilina boshlandi.

Ungacha harfni taniydigan o'qishni, yozishni biladigan, frontda bo'lgan kimsalar har yili kanikul davrida turli joylarda 10-15 kunlik tashkil etilgan seminarlarga qatnashib kelish bilan ishlayverishgan.

Mana, sizga ta'limga munosabat! Surxondaryo viloyatida mehnati singan rahbarlardan biri, mustaqillik davrida

"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan Tursunxol Samiyeva doimo eslardilar: "1953-yil. U paytda men Termiz shahar ijroiya komitetining raisi (hozirgi hokimlik lavozimi-Sh.S.) vazifasida ishlardim. Obkomning plenumida respublikaning yetakchi rahbari va Moskvadan Markaz vakili qatnashadigan bo'ldi. To'g'risi taklif bildirishga jur'at etuvchilar bo'lmay qoldi. Shu payt Surxondaryo viloyat komsomoli yetakchisi Vladimir Nikolayevich Qodirov minbarga ko'tarildi. Otashin nutq sozladi.

U o'z nutqida "Qachon Surxondaryoda oliy o'quv yurti tashkil etiladi?," degan muammoni qo'ydi. Fikrini tasdig'i sifatida bayon etdiki, masalan, vodiya 3 ta viloyat (Farg'ona, Andijon, Namangan) mavjud. Territorial jihatdan uchalasi birlashib Surxondaryo viloyaticha territoriyaga ega emas. Ularda qancha oliy o'quv yurti bor. Nahotki birortasini Surxondaryoga ko'chirish mumkin bo'lmasa?

V.N.Qodirovning bu taklifi va tashabbusi yuqorida ma'qullandi",

Shu tariqa Surxondaryo viloyatida ilk bora oliy o'quv yurtiga 1954-yili asos solindi.

Sobiq Ittifoq Hukumatining 1953-yil 25 dekabrda № 16646-R farmoyishi va O'zbekiston Hukumatining 1954-yil 24 fevralda № 281 qaroriga asosan Marg'ilon o'qituvchilar instituti Surxondaryo viloyat ma'muriy markazi Termiz shahriga ko'chirildi. Termiz o'qituvchilar institutning ochilishi viloyat madaniy hayotida tarixiy voqea bo'ldi.

1956-57 o'quv yilidan boshlab o'qituvchilar instituti Termiz davlat pedagogika institutiga aylantirildi.

Ma'lumki, sobiq markazning mutlaqo o'ylanmasdan qilingan xatosi bilan 1960 yili Qashqadaryo viloyati tugatilib Surxondaryo viloyatiga qo'shildi. Garchand viloyat markazi Termiz shahri bo'lsa-da, Termiz davlat pedagogika instituti Qarshi davlat pedagogika institutiga qo'shildi.

1964-yili Qashqadaryo viloyati qayta tiklandi.

Surxondaryo viloyatida pedagog kadrlarga nisbatan ehtiyojning yuqori ekanligini

e'tiborga olib O'zbekiston Respublikasi hukumatining 1965-yil 24 apreldagi qaroriga binoan Termiz shahrida Termiz davlat pedagogika instituti qayta tiklandi.

Mustaqillik sharofati tufayli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 15 martdagi Farmoniga binoan Termiz davlat pedagogika instituti Termiz davlat universitetiga aylantirildi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, Termiz davlat universiteti yubiley sanasini nishonlashda ham qator chalkashliklarga yo'l qo'yib kelindi. Tarixni yaxshi bilmaslik, "tarixiy haqiqat" tamoyilini farqiga bormaslik, metodologik jihatdan tarixiylik va mantiqiylik dialektikasini bilmaslik oqibatida katta xatoliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, 1975-yili Termiz davlat pedagogika institutining 10 yilligini (ular 1965 yil sanasi bilan masalaga qarab) nishonlash uchun znachoklar chiqarishdilar.

Ikkinchi urinishlar 1956-yili o'qituvchilar institutining Termiz davlat pedagogika institutiga aylantirilganligini asos qilib, 1986 yili rus tilida "Termiz davlat pedagogika instituti 30 yilligiga bag'ishlanadi" degan kitobcha chiqarishdi.

Uchinchi urinishlar 1965-yil (qayta tiklanganligi) bilan bog'lab 2010-yili 45 yillik yubileyini o'tkazish ga urinishdilar.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi va bevosita nazorati ostida mamlakatimiz madaniy hayotida katta voqea bo'lgan 12 tomlik "O'zbek Milliy Ensiklopediyasi" da barcha sohada tarixiy haqiqat qoidasiga amal qilindi. Jumladan, "O'zME"ning 8-tom. 391-betida berilgan. "Termiz davlat universiteti" deb nomlangan maqolada (muallif kamina-y kamtarin professor Sh. Samatov) oxirgi nuqta qo'yildi va 1954-yil bilan belgilandi.

Unutmaslik kerakki, biz yashayotgan asr-keng ma'noda fan va texnika yuksalishi asri ekanligi bilan xarakterlanadi. Bundan keyingi insoniyatning tarixiy taqdiri fan va texnika yutuqlari va undan nechog'lik omilkorlik bilan foydalanishga bog'liq, xolos, Bu borada oliy o'quv yurtlarining roli beqiyosdir. Oliy o'quv yurti-xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli tarmoqlari uchun

malakali mutaxassislar, ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlab berishga yo'naltirilgan o'quv muassasasidir.

Termiz davlat universiteti to 2017-yilga qadar viloyatda ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlaydigan yagona oliy o'quv yurti bo'lgan. Keyingi 7 yilda Surxon vohasida oliy o'quv yurtlari soni 7 taga etdi. Ammo Surxon diyorining otaxon universiteti bo'lmish TerDU o'z nufuzini saqlab qolmoqda. Boshqa oliy o'quv yurtlarini ilmiy darajali yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlovchi asosiy manbadir.

TerDU bugungi kunda mamlakatimizning yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biriga aylandi. Hozir universitetda 14 ta fakultet, 45 ta kafedra faoliyat ko'rsatmoqda. Ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki, sirtqi ikkinchi oliy ta'lim shakllari; shuningdek, oliy ta'limdan keyingi bosqich-tayanch doktorantura, mustaqil tadqiqotchi hamda stajyor tadqiqotchilar ham mavjud.

Universitetda 26 000 nafardan ortiq talaba-yoshlar bakalavriatning 57 ta yo'nalishi hamda magistraturaning 29 ta mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olmoqdalar. Ularga 800 dan ortiqroq professor-o'qituvchilar saboq berishmoqda. Intellektual va ilmiy salohiyat o'sib bormoqda.

Universitetda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilardan 41 nafari fan doktori, professorlar, 213 nafari fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlardir.

Universitet olimlari ilm-u fanning turli yo'nalishlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borish bilan Vatan fani ravnaqiga o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqda.

Universitet Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Polsha, Ukraina, Avstriya, Belorussiya, Chexiya, Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa ko'plab mamlakatlar olimlari bilan ilmiy hamkorlik qiladi.

O'quv jarayonlariga keyingi ikki yilda 73 nafar xorijiy oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari jalb qilindi. TerDUning 112 nafar professor-o'qituvchilari xorijiy oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishdi.

Faxr bilan aytish mumkinki, olingan ishonchli ma'lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyo davlatlaridagi oliy o'quv yurtlari orasida TerDU eng shinam, eng zamonaviy binoga, oquv majmuasiga egadir!

O'ylaymizki, bu mubolag'a emas, balki ayni haqiqat!

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Dunyoning eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblanmish M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida juda ibratli bir an'ana bor. Bu an'anaga binoan kimda-kim ushbu dargohda 50 yil xizmat qilgan bo'lsa, ular uchun faxr-iftixorga to'la alohida imtiyoz va hurmat belgilangan.

Shu munosabat bilan TerDU da mehnat qilishayotgan kasbdoshlarim va jondan aziz talaba yoshlar, o'g'il-qizlarim, nevaralarimga qarata istagim bor.

Mening yoshim 83 da. Shundan 65 yili eng sevgan kasbim-pedagogik faoliyat bilan, jumladan 53 yili-ya'ni hayotimning eng gullagan yoshlik, jo'shqin yillari jonajon universitetim bilan bog'langan. Bu muqaddas dargohda fakultet dekani, partkom, 37 yil yetakchi kafedra mudiri, 42 yil Ilmiy Kengash a'zosi, barcha fakultet o'qituvchilari uchun metodologik seminar boshlig'i, jamoatchilik asosida bir qancha komissiyalar raisi, universitetda kirish imtihonlaridan tortib to bitirish davlat imtihonlarini o'tkazishgacha boshqarganman. Bir so'z bilan aytganda butun borlig'imni berganman. Jamoamning har bir yutug'i bilan quvonganman. Kichkina tashvishi bo'lsa unga befarq qaramaganman.

Keksa avlod nimalarga guvoh bo'lmadi?

Asosiy o'quv korpusimiz, kutubxonamiz, madaniyat saroyimiz hozirgi rektorat joylashgan bino edi. 1972-yili, hozir buzilib

ketilgan binoni olishlik jamoa uchun bayram bo'lgan. Sirtqi bo'lim talabalari o'zlari xom g'isht quyib o'zlariga auditoriya qurishgan edi. Biz potok leksiylarini ochiq havoda, daraxtlar soyasida (auditoriya yo'q) o'qiganmiz.

To 2017-yilga qadar majburiy mehnat iskanjasida bo'lganmiz. O'qituvchi va talaba erta bahordan ariq-zovur qazish, beton yotqizish, tozalash, ko'cha supurish, obodonlashtirish, aprel-may paxta yagonasi, yozda 2 oylik kanikulda qurilish otryadi, uzum terish, Bobotog'dan xashak o'rish, sentyabr, oktyabr, noyabr paxta yig'im-terimi, evaziga qishki kanikuldan mahrumlik, 3 smena o'qish va hokazo.

Rahbarlar: rektor, prorektorlar, dekanlar, kafedra mudirlari nomigagina mehnat ta'tili deb rasmiylashtirilgan bo'lsa-da, amalda foydalana olmagan. Imkon bo'lmagan.

Faqatgina 2017-yildan boshlab muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning sa'y-harakatlari tufayligina bu fojiali muammoga chek qo'yildi.

Yuqoridagi fikrlar bilan men maddohlik qilishni emas, balki, bir kekxa murabbiy sifatida davrni qadriga etishni-Yangilangan O'zbekistonni mazmun mohiyatini teran anglashni eslatmoqchiman, xolos. Bu yoshlar tarbiyasi uchun zarur deb o'ylayman.

Zero, buyuk faylasuf shoirimiz M.Shayxzoda aytganidek:

Shu aziz kunlarning tarzini angla!

Anglasang vijdonning qarzini angla!

Vijdonning qarzini anglasang, do'stim,-

Ertangi ayyomning arzinini angla!

**Bayraming muborak jonajon TerDU!
Sen Surxon vohasining faxri-iftixorisan!**

XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРИМИ ЯКУНИДА ЎЗБЕКИСТОНДА “ТИКЛАНИШ ДАВРИ” ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР

Якубов Ўткир Шерматович

Термиз давлат педагогика институтини доценти, география фанлари номзоди

utkir1969@list.ru

<https://orcid.org/0009-0006-9367-8516>

УДК:93/94:31/32

Резюме. Ушбу мақолада XX асрнинг биринчи яrimi якунида, “Тикланиш даври”да Ўзбекистонда иқтисодийдаги, ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар, жумладан, қишлоқ хўжалигининг тикланиши, шунингдек, урушнинг оқибатлари ҳақида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: “Тикланиш даври”, аскарлар, “власовчилар”, “дезиртир”, ногиронлар, очарчилик, эпидемиялар, “демографик портлаш”.

Резюме. В данной статье в конце первой половины 20 века, в «Период восстановления», рассматриваются изменения в экономике и общественной жизни Узбекистана, в том числе возрождение сельского хозяйства, а также последствия войны.

Ключевые слова: «Период восстановления», солдаты, «власовцы», «дезиртир», инвалиды, голод, эпидемии, «демографический взрыв».

Abstract. This article examines changes in the economy and social life of Uzbekistan, including the revival of agriculture, as well as the consequences of the war, at the end of the first half of the 20th century, during the "Recovery Period".

Key words: "Recovery Period", soldiers, "vlasovites", "deserter", invalids, famine, epidemics, "population explosion".

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Иккинчи Жаҳон урушидан кейинги тикланиш даврида республикада қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва айниқса пахта етиштиришда муҳим ўрин тутган Андижон, Наманган ва Фарғона областларида, шунингдек, Сурхондарё областида

Суғориладиган деҳқончиликни янада кенгайтириш ва кўпгина ер майдонларини очишга аҳамият қаратилган. Бу областларда 1939-йилдан бошлаб катта ишлар амалга оширилган. Бироқ, ҳарбий хизмат инсонлар ҳаётининг қутилмаган ўзгаришлар содир этиши мумкин бўлган муҳим жихатига айланди, аҳолининг кўплаб ёшларни ташкил қилган қатлами урушдан азият чеккан ва бу қатламдаги аҳоли рухий зўриққан ҳамда жисмоний мажруҳ одамларга айланган. Шу сабабли уларнинг фуқаролик ҳаётига қўшилишини кийинлаштирган. Бошқа мамлакатларда бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам давлат ва жамият томонидан ватанга қайтган аскарларни қўллаб-қувватлаш, уларга тиббий-психологик ёрдам кўрсатиш, иш билан таъминлаш, таълим олиш бўйича саъй-ҳаракатлар амалга оширилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Мақолани тайёрлашда омилларни таҳлил қилиш усули, (сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, демографик ва этник омиллар) тарихий тамойил, тарихий қиёслаш ва умумлаштириш каби методлардан фойдаланилди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Иккинчи жаҳон урушидан кейин жангчилар ва ярадорлар ватанга қайтиши Ўзбекистонда ва собиқ СССРнинг бошқа мамлакатларида кўплаб ижтимоий-сиёсий ўзгаришларга сабаб бўлган. Аскарларнинг яралари ва рухий жароҳатлари жисмоний терапия, реабилитация ва касбий тайёргарликни ўз ичига олган махсус реабилитация дастурларини талаб қилган. Ўзбекистонда

яраланган аскарлар ва уларнинг оила аъзоларига ёрдам кўрсатишда ҳукумат ташкилотлари ҳамкорликда иш олиб борган. Аскарларнинг қайтиши ва яраланган аскарларнинг жамиятга интеграциялашуви ижтимоий низолар ва муаммоларни ҳам келтириб чиқарган. Баъзи аскарлар ўзларининг уруш тажрибалари билан боғлиқ рухий соғлиқ муаммоларини бошдан кечирган ва бу оилалар, дўстлар ва жамоалар билан тушунмовчилик ва низоларнинг келиб чиқишига сабаб бўлган.

Қишлоқ аҳолисининг моддий фаровонлигини таъминлаш муаммоларини ҳал қилишда ўзбек қишлоғини ижтимоий ривожлантиришнинг чуқур зиддиятлари яққол намоён бўлади. Дехқонлар асосан нон билан тирикчилик қилишарди. Уларнинг уй-жойлари жуда ночор аҳволда эди. Аҳолининг асосий қисмини ташкил этувчи қишлоқ меҳнаткашлари барқарор ижтимоий таъминотда четда қолган эди[1]. 1950-йилларнинг иккинчи яримида рўй берган айрим ижобий силжишларга қарамасдан, аграр секторни ислоҳ қилиш сиёсатининг таъсири остида қишлоқ меҳнаткашларининг моддий аҳволини тадқиқ этаётган бутун даврда жиддийлигича қолаверди.

1945 йилдан 1960 йилгача бўлган даврда дунёнинг бошқа кўплаб минтақаларида бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам ўлим даражаси юқори бўлган. Бирок, бу даврда ўлим ҳақидаги аниқ маълумотлар чекланган ёки мавжуд бўлмаслиги мумкин. Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистон Совет Иттифоқининг бошқа республикалари сингари урушдан кейинги қайта қуриш, саноатлаштириш ва иқтисодий ривожланиш билан боғлиқ турли муаммоларга дуч келган. Бу омиллар мамлакатдаги ўлим даражасига ҳам таъсир қилиши табиий ҳол. Урушдан кейинги даврларда “Власовчилар” ва уруш вақтида “дезиртир” деб топилганлар Россия ҳудудидаги қамоқхоналарда ўта оғир шароитларда қамоқ муддатини ўтаган[2]. Уларнинг аксарияти “ўпка сили” касаллиги билан касалланиб, оламдан

ўтган. Бундай ҳол бу даврдаги ўлим кўрсаткичларининг юқори бўлишини таъминлаган.

Уруш тугаганидан кейин пайдо бўлган иқтисодий тикланиш зарурати уруш йилларида собиқ “Иттифок”нинг бошқа минтақаларидан эвакуация қилинган минглаб оилаларни ватанига қайтариш жуда катта демографик миграцияни ва ундаги “тебраниш”ни ҳосил қилган. Бу ҳолат, демография тадқиқотчилари кутганидек, аҳоли сонининг камайишига олиб келмади ва аксинча миграциядаги барқарорлашув, оилалардаги ижтимоий ўзгаришлар тикланиш ва тинчлик даврининг бошланганлиги болалар туғилиши даражасининг ошишига ёрдам берган.

Ўзбекистон, СССРнинг бошқа минтақалари сингари, вайрон бўлган инфратузилма ва саноатни тиклашга эътибор қарата бошлади. Бу иш ўринларининг кўпайиши, уй хўжаликлари даромадларининг кўпайиши ва яшаш шароитларининг яхшиланиши билан изоҳланади. Ўзбекистонда аҳоли 1940-йилда 6 300 000 киши[7] бўлганлигини эътиборга олганда 1945-йилда 5 197 000 кишини, 1950 йилда эса, 6 194 000[3] кишини ташкил қилган. Ўтган 10 йил давомида ҳам 1940 йилдаги кўрсаткич даражасига етмаган.

1950 йилларда Ўзбекистонда жамоалаштириш муайян қийинчиликлар билан кечди, бу қишлоқ хўжалигини умумжамоага бирлаштириш жараёнига тўсқинлик қилган. Шу сабабдан, 1950-йилларда Ўзбекистон қишлоқлари ҳаётига Совет Иттифоқи даврида олдинги ўн йилликларда бошланган жамоалаштириш жараёнлари таъсири давом этган[4]. Бу вақт Совет ҳокимиятининг колхоз ва совхозларни ташкил этиш бўйича астойдил ҳаракатлари билан ажралиб турган.

1945йилдан 1960 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда ўлим турли омиллар, жумладан касалликлар, ёмон яшаш шароитлари ва тиббий ёрдамдан фойдаланиш имконияти йўқлиги билан изоҳланади. Бу даврда сил, безгак,

дизентерия ва бошқалар каби юқумли касалликлар кенг тарқалган[5]. Самарали дори-дармонларнинг етишмаслиги ва тиббий ёрдамнинг етарли эмаслиги ушбу касалликлар сабабли ўлим кўрсаткичлари юқори бўлган.

Бу даврда таълим ҳамда кадрларни етиштириш тизимида ҳам катта ўзгаришлар рўй берган. Турли соҳалар мутахассисларини тайёрлаш учун янги таълим муассасалари очилиб, ихтисосликлар ўқув дастурлари ишлаб чиқилиб замонавий фан соҳалари бўйича машғулотлар олиб борилган, 1940 йилда техникум ва бошқа ўрта махсус таълим муассасаларида 25,1 минг киши ўқиган бўлса, 1950 йилга келиб 40,4 минг киши таълим олган[7]. Олий ўқув муассасаларида эса, 1940 йилда 19,1 минг киши таълим олган бўлса, 1950-йилда 42,2 минг киши таълим олган[7]. Аммо ўша давр талаби учун бу етарли бўлмаган, қишлоқ жойларда ҳали ҳам малакали кадрлар етишмаган[6]. Бу муаммони ҳал қилиш учун Ўзбекистон ва СССР ҳукуматлари томонидан қишлоқ хўжалиги учун мутахассисларни етиштириш бўйича махсус режалар, жумладан, таълим муассасалари, малака ошириш курслари ва бошқа тадбирлар амалга оширилган[6]. Шунга қарамай, бу муаммо долзарблигича қолган ва уни ҳал қилиш учун жиддий ҳаракатларни талаб қилган.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин Ўзбекистон ҳам бошқа давлатлар қатори урушдан катта зарар кўрган хўжалик ва хўжалик фаолиятини тиклай бошлади. Шу билан бирга, иккинчи жаҳон урушидан кейин Ўзбекистонда иқтисодий фаолиятнинг тикланиши бир қатор муҳим жиҳатларни ўз ичига олди:

Биринчидан, қишлоқ хўжалигини қайта тиклашда бу жиҳатлар намоён бўлади. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги маданияти собиқ “иттифок”нинг бошқа минтақаларига нисбатан ривожланган давлат бўлиб, урушдан кейин кўплаб қишлоқ хўжалиги ерлари ва инфратузилмалари вайрон бўлганлиги кузатилади, бу уруш даврида қишлоқ

хўжалигига нисбатан саноат ишлаб чиқаришини ривожлантириш зарурияти юқори бўлганлиги билан изоҳланади.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин СССРнинг бошқа мамлакатлари каби Ўзбекистонда ҳам аҳоли сони сезиларли даражада ўсган. Бу даврда мамлакат саноатни тиклаш ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш билан боғлиқ иқтисодий юксалишларни бошдан кечирган. СССРнинг бошқа минтақалардан Ўзбекистонга аҳолининг сезиларли даражада кўчиши ҳам аҳоли сонининг ўсишига хизмат қилган.

Урушдан кейин тикланиш ва яшаш шароитларининг яхшиланиши ЎзССРда туғилишнинг кўпайишига ёрдам берган. Уй-жой ва рўзғор эҳтиёжи учун зарур оилавий товарларига талаб ошган, бу эса ўз навбатида оилаларнинг кенгайишини ва болалар сонининг кўпайишини рағбатлантирган.

Колхоз ва совхозларнинг далаларини сув билан таъминлаш яхшиланган. 1951-1955-йилларга мўлжалланган бешинчи беш йиллик планда социалистик қишлоқ хўжалигини янада ривожлантириш, экинлар ҳосилини ошириш, ирригация-мелиорация ишларини янада кенгайтириш, суғориш системаларини яхшилаш кўзда тутилган[8].

Умуман олганда, Иккинчи жаҳон урушидан кейин Ўзбекистонда туғилишнинг ўсиши сезиларли бўлган ва умумий совет “демографик портлаш”ини акс эттирган. Туғилиш даражаси ошган бўлса-да, ўлим ва миграция табиий ўсишга таъсир кўрсатган, уруш оқибатлари ва тиббий ёрдамнинг етарли эмаслиги сабабли ўлим даражаси сезиларли даражада юқори бўлган. Бундан ташқари, ушбу даврда мамлакат ичида миграция, айниқса қишлоқ аҳолиси хизмат кўрсатиш соҳалари ривожланган, яшаш шароитлари анчагина яхшиланган шаҳарларга кўчиб ўтиши ҳоллари кўпайган ва бу демографик жараёнларда ўзгаришларни амалга оширган.

Иккинчи жаҳон урушидан сўнг Ўзбекистонда ҳам собиқ “Иттифок”нинг

бошқа республикаларидаги сингари ўлим сезиларли даражада ошганлиги кузатилади. Бунинг сабаблари саломатликни таъминловчи хизмат кўрсатиш тизими инфратузилмаси (аҳолини эмлаш, эпидемиологик назорат)нинг бузилиши, очарчилик ёки тўйиб овқат емаслик, эпидемиялар ва урушдан кейинги бошқа оқибатлари билан изоҳланади.

Урушдан кейин кўплаб Ўзбекистон фуқаролари иқтисодий тикланиш, иш топиш, турмушини яхшилаш каби турли сабабларга кўра, уйларини ташлаб кетишга мажбур бўлган. Чунки, одамлар давлат томонидан янги ишлаб чиқариш муносабатларининг ўрнатилиши, колхоз ва совхозлар ерларининг кенгайтирилиши натижасида урушгача ёки уруш давридаги анъанавий даромад манбаларидан айрилган.

1945 йилдан 1960 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон аҳолиси ҳам сезиларли ўзгаришларга учради. Ўша пайтда саноатлаштириш ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш билан боғлиқ аҳолининг фаол ривожланиши кузатилди. Асосланган манбаларга мувофиқ, 1945 йилда Ўзбекистон аҳолиси қарийб 5,2 миллион кишини ташкил этган, 1950 йилларда 6,2 миллион ва 1960 йилга келиб бу рақам тахминан 8,4 миллион кишига этган[3]. Аҳолининг ўсиши бир неча омиллар билан изоҳланади. Биринчидан, бу даврда Совет Иттифоқининг бошқа минтақаларидан одамларни жалб қилиш учун шароит яратган янги турар-жой бинолари ва ижтимоий инфратузилма фаол ривожлантирилган. Иккинчидан, саноатлаштириш ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш янги иш ўринлари ва

бандлик имкониятларини яратган, бу ҳам аҳолининг Ўзбекистонга кўчишига ёрдам берган. Шундай қилиб, 1945 йилдан 1960 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон аҳолиси сезиларли даражада ошган, бу даврдаги демографик ўсиш Ўзбекистондаги ижтимоий, иқтисодий омилар таъсиридаги миграция жараёнлари билан алоқадор эканлиги кузатилади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Урушдан кейинги даврда Совет ҳукумати қишлоқ хўжалигини саноатлаштириш ва коллективлаштириш бўйича кенг кўламли дастурларни амалга оширган, бу Ўзбекистондаги оилалар ва аҳоли даромадларига таъсир кўрсатган эди. Бундай ўзгаришлар оилаларининг ўртача даромадлари, уй-рўзгор буюмлари таъминоти ва коммунал хизматларнинг мавжудлиги ва тизимлашуви оилалар ҳаётида ижобий ўзгаришларни содир этган. Иккинчи жаҳон урушидан кейин Совет ҳукумати аҳолининг турмуш шароитини яхшилашга қаратилган турли ижтимоий дастурларни, жумладан, уй-жой, таълим ва соғломлаштиришни таъминлашга қаратилганлиги аҳоли турмуш даражасига ижобий таъсир кўрсатган.

Ҳар қалай янги тизимнинг жорий қилиниши, қишлоқ хўжалигининг ҳам ривожланиши учун янги туртки бўлган. Коллективлаштириш ер участкаларини колхоз ва совхозларга бирлаштиришга имкон берган, бу эса ерга ишлов берувчи техникаларнинг ортиши ҳисобига ердан янада самарали фойдаланиш ва ҳосилдорликни ошириш имкониятларини яратган. Бу даврда пахтачилик фаол ривожланган, дон, сабзавот ва мевалар етиштириш кўлами тизимли оширилган.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С.Н. 1946-1965-йилларда Ўзбекистон иқтисодиётида аграр соҳанинг ривожланиши. Тарих фан. докт. дисс. – Тошкент, 1995. – 265 б.
2. Земсков В. Н. Спецпоселенцы в СССР. 1930 – 1960 : Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. — М., 2005. – С. 34.
3. Ата-Мирзаев О.Б. Народанаселение Узбекистана: история и современность Ташкент: Ижтимоий фикр, 2009. С.-191.

4. Селунская В. М., Борьба КПСС за социалистические преобразования сельского хозяйства, М., 1961. С – 26.
5. Аксютин Ю.В. Хрущевская «оттепель» и общественные настроения в СССР в 1953-1964 гг. - М.: РОССПЭН, 2010. – С. 158.
6. Мацкевич В. В. Социалистическое переустройство сельского хозяйства, М., 1967. С. – 19.
7. Народное хозяйство СССР. Статистический сборник// Гос.Стат. Издательство Москва. 1956. С. 18. Қизил Ўзбекистон газетаси 1952 йил 25 ноябр.
8. Қизил Ўзбекистон газетаси 1952 йил 25 ноябр.

МИЛЛИЙ МАЪНАВИЯТ ТАРАҚҚИЁТИМИЗ ГАРОВИ

Худайбердиев Хурсанд Худайбердиевич,
 Термиз муҳандислик-технология институти
 Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедрасининг доценти,
 фалсафа фанлари номзоди
 UDK: 94(575.1).
<https://orcid.org/0009-0008-4368-39260>

Аннотация: Инсон, инсоният, жамият ҳаётида қадимдан муҳим ўрин эгаллаган ҳодисалардан бири-инсон маънавиятидир. Лекин кишилик тарихида маънавиятга эътибор ўзига хос тарзда содир бўлган. Маънавиятни эътироф этганлар ҳам, эътироф этмаганлар ҳам бор. Аслида эса инсон яхшилик ва ёмонлик, эзгулик ва ёвузлик, бунёдкорлик ва вайронкорликни, поклик ва нопокликни, руҳиятлиликни ва руҳиятсизликни қадимдан бир-биридан ажратиб тушунишга ҳаракат қилиб келган.

Калит сўзлар: “Маънавият”, “руҳоният”, диний бағрикенглик, миллий қадриятлар.

Аннотация: Духовность человека – одно из явлений, занимающее важное место в жизни человека, человечества и общества с древнейших времен. Но в истории личности внимание к духовности произошло уникальным образом. Есть те, кто исповедует духовность, и те, кто этого не делает. На самом деле человек с незапамятных времен пытался различать добро и зло, добро и зло, творчество и разрушение, чистоту и нечистоту, духовность и бездуховность.

Ключевые слова: «Духовность», «духовность», религиозная толерантность, национальные ценности.

Abstract: Human spirituality is one of the phenomena that has occupied an important place in the life of man, mankind and society since ancient times. But in the history of personality, attention to spirituality happened in a unique way. There are those who profess spirituality and those who do not. In fact, man has been trying to distinguish between good and evil, goodness and evil, creativity and destruction, purity and impurity, spirituality

and non-spirituality from time immemorial.

Key words: "Spirituality", "spirituality", religious tolerance, national values.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION).

“Маънавият” тушунчаси жуда кенг қамровли мазмунга эга. Чунки бу тушунча азал-азалдан ривожланиб келган. Бу атаманинг маъно-мазмунли собиқ иттифок даврида эътиборга олинмаган. Иттифокда нашр қилинган “Фалсафий энциклопедия” (5-жилдлик), “Фалсафий энциклопедик луғат”, “Фалсафий луғат” китобларида маънавият тушунчаси ўрин топмаган. “Тўғри “духовность” ибораси ишлатилган, аслида бу тушунча руҳ ёки руҳият маъносида қўлланилиб, диний адабиётларда ўз аксини топган. Бу ибора маънавият маъносини англатмаган. Аксинча, Таврот, Инжилда “...Худованда карим ернинг тупроғидан одам ясаб, унинг димоғига ҳаёт нафасини пуфлади. Шу йўсинда одам тирик жон бўлди”[1:3-4] дейилади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Маълумки, иудаийлик ва насронийлик (идуизм ва христианлик) анъаналарига кўра, “дух” ибораси икки маънода-руҳ ва нафас маъносида тушунилади ва иккаласи худога бориб тақалади.

Қуръони каримнинг “Ал-Исро” сураси 85-оятида бундай дейилади: (Эй-Мухаммад), сиздан руҳ-жон ҳақида сўрайдилар. Айтинг: “Рух ёлғиз Парвардигор биладиган ишлардандир”. Сизларга жуда оз илм берилгандир. (2:202) Яъни руҳнинг моҳияти илоҳий бўлгани учун уни ҳатто пайғамбар ҳам тушунмайди. Одам фарзандлари фақат руҳ

мавжудлигини, ва бу руҳни унга Оллоҳ ато этганини биладилар, холос. Айни пайтда, тор диний йўналишда мулоҳаза юритилганда, ислом, хусусан, тасаввуф атамалари орасида руҳоният тушунчаси юкоридаги, мазмунда қўлланилган. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” асарида шундай фикрлар мавжуд:

Чун риёзат рафъ этиб руҳоният,
Салб бўлғоч кимсадин нафсоният,
Қолмагай руҳониятдин ўзга ҳеч,
Сен тахаллуфдин бу маъни ичра кеч.[3:217]

Ҳазрати Навоий бу ўринда “руҳоният” тушунчасини инсонга хос асл фазилятларнинг намоён бўлиши ва у ҳайвонга яқинлаштирувчи нафсониятдан воз кечганида уни худо сари юксалтирувчи фаол имкониятлари воқе бўлган руҳ, инсоннинг ботиний олами мазмунида ишлатилганлар. Аён бўлмоқдаки, луғавий мазмунига кўра, “дух” ва “духовность” тушунчаларига “руҳ” ва “руҳоният” яқинроқдир.

Демак юртимизда, ислом оламида маънавий тушунчасининг шаклланиши ўзига хос омиллар таъсирида талқин этилган.

Маънавият инсонларнинг ўзаро муносабатлари уларнинг ҳаётий тажрибалари давомида шаклланган ва ривожланган кадриятлар тизимидир.

Инсон маънавиятни ўзини шахс сифатида англагандан бошлаб, умрининг охиригача шакллантиради ва йиллар давомида ривожлантириб боради. Инсоннинг ўз маънавиятини ривожлантиришга бўлган эҳтиёжи чексиздир. Маънавият инсоннинг бутун онгли фаолияти давомида шаклланади, ривожланади. Шу маънода маънавият инсоннинг онглилигини, қобилиятини ва интилишларини ҳам ўз ичига олади. Маънавият инсоннинг ботиний дунёсини, гавҳар тўла тубсиз денгизга қиёслаш мумкин. Маънавият инсоннинг руҳияти, ўз-ўзини англаши, дид-фаросати, адолатни разилликдан, яхшиликдан, ёмонликни, гўзалликни хунукликдан, оқилликни жоҳилликдан ажрата билиш қобилияти,

ақл заковати, уларнинг амалга ошириш йўлида онгли фаолият кўрсатиши ва интилишидан иборат. Маънавиятнинг моддий кучга айланиши ҳар бир инсоннинг хатти-ҳаракатларида, ўзлигини қайси даражада англашида, ўзининг оила ва жамиятдаги ўрнини тушунишида Ватан ва миллатга бўлган муносабатида намоён бўлади.

Миллий маънавият деганда муайян ижтимоий этник бирлик бўлмиш миллатнинг тарихан шаклланган ахлоқий, диний, илмий, бадий, фалсафий, мафкуравий қарашларининг яхлит бирлиги ва уларнинг ҳаётий фаолият давомида намоён бўлишига тушунилади.

Миллий маънавият миллий амалиётдаги ҳаётни англаш орқали ривожланади ҳамда миллий ўзликни англашга туртки бўлади. Миллий онг миллий ўзликни ва миллий манфаатни англашдан келиб чиқади. Миллий ўзликнинг муҳим таркибий қисмини эса миллий ахлоқ ташкил қилади. Шу боис, инсонийлик, аввало, ахлоқий мезонлардан келиб чиққан ҳолда баҳоланади.

Маълумки, миллат равнақида тарихан шаклланган миллий кадриятларнинг аҳамияти бекиёсдир. Хусусан, ўзбек миллий маънавиятининг ривожиди, заминимизда милоддан анча аввал шаклланган зардуштийликнинг ахлоқий негизини ташкил этган, эзгу фикр, эзгу сўз ва эзгу амалнинг бирлиги тамойили катта аҳамият касб этди. Бунинг натижасида, амалга оширилаётган ҳар бир ишга мана шу ахлоқий тамойил нуқтаи назаридан туриб баҳо бериш анъана тусига кириб қолди. Эзгу фикр, эзгу сўз ва эзгу амал миллий маънавиятимиз моҳиятини ташкил эта бошлади. Унинг пировард мақсади эса комил инсонни шакллантириш бўлди. Бу ғоя зардуштийликда ҳам, машҳур мутафаккир алломаларимиз-Абу Наср Форобий, Алишер Навоий, тасаввуф илми вакиллари - Ал-Ҳаким ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Нажмиддин Кубро, Абдуҳолик Гиждувоний, Али Рометаний, Баҳоуддин Нақшбанд, Хўжа Аҳрор ва бошқалар томонидан ҳам аниқ қилиб қўйилган, унга

эришиш йўллари кўрсатиб ўтилган эди.

Шуни мамнуният билан қайд этиш лозимки, тадқиқотчи Г.Худойбердиева таъкидлаганидек эзгу фазилат ва интилишлар халқимизнинг қон-қони ва суяк-суягига сингиб кетган. Унинг табиатига хос бўлган юксак маънавият неча асрларки бизни не-не бало-қазолардан, тўфон ва бўронлардан соғомон асраб келмоқда. Ҳар қандай босқин ва истилоларга қарамасдан, ҳар қандай оғир ва мураккаб шароитда ҳам ота-боболаримиз ўзлигини йўқотмасдан, маънавий ҳаёт мезонлари, одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилиб, комиллик сари интилиб яшагани бугун ҳам барчамизга ибрат бўлиб, куч-қувват бағишлаб келмоқда.[4:107]

Маълумки, ҳар қайси халқ ёки миллатнинг тафаккур, турмуш тарзи, маънавий қарашлари ўз-ўзидан, бўш жойда шаклланиб қолмайди. Уларнинг вужудга келиши ва ривожланишида аниқ тарихий, табиий ва ижтимоий омиллар асос бўлишини ҳаммамиз яхши биламиз.

Масалан, Шарқ оламида, жумладан, ўзимизнинг Ўрта Осиё шароитида жамоа бўлиб яшаш туйғуси ғоят муҳим аҳамият касб этади ва одамларни бир-бирига яқинлаштиришга, бир-бирини қўллаб-қувватлаб ҳаёт кечиришга замин туғдиради. Шу маънода, халқимизнинг турмуш ва тафаккур тарзига назар ташлайдиган бўлсак, бошқаларга ҳеч ўхшамайдиган, минг йиллар давомида шаклланган, нафақат ўзаро муомала, балки ҳаётимизнинг узвий бир қисми сифатида намоён бўладиган бир қатор ўзига хос хусусиятларни кўрамиз.

Мисол учун, тилимиздаги меҳр-оқибат, меҳр-муҳаббат, меҳр-шафқат, қадр-қиммат деган, бир-бирини чуқур маъно-мазмун билан бойитадиган ва тўлдирадиган ибораларни олайлик. Қанчалик ғалати туюлмасин, бу ибораларни бошқа тилларга айнан таржима қилишнинг ўзи мушкул бир муаммо.

Шуни айтиш лозимки, бу тушунчалар кимдир шунчаки ўйлаб топган ширин калом, қулоққа хуш ёқадиган сўзлар эмас.

Бундай тушунчалар асрлар мобайнида эл-юртимизнинг дунёқараши, маънавий ҳаётининг негизи сифатида вужудга келган, онг-у шууримиздан чуқур жой олган буюк қадриятларнинг амалий ифодасидир.

Масалан, эзгу одатимизга айланиб кетган меҳр-оқибат тушунчасини оладиган бўлсак, унинг жуда теран тарихий, миллий, диний илдизлари борлигини кўриш мумкин. Бу аввало инсоннинг инсон билан, қўшнининг қўшни билан, қариндошнинг қариндош, оиланинг оила билан, энг муҳими, шахснинг жамият билан уйғун бўлиб яшашини, етим-есир, бева-бечора ва ногиронларга, мусофирларга саховат кўрсатиш, сидкидилдан, беғараз ёрдам беришни англатади ва бундай хусусият халқимизнинг маънавий оламига сингиб кетганини ҳеч ким инкор эта олмайди.

Марказий Осиё халқи қадим-қадимдан азалдан водийларда, катта сув манбалари-дарё ва анҳорлар бўйларида яшаб келади. Атрофи чўл ва саҳролар билан ўралган, табиати, иқлими ғоят мураккаб бўлган минтақа шароитининг ўзи ана шу элат ва миллатларнинг минг йиллар давомида бир-бирига мослашиб, яқин елкадош бўлиб, бир-бирининг оғирини енгил қилиб яшашини тақозо этиб келади.

Минтақамизда яшаб ўтган улуғ алломалар, мутафаккир зотларнинг қолдирган бебаҳо меросида ҳам бундай турмуш тарзи ўзининг ёрқин ифодасини топган. Буюк аждодларимиз Алишер Навоий, Рудакий, Абай, Махтумқули, Тўқтағул каби зотлар ва бошқалар ҳам ўз ижоди билан нафақат икки дарё оралиғидаги халқларни, балки бутун башарият фарзандларини доимо меҳр-оқибатли, дўст-биродар бўлиб яшашга даъват этган.

Шарқнинг ўзига хос хусусияти жамоавийликка асосланган бўлса, Ғарб оламида одамларнинг ҳаёт тарзида жамоавийликдан кўра индивидуализм, шахсий манфаат тамойиллари устунлик қилиб келган. Бу жараён уларнинг ҳар бирида ҳозирги вақтда ҳам давом этмоқда. Лекин Ғарбда шундай кучлар пайдо бўлдики шарқ халқларининг қадимги

маънавиятига қарши чиқмоқдалар. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов бу ҳақда шундай деган эди: "...дунёдаги зўравон ва тажовузкор кучлар қайси бир халқ ёки мамлакатни ўзига тобе қилиб, бўйсундирмоқчи, унинг бойликларини эгалламоқчи бўлса, авваламбор, уни қуролсизлантиришга, яъни энг буюк бойлиги бўлмиш миллий кадриятлари, тарихи ва маънавиятидан жудо қилишга уринади" [5:11].

Айни пайтда И.А.Каримов қайд қиладилар: "Бинобарин, маънавиятга қарши қаратилган ҳар қандай таҳдид ўз-ўзидан мамлакат хавфсизлигини, унинг миллий манфаатларини, соғлом авлод келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарлардан бирига айланиши ва охи-роқибатда жамиятни инқирозга олиб келиши мумкин"[6:12]. Шу кеча кундузда бундай ҳолат Ироқ, Сурия, Ливан ва бошқа жойларда содир бўлмоқда.

Халқларнинг азалий фазилатларига, миллий кадриятларига қарши тажовузларнинг олдини олиш ҳозирги вақтда бутун пешқадам кучларнинг муҳим вазифаси бўлиб қолди. "Маънавий таҳдид деганда, аввало тили, дини, эътиқодидан қатъи назар, ҳар қайси одамнинг том маънодаги эркин инсон бўлиб яшашига қарши қаратилган, унинг айнан рухий дунёсини издан чиқариш мақсадини кўзда тутадиган мафкуравий, ғоявий ва информацион хуружларни назарда тутиш лозим, деб ўйлайман"[5:13-14].

Маълумки маънавиятга қарши қаратилган хуружлар, аввало, миллатимизни миллат қиладиган, асрлар, минг йиллар давомида аждождлардан авлодларга ўтиб келаётган ўзига хос ва ўзига мос хусусиятларга, миллий ғурур, миллий ифтихор туйғусига, бизни доимий равишда тадрижий таракқиётга чорлайдиган, шу йўлдаги барча асорат ва иллатлардан халос бўлиб, озод ва фаровон ҳаёт барпо этишдек эзгу мақсадларимизга катта зарба берадиган мудҳиш хавф-хатарни билдиради. Мамлакатимизда яшайдиган ҳар бир соғлом инсон уни англаб олиши мақсадга мувофиқдир.

Чунки ҳар бир ота-она, устоз-мураббийлар бу масалада хушёрликни йўқотмаслиги, ёшлар тарбиясига асло бепарво бўлмасликлари лозим. И.А.Каримов айтганларидек: "... шу юртда яшаётган ҳар қайси инсон ўзлигини англаши, қадимий тарихимиз ва бой маънавиятимиз, улуғ аждождларимизнинг меросини чуқурроқ ўзлаштириш, бугунги тез ўзгараётган ҳаёт воқелигига онгли қараб, мустақил фикрлаши ва диёримиздаги барча ўзгаришларга дахлдорлик туйғуси билан яшаши зарур"[5:17], деб айтган эди.

И.А.Каримов республикаимизнинг биринчи раҳбари бўлган кундан то умрларининг охиригача маънавият масалаларига жуда катта эътибор бердилар. Биринчи Президентимиз: "...маънавият-инсонни рухан покланиш, қалбан улғайишга чорлайдиган, одамнинг ички дунёси, иродасини бақувват, иймон-эътиқодини бутун қиладиган, виждонини уйғотадиган бекиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир"[5:19] деган эдилар.

Маънавият масаласи жамият ҳаётидаги ғоявий, мафкуравий, маърифий, маданий, диний ва ахлоқий қарашларни ўзида тўла мужассам этади.

Маънавиятнинг негизи ва маъно-мазмунини биринчи навбатда инсоннинг рухий покланиши ва қалбан улғайиши ташкил қиладди. Юртимизда дунёда ҳалол ва пок яшашни ўзи учун ҳаётий эътиқод, олий мақсад қилган одамлар кўпчиликни ташкил қиладди. Юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев 2017 йил Андижон вилоятида республика прокуратура, суд ходимлари, имом-хатиблар олдида чиқиш қилганларида бу масалага жуда катта эътибор қаратдилар.

Маънавият масаласи ижтимоий таракқиёт масаласи билан ҳам узвий боғлиқдир. Турли даврда, турли ўтмиш арбоблари жамият таракқиётида хал қилувчи куч нима деган саволга жавоб ахтарганлар. Жумладан, Платон жамият таракқиётининг асосини ижтимоий адолат, Г.В.Ф.Гегель мутлақ заковат, К.Маркс моддий ишлаб чиқариш, З.Фрейд ҳаёт

инстинкти, Штейнтал миллий рух, Ш.Монтаскье эса жуғрофий мухит ташкил қилади деб тушунганлар. Шунини алоҳида қайд қилиш зарурки, санаб ўтилган омиллар у ёки бу даражада ижтимоий тараққиётга ўз таъсирини ўтказди. Бу мутафаккирлар юқорида қайд қилинган омилларни бошқаларга нисбатан чуқурроқ таҳлил қилган-у лекин, шу омилни ўта мутлақлаштирган эдилар. Юқоридаги ҳолатда иккинчи камчилик шундаки улар маълум омилларнинг ролини фақат умумлаштириб таҳлил қилган эдилар. Ваҳоланки, маълум бир даврда ҳал қилувчи роль ўйнаган омил бошқа шароитда ижтимоий тараққиётга зиғирчалик ҳам таъсир қилмаслиги мумкин. И.А.Каримов иқтисодиёт ва маънавият ўртасидаги муносабатни содда қилиб шундай тушунтиради: “Агар иқтисодий ўсиш, тараққиёт-жамиятимизнинг танаси бўлса, маънавият, маърифат ва сиёсий онг етуклиги унинг руҳи, ақли ва жонидир”. “Маънавият инсоннинг, халқнинг, жамиятнинг, давлатнинг куч-қудратидир”. Шу тариқа у маънавият жамиятни ривожлантирувчи кучли омил эканлигини асослаб беради.

И.А.Каримов маънавиятнинг кенг тушунча эканлигини куйидагича таърифлайди: “Ер, оила, ота-она, болалар, қариндош-уруғлар, кўни-кўшнилари, халқ, виждон, мустақил давлатимизга садоқат, инсонларга ҳурмат, ишонч, хотира, эркинлик-маънавиятнинг ана шундай маъноси кенг”. “Маънавият ўз халқининг тарихини, унинг маданияти ва вазифаларини чуқур билиш ва тушуниб етишга суянгандагина қудратли кучга айланади”[6:71].

Маълумки киши халқини фақат ахлоқ эмас, урф-одатлар, расм-русумлар, анъаналар каби ҳодисалар ҳам бошқаради. Улар эса ахлоқ таркибига кирмайдилар ёки фақат қисман кирадилар. Бу ҳодисалар ахлоқ таркибига кирмаса ҳам, маънавият таркибида сезиларли ўрин тутди. Урф-одат, расм-русум, анъана ва маросимларнинг маънавият билан ўзаро таъсири шундаки, оқилонга, жамиятнинг

тараққиёт даражасига мос келадиган анъана ва маросимлар миллий маънавиятнинг бойитишга, ривожлантиришга кўмаклашади. Масалан, илм-фанга, ҳунар ўрганишга интилиш, катталарга ҳурмат сингари кўплаб анъаналар миллий маънавият ривожига хизмат қилади. Айни пайтда, ортиқча исрофгарчиликлар, дабдаба билан ўтказиладиган маросимлар миллат маънавиятига путур етказиш билан бирга иқтисодга ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Эътиқод маънавиятнинг устунларидан биридир. Эътиқодсиз маънавият юксакликка кўтарила олмайди. Уни юксакликка қатъий ишонч, мустаҳкам эътиқодгина элтиши мумкин.

Ишонч ва эътиқоднинг узвийлиги, уларнинг халқ ҳаётидаги ўрни тўғрисида Биринчи Президентимиз шундай деган эди: “Халқнинг шуурида ҳамиша, ҳар қандай шароитда ҳам буюк орзулар, эзгу ниятлар келажакка, ёруғ кунларга ишонч яшаб келади. Ана шу ишонч бўлмаса, мазлум халқларнинг озодлик ва мустақиллик сари интилиши ва охир-оқибатда юксак тараққиётга эришиши мутлақо имконсиз бўларди.

Бизнинг эзгу интилишларимиз замирида ҳам ана шундай буюк ишонч бор. Аниқ мақсад йўлидаги бунёдкорлик ишларимиз амалий натижалар бера бошлаган, кўзлаган режаларимиз босқичма-босқич рўёбга чиқиб, дунё ҳамжамиятидан ўзимизга муносиб ўрин эгаллаб бораётган бугунги кунда халқимиз, миллатимиз қалбидаги ана шу ишонч ва эътиқод янада мустаҳкамланмоқда”[7:30-31].

Ҳар бир халқ маънавияти, хусусан миллий маънавиятимиз ҳам бошқа халқлар маънавиятидан озикланиб, уларга озик бериб туради. Маънавият шундай қимматбаҳо нарсаси, у бизнинг қадимий ва навқирон халқимиз қалбида бутун инсониятнинг улкан оиласида ўз мустақиллигини тушуниб етиш ва озодликни севиш туйғуси билан биргаликда етилган.

Маънавиятда миллий ва умуминсоний жиҳатлар ўзаро уйғун тарзда мавжуддир.

Жумладан, ахлоқ, санъат, дин сингари ижтимоий ходисаларда ҳам миллий, ҳам умуминсоний жихатлар мавжуд бўлиб, уларнинг мутаносиблиги маънавиятдаги миллийлик ва умуминсонийлик мутаносиблигини белгилайди.

Ўзбеклар ахлоқидаги орийат, диёнат, катталарга хурмат, меҳмондўстлик, меҳнатсеварлик каби сифатлар, ўзбеклар руҳиятидаги самимийлик, инсоф, бағрикенглик, шарм-хаёлилик жихатлари, уларнинг ўзбек миллий адабиёти ва санъатида акс этиши биргаликда қўшилиб ўзбек маънавиятининг ўзига хос хусусиятларини шакллантиради.

Халқимиз мустақилликка эришгач, миллий маънавиятимизнинг янада ривожлантириш ўта долзарб вазифага айланди, чунки миллий мустақилликнинг мустаҳкамлиги миллий ўзликни англаш, яъни миллий маънавият билан чамбарчас боғлиқ. Ўзлигини англамаган инсон бошқа инсонга, миллат бошқа миллатга муте бўлиб яшашга маҳкум бўлади.

Миллий ғоя, миллий мафкуранинг асл мақсади халқимизнинг миллий маънавиятини оширишга, мустақиллигимиз қадриятларини тўлароқ англашга, уни авайлаб асрашга ҳамда турмушимизнинг янада фаровонлаштиришга, ҳаётимизнинг энг олий қадрияти бўлмиш инсонни улуғлашга, камол топтиришга қаратилган. Шу

маънода, бизнинг миллий маънавиятимиз умуминсоний қадриятларни ўзида мужассам этади. Эрк, озодлик, адолат, тенглик, инсонпарварлик, меҳнатсеварлик, дўстлик, халоллик, меҳр-оқибат, поклик, эзгулик, ватанпарварлик, ахил қўшничилик, диний бағрикенглик каби халқимизга хос фазилатлар умуминсоний қадриятларга ҳамоҳанг бўлса ҳам, аммо, уларнинг барчаси фақат муайян миллий шаклда намоён бўлади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Миллий маънавиятимиз халқимизни буюк мақсадлар йўлида жипслаштиришга йўналтирилган бўлиб, қуйидаги умумбашарий маънавий қадриятларга асосланади:

- қонун устуворлиги;
- инсон ҳақ-ҳуқуқлари ва хурфидрилиқни эътироф этиш;
- турли миллат вакилларига хурмат ва улар билан баҳамжихат яшаш;
- диний бағрикенглик;
- дунёвий билимларга интилиш, маърифатпарварлик;
- ўзга халқларнинг илғор тажрибалари ва маданиятини ўрганиш ва миллий муҳитга мослаштириш.

Миллий маънавиятимиз ривожининг бош омили барча даврларда таълим ва тарбия тизими ташкил этган, миллий маърифат бўлган ва ҳозир ҳам шундай бўлиб қолади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Инжил. – Стокгольм, 1992.
2. Қуръони карим.-Т.: “Чўлпон”, 1992.
3. Алишер Навоий, Лисон ут-тайр. XI-жилд, -Т.: 1966.
4. Худайбердиева Г. Миллийлик: кўринишлари, муаммо ва ечимлари.-Термиз: “Сурхон-нашр”, 2019.
5. Каримов И. Юсак маънавият-енгилмас куч.-Т.: “Маънавият”, 2008.
6. Каримов И. “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли”.-Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
7. Каримов И. Миллий истиқлол мафкураси-Халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.-Т.: “Ўзбекистон”, 2000.
8. Худайбердиев Х.Х. Ўзбек миллий мафкурасининг тараққиёт босқичлари (маънавий-мафкуравий таҳлил) Термиз: “Сурхон нашри” 2023.
9. Худайбердиев Х.Х. Маънавият, ахлоқий қадрият ва ислом Термиз: “Сурхон нашри” 2023.

MUSICAL HERITAGE OF UZBEK PEOPLE

Karimova Naila Minnigayanovna,

associate professor of the Music Education Department,

Termez State University, Termez, Uzbekistan.

<https://orcid.org/0009-0006-0659-8877>

Karimova Kamilla Vyacheslavovna,

Teacher of the Music Education Department,

Termez State University, Termez, Uzbekistan.

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Статья посвящена актуальным вопросам истории становления и развития музыкальной культуры и исполнительского искусства. Великие востоковеды Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сино, Мухаммад аль-Хорезми, Ахмад аль-Фергани, Мирзо Улугбек, Алишер Навои, другие наши предки предоставили ценную информацию об исполнительском искусстве, науке и истории музыки, стилях исполнения, правилах искусства и их образовательном значении.

Abstract: The article is devoted to topical issues in the history of the formation and development of musical culture and performing arts. The great orientalists Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Khorezmi, Ahmad al-Fergani, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoi, and our other ancestors provided valuable information about the performing arts, science and history of music, performance styles, rules of art and their educational significance.

Annotatsiya: Mazkur maqola musiqa madaniyati va ijro san'atining shakllanishi va rivojlanishi tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Buyuk sharqshunos olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ajdodlarimiz sahna san'ati, musiqa ilmi va tarixi, ijro uslublari, san'at qoidalari va ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar berganlar.

Ключевые слова: античное наследие, археологические памятники, письменные источники, музыкальная культура,

музыкальное наследие.

Key words: ancient heritage, archaeological monuments, written sources, musical culture, musical heritage.

Kalit so'zlar: qadimiy meros, arxeologik yodgorliklar, yozma manbalar, musiqa madaniyati, musiqa merosi.

Introduction. Monuments of material culture (rock paintings, monumental sculpture, figurines, etc.), as well as sources that have come down to us (2nd millennium BC) testify to the ancient origins of the musical heritage of the Uzbek people. On monuments of fine art related to the culture of the Kushan period, one can see images of musicians. One of them is shown on the frieze with a stringed harp-like instrument in his hands, another with a wind instrument similar to a flute, and a third with a double-sided oblong drum. From this, one can conclude that the Kushans and Sogdians knew the main types of instruments and used them both solo and in an ensemble.

In the 9th-12th centuries (the «Renaissane»), Samarkand, Bukhara, Merv, Urgench and other cities became leading scientific and cultural centers. Local traditions were revived in all areas of science, literature and art, and a huge number of scientific treatises were created. The best examples of musical art received general coverage in treatises on music by Central Asian encyclopedic scholars (Farabi, Ibn Sina, Khorezmi, Jami, etc.). In the future, the musical culture of the Uzbek people developed, preserving its originality.

Main part. The relevance of this work is devoted to the study of monuments of material culture and written sources that have

come down to us testifying to the ancient origins of the musical heritage of the Uzbek people.

The peoples of Central Asia living in the center of civilization have made an invaluable contribution to the treasury of world science and culture. Evidence of this can be ancient written sources related to the history of the musical art of the peoples of Central Asia, as well as archaeological monuments that prove the presence of a high culture of these peoples. But during the Arab conquest (VII-IX centuries), written sources concerning music along with other cultural monuments were burned and lost. It is as a result of this that only written monuments related to the history of the culture of the peoples of Central Asia of the late millennium have reached us.

Beginning in the IX century, Arab scholars have been intensively mastering the ancient heritage. They became acquainted with the teachings of Pythagoras, translated the works of Aristotle, Plato, Proclus, Ptolemy, Aristides and others. The names of the philosophers of the Middle East who paid great attention to the study of the problems of musical theory are widely known - al-Kindi (800-879), al-Farabi (Avennasar, 870-950), considered the «second teacher» (after Aristotle), ibn Sina (Avicenna, 980-1037), Safi ad-Din (1230-1294) and others. The works of al-Kindi, al-Farabi, ibn Sina, al-Khwarizmi and many famous scientists for many centuries served as the main source in commenting on the theory of music of the peoples of the East and substantiated the essence of musical works created in later times. The theme and content of works concerning music theory written from the time of al-Farabi to the 15th century were very close to each other on many issues.

The scale and significance of his musical-theoretical heritage distinguish al-Farabi from other Arab-Muslim scholars of his time. Farabi was truly a man of world renown, he brought together and synthesized in his work the most valuable achievements of Arab, Persian, Greek, Indian and his own, Turkic culture. E.E. Bertels wrote about the thinker: "Al-Farabi is the author of the greatest creations. Al-Farabi's legacy is boundless and

diverse. He wrote a huge number of works on music theory. He was widely known as a composer, and is the creator of a new musical instrument." Al-Farabi is an excellent musician and music theorist. He knew how to use all the musical instruments of his time. His works dedicated to music are "Kitabul-musikiy al-kabir" (The Great Book of Music), "Kilamu fil-musikiy" (The Book of Music Methods) and others. One of the followers of al-Farabi was Abu Ali ibn Sina. Abu Ali ibn Sina was born near Bukhara in the village of Afshona (980-1037). He was a great philosopher, naturalist, famous physician and at the same time an excellent theorist of music. Ibn Sina's books «Kitabush-shifo» («Book of Healing»), «Donishnoma» («Book of Knowledge»), «Risalatun fi-ilmil musiqiy» («Work on the Science of Music») and parts of other books devoted to the theory of music have great significance in the history of science and culture of music in the world. Abu Ali ibn Sina did not limit himself to creating special works on music, but even included large works devoted to the theory of music in books on medicine. This was not an accidental phenomenon.

Abu Ali ibn Sina in his immortal works on medicine highly valued the power of the sensual influence of music and its role in the treatment of various mental illnesses.

Thus, in the book of Ibn Sina «Konunu fit-tibb» in several places he recommended musical works as a «healing program» for mental illnesses and allocated a separate chapter commenting on the theory of music. Part of the encyclopedia of Abu Abdullah Muhammad ibn Yusuf al-Kotib Khorezmi «Mafatikhul-ulum» («The Key of Sciences»), which came out of Central Asia in the history of musical culture of the 9th-10th centuries, dedicated to the theory of music is also of considerable importance. The works of al-Khwarizmi are considered one of the important sources illuminating the history of science and culture of the peoples of Central Asia. The works of Al-Kindi, al-Farabi, Ibn Sina, al-Khwarizmi and many famous scientists for many centuries served as the main source in commenting on the theory of

music of the peoples of the East and substantiated the essence of musical works created in later times.

«Ibn Sina, together with Al-Farabi, laid the foundation for the science of musical instruments, which was further developed in Europe at a much later time. Al-Farabi's books on music theory were the most complete and well-known in the East and served as a source for the works of subsequent scholars of musicology.

«The Great Book of Music» is a unique source in its significance for the era of the Arab-Muslim «Renaissance». Even in its scale (about two thousand pages), the «Book» surpasses many works on music written before and after it.

The treatise «The Great Book of Music» was the result of titanic labor and talent, the fruit of the thinker's entire life. This encyclopedic and synthetic work covers the problems of the theory of knowledge, logic and aesthetics, poetry and pedagogy, acoustics and instrumentalistics, physics and mathematics; consistently and systematically covers issues of the theory and practice of musical art. It absorbed all the valuable things that were created by the geniuses of the past.

The content of this treatise, firstly, showed that in the medieval Islamic culture a musical theory arose that reflected a specific level of development of musical culture and its specificity. Secondly, it demonstrated that here in a systematized form a theory of the sound of musical instruments common in the Arab-Muslim East in that historical period appeared. The doctrine of musical harmony developed here is of great value.

In the aesthetic concept of Al-Farabi, harmony is not only a criterion for the existence of the universe. It is the basis of poetry and music. Harmony for him is the basis of musical art. Al-Farabi's concept of music and musical harmony reflects the connection between music and the universe.

The term «music» is defined by the thinker as a melody. Characterizing musical art as a melody, the thinker gives the following definition: «musical art is what deals with melodies (songs) and what makes them

harmoniously composed, thanks to which they become more perfect and more pleasant». «Most importantly, the perfection of music depends on the professional», Al-Farabi believes. A person who deals with music must be, first of all, a theorist. Based on this, Al-Farabi considers the theoretical and practical foundations of musical art in unity.

The greatest historians of culture and science noted the greatness and uniqueness of Farabi's figure. Astronomy, logic, theory of music and mathematics, sociology and ethics, medicine and psychology, philosophy and law - this is the list of his interests. Apparently, Farabi left his hometown in his youth and visited almost all the cities associated with Islam and the Arab Caliphate, Bukhara, Merv, Alexandria, Cairo, Damascus, Baghdad. He spent many years of his life in Baghdad, which was the political and cultural center of the Arab Caliphate. Here he thoroughly expanded his knowledge, studying the works of the figures of «Bayt al-Hikma», translating Greek authors, coming into contact with prominent scientists and after a certain time taking the leading place among them due to his moral height and power of thought. It was here that he was awarded the title of «Muallim Assan» - Second Teacher. The title of «second» implied the presence of «first», which was Aristotle. And indeed, they have much in common: the breadth and versatility of scientific interests, the desire to philosophically understand being and the place of man in it, proximity to the «generally accepted opinion», to the practical.

In the question of the perception of musical sounds, Al-Farabi, in contrast to the Pythagorean school, which did not recognize the authority of hearing in the field of sounds and took only calculations and measurements as the starting point of reasoning, believes that only hearing has a decisive significance in the matter of determining sounds, joining in this matter the harmonic school of Aristoxenus. It is especially noteworthy that Al-Farabi methodologically correctly solves a number of issues related to the mathematization of natural science. Using the example of music theory, he demonstrates the

fruitfulness of the application of mathematical methods in the study of objective laws of nature and art. He completely lacks the numerical mysticism inherent in the musical teaching of the Pythagoreans. With all due respect to the legacy of the ancient Greeks, Al-Farabi does not bow before authorities, to new achievements of natural science. An example is Al-Farabi's criticism of the theory of music and the cosmology of the Pythagoreans. He considers the Pythagoreans' opinion that the planets and stars, when moving, produce sounds that are harmoniously combined to be erroneous. The assumption that the movement of heavenly bodies can produce any sound is untenable.

Scientific interest in the cultural heritage of Abu Nasr is of great interest today in Uzbekistan and abroad. The manuscript of two thousand pages, completed approximately in the first half of the 10th century. According to some sources, in 943, presented a new direction in musicology for its time.

The purpose of the study is a systematic historical-typological cultural understanding of musical development at different stages of the formation of culture and art. As a result, it is supposed to identify the function of musical culture at different historical stages, in the development of essential human forces at

different stages of life. Inclusion of each personality in the past, present and future of musical culture. Today there is a need to understand education as a mechanism for the development of musical culture based on both socio-cultural realities and cultural orientations. Evidence of this can be ancient written sources related to the history of musical art of the peoples of Central Asia, which prove the presence of a high culture of these peoples.

The work uses a comprehensive method of studying sources, including elements of the historical and cultural approach, with the involvement of works related to achievements in the field of national composer creativity.

Conclusion. Thus, the names of Al-Kindi, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Khwarizmi played an important role in the development of musicology and music in Western and Central Asia thanks to their fundamental scientific works. Al-Farabi's great merit was the Europeanization of the science of the Arab world and the systematization of scientific knowledge. The Renaissance became a connecting bridge for the rapprochement of the cultures and philosophies of the West and the East.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES:

1. Farmer H.G. The influence of Al-Farabi's "fīsa al-ulum" ("De scientiis") on the writers on music in Western Europe // Journal of the Royal Asiatic Society, 1932.
2. Farmer H.G. The Arabian influence on musical theory. – London, 1925.
3. Farmer H.G. A History of Arabian Music to the XIII century. – London, 1929.
4. Matyakubov O. Farabi on the foundations of Eastern music. – Tashkent, 1986.

XX АСРНИНГ БОШЛАРИДА БУХОРО ХОНЛИГИНИНГ ЖАНУБИЙ ХУДУДЛАРИДА ЕР - СУВ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ (СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Бўриев Соатмўмин Донаевич

Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар

кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди

UDK: 94(575.1).

<https://orcid.org/0009-0007-6614-4589>

Аннотация: Ушбу мақолада Бухоро хонлигининг жанубида жойлашган Сурхондарё вилоятида инқилобгача ва инқилобдан кейинги вақтларда ер ва сувга бўлган талаблар, деҳқон қишлоқ хўжалигидаги ахвол, Совет ҳукуматининг ўлкада ўтказган “Ер-сув ислоҳоти” ва унинг натижалари ҳақида сўз боради. Маълумки, Чор Россияси ўлкани ўзининг хом-ашё базасига айлантиришни орзу қилиб, ўлкадан битма тугунмас бойликларни ўз юртига олиб кетишни мақсад қилиб қўйганди. Айниқса пахтачиликни ривожлантириш борасида кенг кўламли ишларни амалга ошириш асосий мақсад қилиб олинганди. Бундан ташқари мақолада воҳада дашт ерларининг ўзлаштирилиши, агротехник суғоришнинг янги тизимига ўтилиши ва ирригация мелиорация ишлари ҳақида ҳам маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: омов, бел, кетмон, ботмон, пуд, десятина, гектар, мулкдорлар синфи, суғориш тизими, ирригация, мелиорация, “Ер-сув ислоҳоти”, декрет, ариқлар, каналлар.

Аннотация: В данной статье рассказывается о потребностях в земле и воде в Сурхандарьинской области, расположенной на юге Бухарского ханства, до и после революции, о положении крестьянского земледелия, о «Земельно-водной реформе», проводимой советским правительством в стране. и его результаты. Известно, что царская Россия хотела превратить страну в свою сырьевую базу и увозила неисчерпаемые богатства из страны в свою страну. В частности,

основной целью было проведение широкомасштабной работы по развитию хлопководства. Кроме того, в статье также содержатся сведения об освоении степных земель оазиса, переходе на новую систему агротехнического орошения и ирригации. и мелиоративные работы.

Ключевые слова: плуг, бель, мотыга, ботмон, пуд, десятина, гектар, класс собственника, ирригационная система, ирригация, мелиорация, «земля-водная реформа», указ, каналы, каналы.

Abstract: This article talks about land and water requirements in Surkhandarya region, located in the south of Bukhara Khanate, before and after the revolution, the situation in peasant agriculture, the "Land-water reform" carried out by the Soviet government in the country and its results. It is known that Czarist Russia wanted to turn the country into its raw material base and took the inexhaustible wealth from the country to its country. In particular, the main goal was to implement large-scale work on the development of cotton cultivation. In addition, the article also contains information about the development of steppe lands in the oasis, the transition to a new system of agrotechnical irrigation, and irrigation and melioration works.

Key words: plough, bel, hoe, botmon, pud, desyatina, hectare, owner class, irrigation system, irrigation, reclamation, "Land-water reform", decree, ditches, canals.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). Тан олиш жоизки, ҳар қандай зироат, мевали ва манзарали

дарахтлар, наботот олами, хайвонот дунёси, қўйингки ер юзида жонзот борки, ҳаммаси сув билан тирик. Шу сабабли одамлар асрлар давомида сувни жуда ҳам қадрлаб, эъзозлаб келишган. Чунки сув ерни яшнатади, саҳроларга жон киритади. Шунинг учун халқ “Сув йўқ жойда ҳаёт йўқ”, “Сув тугаган жойда ер ҳам тугайди”, - деб бежизга айтмаганлар.

Сув тўғрисида кўхна тарихимиз зарварақларига назар ташлайдиган бўлсак, Инқилобга қадар ноёб табиий иқлим шароитларига эга бўлган Сурхон-Шеробод воҳасида деҳқончилик ривожланмаган, ирригация ишлари ўтказилмаган эди. Суғориш учун яроқли бўлган ерларнинг ҳам бир қисмидан фойдаланилар эди. Деҳқонлар кўчманчи ҳаёт кечиришарди. Фақат киш ойларида қишловларига қайтишарди. Қишлоқ хўжалигининг асосий иктисоди чорвачилик ва дончиликдан иборат эди. Мазкур даврлар тарихи ҳақида гапирар эканмиз, деҳқончилик маданиятининг ўта пастлигини тилга олишимиз керак. Кўпгина деҳқонлар ўзларининг бир парча ерига эга бўлишларига қарамай, ишчи хайвонлари йўқлигидан ердан фойдалана олмасди. Омоч, ўроқ, бел қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришидаги асосий меҳнат қуроли саналган. Дала ишларида юк ташийдиган хайвон (эшак)дан фойдаланилган.

НАТИЖАЛАР (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўша йиллар арифметикасини давом эттирадиган бўлсак, бир омочга 2,72 десятина (1 десятина 1, 09 гектарга тенг), бир боронага 9,5, бир кетмон ёки белга 2,0, бир ўроққа 1,7 десятина экин майдони тўғри келган. Ишчи кучи, умуман одамлар етарли бўлган. Ишланадиган бир десятина майдонга 1,4 катта одам ишчи, жами аҳолига бўлиштирганда эса 2,4 киши тўғри келган.

Ўтмишда ариқ ва каналларнинг барчаси суғориш талабларидан келиб чиқадиган инженер-техника қоидаларига ва суғориш учун ажратилган ерларнинг устки тузилишига риоя қилинмасдан қазилар эди. Шунинг учун ҳам қазилган катта-кичик

каналларнинг аксарияти ундан фойдаланишда қатор қийинчиликлар туғдирарди.

1910 йилда Чор ҳукумати суғориб деҳқончилик қилинадиган районлар олдидаги танг аҳволни (айниқса пахта ишлаб чиқаришни) назарда тутиб, сувдан фойдаланиш қоидаларини ишлаб чиқишга киришди. Орадан 6 йил ўтди. 1916 йилда сув ҳақидаги қонун лойиҳаси тайёр бўлди ва бу қонун лойиҳаси давлат думаси муҳокамасига қўйилди. Бироқ уни дума тасдиқламади. Шундай қилиб инқилобдан олдин сувдан ва ердан фойдаланиш мушкул аҳволда эди. Одамлар табиатнинг тасодифлари (сел, дўл, қурғоқчилик) олдида ожиз эди. Мавжуд ҳукумат томонидан суғориш учун ажратилган арзимаган маблағлар эса юқори ташкилотларнинг ўзида тақсимланиб йўқ бўлиб кетарди. Октябрь инқилобидан олдин воҳамиз ирригация географиясидаги манзара шундай эди.

1914 йилда бутун воҳада 145 минг гектар лалмикор ва суғориладиган ерларда экин экилган. Шундан 4400 гектарида 3900 тонна пахта етиштирилган. Бирорта ҳам қишлоқ хўжалиги мутахассиси бўлмаган. Туркистон чор Россияси томонидан истило қилинганидан кейин ҳам ер ва сувдан фойдаланиш, суғориш тармоқлари қурилиши соҳасида сезиларли ўзгаришлар бўлмади. Худди илгаригидек ер ва сув яна мулкдорлар синфи қўлида қолаверди. Техника даражаси тубан бўлганлиги боис, суғориш тармоқлари ва сув иншоотларини барпо этиш масалаларига жиддий эътибор берилмади. Чор ҳукумати ва айрим кишиларнинг янги ерларни суғоришга бўлган уринишлари муваффақиятсизликка учрайверди.

Инқилобдан илгари ўтган ярим аср (1867-1917 й.й) мобайнида фақатгина Мирзачўлда узунлиги 40 километрдан иборат муҳандислик иншоотлари хисобланган атиги биттагина канал қурилган бўлиб, унинг ёрдамида 1914 йилда 10 минг гектар ер суғорилган эди холос.[1]

Сурхондарё вилояти 1925 йилнинг январиди ташкил этилди. Ўша пайтда унинг территорияси 19607 квадрат километрни ташкил этган. Ана шу майдоннинг атиги 7 фоизидан қишлоқ хўжалигида, яъни деҳқончиликда фойдаланиш мумкин бўлган ҳолда, 63 минг десятина ёки 2, 5 фоиз майдон суғоришга яроқли бўлган. Воҳа аҳолиси 43400 кишидан иборат бўлиб, ҳар квадрат километрга 7,4 кишини ташкил этган.[2]

Инқилобдан кейин (1917 йил октябрь) ер ва сув деҳқонлар оммасини эзиш қуролидан халқнинг фаровонлигини ошириш ва ижодий кучларини ривожлантириш манбаига айланди. Айниқса бу Ўрта Осиёда миллий давлат чегараланиши амалга оширилганидан кейин янада ёрқинроқ намоён бўла бошлади. 1925 йилнинг декабрида “Ер ва сувни миллийлаштириш ҳақида” ҳамда “Ер-сув ислохоти ҳақида” декретлар қабул қилинди.

Албатта бу декретларда кўзда тутилган мақсад ва вазифаларга нисбатан бугун муносабатимиз ўзгача бўлса-да, лекин бу ўз даври учун зарур бўлган долзарб масалаларни кун тартибига қўйган эди. 1928 йилнинг 1 ноябрида Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Комитетининг “Ўзи ишламай туриб ерлардан фойдаланадиган йирик ер эгалари хўжалигини тугатиш” тўғрисидаги махсус декрети чиқарилди. Декретга биноан суғориладиган ерлари 20 гектардан ва бутун экин майдони 45 гектардан ошадиган, ишламасдан туриб ердан фойдаланадиган хўжаликлар тугатилиши керак эди.

Декретга асосан округ ер комиссияси тузилди ва унинг махсус қарориди ишламасдан туриб ердан фойдаланадиган хўжаликларни тугатиш ишлари 1929 йилнинг 1 январиди тамомланиши белгиланганди. Декретда қабул қилинган қарорларнинг амалга оширилиши натижасида ўлкамизда 1347 та катта ер эгаси, 1297 та катта савдогар ва руҳонийлар хўжалиги тугатилди. Улардан тортиб ва ўндириб олинган 270 минг

гектар ер 66 минг ерсиз ва кам ерли деҳқонларга бўлиб берилди.

Ўзбекистоннинг жанубий вилояти саналмиш Сурхондарё инқилобдан илгари Бухоро амирлиги даврида ниҳоятда қалоқ ўлкалардан бири эди. Деҳқонларнинг кўпчилиги ерсиз, 5600 деҳқон хўжалиги ҳатто омочга, 2974 хўжалик ишчи ҳайвонига, 20 мингдан ортиқ хўжалик эса ҳатто кетмонга ҳам эга эмас эди. Вилоят бўйича атиги 158 от плуги ва 77 темир борона бор эди. Сувдан ҳам хўжасизларча фойдаланиларди. 63 минг десятина экин майдони суғориш мумкин бўлган ҳолда 32, 2 минг десятина ер суғориларди ҳолос. Ўша экин майдонининг ҳам 19,5 фоизи беда экини билан банд бўлиб, қолган ерларига ғалла ва полиз экинлари экиларди. 20 минг десятинаяга яқин ерга эса дам бериб қўйилган ёки партов ерлар эди. Деҳқон хўжалиги бутун йил давомида ҳаммаси бўлиб, 287 минг сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарар эди. Ҳар бир оила аъзосининг ойлик ялпи даромади 4,5 сўмдан ошмасди.

Юқорида таъкидлаб ўтган ер-сув ислохотларининг ўтказилиши натижасида 1930 йилнинг 1 январига келиб, Сурхондарё вилоятида 6709 хўжаликни бирлаштирган 251 та колхоз тузилишига асос солинди. Бу колхозларга 23889 киши бирлаштирилган бўлиб, шулардан 12840 киши ишга яроқли эди. Янги тузилган деҳқон хўжаликлари ердан ташқари иш ҳайвонлари, керакли жиҳозлар, уруғлар ва пул қарзлари олдилар. Деҳқон хўжаликларига ёрдам бериш учун давлат катта маблағ ажратди. Фақат кузги-баҳорги шудгорлаш учун 543 минг 756 сўм ёрдам берилди. 1928 йилнинг кузги шудгорлаш даврида иш ҳайвонларини сотиб олишга 30 минг сўм кредит берилди. Колхозларга ва камбағалларга 50 минг сўм, кузги шудгорлашга эса 72 минг сўм, қишлоқ хўжалик жиҳозларига 47243 сўм ажратилди.[3]

1927 йилда ташкил топган Ўрта Осиё давлат университети (САГУ) олимлари Сурхондарё вилоятининг Шеробод чўллари синчиклаб текширишдан

ўтказдилар. Бу катта ва бой ўлкада 1931 йилда биринчи марта иш бошланди. Қумқўрғон ва “Сурхон” давлат хўжаликларини лойиҳалаш ишлари олиб борилди.

Собиқ Иттифоқнинг пахта мустақиллиги учун курашда ингичка толали пахта ишлаб чиқариш майдони бўлган Сурхондарё вилояти алоҳида аҳамият касб этди. Бу экинга бўлган талаб аввал сувдан фойдаланишда тегишли тартиб ўрнатишни тақозо этарди. Чунки Сарийосиё ва Денов туманларида сув кўп-у, ҳосил эса паст кўрсаткичда эди. Вилоятнинг жанубига мос бўлган ингичка толали пахта етиштириш учун эса сув йўқ эди. Шу сабабли ирригация ва мелиорация соҳасида олиб борилган катта ишлар шимолда ботқоқликларни қуриштиришга, жанубда эса сувни кўпайтиришга ва шу асосда ингичка толали пахта ишлаб чиқаришни оширишга ҳамда ҳосилдорликни кўтаришга олиб келди. Бажарилаётган ишларнинг қай йўсинда бораётганлигини кўриш учун вилоятга Йўлдош Охунбобоев, Акмал Икромов, Файзулла Хўжаев ҳамда Қосим Раҳимовлар тез-тез ташриф буюриб турганлар.

Сурхон-Шеробод даштлари сўнги йилларгача ҳам кам сувли эди. Ҳатто айрим ҳолларда ичишга ҳам сув топилмас эди. “Катта сув” учун курашда даставвал хўжалик ичидаги заранг, бўз, бўш ерлар ва ботқоқликлар ўзлаштирилди. Сўнгра давлат фондидаги ерлар хўжаликларга беркитилиб, уларнинг кучи билан ишлар амалга оширилди ва қишлоқ хўжалиги фойдасига киритилди. Бу ишларни амалга оширишда МТС, МЭС лар колхозларга катта ёрдам кўрсатдилар.

Ўша пайтларда ўзлаштирилган Узун тумани худудидаги Жончека, Файзова, Ўланкўл, Денов туманидаги Денов-Юрчи, Кампиркўл, Ҳайробоод, Шўрчи туманига қарашли Шалдироқ, Оқтумшук, Оққўрғон, Оқтепа, Жарқўрғон туманининг Гаранг тўқай, Оққўрғон, Заркамар каби бир қанча ботқоқликлари ўрнида зарур қишлоқ

хўжалиги экинлари экиб олинди ва бу жойлар обод масканларга айлана борди.

Ботқоқликларни қуриштириш хисобига вилоятда сув миқдорининг кескин кўпайиши сабабли жанубий ҳудудларда экин майдонларини кенгайтиришга имкон туғилди. Шунингдек ботқоқликларни тугатиш ишлари ўз вақтида хўжаликларга ер ҳолатини яхшилаш ва ҳосилдорликни ошириш учун имкониятлар яратиб берди.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, вилоятда муҳандислик иншоотлари қуриш ишлари 1910 йилда бошланди. Ўша йили 3 минг гектар майдонни суғорадиган Термиз канали қурилди. Сўнгра “Занг” ариғи очилди. Бунинг натижасида экин майдонлари кенгая борди. 1929-1935 йилларда ўтказилган ер-сув ислохоти даврида янги Ҳазарбоғ, Қумқўрғон каналлари қурилди. Натижада қатор жамоа хўжаликлари ва Шўрчи тумани ташкил топди.

Уруш йилларидан сўнг, яъни 1950 йилда қўл кучи билан Таллимарон канали қурилиб, “Таллимарон” давлат хўжалиги ва “Коммунизм” колхозини ташкил топди. 1953-1954 йилларда Шеробод ва Бойсун туманлари колхозчиларининг ташаббуси билан Таллимарон каналининг Қорасувгача ўзайтирилиши сабабли, бу ердаги “Янгиобод” давлат хўжалиги худудида бешта колхоз бунёд этилди.

Собиқ Иттифоқ даврида КПСС МК ва Министрлар Совети 1954 йилнинг 11 февралда “Ўзбекистон ССЖда пахтачиликни янада ривожлантириш, жумладан Сурхондарё вилоятида экин майдонларини кенгайтириш, айниқса ингичка толали пахта майдонларини 70 минг гектарга кўпайтириш ҳақида” махсус қарор қабул қилди.

Ушбу қарор асосида Шеробод чўлини янада ўзлаштириш, мавжуд экин майдонларини сув билан таъминлаш мақсадида 1958 йилда ҳозирги Қумқўрғон туманида ўз бағрига 800 миллион кубометр сувни сиғдира оладиган Жанубий Сурхон сув омбори қурилиши бошланиб, 1967 йилда фойдаланишга топширилди. Айни пайтда ушбу сув

омбори 300 миллион кубометрдан сал ортиқроқ сувни ўз сийнасида ушлаб турибди. Шундай бўлса-да, мазкур сув омборининг бунёд этилиши Сурхон-Шеробод воҳасининг гуллаб-яшнашига ва янада равнақ топишига катта имконият яратиб бериб[4].

Мамлакатимизга келиб кетаётган чет эллик мутахассислар ирригация қурилишини юксалтириш соҳасида эришаётган ютуқларимиз хақида илиқ гапларни айтиб ўтганлар. Жумладан Американинг ирригация соҳасидаги машҳур мутахассиси Флойд Дамини: “Мен 30 йилдан буён ирригация масалалари билан шуғулланиб келаяпман ва бутун жаҳонни айланиб чиқдим. Бироқ мен Ўрта Осиёда янги ерларни ўзлаштириш соҳасида амалга оширилаётган жуда кенг миқёсдаги ишларни кўриб хайратда қолдим”, деб ёзди.[5]

Шуни унутмаслик керакки, бугунга келиб вилоятимизнинг қарийб 330 минг гектардан кўпроқ ери Жанубий Сурхон сув омборидан ташқари уч йирик ирригация тизими бошқармалари тасарруфидаги каналлар орқали суғорилади. Шулардан бири “Аму-Занг” ирригация тизими бошқармасига қарашли сув хавзалари, омборлари ва каналларидир.

“Аму-Занг” ирригация тизими асосан “Аму-Занг-1” ва “Аму-Занг-2” кўтарма насослари ҳамда “Боботоғ” насос станцияси, “Оқтепа”, “Учқизил” сув омборларидан иборат бўлиб, бу ирригация тизими шахобчалари орқали воҳамизнинг 7 та тумани жумладан, Музработ туманининг 35,6 минг, Жарқўрғон туманининг 21,3 минг, Ангор туманининг 18,5, Қумқўрғон туманининг 16,5 минг, Термиз туманининг 15,7 минг, Қизириқ туманининг қарийб 9 минг ва Шеробод туманининг 5 минг гектардан ошиқроқ экинзорларига жами бўлиб, 445,7 километр узунликдаги каналлар орқали умумий ҳисобда 119,5 минг гектар майдондаги пахтазор, ғаллазор, токзор ва мевали боғлар суғорилади.

Бундан ташқари шу етти туман ҳудудида истиқомат қилаётган қанчадан-

қанча хонадонлар, дехқон хўжалиқларининг томорқалари, ташкилот, корхоналар тасарруфидаги ер участкалари ва ёрдамчи хўжалиқларига қарашли экин майдонларига ҳам оби ҳаёт “Аму-Занг” ирригация тизими бошқармаси жамоаси хизмат кўрсатадиган каналлар ва бошқа сув шахобчаларидан етказилади. “Аму-Занг” ирригация тизими бошқармасига қарашли каттаю-кичик каналлар худди қон томирларига ўхшайди. Секундига 100-120 куб метр сув чиқариш қувватига эга бўлган “Аму-Занг-1”, “Аму-Занг-2” насос станцияларининг бетўхтов ишлаши ҳисобига Амударёдан сув тортилиб, у “Занг”, “Боботоғ”, “Занг-Музработ” шунингдек, “Занг-Музработ” жабҳасига қарашли “Жайхун”, “Р-10”, “Р-9” “Занг-9” каналларига ҳам ўз улушини қўшиб туради.[6]

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, “Аму-Занг” каналидан Термиз ва Ангор туманларидаги ички каналлар ҳам баҳра олиб, ҳудуддаги экинзорларни сув билан таъминлайди. Шу билан биргаликда “Аму-Занг” канали “Оқтепа” ва “Учқизил” сув омборларидан ташқари, қисман “Боботоғ” канали орқали Жанубий Сурхон сув омборини ҳам оби-ҳаёт билан тўлдиришга асқотади. Шу тариқа “Боботоғ” канали ўз ўзани бўйича оқиб, йўл-йўлақай воҳамизнинг Жарқўрғон ва Қумқўрғон ҳудудларида экилган экинларни суғоришда ҳам ўзининг ҳиссасини қўшиб келади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мамлакатимиз жануби саналмиш Сурхон воҳасида мавжуд барча сув омборлари ва каналлари мавсум жараёнида етиштириладиган турли хил экинларни суғориш билан бирга, маҳаллий халқнинг турмуш шароитини яхшилаш, кишлоқ ва шаҳарларнинг ободонлашишида ўз аҳамиятини ошириб келмоқда. Давлатимиз томонидан олиб борилаётган ислохотлар ўз самарасини бериб, ўз вақтида барча тармоқ ва соҳаларда янгиланиш ва бунёдкорлик ишлари сезиларли даражада амалга

оширилиб бормокда. Зеро сув бор жойда
хаёт бор экан, демак хаёт давом этади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон ирригацияси. “Ленин байроғи газетаси”, 1967 й, 20 декабрь, № 248, 3-бет
2. Омочдан тракторга, аравадан автомашинага. “Ленин байроғи” газетаси, 1977 й, 25 октябрь, № 211, 2-бет
3. Сурхондарёда ер, сув реформаси. “Ленин байроғи газетаси”, 1977 й, 6 ноябрь, № 221, 3-бет
4. С.Д.Бўриев. Сурхоннинг сув тўғони. Т; “Tugon-iqbol” нашриёти, 2019 й, 39-бет
5. Ўзбекистон ирригацияси. “Ленин байроғи” газетаси, 1967 й, 20 декабрь, № 248, 3-бет
6. Сув келтириш машаққати. “Сурхон тонги” газетаси, 2006 й, 2 март, №10, 3-бет

ИЗ ИСТОРИЙ ПОДГОТОВКИ НАЦИОНАЛЬНЫХ РАБОЧИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Кадилова Нигора Якуббековна,

*Андижанский государственный педагогический институт
Кафедра социальных наук, кандидат исторических наук, доцент*

UDK: 94(575.1).

<https://orcid.org/0009-0008-5335-765X>

Аннотация: История формирования национальных кадров рабочего класса Узбекистана в поворотные 30-е годы тесно переплетена с противоречивыми процессами общественно-политического и экономического развития бывшего СССР и республики в условиях перехода к политике "большого скачка" и упрочения режима тоталитарной власти.

Ключевые слова: Профессия, образование, система, СССР, промышленность, экономика.

Annotatsiya: 30-yillarning boshlarida O'zbekiston mehnatkashlar sinfi milliy kadrlarining shakllanish tarixi sobiq SSSR va respublikaning "Iqtisodiy tuzumga" o'tish sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy parchalanishining qarama-qarshi jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Buyuk sakrash" siyosati va totalitar tuzumni mustahkamlash.

Kalit so'zlar: Kasb, ta'lim, tizim, SSSR, sanoat, iqtisodiyot.

Abstract: the history of the formation of national cadres of the working class of Uzbekistan in the early 1930s is closely related to the opposite processes of socio-political and economic disintegration of the former USSR and the republic in the transition to the "Economic System". "Great Leap" policy and strengthening the totalitarian system.

Key words: Profession, education, system, USSR, industry, economy.

ВВЕДЕНИЕ. История формирования национальных кадров рабочего класса Узбекистана в поворотные 30-е годы тесно переплетена с противоречивыми процессами общественно-политического и экономического развития бывшего СССР и

республики в условиях перехода к политике "большого скачка" и упрочения режима тоталитарной власти. Необходимость расширения масштабов промышленного строительства нашла отражение в решениях XIV съезда ВКП(б) (декабрь 1925). Рассмотрев вопросы хозяйственного развития, он обратил особое внимание на развертывание "социалистической индустриализации". Поначалу во главу угла ставился научный расчет и о сверх высоких скоростях индустриализации не говорилось. Но затем в политической линии партийного руководства страны явственно обозначилась тенденция к необоснованному ускорению темпов промышленного строительства. В условиях первой пятилетки курс максимального развития промышленности на экстенсивной основе определил ярко выраженный экстенсивный характер пополнения и подготовки рабочих кадров. Сверхударные темпы ввода промышленных предприятий определили бурные темпы роста рабочих рядов. Но в основном новые рабочие поколения оказались в профес сиональном плане слабо подготовленными. Как правило, обеспечивалось усвоение первичных азов профессиональных знаний.

ОБСУЖДЕНИЕ. В условиях второй пятилетки с понижением темпов индустриализации усилилось внимание к качественным характеристикам подготовки кадров. Шло упорное освоение новой техники, наметилось относительное вытеснение экстенсивных методов пополнения и обучения рабочих и специалистов промышленного

производства. Эти тенденции сохранились и в ходе ретворения плановых заданий третьей пятилетки.

С высоты времени отчетливо видно, что вопрос о масштабном индустриальном строительстве являлся для Узбекистана чрезвычайно актуальным. Ведь экономика республики на рубеже 20-30-х годов продолжала носить преимущественно аграрный характер. Удельный вес сельского хозяйства а народном хозяйстве Узбекистана в 1927/28 гг. составлял 61,6%, промыш-ленности 38,4%, причем около 90% промышленного производства базировалось на обработке сельскохозяйственного сырья. Такие отрасли тяжелой индустрии, как металлообработка, машиностроение только развивались. Крайне низок был технический уровень промышленных предприятий, мало было инженеров, техников и других специалистов, квалифицированных рабочих, владеющих современной техникой. Важно было разместить здесь промышленность, которая обеспечивала бы поступательное развитие производительных сил республики, коренным образом изменила структуру и техническую основу всего общественного производства в городе и деревне, создавала в достаточном количестве кадры, способные об-ращаться с современной техникой.

Казалось бы, осуществление политики масштабной индустриализации открывало благоприятные возможности для решения этой назревшей задачи. Тем более, что в партийно-правительственных документах тех лет неоднократно подчеркивалось, что "социалистическая индустриализация" должна создать материальную основу для ликвидации фактического неравенства узбекского народа.

К сожалению, как показала последующая практика, ВО многом провозглашенные партней принципы остались на лозунговом уровне. Союзное правительство, ограничиваясь преимуще-ственно пустыми декларациями, осуществляло промышленное развитие

Узбекистана сугубо в интересах державного центра. В едином народнохозяйственном комплексе унитарного советского государства Узбекистону попрежнему отводилась роль сырьевого поставщика, хосся наращивание промышленного потенциала наблюдалось. ленное предприятие, то в 1932/33 гг. 559. В этот период были построены первенец сельскохозяйственного машиностроения в Средней Азии Ташсельмаш, Куvasайский цементный и известковый заводы. Быстрыми темпами шло строительство индустриальных птантов Чирчикстроя, Алмалыкстроя, Ташкентского текстильного комбината. Вступили в строй текстильная фабрика и маслозавод в Фергане, швейные фабрики в Самарканде, Ташкенте, Бухаре и т. д.

К началу второй мировой войны промышленный потенциал республики составил 1445 крупных и средних промышленных предприятий. Существенно изменилось соотношение между от-раслями, производящими средства производства и предметами потребления. В общей продукции крупной промышленности (без хлопкоочистительной) удельный все группы "А" возрос к 1940 г. до 32,8 по сравнению с 16,3 в 1928 г.¹ Провозглашение курса на форсированную индустриализацию поставило во главу угла проблему численного роста рабочего класса, закладки прочного кадрового фундамента. При этом на первом этапе "социалистической индустриализации" Политическое руководство страны и республики выделило в качестве приоритетной задачу создания квалифицированных рабочих кадров из числа представителей коренного населения. В целом, согласно плановым заданиям, за годы первой пятилетки намечалось увеличить численность рабочих и младшего обслуживающего персонала, занятых в цензовой промышленности Узбекистана с 22877 до 62151 чел., или почти в 3 раза. При этом количественный рост рабочих местных национальностей

определялся с 10810 до 33946 чел.2

Ответственную роль в насыщении бурно развивающейся промышленности квалифицированными кадрами призвана была сыграть система профессионального обучения. Перед ней была поставлена задача вовлечь "во все виды подготовки квалифицированной рабочей силы... не менее 75% местных основных национальностей."

Относительно долгосрочные формы подготовки рабочих в системе профтехобразования занимали небольшое место. В основном они включали школу ФЗУ, горнопромышленного учепичества и другие специальные технические училища.

Только в системе легкой промышленности к концу первого пятилетия функционировало 13 школ. И если в 1925 г. в ФЗУ предприятий легкой индустрии обучалось всего 331 учащийся, то к концу 1932 г. - уже 2069 чел.3

Заметно возросло число учащихся местных национальностей и по другим ведомственным училищам. К примеру, в Самаркандском ФЗУ, готовившем кадры строителей, направляемых на строительство новых промышленных предприятий, из 78 учащихся набора 1930 г.- 43 являлись представителями коренного населения. В системе подготовки кадров рабочих для железной дороги (машинисты, слесари, телеграфисты и проч.) удельный вес нового набора из числа лиц местных национальностей составил в 1930 г. 73,4%. При этом, учитывая, что в своей основной массе национальная молодежь была представлена выходцами из сельской местности, как правило, с низкой образовательной подготовкой, руководство республики нацеливало хозяйственные и учебные органы на развертывание подготовительных отделений, призванных обеспечить первичную подготовку национальной молодежи с тем, чтобы она могла затем успешно заниматься в профессиональных учебных заведениях. Так, Нарком труда, придавая чрезвычайно важное значение организации подготовительного обучения

национальной молодежи, в своем распоряжении о проведении набора в школы ФЗУ и стройуча в 1930 г. особо указал: "Из общего числа подростков, подлежащих приему на подготовительные отделения ФЗУ и стройуча, должно быть принято узбеков 75%."

В отдельных случаях допускать прием свропейцев, детей работающих данного производства, исключительно знающих узбекский язык. Это норма отделами труда должна быть выполнена безоговорочно". Предпринимались усилия по расширению национальной прослойки учащихся учебных заведений фабричнозаводского обучения. В результате по многим училищам удельный вес учеников местных национальностей достиг 75 и более процентов. Особенно показателен был в этом отношении качественный состав обучающихся в системе ФЗУ шелкомотальной, кожевенной, хлопчатобумажной, полиграфической промышленности. Менее заметные успехи наблюдались, по отраслям тяжелой индустрии, швейной промышленности и строительства.

Развернулась работа по расширению женской прослойки на промышленных предприятиях. В результате к началу первой пятилетки в индустриальной сфере Узбекистана трудилось уже около 7 тыс. работниц¹.

Одним из политических институтов координации работы по вовлечению женщин в общественное производство выступили в рассматриваемый период комиссии по улучшению быта тружениц /КУБТ/, сформированные при ЦИК Узбекистана, при городских и районных Советах трудящихся. В 1930 г. в Узбекистане действовало 34 комитета КУБТ и 84 женсектора. На них возлагалась задача не только улучшить быт женщин, но и содействовать коренному переустройству всего социального быта. КУБТ должны были заниматься вопросами вовлечения женщин в производство, подготавливать кадры, вести контроль за строительством детских садов и яслей,

женских консультаций, а также ломки старого быта и борьбы с "классовым крагом".

В резолюции ВТБ, принятой в 1930 г., одной из главных задач комиссии по улучшению труда и быта женщин называлась необходимость провести через учреждения индустриально - технического образования подготовку женской квалифицированной силы посредством закрепления 30% мест в этих заведениях за женщинами коренного населения, положения брони и сверх - брони подростков, организовать сеть вечерних рабочих школ для женщин коренной национальности для подготовки их в школы ФЗУ, индивидуально-бригадное ученичество и индустриально-

Устойчивое внимание к расширению форм профессионального обучения через стационарную сеть способствовало наращиванию квалифицированных рабочих кадров. За годы первой пятилетки число учащихся в школе ФЗУ республиканского подчинения возросло от 199 до 4905 чел., т.е. почти в 25 раз. А общее количество учащихся во всех школах ФЗУ увеличилось с 800 до 8600 чел., или более чем в 10 раз. Через курсовую систему профессиональной подготовки прошло свыше 25 тыс. молодых рабочих.

Подавляющую часть учащихся ФЗУ и слушателей производственных курсов составляли представители коренных национальностей. В ряде школ и курсов их удельный вес достигал 75,80%, хотя в целом намечаемый рубеж и 7,5% не был достигнут. Он составлял около 64%. Определенные позитивные обозначились в расширении отряда профессионально обученных женских кадров. В частности, если в начале первой пятилетки доля женщин в общем составе учащихся школ ФЗУ равнялась 8%, то к концу она возросла до 16,9%.

В годы второй пятилетки политическое руководство страны продолжило курс на реорганизацию системы профессионально технического образования, особенно его

главного звена тех лет

ФЗУ. 15 августа 1933 г. было принято специальное постановление "О школах фабрично-заводского ученичества", предусматривающее перестройку школ в ФЗУ в направлении "превращения их в резко выраженные профессиональные школы квалифицированных рабочих". Срок обучения в школах ФЗУ был сокращен с 2-х лет до 6 месяцев. Лишь для подготовки отдельных, наиболее квалифицированных групп рабочих допускался годичный срок обучения.

Сравнительно с кадрами, обучавшимся без отрыва от производства, преимущественно путем индивидуального ученичества, доля рабочих, выпускаемых системой профессионально-технических учебных заведений, оставалась невелика. Лучшими возможностями для подготовки и переподготовки рабочих располагали крупные предприятия. Так, широкая сеть профессионального и курсового обучения действовала на заводе "Ташсельмаш". Здесь функционировала хорошо оснащенная школа ФЗУ, имелась разветвленная сеть производственных курсов. Руководство завода выделяло на подготовку квалифицированной рабочей силы большие средства. Только в 1934 г. в этих целях было затрачено 237,3 тыс.руб. При обучении новых рабочих пополнений дирекция "Ташсельмаша" и заводского ФЗУ делала упор на первоочередную подготовку национальных кадров. Уже в 1932 г. удельный вес учащихся местных национальностей достиг в местной школе ФЗУ 71%. Общее количество учащихся возросло

Ширился контингент обучающихся в системе производственных курсов. За 1934-1937 гг. их окончило более 3,5 тыс. рабочих в 1939 г. на заводе действовали техникум с 840 учащимися, курсы мастеров труда с 212 и краткосрочные с 895 учащимися

В подавляющем числе училищ удельный вес лиц из местных национальностей был преобладающим. К примеру, особенно он был высок среди

учащихся школ ФЗУ Маргилан-ской шелкомотальной фабрики, Средазмасло в Коканде, училища металлообрабатывающей промышленности и т.д. Так, на 15 января 1937 г. в школе ФЗУ шелкомотальной фабрики г Маргилана обучалось 198 юношей и 118 девушек. В общем составе учащихся узбеки составляли 66%, в том числе обучались 65 девушек-узбечек. В целом же удельный вес учащихся девушек в ФЗУ поднялся в 1939 г. до 43%, в их составе девушек местных национальностей до 30% к общему числу обучающихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Стационарная система профессионально-технического образования стала одним из действенных звеньев подготовки квалифицированных национальных рабочих кадров. Она отличалась многообразием форм и была нацелена на обеспечение разного уровня подготовки повышения квалификации рабочих. Однако относительно долгосрочные формы профессионального обучения занимали в ней небольшое место. В условиях форсированной индустриализации главный упор делался на краткосрочные методы обучения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES:

1. Два года социалистического строительства в Узбекистане. Отчет правительства УзССР IV съезду Советов Узбекистана.-Ташкент, 1931. С.5-6.
2. Правда Востока. 1929. 2 июня.
3. Шукурова К.С. Социализм и женщина Узбекистана. Ташкент, 1970.- С.225
4. Отчет правительства УзССР V Всеузбекскому съезду Советов (1931-1934 гг.). - Ташкент, 1935. С. 22-23
5. Правда Востока. 1933. 29 апреля.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI SANOATI TARAQQIYOTIDA XORIJIY INVESTITSIALARNING O'RNI

Kadirova Yakitjan Buvabayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-0206-1411>

Annotatsiya: Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy investitsialarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki chet el investitsiyalari qo'shimcha moliyaviy manba bo'libgina qolmay, yangi texnologiyalar, bilim, ko'nikmalar, faoliyat yuritish amaliyoti va yangi boshqaruv standartlari manbaidir. Maqolada mustaqillik yillarida xorijiy investitsialarni jalb etish natijasida Surxondaryo viloyati sanoatida xorijiy investitsialarning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: chet el investitsiyalari, "Surxon-Adjanta LTD" qo'shma korxonasi, O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi, Sanoat asosida tuz qazib olish, Xitoyning «China Railway Tunnel Group» (CRTG) kompaniyasi.

Аннотация: Привлечение иностранных инвестиций имеет важное значение в социально-экономическом развитии страны. Потому что иностранные инвестиции — это не только дополнительный финансовый источник, но и источник новых технологий, знаний, навыков, методов работы и новых стандартов управления. В статье анализируется роль иностранных инвестиций в промышленности Сурхандарьинской области в результате привлечения иностранных инвестиций в годы независимости.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, совместное предприятие «Сурхан-Аджанта ЛТД», совместное узбекско-турецкое предприятие, промышленная добыча соли, китайская компания «China Railway Tunnel Group» (CRTG).

Abstract: Attracting foreign investments is important in the socio-economic development of the country. Because foreign investments are not only an additional

financial source, but also a source of new technologies, knowledge, skills, operating practices and new management standards. The article analyzes the role of foreign investments in the industry of Surkhondaryo region as a result of attracting foreign investments during the years of independence.

Key words: foreign investments, "Surkhan-Adjanta LTD" joint venture, Uzbekistan-Turkey joint venture, industrial salt extraction, Chinese company "China Railway Tunnel Group" (CRTG).

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Milliy istiqlolning qo'lga kiritilishi bilan butun mamlakatda bo'lganidek, Surxon vohasida ham har tomonlama rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlar yuzaga keldi. Sobiq sovet tuzumi davrida viloyat sanoati asosan yarim tayyor mahsulotlar, ya'ni xom-ashyoga birinchi ishlov berishga ixtisoslashgan edi. Surxondaryo viloyati sanoati rivojlanishi jihatidan 1990-yilda Respublikada o'ninchi o'rinda turar edi. Surxondaryoda 1990-yilda jami 23 ta sanoat korxonasi bo'lib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1345 mln so'mlik mahsulotlari ishlab chiqarib, aholi jon boshiga 1011, 63 so'mlik sanoat mahsulotlari etkazib berildi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,4 mln so'mga, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish esa 2,1 mln so'mga kamaydi. Viloyat bo'yicha 11 korxona xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish darajasini keskin kamaytirdi.

Shu sababli ham viloyatda paxtachilik sanoati, oziq-ovqat va qurilish sanoatiga ixtisoslashgan ba'zi bir korxonalar bunyod etila boshladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikka xos ko'p ukladli tizimning shakllanishi, qolaversa Respublika hukumatining va viloyat hokimiyatining

tashabbusi bilan viloyatda sanoat korxonalari keng miqyosda barpo qilish, viloyat sanoatiga chet el investitsiyalarini kiritish va bu orqali qo'shma korxonalar, o'rta va kichik korxonalarni shakllantirish borasida samarali siljishlar amalga oshirildi.

Mulkchilik yangi shakllarining vujudga kelishi, kishilarda haqiqiy mulkdorlik tuyg'usining qaror topishi, ishlab chiqarish jarayonining tamomila yangi tartibda tashkil etilishi viloyat sanoatida ham ulkan o'zgarishlar yasalishiga olib keldi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki chet el investitsiyalari qo'shimcha moliyaviy manba bo'libgina qolmay, yangi texnologiyalar, bilim, ko'nikmalar, faoliyat yuritish amaliyoti va yangi boshqaruv standartlari manbaidir. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ular uchun shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor berib kelmoqda. So'ngi yillarda bu sohada ko'p ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida xorijiy investitsiyalarni jalb etish natijasida Surxondaryo viloyati sanoatidagi o'zgarishlarni quyida ayrim tumanlar kesimida tahlil qilmoqchimiz.

Jarqo'rg'on. Jarqo'rg'on tumanida ham mustaqillik yillarida barpo etilayotgan qo'shma korxonalarda bir emas bir nechta jarayonlar amalga oshirildi.

Tumanda "Alpomish" O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi 2000-yil 1-sentyabrda qurib foydalanishga topshirildi. Korxona qurilishiga turkiyalik sarmoyadorlar tomonidan 2 mln.423,8 ming AQSh dollari (yoki 367 mln.351 ming o'zbek so'mi) miqdorida, O'zbekiston tomonidan esa 288 mln.546,1 ming so'm mablag' sarflandi. Korxona sexlarida o'rnatilgan barcha jihozlar va asbob-uskunalar Turkiya tomonidan keltirilgan bo'lib, u bir kecha kunduzda 150 tonna g'allani qayta ishlash quvvatiga ega bo'ldi. Qo'shma korxonada faqat birinchi nav un ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi[7].

Yangi korxonadagi un mahsulotlari viloyatning Jarqo'rg'on, Termiz, Angor,

Sherobod va Qiziriq tumanlarining savdo tashkilotlariga etkazib berilyapti. Undan chiqqan kepak omuxta em tayyorlash maqsadida Sherobodagi un kombinatiga yuborila boshlandi. "Alpomish" O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasida 2001-yilda 100 nafarga yaqin ishchi-xizmatchi va muhandis texnik xodimlar ishlagandi. Ularning oylik maoshlari 14,5, 15 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2006 -yilda 40 nafardan oshiq ishchi-xizmatchilar mehnat qilishdi. Qo'shma korxona "Alpomish" O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasiga aylantirilgach korxona uniga nafaqat viloyat ichki bozorida balki Tojikiston Respublikasi va Afg'oniston Respublikasida ham talab ancha kuchaydi. Qo'shma korxona 2005-yili 7,3 ming tonna un va un mahsulotlari ishlab chiqardi. Tayyor mahsulotning bir qismi eksport qilindi. Shu bois qo'shma korxonaning umumiy daromadi bir mlrd. 80 mln.so'mni tashkil qildi. Korxona sexlarida har kuni 150-160 tonna atrofida bug'doy qayta ishlanmoqda.

1999-yilning aprelidan boshlab Surxondaryo viloyati "Jarqo'rg'onneft" aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. 2005-yilda "Jarqo'rg'on neftni qayta ishlash" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi qurib ishga tushirildi. Qo'shma korxona qurilishiga Rossiyaning "Petro Maruz" Kompaniyasi ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan 7 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilib, loyiha ishlari bajarildi[8].

Qo'shma korxona qurilishiga Rossiyalik hamkorlar 7 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritib, loyiha ishlarini ham bajardi. Ishlab chiqarish jihozlari Rossiyaning "Belenergomash" zavodida tayyorlandi. Korxonaga sarflangan xarajat o'zini bir yarim yilda qoplatdi. Korxona ishga tushirilgach, 150 nafar jarqo'rg'onlik ishchi-xodimlar ish bilan ta'minlandi. "Jarqo'rg'onneft" ochiq aksiyadorlik jamiyati 2010-yili 132087 tonna neft qazib olgan bo'lsa, shu xom ashyoning 74041 tonnasi "Jarqo'rg'onneftni qayta ishlash" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi xarid qilib, turli xil mahsulotlar tayyorladi. 2013-yili "Jarqo'rg'onneft" aksiyadorlik jamiyati qoshida kasanachilik faoliyatini rivojlantirish maqsadida tikuv sexi

tashkil qilindi. Natijada sakkiz nafar xotin-qiz doimiy ish bilan ta'minlandi. Sex ish boshlagan vaqtda ushbu korxona ishchi-xizmatchilariga maxsus kiyimlar tikishga ixtisoslashgan bo'lsa, endilikda bu erda tayyorlanayotgan kiyim-kechak turlari 10 taga etdi.

“Juita,” “SunSir” hamda “BROTHERS” kabi zamonaviy tikuv mashinalari bilan jihozlangan sexda Z.Jo'rayeva, J.Shoyardonova va O.To'rayeva singari chevar ayollar o'z ishining mohir ustalariga aylanishgan. Natijada bu sexga boshqa tashkilotlardan ham ko'plab buyurtmalar qabul qilinmoqda. Tumanda 2007-yilga kelib to'rtta qo'shma korxona faoliyat yuritdi.

Termiz shahri. Mustaqillik dastlabki yillarida xususiylashtirish jarayoni izchillik bilan davom ettirildi. Sanoat sohasiga chet ellik hamkorlar jalb etila boshlandi. Jumladan, 1993-yilda Termiz shahrida mazkur yo'nalishdagi dastlabki yirik loyiha dori-darmon ishlab chiqaruvchi O'zbekiston-Hindiston hamkorligida “Surxon-Adjanta LTD” qo'shma korxonasi ishga tushirildi[9].

Uning faoliyati Surxondaryo viloyati xo'jalik sudining 2005-yil 6-sentyabrdagi qarori bilan bankrot deb e'lon qilinganligi natijasida tugatildi[2]. “Shindong Enerkom Ink” (Janubiy Koreya) kompaniyasining bankrot bo'lgan “Surxon-Adjanta Ltd” qo'shma korxonasi ishlab chiqarish maydonlarini 2007-2008-yillar mobaynida to'liq ishlab chiqarish sikliga ega bo'lgan to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkil etish uchun 3 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiya majburiyatlari ostida bepul olish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi. Shuningdek, “Surxon” zavodi binosi ham ushbu kompaniyaga 200 ming AQSh dollari miqdorida qo'shimcha investitsiya kiritish majburiyati evaziga topshirildi. Natijada binolar qayta ta'mirlanib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi va “Shindong Spinning Termez” qo'shma korxonasi barpo etildi. Yiliga uch ming tonna ip-kalava ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada 200 dan ortiq kishi mehnat qildi[14].

Sariosiyo. Surxondaryo viloyati er usti boyliklari bilan birga er osti foydali

qazilmalari bilan ham mashhur vohadir. Yaqin kelajakda geolog-olimlarning bashoratlari amalga oshib, voha hududida yangidan-yangi neft va gaz konlari ochilishiga imonimiz komil. Bu degani XXI asrda voha sanoati yanada rivojlanib, gullab yashnaydi, xalqimiz farovonligi oshadi, degan so'zdir.

Mamlakatimizda ko'mir qazish bo'yicha umumiy qiymati 105,5 mln. AQSH dollarini tashkil etuvchi loyiha yuzasidan dastlabki ishlar boshlab yuborildi. U «Sharg'unko'mir» korxonasiga tegishli bo'lib, Xitoyning «China Railway Tunnel Group» (CRTG) kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Buning natijasida qo'shimcha 450-500 dan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2017-yil 13-iyundagi PQ-3054 sonli qaroriga binoan 2017-2020 yillarda “Sharg'unko'mir” AJ ni modernizatsiya qilish ishlari yakunlanib, loyiha quvvatini yiliga 900 ming tonna toshko'mir qazib chiqarish ko'zda tutilgan. Ushbu qarorning 2-ilovasiga asosan “Sharg'unko'mir” AJ bo'yicha 2017- yil 160 ming tonna, 2018- yil 230 ming tonna, 2019-yil 450 ming tonna, 2020- yil 450 ming tonna, 2021- yildan 900 ming tonna ko'mir qazib olish rejalashtirilgan[1].

Sherobod. “Agroxizmat Shingdong” O'zbek-Koreya korxonasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasining 2005-yilgi investitsiya dasturi to'g'risida” gi 2004-yil 30-noyabr 560- sonli qarori, O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi investitsiya dasturi to'g'risida” gi 2005-yil 8-noyabr PF 216-son qarori va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik zarur investitsion loyihalarni amalga oshirish masalalarini ko'rib chiqishni muvofiqlashtirish kengashining 2005-yil 1-dekabr 36- son hamda 2006-yil 25-noyabr 34-son bayonnomalariga asosan Davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish maqsadida, “Oziqovqatsanoatloyiha” ma'suliyati cheklangan jamiyati bilan shartnoma tuzib, loyiha ishlari qilindi. Ushbu loyihaga asosan qurilish ishlarini “Surxondaryoagroxizmat” ma'suliyati cheklangan jamiyati bajardi va Koreya

Respublikasining “Shingdong Enerkom Ink” kompaniyasi 600 ming dollar, bir sutkada 50 tonna paxta chigitini qayta ishlaydigan va 30 tonna chigit mag‘zini ikkinchi marotaba qayta ishlaydigan “Yog‘ ekstraksiya zavodi” ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya sifatida olib kirdi[11]. 2007-yilning oktyabrida Sherobod tumani “Kilkon” mahallasi hududida ushbu “Agroxizmat Shingdong” MChJ shaklidagi O‘zbekiston-Koreya qo‘shma korxonasi o‘z faoliyatini boshladi. Qo‘shma korxona 130 nafar yoshlarni ish bilan ta‘minladi[12]. Sherobod, Angor, Muzrabod, Boysun, Qiziriq, Jarqo‘rg‘on va Termiz tumanlari aholisiga sifatli paxta o‘simlik yog‘i va sheluxa, shirot mahsulotlari reja asosida etkazib berildi.

Sanoat asosida tuz qazib chiqarish mustaqillik yillarida rivojlanib, korxonada dastlab Rossiyadan keltirilgan asbob-uskunalar asosida sexlar ishga tushirildi. 1993- yilda 1 million AQSh dollariga AQSh da ishlab chiqarilgan zamonaviy tezkor texnologiya keltirib o‘rnatilib, tuz qazib chiqarish uni eksport qilish besh-olti yil ilgariga nisbatan 20-30 foizga oshdi. Korxona 1999-yildan boshlab 500 ming tonna texnik, 100 ming tonna osh tuzi ishlab chiqardi[4].

Sho‘rchi. Sho‘rchi qishloqlarida tegirmonlar qurilayotgan bir pallada shahar aholisining non mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida yangi non korxonasi qurilib ishga tushirila boshladi. Germaniya Respublikasining «Venkler» firmasidan keltirilgan asbob-uskunalar o‘rnatilgan «Surxondon mahsulotlari» ishlab chiqarish davlat xissadorlik uyushmasi tasarrufidagi bir kecha kunduzda 5 tonnagacha har-xil non mahsulotlari tayyorlab bergan yangi non korxonasi Sho‘rchi tumani markazida qurilib ishga tushirildi[5].

Sharof Rashidov nomidagi «Sho‘rchi don mahsulotlari» hissadorlik jamiyatida 1997-yilda katta hajmdagi qayta jihozlash ishlari bajarilib, 284 million 978 ming so‘m sarflandi. Un kombinatida Shveysariyaning «Byuller» firmasi texnologiyasi asosida ishlaydigan 24 ta asbob-uskuna o‘rnatildi. 1998-yilda «Sho‘rchi don mahsulotlari» hissadorlik jamiyatida qayta jihozlash ishlari davom

ettirilib, Shveysariyaning «Byuller» firmasi texnologiyasi asosida tayyorlangan don maydalaydigan 24 ta asbob-uskuna keltirilib o‘rnatilishi natijasida korxonada ish samaradorligini oshirildi. Tegirmondan chiqarilayotgan unning 78 foizini birinchi nav, 40 foizini oliy nav qilib chiqarish imkoniyatiga erishildi, korxonaning quvvati kuniga 220 tonna donni unga aylantirishga etkazildi.

«Azvest-Ekspress» O‘zbekiston-Yugoslaviya qo‘shma korxonasi 1991-yil 19-sentyabrida Sho‘rchi tuman hokimligida ro‘yxatga olinib, korxona nizom jamg‘armasi 136 ming AQSh dollari bo‘lib, shundan 66,6 ming AQSh dollari yoki 49 foizi Yugoslaviya ulushi, 69,4 ming AQSh dollari yoki 51 foizi O‘zbekiston ulushidir. Nizom jamg‘armasi jami 21 million 7 ming so‘m, jumladan, 10 million 293 ming so‘mi Yugoslaviya, 10 million 741 ming so‘mi O‘zbekistonga tegishlidir. Qo‘shma korxona boshlig‘i Gulnora Xolxo‘jaeva poyabzal ishlab chiqarishga mo‘ljallangan texnologik uskunalarni o‘rnatib, 2003-yilda 24 kishi 430 juft poyabzal, 542 komplekt choyshab, 48 ta maktab sumkasi, 10 juft kirza etik, 14 juft qo‘lqop, jami 4 million 833 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi. 7 million 636 ming so‘mlik mahsulot xaridorlarga sotilib, ishchilarning o‘rtacha oylik maoshi 25 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.

2016-yil viloyatda 11 ta yangi qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Jumladan, Termiz shahrida 5 ta (Marg‘ilon-Termiz MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi, “Mustafo-Erkin-Baraka” xususiy korxonasi, Barakat-Yoqub Invest MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi), “Alem Axad Nazari” xususiy korxonasi, “Sadir Samir Sulaymonzoda” MChJ, Angor tumanida 1 ta (“Angor-Seul Group” MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi), Muzrabot tumanida 2 ta, (“Surxon Solor Grup” MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi, “Surxon Baraka Baliq” MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi), Termiz tumanida 1 ta (“Techno classical investments” MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi) Oltinsoy tumanida “Surxon Fruits” MChJ shaklidagi xorijiy korxonasi, Qumqo‘rg‘on tumanida

“Jian Jun” MChJ qo‘shma korxonalari tashkil etildi[13]. 2017-yilda viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida 63 ta korxona ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan 58 tasi yoki 96,5 foizi faoliyat yuritmoqda, qolgan 5 tasi faoliyat yuritmagan[10].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mustaqillik bergan imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar

jarayoni viloyat sanoati taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Natijada, sanoatning ushbu sohasiga chet el investitsiyasini jalb etish, kichik va o‘rta tipdagi korxonalarni bunyod qilish borasida muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyati tahlili ular respublikadagi eng faol va eng samarali xo‘jalik yurituvchi subyektlar ekanligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 13-iyundagi PQ -3054-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 26.06.2007 y. № 130.
3. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004. – B. 608.
4. Tursunov S., Tursunov A., Tog‘ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 356.
5. Tursunov S., Eshboyev Q. Sho‘rchi tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. –B. 320.
6. Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev B., Umarov I. Termiz tarixi. – Toshkent: YANGI NASHR, 2019. – B. 292.
7. Tursunov S., To‘xtayev A., Annayeva Z. Jarqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 320.
8. B.Yoriyev. “Qora oltin” ijodkorlari. – Termiz, 1999. – B. 51.
9. O‘roqova N. O‘zbekistonda mustaqillik davrida sanoat sohasidagi islohotlar va o‘zgarishlar jarayoni (Janubiy viloyatlar misolida), t.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya T.,2004.-B.56-95.
10. F.U.Xolmanova. O‘zbekistonda engil va oziq-ovqat sanoati rivojlanish tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1991-2020 yy) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Termiz–2022. — B. 137.
11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091–fond, 1- ro‘yxat, 827- ish, 130- varaq.
12. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, M. 1091–fond, 1- ro‘yxat, 218- ish. 89- varaq.
13. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, M. 1091–fond, 1 ro‘yxat, 1160-ish, 45- varaq.
14. https://bank.uz/news/text43185_hususiylashtirish_samaralari

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДА ҚОЗОНИЛГАН ҒАЛАБАГА ФАРҒОНА ОБЛАСТИ САНОАТЧИЛАРИНИНГ ҚЎШГАН ХИССАСИ

Атабаева Нигора Махмуджановна,

Андижон давлат педагогика институти

Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

email: nigora.atabayeva.74@mail.ru

UDK: 94(575.1).

<https://orcid.org/0009-0009-7543-223X>

Аннотация: Мақолада иккинчи жаҳон уруши йилларида фашистлар Германияси ҳамда милитаристик Япония устидан қозонилган ғалабага Фарғона области саноат ходимларининг қўшган муносиб хиссаси, янги фактик маълумотлар асосида ёритилган.

Калит сўзлар: иккинчи жаҳон уруши, саноат, фашизм, милитаризм, оғир саноат, енгил саноат, озиқ-овқат саноати, нефть, металлургия, ишчилар, фабрика завод мактаблари.

Аннотация: В статье на основе новых фактических данных освещен достойный вклад промышленных рабочих Ферганской области в победу над нацистской Германией и милитаристской Японией в годы Второй мировой войны.

Ключевые слова: Вторая мировая война, промышленность, фашизм, милитаризм, тяжелая промышленность, легкая промышленность, пищевая промышленность, нефть, металлургия, рабочие, фабричные школы.

Abstract: In the article, the worthy contribution of the industrial workers of Fergana region to the victory over Nazi Germany and militaristic Japan during the Second World War, based on new factual information, is highlighted.

Key words: World War II, industry, fascism, militarism, heavy industry, light industry, food industry, oil, metallurgy, workers, factory schools.

КИРИШ
INTRODUCTION).

Ўзбекистон халқларининг совет ҳокимияти йилларида босиб ўтган мураккаб ва зиддиятли

тарихий йўлини бир хилда баҳолаб бўлмайди. Советлар даврини ҳақиқатда қандай кечган бўлса, уни шундайлигича: барча ижобий ва салбий жихатлари, парвозлари-ю таназзуллари, тарихий жараёнларнинг барча жабхаларини назарда тутган ҳолда тадқиқ этиш лозим. Жумладан, Ўзбекистон халқларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида иштироки, душман устидан қозонилган ғалабага қўшган хиссаси масаласи ҳам долзарб мавзулардан бири саналади. Уруш Ўзбекистон сарҳадларида кечган бўлмаса-да, бироқ Ўзбекистон халқи уруш ҳаракатлари собиқ Совет давлати ҳудудларига кўчган (1941 йил 22 июнь) дастлабки кунларданок душманни тўхтатиш ва уни СССР ҳудудларидан улоқтириб ташлаш учун курашга отланди. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти, халқ хўжалигининг барча тармоқлари тўлиқ душманга қарши курашга сафарбар этилди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабага Ўзбекистон аҳолиси ўзининг муносиб хиссасини қўшди. Ўзбек халқи уруш йилларида аҳоли ва фронтни керакли нарсалар билан таъминлашга бутун куч ва имкониятини қаратди. Буни саноатчиларнинг меҳнати мисолида кўришимиз мумкин. Уруш йилларида республика саноатининг ривожланиши натижасида маҳсулот ишлаб чиқариш 1,5 баравар, фронт учун маҳсулот ишлаб чиқариш 36 баравардан зиёдроқ ўсди. 1940 йилда саноат маҳсулоти умумий капитал харажатининг 45,5 фоизини ташкил қилган бўлса, 1943 йилда 84,4 фоизни, 1944 йилда

эса 85,3 фоизни ташкил қилди[1.24].

Оғир саноат маҳсулоти 1940 йилда республика умумий саноат маҳсулотининг 13,9 фоизини ташкил қилган бўлса, 1942 йилда 50,1 фоизни, 1943 йилда эса 52,4 фоизни ташкил қилди[2.24]. Уруш йилларида республикада ҳарбий саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ниҳоятда ўсди.

Иккинчи жаҳон уруши йилларида республика саноатининг бошқа тармоқлари ҳам тез сураатлар билан ривожланди. Бунинг Фарғона область мисолида кўриш мумкин. Уруш бошланган йилларда областда 35 та йирик саноат корхонаси, кўплаб артеллар, саноат комбинатлари фаолият кўрсатган эди.

Фарғона областида жойлашган саноат корхоналарини зудлик билан ҳарбий изга кўчириш масаласи урушнинг дастлабки кунлариданоқ область халқи ва раҳбарияти олдидаги биринчи галдаги кечиктириб бўлмас вазифага айланган эди. Бу борада областда уруш собиқ Иттифок ҳудудига кўчган дастлабки кунларданок кенг кўламли ишлар амалга оширилди.

Фарғона область партия комитетининг 1941 йил 26 июнда бўлиб ўтган бюро мажлиси уруш шароитида Фарғона шойи комбинатининг ишини муҳокама қилди. Йиғилишда комбинат ўз ишини зудлик билан ҳарбий изга кўчириши кераклигини уқтириб, корхона жамоаси олдида қуйидаги вазифаларни бажаришни белгилаб берди:

Комбинатдаги кунлик иш соатини 10 соатга айлантириш, 2 соатлик ортиқча иш соати учун ишчиларга қўшимча иш ҳақи тўлаш;

2 кун муддат ичида барча бригада, цех ва сменаларда ишни тўлиқ ҳарбий изга солиш жадвалини тузиб чиқиш;

Шойи тўқиш артеллари ва колхозлардан 500 кишини Марғилон шойи комбинатида ишлашга сафарбар этиш;

Фарғона шойи тўқиш фабрикасида ишлаш учун Крупская номли артелдан 50 ишчини сафарбар этиш;

Йиғилиш қарорида Фарғона область соғлиқни сақлаш бўлимига фабриканинг касалхонасини врачлар билан таъмин этиш

вазифалари топширилди[1.25].

Уруш даврида нефть маҳсулоти муҳим аҳамият касб этишини ҳисобга олиб, Фарғона область партия комитетининг бюроси 1941 йил 23 июлда Ванновскийдаги нефтни қайта ишлаш заводининг ишини муҳокама қилди. Шу борада маҳаллий саноатнинг иши ҳам кўрилди. Бюро ўз қарорида маҳаллий саноатнинг фаолиятида анча муваффақиятлар борлигини, уруш унинг ишини тубдан ўзгартириб юборганлигини кўрсатиб ўтди. Шу билан бирга уруш даврининг қийинчиликлари туфайли, ишчи кучи, транспорт воситалари, турли хомашё захираларининг етишмаслиги натижасида баъзи корхоналар, бир қанча артеллар ўз меҳнат мажбуриятини бажара олмаганлигини ҳам қайд этиб ўтганди. Масалан, Охунбобоев номидаги артель ойлик режасини 92,2 фоизга, “Меҳнат” артели 97 фоизга, шаҳар саноат комбинати 65,8 фоизга бажарган эди ҳолос[3.25]. Бюро йиғилишида шунингдек, Марғилон шаҳаридаги кўплаб саноат комбинатлари ўз ишида камчиликларга йўл қўяётганлигини ҳам кескин танқид остига олган эди.

Область бюроси йиғилишида саноатдаги бу узилишларни бартараф этиш юзасидан тегишли қарорларни қабул қилди. Айниқса область саноат корхоналарида ишчи кучи масаласида оғир аҳвол юз берди, бунинг сабаби кўплаб ишчи кучларининг фронтга сафарбар қилиниши эди.

1941 йил областдаги 35 та йирик саноат корхонасига, 17.699 малакали ишчи кадрлар талаб қилингани ҳолда, уларда 10.633 ишчи ишлар эди, яна 3.219 ишчи фронтга сафарбар этиладиганлар рўйхатига тушган эди. Шундай қилиб, иккинчи жаҳон урушининг СССР ҳудудига кўчган дастлабки 1941 йилнинг ўзида областдаги мавжуд саноат корхоналари учун 8050 ишчи кучи етишмас эди, шу жумладан Фарғона шаҳридаги корхоналар бўйича 4.893 ишчи, Марғилондаги корхоналарда 2431 ишчи, Кўқон шаҳри бўйича 344 ишчи ва районлардаги

маҳаллий саноат корхоналарига 382 ишчи кучи етишмас эди[4.68-69].

Область саноатида катта ютуқлар қўлга киритилганига қарамасдан саноат корхоналарни ишчи кучи билан таъминлаш масаласи муҳим вазифа бўлиб турар эди. Аммо уруш туфайли бу даврда фронтга ҳам кўплаб жангчиларни етказиб беришни талаб қилар эди. Шу туфайли ишчиларнинг кўпи ва энг сараси фронтга сафарбар этилди. Саноатнинг кадрларга бўлган эҳтиёжини фақат ўсмир ёшлар ва хотин-қизлар ҳисобига қондириш мумкин эди. Ёшлар ва хотин-қизларни малакали ишчи кадр қилиб етиштириш учун уларни ўқитиш лозим эди. Шу сабабли ёшларни ўқитиш учун бутун республикада бўлгани каби областда ҳам ФЗО (фабрика-завод билим юртлари – ФЗУ, ФЗО) мактаблари, ҳунар мактаблари ва қисқа муддатли курслар, касбга йўналтириш тўғарақлари очилди.

Область раҳбарияти бу муаммоларни ҳал этиш учун керакли чораларни кўрдилар, саноат корхоналаридаги бўш ўринлар биринчи навбатда хотин-қизлар, кексалар ва балоғат ёшига етмаган ёшлар (12 ёшдан юқори болалар) ҳисобига тўлдириш чоралари кўрилди. Натижада областдаги саноат корхоналари ишчи кучи билан тўла таъмин этиб, уларнинг бир меъёрда ишлаши учун зарур шароитларни яратиб бердилар. Марғилон ва Қўқон шаҳридаги ФЗО мактаблари орқали 969 киши заводлар ва фабрикалар қошида ўқитиш йўли билан 7500 ишчи мутахассислар тайёрланди[4.69].

Ёшлар ва хотин-қизлардан ишчи кадрлар тайёрлаш масаласи область раҳбариятининг диққат марказида бўлди. Масалан, 1942 йилнинг бошидан бошлаб Қўқон қанд заводида ўзбек хотин-қизларидан ишчилар тайёрлаш учун тўғарақлар уюштирилди. Бу тўғарақларда 1942 йилнинг март ойининг ўзида 23 нафар ўзбек хотин-қизлари касб ўрганиб чиқдилар[4.30].

Ҳеч қачон станок ёнида бўлмаган, бирон асбобни қўлига тутмаган хотин-қизлар ва ўсмирлар фронтга кетган

эркакларнинг ўрнини эгалладилар. Улар қисқа муддат ичида слесарь, токарь, хайдовчи, темирчи, болға урувчи ва бошқа касб эгалари бўлиб етишдилар, хормай-толмай меҳнат қилдилар.

Область партия комитети 1941 йил 24 июнда область саноат корхоналари ишининг аҳволини бюро мажлисида муҳокама қилиб, барча саноат объектлари, корхоналар, артеллар, колхоз ва совхозлар ҳамда ташкилотларни фронт шароитида туриб ишлашга ўтишга чақирди. Марғилон шойи тўқиш фабрикасининг ишчилари, инженер-техник ходимлари бу чақириққа жавобан июль ойининг 15 кунда қимматли хом ашёдан 215 минг сўмлигини тежадилар[5.148].

Қўқон паровоз депосининг ишчилари кунига икки нормадан иш бажара бошладилар. Қўқон шаҳар маҳаллий саноат коллективи эса кундалик топшириқларини 195-200 фоиздан бажариб, ўзларининг фидокорона меҳнатлари билан бошқаларга ўрناк бўлдилар.

Фарғона областининг саноати 1941 йил август ойи режаларини 100,8 фоиз, жумладан тўқимачилик саноати 124,4 фоизга, енгил саноат 102,7 фоизга, маҳаллий саноат 101,9 фоиз, қурилиш материаллари саноати 302 фоиз қилиб бажарди[5.166].

Фарғона тўқимачилик комбинатининг ишчилари ҳам Харьков заводи жамоасининг 1941 йил ноябрдаги байрам кунларида ишлаш ва бу кунларни фронт кунлари деб ҳисоблаш чақириғига биринчилар қаторида қўшилдилар. Ўша кунларда комбинат жамоаси меҳнаткашлари ўз корхонасида ҳарбийларча меҳнат қилдилар. Комбинат ишчилари кунлик нормаларини 200-300 фоизгача бажардилар[4.71].

Қўқон паровоз депоси жамоаси ҳам уруш йилларида фидокорона фронтчасига ишладилар. Депо аъзоси слесарь В. Баранников ўзининг ёрдамчиси билан кунлик мажбуриятларини 300 фоизга бажариб борди[4.71].

Иккинчи жаҳон уруши йилларида

Фарғона шаҳрида саноатнинг ҳамма соҳалари жуда тез ривожланди. 1941 йил октябрь ойида Украинанинг Луганск шаҳридан кўчириб келтирилган тасма тайёрлаш корхонаси қисқа вақт ичида Фарғона шаҳрига жойлаштирилиб 1942 йил бошларидан маҳсулот бера бошлади. Мелитопиль консерва заводи ҳам Ўзбекистонга 1941 йил октябрь-ноябрь ойларида эвакуация қилинган эди. Эвакуация натижасида келтирилган ушбу консерва заводи ҳам 1942 йил февралдан маҳсулот ишлаб чиқаришни бошлади[6.22]. Фарғона областига душман вақтинча босиб олган ва босиб олиши хавфи мавжуд бўлган худудлардан кўчириб келтирилган бошқа йирик корхоналар, зудлик билан жойлаштирилиб, тезда бир меъёрга ишлай

бошлади.

1944 йил 26 ноябрда Марғилон ипак комбинатининг тўқув фабрикаси социалистик мусобакани кенгайтириш натижасида йиллик режани бажарди. Йил охирига қадар режадан ташқари юқори сифатли 145 минг метр ипакли газлама тўкиб бериш мажбуриятини олган эди[7.]

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хуллас иккинчи жаҳон уруши йилларида Фарғона области саноати ва саноатда меҳнат қилаётган ҳар бир ишчи ўзининг фидокорона меҳнати билан душман устидан қозонилган ғалабага ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшдилар.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Пўлатов И. Улуғ ватан уруши ғалабасига Ўзбекистон меҳнаткашларининг қўшган ҳиссалари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1967.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида –Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны. –Ташкент, 1966.
4. Пўлатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон ҳиссаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
5. Ульмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие советского Узбекистана. –Ташкент, 1958.
6. Тўхтасинов И. Фарғона. –Тошкент: Ўзбекистон, 1967.
7. “Душманга қарши олға”, 1944 йил 1 январ якшанба №1(162).

SURXON VOHASI HUNARMANDCHILIGINING MAHALLIY XUSUSIYATLARI

Ergasheva Sayyora Abdusoatovna,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi

kafedrası katta o'qituvchisi,
sergaseva223@gmail.com

UDK: 94(575.151)"1950/1980":745

<https://orcid.org/my-orcid=0009-0004-1881-7200>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning janubiy hududlaridan ya'ni Surxondaryo viloyatida 1950-1980 yillardagi voha hunarmandchiligining mahalliy xususiyatlaridagi o'zgarish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek kulolchilik, to'quvchilik va kosibchilik sohalarida erishilgan yutuqlar hamda ushbu hunar turlarida an'anaviylikni tendensiyalarini yo'qolib borishi ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot hamda arxiv materiallari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, Termiz, Boysun, Sherobod, Denov, kulolchilik, Xondamir,

Аннотация: В данной статье анализируются процессы изменения местных особенностей оазисного ремесла южных регионов Узбекистана, то есть Сурхандарьинской области, в 1950-1980-е годы. Также на основе научной литературы, периодической печати и архивных материалов освещены достижения в области гончарного дела, ткачества и ремесел, а также исчезновение традиционных направлений в этих ремеслах.

Ключевые слова: Сурхандарьинская, Термиз, Бойсун, Шерабад, Денов, гончарное дело, Хондамир,

Abstract: This article analyzes the processes of change in the local characteristics of oasis handicrafts from the southern regions of Uzbekistan, i.e. Surkhandarya region, in the 1950s-1980s. Also, the achievements in the fields of pottery, weaving and handicrafts, as well as the disappearance of traditional trends in these crafts, are highlighted on the basis of scientific literature, periodical press and archival materials.

Key words: Surkhandarya, Termiz, Boysun, Sherabad, Denov, pottery, Khondamir,

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Asrlar davomida rivojlanib, sayqal topgan an'anaviy xalq hunarmandchiligi xalqimiz xo'jalik faoliyatining muhim tarmog'i bo'libgina qolmay, balki badiiy-estetik didni o'zida mujassam etgan soha sanaladi. Hunarmandlarning turli hunarmandlari nafaqat xalqning kundalik ehtiyojlarini qondirdi, balki Afg'oniston, Eron, Hindiston va qo'shni hududlarga ham eksport qilindi. Vohada hunarmandchilikning boshqa hududlarga nisbatan rivojlanishi bir oz bo'lsa-da, farq qilgan. Bunga vohaning tabiiy geografik o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati sohasida faoliyat ko'rsatgan hunarmandlar XIX asr oxiri va XX asr boshidagi og'ir, murakkab siyosiy va ijtimoiy vaziyatlarda ham asrlar osha shakllangan o'zining badiiy shakl hamda mazmunan qiziqarli hunarni saqlab qolish va uni boyitish borasida faol harakat qilganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Surxondaryo viloyatida 1950-1980 yillardagi voha hunarmandchiligining mahalliy xususiyatlaridagi o'zgarish jarayonlari tadqiqot mavzusiga bag'ishlangan davriy matbuot hamda arxiv materiallari, shuningdek sovet va mustaqillik davri olimlarining tadqiqotlari muhim manba vazifasini o'tab, ulardagi ko'pgina ma'lumotlar birinchi marotaba ilmiy tadqiqot doirasiga kiritildi. Jumladan, Davlatova S., Tursunov S.,

Masimov I. kabi etnograf olimlarning ilmiy ishlari, Termiz shahar arxivining 544-fondi, shuningdek davriy matbuot materiallaridan keng foydalanildi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XIX asrning 80 — yillarida xonaki sanoatga texnik uskunalar kirib kelishi, asosan kashtachilar, zargar va yog‘och o‘ymakor ustalarning ishiga yengillik kiritdi. Ustalar badiiy buyumlarni ishlab chiqarishda yangi ashyo, bo‘yoqlar va yangi usullarni qo‘llay boshladilar. Ammo bu jarayonlar buyumlarning badiiy bezak berish darajasining pasayishiga va moddiy qiymatini tushib ketishiga olib keldi. Masalan oddiy kulolchilikni olaylik. Samarqand, Toshkent, Andijon, Buxoro, Termiz, Sherobod, Denov, Boysun kabi shahar va viloyatlarda yasalgan ko‘za, lagan, choynak piyola o‘z vaqtida katta shuhrat qozongan. Ular xorij mamlakatlarga ham olib borib sotilgan. Bu shubhasiz ota bobolarimiz dovrug‘ini olamga yoygan.

Kulolchilik qadimgi hunar turlaridan bo‘lsa-da, ammo sovet davrida ayniqsa, 1950-1980 yillarda kulolchilik mahsulot turlari juda kamayib, hatto unutilish darajasiga kelib qoldi. 1960-yillarning oxiriga kelib O‘zbekiston sirlangan kulolchiligining umumiy rivojida bir qator noyob markazlarning yo‘qolish tendensiyasi kuzatila boshladi. Ko‘p hollarda bu ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan bog‘liq edi. Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Shahrisabz, Kitob, Denov, Toshkent an‘analari yo‘qolgan, ba‘zi markazlar o‘z faoliyatini to‘xtatgan, faqat muzeylarning nodir namunalari ushbu hunarmandchilik turining o‘tmishda taraqqiy etganidan dalolat beradi[3,B.56].

1977-yilda tashkil topgan Sherobod keramika buyumlari zavodi an‘anaviy kulolchiligining izchil rivojlanishining asosi bo‘la olmadi.[11,B.2]. Ushbu keramika sexida sopol va yodgorlik buyumlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lib u yiliga 350 ming so‘mlik mahsulot berish kerak edi[12,B.2]. Sherobod tumani keramika badiiy buyumlar zavodida 30 dan ortiq mahsulotlarning 4 turi “Sifat belgisi” bilan ishlab chiqarilib ko‘plab hamda Rossiya va Turkmanistonga eksport qilingan.[16,B.109].

Sherobod keramika buyumlari zavodida eksperimental ijodiy guruh ham faol ish olib borgan. 1989-yilda faoliyat ko‘rsatgan ushbu guruhga Quadrat Asrorov boshchilik qilib, guruhning 5 nafar a‘zosi buyumlar sifatini yanada yaxshilash tashabbusi bilan chiqishgan. Natijada “Sharq go‘zali”, “Uvaysiy”, “Xondamir” deb nomlangan badiiy naqshlar yaratilgan[2,B.57]. Bu naqshlarni yaratishda guruh a‘zosi rassom Chori Turdiyevning mehnatini alohida ta’kidlash lozim. Zavodning qoliplash sexi ishchilari lagan, kosa, choynak va piyola tayyorlashda o‘zbek milliy koloritini singdirishga, ularning chiroyli hamda bejirim bo‘lishiga harakat qilishgan[4,B.3].

Denov kulolchilik maktabining vakillaridan san’atkor kulol usta nomi bilan mashhur bo‘lgan Rasul Zuhurov yasagan idish-tovoqlar, kosa va piyolalar ko‘za, obdasta, xurma va xurmachalar, qanddon va taqsinchalar, vaza, choydisherlar hamda o‘yinchoqlarning dovrug‘i 1960-1970 yillarda boshqa respublikalarga ham borib etgan[7,B.2]. Bu davrda Urgut, Samarqand, Shahrisabz, Chust, Marg‘ilon, Toshkent, Farg‘ona, Boysun, Denov shaharlari kashtachilik markazlari sifatida o‘ziga xos mahalliy xususiyatlar va an‘analar asosida faoliyat yuritganlar. Ayniqsa, hunarmandchilikning do‘ppichilik tarmog‘ida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi[3,B.56].

Mahalliy aholi orasida do‘ppiga bosh kiyim sifatida qiziqishning ortishi XX asrning o‘rtasida boshlandi. 1920 — 1930 yillarda do‘ppi kashtalangan bosh kiyimning yagona turi bo‘lib, erkaklar va ayollarning kundalik bosh kiyimi sifatida xizmat qilgan. Yosh qizchalar va juvonlar do‘ppi kiyishga ishqiboz bo‘lib, avvalliga ustidan ro‘mol o‘rab, keyinchalik ro‘molsiz ham kiyishgan, do‘ppining bunday kiyilishi keyinchalik urfga aylanib qoladi. Do‘ppido‘zlik sanoati xalq badiiy ijodiyotining eng ommaviy san’at turi bo‘lib xizmat qilgan va u o‘zida shaxsning individualligini, tasavvurning boyligi, naqshlar elementlarining qo‘p qirraligi va bezakdorligini ifodalagan. Bu davrga kelib do‘ppilarda naqshlarning yangi ko‘rinishi va ko‘p elementligi kengayadi. Ular asosiy uchta

shaklda ishlanadi — dumaloq, konussimon va to'rtburchakli. Bunday ko'rinish ayrim hududlarda 1930-yillar o'rtasigacha, boshqalarda o'n yil va undan ham ko'proq davom etadi.

1930-1940 yillarda tashkil qilingan artellarda xotin-qizlar «popop» mashinalarida keng miqyosda ko'plab turli «palak», «gulko'rpa», «choyshab», «dorpech», «zardevor» va shunga o'xshash kashtalarni tikib sotuvga chiqara boshladilar. Do'ppilarni tikish va ularga turli ko'rinishda naqshlar solish san'ati bilan qadimdan ayollar shug'ullanib kelganlar. Naqshlar ustida ish olib borishda iste'dodli ayollar guruhi maxsus tayinlangan, ular «chizmakash» yoki «qalamkash»lar deb nom olgan edilar[9,B.22]. 1950-1980 yillarda do'ppilar o'zining ishlanishi jihatidan juda rang-barang, bezakdor va nafisligi bilan ajralgan. Ular biser, kapitel, rangli toshchalar, metalli bosmalar va bo'rtmali naqshlar bilan kashtalangan. Do'ppilarning naqshida kundalik turmushdan olingan yangi tasviriy lavhalar ham o'rin oladi[10,B.98].

Bu davrda Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatgan Boysun sanoat kombinatining badiiy buyumlar ustaxonasida ko'p yillar davomida mohir do'ppido'zlar mehnat qilishgan. Mohir do'ppido'zlar qo'l mehnati bilan tikilgan «guldo'zi», «bodomgul» nomli Boysun kallapo'shlari O'zbekiston Xalq Xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasida namoyish etilgan[13,B.2]. Boysun tumaniga xos kallapo'shlarning «guldo'zi», «lolagul» kabi turlari rangi kashtaga tushirilgan gulning shakli bilan boshqa viloyatlar do'ppilaridan farq qilib turadi. Surxon vohasining boshqa hududlarida esa kallapo'shlarning «to'ldirma», «to'rlama» kabi uslubda tikilgan nusxalar ko'proq uchraydi. Surxondaryo viloyatining faqat Boysun tumanida emas, balki Denov tumanining Dashnobod qishlog'ida ham do'ppido'zlik milliy hunarmandchiligi bilan shug'ullangan mohir tikuvchilari ham do'ppilari bilan mashhur bo'lgan[8,B.9].

O'zbekiston Amaliy san'at muzeyi zaxirasida O'zbekistonning hamma viloyatlari va maktablariga oid do'ppilarning boy

to'plami jamlangan. Jami XIX – XX asrlarga oid 689 dona do'ppilar mavjud. Shulardan 53 donasi Surxondaryo maktabiga tegishli[2,B.127].

O'zbekistonning janubiy viloyatlari Qashqadaryo va Surxondaryo o'zining qadimiy va takrorlanmas, o'ziga xos etnografik o'lka ekanligi bilan ajralib turadi. Buni birgina to'qimachilik sanoati: uy jihozlari, namat, kigiz, gilam va gilam mahsulotlari hamda ularning tarixi misolida ko'rish mumkin. Xususan, gilam bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib milliy hunarmandchilik san'atining noyob namunasi sifatida shakllanib kelmoqda. Xuddi kashtachilikda bo'lgani kabi gilamdo'zlikda ham o'ziga xos an'analar, usul va uslublar juda qadim zamonlardan buyon shakllanib kelgan. Asrlar davomida gilamdo'zlik an'alarini davom ettirib kelgan mahalliy chorvador aholi, xususan Sherobod, Sho'rchi, Angor, Termiz tumanlarida yashovchi gilamdo'z hunarmandlar to'qishgan gilamlar nafaqat vohada balki, xorij mamlakatlari bozorida o'z xaridoriga ega bo'lganlar. Termiz va Sherobod hududida to'qilgan gilamlar O'rta Osiyoda, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida mashhur bo'lib, yuqori narxlarda sotilgan. Hattoki bir qancha gilam turlari Parij shahridagi ko'rgazmalarda yuqori baholarga erishgan. Ular to'qigan gilamdo'zlik buyumlari sirasiga *qiz gilam, julxirs gilam, arava gilam, qoqma gilam, g'ajari gilam, dig'dig'a gilam, oy gilam, chumchuqli gilam, bibishak, to'rt terma, oqin* kabi gilam turlari, *jun patsiz palaslar, xoli gilam*, turli buyumlar solib qo'yiladigan gilam xalta-to'rvalar (*tuz xalta, oyna xalta, dasturxon*), xurjun va boshqalarni kiritish mumkin[24,B.94].

Sherobod tumani Poshxurd qishlog'i ayollari ham qadimdan gilam, qop, xurjin, qoshiq xalta, tuz xalta, oyna xalta to'qishgan va tikishgan. Qishloq hunarmandlari gilamning sakkiz xilini to'qishgan. Gilamlar jundan yoki paxtadan tayyorlangan[17,B.87]. Poshxurdda XX asr o'rtalarida Quvvat momo To'ra qizi, Qimmat momo To'ra qizi, Oyto'ra momo Davlat qizi, Tursunoy va Robiya Niyoz qizlari, Ashuroy momo, Bo'ri Uzman qizi,

Qurbonoy momo Xo'jal qizi, Pardaxol Jovli qizi, O'zbekoy Rizvon qizi kabilar, XX asrning 50-60 yillardan so'ng, Hayitoy va Nabot Ashur qizlari, Ashuroy Bo'ri qizi, Mohitob Mamarasul qizi va boshqa o'nlab ayollar gilam va boshqa ashyolar to'qishgan[18].

Tadqiqot davomida Termiz tumani "Orol" mahallasida gilamchilik bilan shug'ullanib kelayotgan Moral momo G'afforova haqida ma'lumot to'plandi. Moral momo uchinchi avlod vakili hisoblanib, momosi Abduvalieva Obodon (1887-yilda tug'ilgan) birinchi, onasi Yozdurdieva Annabeka (1927-yilda tug'ilgan) ikkinchi avlod vakillari bo'lishsa, nevarasi O'damurodova Oyjamol esa to'rtinchi avlod hisoblanadi[19]. Moral momo G'affarova faxriy hunarmandlardan bo'lib, 14 yoshidan gilam to'qish sir asrorlarini o'rganish bilan bir qatorda Termiz tumanida joylashgan gilamchilik tsexida ham mehnat faoliyatini olib borgan[16,B.23].

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida hunarmandchilikning asosiy yo'nalishlari bo'yicha mahsulotlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri kosibchilik hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida ham ushbu hunarmandchilik turi qadimdan rivojlanib kelgan. Buxoro amirligi davrida Sherobodlik Usta Tilov, Shoyi o'g'li usta Xurram, Norpo'lat o'g'li usta To'ra, Beknazar o'g'li usta Xayrullo kabi qo'li gul ustalarni ta'rifi butun Boysun bekligida keng tarqalgan [19,B.328]. Ular mahsi kovush, nug'oyi kovush, nug'oyi etik, mo'kki, popish kabi poyabzal turlarini tayyorlovchi mohir hunarmandlar bo'lishgan.

Ikkinchi jahon urushi davrlarida Sherobod tumani Laylogan qishlog'ida istiqomat qiluvchi amakdiki urug'idan usta To'ranazar boshchiligida 10-15 kishidan iborat artel tuzilgan, oyoq kiyimlar va boshqa turli xil kerakli anjomlar tayyorlanib frontga jo'natilgan[14,B.2]. Etikdo'z Abdulla Abdurahmonov ham mashhur etikdo'zlardan hisoblangan. 16 yoshida Dog'istondan Sherobodga kelib bu erda sex ochib ishlay boshlaydi. O'sha yillari milliy oyoq kiyimlariga ehtiyoj katta edi.

Shu tufayli Abdulla kovush, mo'kki etik, mahsilar tikardi. 1941 yilda Ikkinchi jahon urushida qatnashib Sevastopol, Kerch, Kpasnodar shaharlarini ozod qilishda qahramonlik ko'rsatdi. 1945 yili urushdan qaytib kelib kasbini davom ettirdi[15,B.3].

Sherobod tumanidan tashqari viloyatning Termiz, Sho'rchi, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on kabi shahar va tumanlarida ham etikdo'zlar maishiy xizmat ko'rsatish kombinatidagi sexlarda faoliyat ko'rsatgan[5.B.53]. Termiz shahridagi "Rodina" nomli maishiy xizmat ko'rsatish kombinatida 1961 yilda jami 258 ta ishchidan 14 tasi etikdo'zlik tsexi ishchilari edi. Hayitov Ya. X., Haimov S.D., Ganafiyev I.G., Hayitov A., Yagudaev A., Ashurov I.A., So'fiyev A.A., Gamzatov T., Isayev R. lar shular jumlasidandir[12,B.62.]. Ushbu arxiv ma'lumoti orqali tadqiq etilayotgan davrda ya'ni, 1960-yillarda viloyatda poyabzalni ta'mirlash va etkazib berish yomon holatda ekanligini bilish mumkin. 1960 yildan qo'l to'quvchiligiga asoslangan barcha artellar tugatilishi munosabati bilan mexanizasiyalashgan to'quvchilik korxonalari ishlay boshladi.

Sovet davrida hunarmandchilikning badiiy kashtachilik turi rivojlangan bo'lib, portret va syujetli pannolar tikish yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Shunga qaramay, janubiy hududlar kashtachiligida o'ziga xos mahalliy xususiyatlar saqlanib qolgan. Jumladan, O'zbekiston Davlat San'at muzeyida Surxondaryoning Sho'rchi, Boysun (Sino, To'da qishloqlari), Sherobod, Sariosiyo (Dashnobod qishlog'i), Denov tumanlari kashtado'zlari tomonidan tikilgan devor, zardevor, joynamoz, joypo'sh, bo'g'joma napramach (ashyolar uchun xalta), oynaxalta, to'rva, do'ppi, belbog' va boshqa kashtachilik buyumlari saqlanadi[6.B.195].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mustaqillik yillarida xalq hunarmandchiligi, xalq madaniy merosi, an'anaviy milliy qadriyatlarni puxta saqlash, hunarmandlarga g'amxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyat va uni rivojlantirish, hunarmandchilikni saqlash va

muhofaza qilish tabiiy jarayonga aylandi. Yangi O'zbekistonda milliy hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham Surxondaryo aholisining

hunarmandchilik an'analarini tarixiy aspektda tadqiq etish nafaqat ilmiy, ayni paytda amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Abdurahobov.B.Yu. Amaliy san'at muzeyidagi do'ppilar kolleksiyasi:- Toshkent. 2009.- B.127.
2. Aliyeva S. Sh. IX -XXI asr boshi O'zbekiston sirlangan kulolchiligi rivojlanishining asosiy bosqichlari va badiiy xususiyatlari . Avtref san. fan doktori (DSc) diss. –Toshkent, 2018.
3. Davlatova S.T. O'zbekistonning janubiy hududlari an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (XIX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlari).:Tarix fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2019.
5. Esonova O. Ettinchi avlod ustasi. // San'at. №3-4. 2006.37-bet.
6. Ismailova E. K semantike tyubeteyki-doppi. San'at. 1999. №2.S.22.
7. Lenin bayrog'i gazetasi, 1974 yil 4 noyabr.
8. Lenin bayrog'i gazetasi, 1974 yil 31 dekabr.
9. Lenin bayrog'i, 1977 yil, 25 sentyabr.
10. Lenin bayrog'i gazetasi, 1982 yil 15 iyun.
11. Lenin bayrog'i gazetasi, 1971 yil 13 iyul.
12. Масимов И. Керамическое производство Южного Туркменистана эпохи бронзы. Ашхабад: Илим, 1976.С.109.
13. Normatov N., Boyqulov M., Poshxurdning oltin devorlari, T;. “San'at” jurnali nashriyoti, 2013.-B.87.
14. Pardayev E. San'atkor kulol, Lenin bayrog'i gazetasi, 1972 yil 11 iyul, -B.2.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 258 -jamg'arma, 2- ro'yxat, 94- ish, 62-varaq.
16. Турсуналиев К. Все света радуги. Ташкент.1991.-С.56.
17. Tursunov S., Pardayev T., O'zbekiston tarixi va madaniyati-Surxondaryo etnografiyasi, T.; Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. -B.94.
18. Tursunov S, Qobulov E., Pardayev T, .Murtazoyev B. Surxondaryo tarixi — T.: – Sharq. — 2004. -B .328.
19. Termiz shahar ShTHA, 544-jamg'arma, 2-ro'yxat, 2- ish, 23-varaq.

TALABALARDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA XAMJIXATLIK TO'G' RISIDAGI BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANI MISOLIDA)

Yusupova Sevara Nizamitdinovna,

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0008-0109-4477>

Bakhronov Bekhruz,

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

UDK: 94(575.1).

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash va bilimlarni rivojlantirishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, yurtimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: demokratik islohotlar, Harakatlar strategiyasi, siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, milliy-etnik munosabatlar, qadriyatlarini saqlash, ko'p millatli xalq.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности воспитания студентов и развития знаний в духе религиозной толерантности и межэтнического согласия. Также были рассмотрены реформы, которые предстоит реализовать в этой сфере в нашей стране.

Ключевые слова: демократические реформы, Стратегия действий, политическая стабильность, межэтническое согласие, национально-этнические отношения, сохранение ценностей, многонациональный народ.

Abstract: This article provides information about the importance of educating students and developing knowledge in the spirit of religious tolerance and inter-ethnic harmony. Also, reforms to be implemented in this field in our country were considered.

Key words: democratic reforms, Action Strategy, political stability, inter-ethnic harmony, national-ethnic relations, preservation of values, multi-ethnic people.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/

INTRODUCTION). Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan o'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish va faol demokratik islohotlarni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu ulkan o'zgarishlar davomida xalqimizning boy tarixi, noyob milliy qadriyatlari, bebaho ilmiy va madaniy merosi tiklandi va butun insoniyatning noyob mulkiga aylandi. Vatanimiz tarixini birlamchi manbalarga asoslangan holda har tomonlama va chuqur o'rganish yosh avlodni barkamol shaxslar etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, rivojlantirish borasida yangi imkoniyatlar yaratildi. Bag'rikenglik o'zbek xalqiga xos bo'lgan chinakam islomiy fazilatdir. U samimiyat, ochiq muloqot hamda vijdon va e'tiqod tufayli vujudga keladi. Shuningdek, u faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, yon-atrofimizda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini rivojlantirish, yurtimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu bilan millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi[1].

МУНУОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bizga ma'lumki, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y

bermoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Yuqorida keltirilgan davlatni rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda alohida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun kafolat bo'la oladi, deb ayta olamiz. Xalqimizga xos bag'rikenglik ham o'zining qadimiy ildizlariga ega. Mamlakatimizda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta'minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashda, fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg'usini shakllantirishda, yurt istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishda xalqimizning bag'rikenglik xislati asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ming afsuski, hozirgi vaqtga kelib, ba'zi davlatlarda milliy-etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi turli ko'rinishdagi nizo va kelishmovchiliklarga olib kelayotganini barchamiz eshitib, ko'rib turibmiz. Bunday tahdidlarni bartaraf etish oldimizdagi muhim vazifalardan biridir. Yurt osoyishta bo'lishi, turli millatlar ahil yashashi uchun eng avvalo, millatlararo munosabatlarda bag'rikenglik, bir millatni boshqasidan ustun qo'ymaslik tamoyillariga amal qilinishi lozim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab kelishmoqda. Ularning huquq va erkinligi, manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, an'ana

hamda qadriyatlarini saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi va qadr topdi.

Hozirgi vaqtda diyorimizda Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Ushbu markazning bugungi kundagi asosiy vazifasi millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mamlakatimizdagi turli millat vakillarining milliy-ma'naviy urf-odat va an'alarini saqlab qolishga ko'maklashish, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligini alohida e'tirof etish lozim. Yurtimizning qator shahar va tumanlarida turli xalqlarning milliy-madaniy markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar har xil millat farzandlarining o'ziga xos do'stlik koshonasiga aylangan. Respublikamiz ta'lim muassasalarida esa o'quv dasturlari o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va boshqa qardosh xalqlarning tillarida olib borilmoqda. Radio va televideniyelar o'z eshittirish va ko'rsatuvlarini bir necha tillarda uzatadi. Shuningdek, 10 dan ortiq tillarda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Tabiiyki, bu yerda har xil millat vakillari o'zlariga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rliklarga javoban davlat boshqaruvi ishlarida, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotda faol va erkin qatnashmoqdalar. Dunyoda milliy-etnik munosabatlar tobora murakkablashib, hatto eng ilg'or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, xo'rlash va siqib chiqarish holatlari kuzatilayotgan bir davrda diniy bag'rikenglik, totuvlik, o'zaro hamkorlik masalasi mamlakatlarning tinchligi va taraqqiyoti uchun eng muhim tamoyillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarning bir jamiyatda diniy bag'rikenglik, dinlararo o'zaro hamkorlik tamoyillari asosida, tinch-totuv va teng huquqli tarzda hayot kechirishlari avvalo shu jamiyat gultoji bo'lgan insonlarga bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, har birimiz jamiyatdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi oliyjanob fazilatlarni qaror toptirishda,

ajdodlardan meros milliy va umumbashariy qadriyatlarimizni davom ettirish va asrash har birimizning burchimizdir. Xususan, “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgani yuksak e‘tiborining namunasi hamdir. Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72–sessiyasida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani jahon hamjamiyatining diqqatini tortgan edi[2]. Mazkur hujjat barchaning ta‘lim olish huquqini ta‘minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish, eng muhimi, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta‘minlashga qaratilgani bilan e‘tiborga molikdir. O‘zbekistonda turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasidagi ahil–inoqlik, hamjihatlikni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, tinchlik–osoyishtalik, barqarorlikni saqlash yo‘lida olib borilayotgan oqilona islohotlar, amaliy chora–tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari Konstitutsiya va qonunlarida belgilab qo‘yilgan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, milliy totuvlik va hamjihatlikda istiqomat qilishmoqdalar, Yurtimiz taraqqiyoti va uning gullab-yashnashiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shmoqdalar. Yurtimizda barcha xalqlar va millatlar uchun millatlararo totuvlikni ta‘minlash Konstitutsiyamiz va joriy qonunlar bilan mustahkamlangan. Demak, bosh qomusimizdagi milliy siyosatning asosiy maqsadi xalqimizning etnik va boshqa belgilaridan qat‘i nazar yagona O‘zbekiston xalqi sifatida jipslashuvi va birligiga erishishdir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim va fan

sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning maqsadi talabalarni diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashni ijtimoiy pedagogik muammo sifatida pedagogik ta‘lim sohasining asosiy markazida o‘rganishga e‘tibor qaratmoqda[3]. O‘zbekistonning milliy siyosat modeli uning tashqi siyosat sohasidagi faoliyatida ham o‘z ifodasini topgan. Respublikamiz millat va elatlar huquq va erkinliklarni muhofaza qilishga doir xalqaro bitimlarni amalga oshirish xalqaro maydonda etnik birliklarning huquqlarini ta‘minlash masalasiga doir tamoyillar ishlab chiqish jarayonida ham faol qatnashmoqda. Xususan, O‘zbekiston fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, irqiy kamsitishlarning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya, genotsid jinoyatlarining oldini olish va unga nisbatan jazolar to‘g‘risidagi konvensiya, millati, elati, dini yoki tili nuqtai nazaridan kam sonli bo‘lgan guruhga mansub shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya kabi qator hujjatlarni imzolagani ham mazkur yo‘nalishdagi harakatlar ko‘lamini belgilab beradi[4].

Bugungi kunda mamlakatimiz ta‘lim tizimida tadqiq qilinayotgan ta‘lim standartlariga asosan oliy ta‘limning bakalavriat ta‘lim sohasida talabalar bilimi, tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi, diniy-ma‘rifiy qarashlari, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalanishida o‘quv-tarbiya fanlari bo‘yicha beriladigan bilimlarni chuqur va mustahkam egallab olishlarida talaba dunyoqarashining shakllanganlik darajasida bilimga ega bo‘lishi, davlat siyosatining dolzarb masalalarini, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi e‘tiborga olingan. Chunki, tabiat va jamiyatda kechayotgan barcha jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishlik, umumkasbiy bilimlarni egallash hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarga asosan jamiyat hayotida hamda talaba kasbiy faoliyatida foydalana bilishi, ilmiy tasavvur va diniy e‘tiqodga ega bo‘lishi alohida o‘rin egallaydi. Demak, talabalarni diniy-bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda ma‘naviy-axloqiy axborotlarni

yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallay olishlari, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila olishi, yangi bilimlarni mustaqil holda egallashi, mustaqil fikr yuritishi, o'z faoliyatini tashkil eta olishi, Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi, millatlararo munosabatlarda diniy bag'rikenglik munosabatlari muhim o'rin egallaydi[5]. Talabalarni diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan biri, ta'limiy-tarbiyaviy pedagogik jarayonlarni o'rganishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, shaxsning insoniyat madaniyatini tashkil etadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni anglab yetishi, e'tirof qilishi hamda faollashtirish va yaratuvchanlikka bo'lgan harakatga yo'naltirish bilan belgilanadi. Pedagogik ta'lim va tarbiyada talabalarni diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalasi inson hayotidagi milliy va diniy qadriyatlarni, ta'lim-tarbiyani, pedagogik faoliyat va yaxlit ta'limni tushunish hamda qaror toptirish asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida milliy va diniy qadriyatlarning inson hayoti uchun xizmat qilishiga intilish pedagogikaning rivojlanishi va shakllanishining barcha bosqichlarida inson va jamiyat munosabatlari asosida paydo bo'lgan. Ana shu holat ta'limda talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda umumadaniy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalashda amaliy va nazariy bilish o'rtasidagi aloqa mexanizmida asosiy rolini milliy va umuminsoniy qadriyat yoki nazariya bilan amaliyot o'rtasida o'ziga xos «ko'pri» sanalgan diniy va umuminsoniy qadriyatli yondashuv asosida bajaradi. Shu jihatdan adolat, ezgulik, vijdonlilik, insof, hayot, sog'liq, muhabbat, ta'lim, mehnat, oila, tinchlik, go'zallik, axloqiy va jismoniy yetuklik, ijodkorlik kabi qadriyatlar insonlarni barcha zamonlarda o'ziga jalb etib kelgan.

O'zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosati bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda yangi bosqichiga ko'rsatilib bormoqda.

O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borayotgan siyosati, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan intellektual salohiyatga ega, jismonan sog'lom, axloqan pok, ma'naviy yetuk mutaxassislarni tayyorlashni kun tartibiga qo'ymoqda. Pedagog va faylasuf olimlar O.Musurmonova, N.Erkaboyeva, E.V.Ilenkov, J.Tulenov, Q.Nazarovlarning tadqiqotlarida ham yosh-avlod tarbiyasida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalalariga to'xtalganida ma'naviyat, ma'rifat, axloq, tarbiya tushunchalari bir-biridan farqli jihatlariga to'xtalgan. O.Musurmonova o'z tadqiqotlarida milliy va umummilliy tarbiyaning eng muhim jihatlarini yoritarkan, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida qiyosiy o'rganilmagani, kishilarning milliy va diniy qadriyatlar haqidagi tushunchalari chegaralanganligi, ta'lim-tarbiya mazmunida qadriyatlarga e'tiborning yetarli emasligi, bu borada tajribalarning kamligiga e'tiborni qaratishni tavsiya etadi.

Pedagogik ta'lim va tarbiyada talabalarni diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalasi inson hayotidagi milliy va diniy qadriyatlarni, ta'lim-tarbiyani, pedagogik faoliyat va yaxlit ta'limni tushunish hamda qaror toptirish asosida amalga oshiriladi[6]. Ta'lim tizimida milliy va diniy qadriyatlarning inson hayoti uchun xizmat qilishiga intilish pedagogikaning rivojlanishi va shakllanishining barcha bosqichlarida inson va jamiyat munosabatlari asosida paydo bo'lgan. Ana shu holat ta'limda talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. N.Erkaboyeva tadqiqotlarida yoshlar tarbiyasiga to'xtalar ekan, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari bo'yicha mutaxassislarni tayyorgarligida ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish orqali axloqan pok, kasbga sadoqatli, yuksak mahoratga va intellektual

salohiyatli, Vatan va xalqi uchun jonini fido eta oladigan, qiyinchiliklardan qoʻrqmaydigan, Vatanga xizmat qilishda barcha murakkabliklariga bardosh bera oladigan fidoyilarni tayyorlash eng dolzarb masalalardan sanaladi. Bu dolzarb muammoni hal etishda taʼlim-tarbiya isteʼmoliga talabalarni oʻzaro totuvlik ruhida tarbiyalash orqali vatanparvarlik va maʼnaviy-axloqiy yuksaklikni tarbiyalash bugungi kunda kasb mahorati bilan birga intellektual salohiyatni ham tarkib toptiradi. Shunga koʻra, milliy vatanparvarlik, maʼnaviy-axloqiy, estetik fanlarni oʻqitishda uygʻunlik muhim ahamiyatga ega deb eʼtirof etganligi ham bejiz emas.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa oʻrnida shuni alohida taʼkidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimiz taʼlim tizimida tadqiq qilinayotgan taʼlim standartlariga asosan oliy taʼlimning bakalavriat taʼlim sohasida talabalar bilimi, tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi, diniy-maʼrifiy qaprashlari, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalanishida oʻquv-tarbiya fanlari boʻyicha beriladigan bilimlarni chuqur va mustahkam egallab olishlarida talaba

dunyoqarashining shakllanganlik darajasida bilimga ega boʻlishi, davlat siyosatining dolzarb masalalarini, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi eʼtiborga olingan. Chunki, tabiat va jamiyatda kechayotgan barcha jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega boʻlishlik, umumkasbiy bilimlarni egallash hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarga asosan jamiyat hayotida hamda talaba kasbiy faoliyatida foydalana bilishi, ilmiy tasavvur va diniy eʼtiqodga ega boʻlishi alohida oʻrin egallaydi. Demak, talabalarni diniy-bagʻrikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda maʼnaviy-ahloqiy axborotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallay olishlari, oʻz kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila olishi, yangi bilimlarni mustaqil holda egallaishi, mustaqil fikr yuritishi, oʻz faoliyatini tashkil eta olishi, Vatan tarixini bilishi, maʼnaviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuzasidan oʻz fikrini bayon qila olishi, millatlararo munosabatlarda diniy bagʻrikenglik munosabatlari muhim oʻrin egallaydi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida. 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
2. Mirziyoyev Sh.M. Maʼnaviyat-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining oʻzaro hamkorligini kuchaytirish masalalariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida 19-yanvar kuni maʼruzasi 2021 yil
3. Rasulova M., Talabalarni diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy pedagogik zaruriyati. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023
4. Права человека. Выпуск 1. –Ташкент: 1997
5. Erkaboyeva N. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi (1992- 2005 y.y.): Dis. ... ped. fan. dok. – T.: OʻzPFITI, 2007... – 323 b
6. Musurmonova O. Maʼnaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: Oʻqituvchi, 1996. – 192 b.

РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНING ТУРКИСТОНДА МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИ (БЮДЖЕТ САРФЛАНИШИ МИСОЛИДА)

Ирискулов Бекзод Жахонгирович,

Ўзбекистон-Финландия педагогика институти ўқитувчиси

UDK: 94(575.1).

<https://orcid.org/0009-0002-4255-2113>

Аннотация: Ушбу мақолада Туркистон генерал-губернаторлиги бюджетининг барча соҳаларга ажратилган маблағлари ва унинг динамикаси таҳлил қилинган. Шунингдек, Қишлоқ хўжалиги ва ер бошқаруви вазирлиги ҳамда Алоқа йўллари вазирлигининг харажатлари статистик маълумотлар асосида ёритилган.

Калит сўзлар: Қишлоқ хўжалиги статистикаси бўлими, Империя газнаси, ўрмон бўлими, кўчириш бошқармаси, импорт божи, Хўжалик, Саноат ва Савдо вазирлигининг харажатлари

Аннотация: В данной статье проанализированы средства, выделенные бюджетом Туркестанского генерал-губернаторства на все сферы и его динамика. Кроме того, расходы Министерства сельского хозяйства и управления землей и Министерства путей сообщения освещаются на основе статистической информации.

Ключевые слова: Отдел статистики сельского хозяйства, сокровищница Империи, отдел лесного хозяйства, управление переселения, импортная пошлина, расходы Министерства сельского хозяйства, промышленности и торговли

Abstract: In this article, dynamics of the budget of The Turkestan General Governorate and funds allocated to all sectors is analyzed. Also, the funds spent by Ministries of Agriculture and Land Management, and Communications are shown based on statistical data.

Keywords: Department of Agricultural Statistics, Treasury of the Empire, Forest

Department, Resettlement Department, Import Duty, Household, Expenditure of the Ministry of Industry and Trade.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION).

Империянинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати генерал-губернаторлик бюджетининг барча соҳаларга ажратилган маблағлар ва унинг динамикасида ҳам ўзининг яққол ифодасини топган. Бунга мисол қилиб Қишлоқ хўжалиги ва ер бошқаруви вазирлигининг харажатларини кўрсатиш мумкин. Улар расмий равишда халқ хўжалигига харажатлар сифатида намоён бўлади ва мохиятан мустамлакачилик харажатлари ҳисобланади. Бу харажатлар XX аср 90-йилларининг бошидан нихоятда тез ўсди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

1913 йилга келиб Туркистон генерал-губернаторлигида халқ хўжалиги харажатларининг ҳукумат сметасидаги улуши 19,8 фоизга етди ва шунга қарамай империянинг бошқа ҳудудларига нисбатдан жуда кам миқдорни ташкил қилди. Шу нарса эътиборлики, соҳага ажратилган харажатлар ичида ҳатто Туркистон халқ хўжалиги учун энг муҳим соҳа ҳисобланган ирригация каби муҳим тармоқ ҳам аҳамиятга олинмаган эди. Агарда Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, махсус бўлим ва “земство” харажатларини қўшсак, улар 1895 йилдан 1917 йилгача бўлган вақтда қуйидаги ҳолатни ташкил қилади (минг руб ҳисобида):

№	Асосий бажариладиган ишлар	Ер ишларининг жойлардаги бўлимлари	Кўчириш бошқармаси	Махсус бўлим	Жами
1	Тадқиқ қилиш ва лойиҳалаш	9200	1140		10340
2	Суғориш иншоотларини қуриш	15529	1499	7500	24526
3	Жами	24720	2639	7500	34868

Шундай қилиб, 1896 йилдан 1917 йилгача 23 йил давомида суғориш харажатлари “земство” учун сарфланган харажатлар билан бирга 36 миллион рублни ташкил этди. Таққослаш учун 20 йил давомида ҳарбий харажатлар миқдори қишлоқ хўжалиги учун сарфланган маблағлар миқдоридан беш баробар кўпроқни ташкил этиб, 1895 йилдан 1913 йилгача ва 1915 йил учун 219,2 миллион рубль эди. Маълумот ўрнида келтириш керак, 14 йил мобайнида, яъни 1869–1882 йиллар оралиғида ўлкадаги умумий харажатлар миқдори 130 млн. рублни ташкил этган эди[1].

Умуман олганда Россия империяси ўлкадаги мавжуд бойликларни тасарруф қилиш мақсадида кўшинлар харажатларига катта эътибор қаратди. Мустамлака Туркистон ҳудудини қамраб олган маъмурий-полиция маҳкамаларини таъминлаш учун ажратилган пул ва махсус маблағлар айланмаси қолган соҳаларга нисбатдан анча юқори бўлиб, 1903 йилда 95.144.330 рублни ташкил этган[2]. Бу рақамлар ўлкада империя ҳукуматининг барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш учун йирик пул маблағлари сарфланганидан дарак беради. Шу боисдан суғориш харажатларининг аҳамиятсизлиги империя ҳукуматида ҳам аён эди. Бу ҳақда империянинг ер тузилиши ва қишлоқ хўжалиги бошлиғи Крявошеин шундай ёзади: “...ҳозиргача, рус ҳукумати минтақани суғориш учун жуда кам иш қилди. Ҳолбуки, ҳатто қадимий давр босқинчилари ҳам ўз номларини баъзи янги йирик суғориш тизимлари билан боғлашган, бу соҳада ханузгача Россия империяси давлат муассасалари ва

империя ғазнаси томонидан деярли ҳеч қандай ислохотлар амалга оширилмади, биз буни тан олишимиз керак”[3]. Биз буни қуйидаги ажратилган маблағлар мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Қишлоқ хўжалиги ва ер хўжалиги вазирлигининг сметаси харажатлари ер тузиш ва қишлоқ хўжалиги бош маъмурияти (1913 йилда 68,0 минг рубл), давлат ер мулки бўлими (97,8 минг рубл), қишлоқ хўжалиги бошқармаси . (584,9 минг рубл), қишлоқ хўжалиги ва қишлоқ хўжалиги статистикаси бўлими (5,7 минг рубл), ерни яхшилаш бўлими (1890,6 минг рубл), ўрмон бўлими (39,1 минг рубл), кўчириш бошқармаси (713,7 минг рубл)дан иборат эди[4].

Диккат билан қаралса, барча бу бўлимлар харажатларининг мустамлакачилик мазмунини аниқ кўрсатади. 1912 йилдаги умумий харажатлардан (3270 минг рубл) ботқоқликларни қуриш, ерни суғориш ва суғориш харажатлари 1883 минг рублни (42,3%) ташкил этади. Бу мустамлакачилик харажатлари эди. Суғориш тизимларининг кўпайтирилиши ва бошқа ишлар натижасида янги очилган ерлар ерсиз ва камбағал деҳқонларга эмас, балки кўчириб келинганлар учун давлат мулки бошқаруви буйруғи билан амалга оширилди. Бу жараён империя маъмуриятининг бевосита назорати асосида ташкил қилиниб, айти мустамлакачилик манфаатларини ифода қилар эди. Бу тўғрисида Мирзачўл (Голодностепенский) канали қурилиши муносабати билан кунлик газеталар шундай ёзган эдилар: “Бир нарсани айтиш мумкинки, 45 минг десятина ер

суғорилганда ундан ҳам мустамлакачилик мақсадларида ҳам даромад олишда фойдаланиш мумкин”[5].

Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 1912 йилдаги худди шундай хисоб-китобига кўра, маблағларнинг 22,4 фоизи кўчириш бўлими ихтиёрига тушган. Бу харажатларнинг мустамлакачилик характерини исботлашнинг хожати йўқ. Шундай қилиб, қишлоқ хўжалиги ва ерни бошқариш сметасининг 64,7% тўғридан-тўғри мустамлакачиликка кетган. Қолган 35,3% нинг 11,6% давлатнинг ўрмон худудларига хизмат кўрсатувчи ўрмон бўлими харажатларига, 14,8% эса агротехника ишлари учун қишлоқ хўжалиги бўлими ихтиёрига тушган. Бу 14,8% йилига 484 минг рублни ташкил этиб, маблағ ҳатто ўлкадаги мавжуд уй хўжаликларига хизмат кўрсатиш учун ҳам етарли эмас эди. Таъкидлаш керакки Туркистонда бу даврда ҳар бир агроном-инструктор 90 минг десятина ерга хизмат кўрсатиши керак бўлган.

Шундай қилиб, Туркистон ўлкасида қишлоқ хўжалиги, хусусан пахтачиликни ривожлантириш учун Россия империясининг давлат бюджетидан ажратилган маблағлар катта аҳамиятга эга бўлмади. Шунда ҳам экин майдонлари асосан шахсий ташаббус ҳисобига жадаллик билан кенгайиб борди. Бутун Туркистон ўлкасида пахта майдони 1895 йилда 14252 десятина ҳисобланган бўлса, 1910 йилда 324790 десятина, 1916 йилга келиб 533671 десятинага кўпайган, яъни кўрсатилган йиллар орасида экин майдони икки маротабадан ортиқ даражада ошди[6]. Умуман, Россиянинг Туркистонда ўтган ярим аср ҳукмронлиги мобайнида пахта экин майдонлари 7 баробарга, пахта ҳосили эса 1400 мартага кўпайди[7].

Ўлкада пахта яккахокимлигини ўрнатиш ҳақидаги ғоя тарафдорлари ҳам талайгина бўлган. Хусусан, генерал-губернатор ҳам буни қўллаб-қувватлаб, тадбир ҳукуматга йилига 70 миллион олтин рублни тежашга имконият яратишини таъкидлайди[8]. Шу каби фикр ва талаблардан келиб чиқиб, империя

ҳукмрон доиралари соҳа бўйича маълум тадбирларни амалга оширган бўлса-да, бироқ ажратилаётган маблағлар миқдорида ҳеч қандай ўзгаришлар кузатилмади.

Таъкидлаш керак, ўлкадаги пахтачилик соҳасини ривожлантиришда Россия империясининг айрим умумиқтисодий ва молиявий чора-тадбирлари ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлди. Империя томонидан амалга оширилган молиявий чора-тадбирларга қуйидагилар киради: 1) чет эл пахтасига импорт божини босқичма-босқич ошириш, бу эса ички бозорда пахта нархининг ошишига олиб келади; 2) кредитни ташкил этиш; 3) пахтага ер солиғи бўйича имтиёзли солиқ солиш, унинг рентабеллигини дон экинлари рентабеллиги билан тенглаштириш[9].

Соҳа доирасида қўлланилган чора-тадбирларнинг фойдасини махсулотнинг асл эгалари (деҳқонлар) эмас, аксинча пахта олди-сотдиси билан шуғулланган қишлоқнинг бой табақалари, фирма ва фабрикалар эгалари ва ҳар хил воситачилар кўрди. Бу ҳолатни А.П.Демидовнинг қуйидаги сўзлари ҳам тасдиқлаб турибди: “Ижтимоий-техникавий ва иқтисодий шароитлар ҳаммаси бўлса-да, оддий деҳқон пахтачиликдан унчалик катта фойда кўрмасди. Пахтачиликдан қанча кўп фойда кўрса, савдо-сотиб олиш аппарати ҳам шунча кучайиб борди”[10].

Чет эл пахтасига боғларнинг оширилиши деҳқонлар учун ўз аҳамиятини йўқотди, бунга сабаб ер солиғини ҳисоблаш ва ундириш тизими, нон ва ем-хашакнинг қимматлиги, автоматлаштирилмаган қайта ишлаш, ишчи кучига бўлган эҳтиёж, пахтага имтиёзли солиқ солиш, кредит нархининг юқорилиги пахта нархининг ошишига олиб келди. Бу эса империянинг ўлка аграр соҳасидаги қўллаган молиявий тадбирларининг муваффақиятсизлигини кўрсатиб қўйди.

Ўлкада пахта етиштиришнинг кўпайиши ўз навбатида бу ерда етиштириладиган донли ва бошқа экинлар майдонининг қисқаришига олиб келган.

Туркистонда ғалла тақчиллигига йўл қўйиш эса оғир оқибатларга олиб келиши мумкинлиги 1892 ва 1893 йилларда кузатилган эди. Ушбу йилларда Фарғона вилояти ва Тошкент уездларига катта даромад илинжида кўплаб ғалла майдонларига пахта экилганлиги оқибатида ғалла тақчиллиги юзага келиб, уннинг нархи мисли кўрилмаган даражада ошиб кетган эди. Оддий уннинг бир пуди 2 рублдан сотилган, Марғилонда оддий ундан пиширилган ноннинг бир фунти 10 копеекча кўтарилиб кетган эди[11]. Шунга қарамасдан, ўзининг саноат эҳтиёжларини ўлка бойликлари ҳисобига қондириш мақсадида империя ҳукумати пахтачиликка катта эътибор қаратган эди.

Ўлкадан Россияга асосан пахта ва пахта маҳсулотлари, пилла ва ипак, шойи, юнг каби табиий-хомашё ресурслари ташиб кетилган. Россиядан эса, турли мануфактура буюмлари, тайёр фабрика маҳсулотлари Туркистонга кириб келган. Арзон саноат маҳсулотларининг кириб келиши ўлкада шу давргача аҳамиятли бўлган хунармандчилик маҳсулотларига бўлган талабнинг сезиларли даражада камайишига, бу соҳа вакиллариининг эса ишсизланиб қолишига олиб келган.

Агар тўғридан-тўғри мустамлакачилик харажатлари ҳақида гапирмасак, Туркистон генерал-губернаторлигининг ҳисоб-китобларига кўра халқ хўжалиги учун катта миқдордаги маблағлар фақат ҳарбий-стратегик мақсадлар ва темир йўл қурилиши учун ишлатилиши кўзда тутилган, чунки ўша давр тадқиқотчиси М.П.Федоров таъкидлаганидек, “Туркистонни тинч маданий йўл билан бўйсундиришда хазинадан сарф бўлган миллионлар ортиғи билан қайтишини мустамлакачилар жуда яхши билардилар. Шу сабабли улар Туркистоннинг моддий бойликларини батамом эгаллаб олиш ва ундан энг юқори даражада фойдаланиш учун маблағларни аямадилар”[12]. Ҳақиқатан ҳам, бу вақтга келиб Россияда темир йўл қуриш кенг авж олган бўлиб, давлат хазинасидан катта маблағ фақат шу соҳага ажратиляётган эди. 1898 йил

ноябрида молия вазири С.Витте император Николай II га қилган докладида биргина Сибир темир йўлини қуриш учун 386 млн. рубль маблағ сарфланганини маълум қилган эди[13].

Кези келганда айтиш керак, деярли 90% Ўрта Осиё темир йўл тармоғи давлат бюджети ташаббуси ва маблағлари ҳисобидан қурилган. Темир йўллар вазирлигининг маълумотларига кўра, биринчи маблағлар аҳамиятсиз миқдорда бўлган ва фақат 1879 йилда 12,7 минг рублни ташкил қилган. 1881–1888 йилларда Самарқандгача бўлган Транскаспий темир йўли ҳарбий-стратегик мақсадларда қурилган, 1899 йилда Тошкентгача давом эттирилган. 1887–1897 йилларда ажратилган маблағлар йилига 3 минг рубл атрофида бўлган, кейин эса кескин ошган (минг руб ҳисобида)[14].

Маълумот ўрнида, 1898 йилда Марв-Қушка стратегик темир йўл линияси ва Андижон темир йул линияси қурилган, 1900–1906 йилларда эса Тошкент-Оренбург темир йўли қуриб битказилган. Тошкент-Оренбург темир йўлининг қурилиши учун умумий харажат тахминан 120 млн. рублни ташкил қилган. Шундан йўлнинг шимолий қисми учун 56,3 млн. рубл, жанубий қисми қурилишига эса 62,6 млн. рубл маблағ сарф қилинган[15].

1907 йилдан Алоқа йўллари министрлигининг харажатлари кескин камайиб бошлайди. Бунга эса ўлкада темирйўлларнинг асосий тармоқлари қуриб битказилганлигини сабаб қилиш мумкин.

Манбалар Тошкент темир йўли ўз фаолиятининг дастлабки йиллариданоқ кўпгина бошқа янги ишга тушган темир йўлларида фарқли равишда, ўзининг харажатларини деярли қоплаб, фойда келтира бошлаганлиги ҳақида маълумот беради[16]. Хусусан, 1910 йилда йўлдан фойдаланиш харажатга нисбатан даромад 7 миллион рублни, 1911 йилда эса 8 миллион рублдан ошиқроқни ташкил этган[17].

Тошкент-Оренбург темир йўлининг қурилиши муайян даражада Россия

империясининг Туркистон ўлкасидан оладиган умумий даромади хажмининг ошишига олиб келди. Чунки, айнан темир йўл ишга туширилган 1906 йилдан бошлаб империянинг ўлкага қилган харажатларига нисбатан даромадлари кўпроқ қисмини ташкил эта бошлади, вахоланки, ўлка забот этилганидан 1906 йилга қадар харажатлар даромадлардан кўра ортиқроқ бўлаётган эди[18].

Ўрта Осиё темир йўли чор ҳукумати стратегик мақсадларида бунёд этилди. Аммо темир йўллар кейинчалик Россиянинг Ўрта Осиё мустамлакалари халқ хўжалигини капиталистик муносабатлардаги таъсирини кучайтиришда ҳам муҳим роль ўйнади. Туркистондаги темир йўллариининг қурилиши рус капиталистларининг хом ашё ва маҳсулотларни ташишга сарфлаган харажатларини сезиларли даражада камайтирди ва Россия капитали учун Ўрта Осиё бозорининг кенгайишига ёрдам берди, лекин бу маҳаллий аҳоли катта қисмининг ахволини ёмонлаштирди.

Оренбург газетаси ўзининг 1908 йилдаги бир сониди Ўрта Осиё темир йўллариининг аҳамияти ҳақида шундай ёзган эди: “Туркистонда пахта етиштириш дастлаб Закаспий (1884), сўнгра 1898 йилда бутун Ўрта Осиё темир йўли қурилиши билан каттик боғланган ва пахта саноатини яратишга катта ҳисса қўшган. Фақат бу темир йўл қурилишидан Чор

Россия сўнги 23 йилда Туркистондан 80,5 миллион пуд пахта олган, бу эса 665 миллион рублни ташкил қилади. Албатта, бу пахта етиштириладиган ерларда бугдой етиштириш мумкин эди, лекин пахта хосилидан келадиган даромад 120 рублдан кам эмас эди, бу эса бугдойдан (30 рубл), камида тўрт баравар кўпдир. Шундай қилиб, 664 миллион рублдан 25% айирсак биз 463 миллион рубл оламиз. Бу Каспийорти ва Ўрта Осиё темир йўллари очилгандан бери Россия империяси фойда қилган пул миқдоридир”[19].

Хўжалик, Саноат ва Савдо вазирлигининг харажатлари Туркистон генерал-губернаторлиги харажатлар сметасида фақат 1905 йилдан пайдо бўлган ва арзимаган 23,5 минг рублни ташкил қилган. 1913 йилда Саноат ва Савдо вазирлиги максимал захирага (41,5 минг рубл) етишган, бу эса барча харажатларнинг 0,18% ни ташкил этди. Бу вазирлик вилоятлардаги саноат ва савдо корхоналарини назорат қилган ва бу харажатлар бошқармага ишлатилган эди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, темир йўллар қурилиши, шубҳасиз, империя ташқи савдосининг ривожланишига жуда катта туртки берди. Бироқ бу савдо ўлка аҳолиси катта қисмининг моддий ахволини оғирлашувга ҳам сабаб бўлди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. Обзор Сыр-Дарьинской области за 1886 г. – Ташкент, 1887. – С. 95.
2. Ўз МА, I 88-фонд, 1-рўйхат, 203-иш, 20-варақ.
3. Записки главноуправляющего земледелием Кривошеина о поездке в Туркестанский край в 1912 г. – СПб., 1912. – С. 48.
4. К вопросу об орошении Голодной Степи // Туркестанский сборник. Том 456. – С. 19.
5. К вопросу об орошении Голодной Степи // Туркестанский сборник. Том 456. – С. 20.
6. Статистический ежегодник 1917–1923 гг. / Под ред. Д.П. Красновского. – Ташкент: Центральное Статуправление Туркеспублики, 1924. – Т. 1.
7. O‘zbekiston tarixi. VI jild. O‘zbekiston tarixi va manbalari. 1860–1917-yillar / mas’ul muharrir D.N. Ziyoyeva. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – B. 362.
8. ЎзМА, I 1-фонд, 5-рўйхат, 939-иш, 5-варақ.
9. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих

шоҳидлиги ва сабоқлари (1865–1990 йиллар). Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 117.

10. Демидов А. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промышленности в Туркестане. М.: Центр. Упр. Печати ВСНХ СССР, 1929. – С. 89

11. ЎзМА, I 1-фонд, 11-рўйхат, 1308-иш, 4-варақ.

12. Федоров М. Хлопководство в Средней Азии. – СПб., 1898. – С. 215.

13. Тоғаева А. Тошкент – Оренбург темир йўли ва унинг Туркистон иқтисодий-ижтимоий ҳаётида тутган ўрни: Тарих фан. номзод. дисс... – Тошкент, 2010. – Б. 44.

14. ЎзМА, I 1-фонд, 11-рўйхат, 1308-иш, 6-варақ.

15. ЎзМА, I 1-фонд, 13-рўйхат, 1237-иш, 162-варақ.

16. Туркестанский сборник. Т. 505. – С. 34

17. Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 году. – Полтава: Электрическая типо-литография И.Л. Фришберга, 1912. – С.10.

18. Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего ... – С.85–87.

19. Железные дороги и обогащение страны // Туркестанский сборник. Т. 460. – 1908. – С. 6.

ЧОР РОССИЯСИ МУСТАМЛАКАЧИЛИК ДАВРИДА ФАРҒОННА ВИЛОЯТИ АНДИЖОН УЕЗДИДА ЗАМОНАВИЙ ТИББИЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРИХИДАН

Базоров Қосимжон,

*Андижон давлат педагогика институти
ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси*

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0006-8991-5784>

Аннотация: Ушбу мақолада Россия мустамлакачилари томонидан босиб олгандан кейин маҳаллий аҳолига ўз даврининг замонавий тиббий хизматни Фарғона вилоятидаги уездларда қандай амалга оширилгани ҳақида. Рус маъмурияти маҳаллий халққа замонавий тиббий хизматни кўрсатишда рус шифокорларидан фойдаланишди, бунинг учун рус ҳарбий врачларидан фойдаланишди. Замонавий тиббий ёрдам учун маҳаллий халқдан таржимонлар ёллашди. Мақолада замонавий тиббий хизматни амалга оширилиши Фарғона вилоятини Қўқон, Чуст, Наманган, Андижон уездларида замонавий тиббиётни маҳаллий халқ орасига олиб кириш ёритилиб, бунда тиббиёт биноларини қуриш учун ажратилган маблағлар, тиббиёт ходимларига яратилган шароит ҳақида, уларга тўланадиган иш ҳақлари, дори-дармонга ажратилган маблағлар тўғрисида ёритилади. Замонавий тиббий хизматни Андижон уездига амалга оширилишига эътибор қаратилган. Андижон уездига қарашли волостларда тиббиёт муассасаларини қурилиши беморларга яратилган шароит, уларга кўрсатилган тиббий хизматлар ҳақида ёзилган.

Калит сўзлар: империя, шифокор, фельдшер, акушер, доя, госпиталь, гарнизон, уезд, хирург, академия, эпидемия, генерал-губернатор, стипендия, ординатор, санитар, топограф, экспертиза, суд, амбулатор, врач, низом, стационар, инспектор, полиция, инженер.

Аннотация: В этой статье рассказывается о том, как после

завоевания русскими колонистами в уездах Ферганской губернии было введено современное медицинское обслуживание местного населения своего времени. Российские власти используют российских врачей для оказания современного медицинского обслуживания коренному населению, для этого используют российских военных врачей. Для оказания современной медицинской помощи местные жители нанимают переводчиков. В статье освещается внедрение современного медицинского обслуживания в Кокандском, Чустском, Наманганском, Андижанском уездах Ферганской области, внедрение современной медицины среди местного населения, рассказывается о средствах, выделенных на строительство медицинских зданий, об условиях, созданных для медицинских работников, о заработной плате, выплачиваемой им, о средствах, выделенных на лекарства. Основное внимание уделяется современному медицинскому обслуживанию в Андижанском уезде. Строительство медицинских учреждений в волостях, относящихся к андижанскому уезду, было обусловлено созданными условиями для больных, оказываемыми им медицинскими услугами.

Ключевые слова: империя, врач, фельдшер, акушерка, доярка, госпиталь, гарнизон, провинция, хирург, академия, эпидемия, генерал-губернатор, стипендия, ординатор, санитар, топограф, экспертиза, суд, амбулатория, врач, Устав, стационарный, инспектор, полиция, инженер.

Annotation: this article tells how the modern medical service of its time to the local population after the conquest by the Russian colonists was carried out in the uyezds in Fergana farewell. Russian civil servants use Russian doctors to provide modern medical services to the local people, for this they use Russian military doctors. For modern medical care, translators from the mahallshy people are hired. The article covers the implementation of modern medical services in Kokand, Chust, Namangan, Andijan uyezds of Fergana province, bringing modern medicine among the local people, in which funds allocated for the construction of medical buildings, on conditions created for medical workers, on work bills paid to them, on funds allocated for medicines. The emphasis is on the implementation of modern medical services in Andijan uyezd. The construction of medical institutions in the volosts under Andijan uyezd is written on the conditions created for patients, the medical services provided to them.

Keywords: Empire, doctor, paramedic, obstetrician, milking, hospital, Garrison, province, surgeon, Academy, epidemic, governor general, scholarship, ordinary, sanitary, topogrff, examination, court, outpatient, doctor, Charter, stationary, inspector, police, engineer.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Россия империяси маъмурияти Туркистонни бошқаришда маҳаллий аҳолининг босқинчиларга нисбатан душманлик кайфиятини бартараф этиш учун биринчи навбатда шифокорлар, фельдшерлар, айникса, акушер ва дояларга катта умид боғлаган эди. Бироқ дастлаб бу соҳада аҳвол шундай эдики, тиббиёт ходимларининг асосий қисми аввало, фақатгина ўлкада жойлаштирилган ҳарбий госпиталлар, ҳарбий қисмлар ва гарнизонларда хизмат қилган шифокорлардан иборат эди. Шунингдек, маҳаллий аҳоли орасида шифокорларга тиббий ёрдам сўраб мурожаат қилувчиларнинг асосий қисмини фақатгина маҳаллий амалдорлар ва

уларнинг оила аъзоларигина ташкил қилар эди. Маҳаллий халқ кўпроқ маҳаллий табибларга мурожаат қилишар эди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Рус ҳукумати ўлканинг туб аҳолисига тиббий хизмат кўрсатиш ва аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш масаласига жиддий эътибор бермаган эди. Вақт ўтиши билан нафақат маҳаллий аҳоли, балки ўлкага кўчириб жойлаштирилган русийзабон аҳоли соғлиғига доимо хавф солиб турадиган турли эпидемиялар ва оммавий касалликлар олдида чор ҳукумати аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш учун ўлкада тиббиёт ходимлари сонини ошириш чора-тадбирларини кўришга мажбур бўлди. Бу соҳадаги иш 1872-йил 8-апрелда Туркистон Тиббиёт Бош Бошқармаси таклифига кўра, Петербург тиббий-хирургия академиясини тамомлагандан сўнг Туркистон генерал-губернаторлигида хизмат қилиш шарти билан 12 та стипендиядан ажратишдан бошланди. Стипендия олиб ўқиган талабалар ўқишни битиргандан сўнг давлат хизматини ўташ учун Туркистонга жўнатилган. Туркистонда давлат хизматини ўташ учун юборилган шифокорлар, аввало, Туркистон генерал-губернаторлиги Ҳарбий-тиббиёт бошқармасининг топшириғига асосан ўлканинг тиббий-топографик тавсифини ишлаб чиқишга жалб этилган. Мисол учун, 1876 йилда Фарғона областининг Қўқон шаҳрига юборилган шифокор Малишевский, Чуст уезди шифокори вазифасини бажарувчи, кичик ординатор Мазуркевич, Андижон уезди шифокори вазифасини бажарувчи шифокор(исми номаълум), Ўш уезди шифокори вазифасини бажарувчи Ларионовлар ўзларига бириктирилган уездларнинг географик жойлашуви, иклими, умумий ер майдони, тупроғининг таркиби ва намлиги шаҳар ичидан ва атрофидан оқиб ўтувчи дарёлар ва ариklarнинг йўналишлари бозорлар, қушхоналар ва кўчаларнинг санитар ҳолати, ҳолати ва хусусиятлари, қабристонлар, ва уларнинг ҳолати, аҳоли ва хонадонларнинг сони ҳамда сурункали,

кенг тарқалган касалликлар ва уларнинг келиб чиқиш сабабларини ўрганганлар.

Тўпланган маълумотлар асосида тиббий топографик ҳисоботлар тайёрлаб, Фарғона области бошқармасига тақдим этганлар. Бундан ташқари, ҳарбий-шифокорлар маҳаллий табиблар фаолияти билан танишиб, улар билан суҳбатлашган ҳолда халқ табobatiда турли касалликларни даволашда қўлланиладиган дори воситалар хусусида ҳам маълумотлар тўплаганлар 1 XIX асрнинг 60-йилларидан бошлаб Россия империяси томонидан Туркистон ўлкасида жойлаштирилган ҳарбий қисмлар ва янги ташкил қилинган аҳоли пунктларида тиббий ҳолатни назорат қилиш, маҳаллий аҳоли ўртасида эпидемик касалликларга қарши курашиш ва олдини олиш мақсадида европача тиббиёт муассасалари ташкил қилина бошлади. 1876 йилдан бошлаб Фарғона областининг йирик шаҳарларида русийзабон маҳаллий аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш мақсадида амбулатор шифохоналар очиш масаласи кўтарила бошлади. Бунинг натижасида, 1882 йилга келиб Фарғона областида 7 та, жумладан, Янги Марғилонда (ҳозирги Фарғона) 20 ўрин, Марғилонда 15 ўрин, 10, Чустда 5 ўрин, Наманганда 10 ўрин, Андижонда 15 ўрин ва Ўшда 5 ўрин, жами 90 ўринга эга бўлган амбулатор шифохоналар фаолият кўрсатишни бошлаган. Дастлабки йилларда ушбу амбулатор шифохоналар ижарага олинган, шаҳарларнинг аҳоли қатновига қулай марказий кўчаларидаги хонадонларда жойлашган. Кейинчалик областдаги барча уездларда маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан амбулаториялар учун махсус бинолар қуриш бошланган. Қурилиш ишлари тендер асосида ташкил қилиниб, маҳаллий 1886 йил 12 июнда тасдиқланган “Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисида” ги Низомига асосан 14 та уездда уезд шифокори лавозими таъсис этилиши минтақада соғлиқни сақлаш тизими шаклланишининг асосий босқичларидан бири бўлди. Низомга асосан, уезд шифокорига 1500 рубль,

унинг таржимонига 180 рубль ва уезд фельдшерига 360 рубль йиллик иш ҳақи белгиланди. Бундан ташқари, 1906 йилгача уезд шифокорига унинг суд-тиббиёт экспертизаларини ўтказиш учун қилинадиган сафар харажатлари учун йиллик 300 рубль қўшимча иш ҳақи тўланган. 1886 йил 30 сентябрда “Фарғона области шаҳар касалхоналари тўғрисида” ги Низом қабул қилиниб, Қўқон, Андижон, Наманган, Ўш ва Янги Марғилон (ҳозирги Фарғона) шаҳар касалхоналари ҳамда Марғилон ва Чуст шаҳарларида амбулаториялар ташкил этилган. Бу касалхоналарда ўткир ва сурункали касалликларга чалинган маҳаллий ва Европа миллатига мансуб аҳоли қабул қилиниб, уларни тиббий кўрикдан ўтказиш ва тиббий маслаҳат ҳамда дори-дармонлар бериш бепул тарзда амалга оширилган. Касалхонани бошқариш, беморларни қабул қилиш ва рўйхатга олиш касалхона шифокори (уезд шифокори)нинг мажбурияти ҳисобланган.

Шифокор тиббиёт бўлимини бошқариш билан бирга фельдшерликка қизиққан лаёқатли маҳаллий ёшларда тиббий малака шакллантириш масъулиятини ҳам ўз зиммасига олган. Шаҳар касалхоналари низомига кўра, касалхона хўжалик бўлими уезд бошлиғи раислигида, уезд врач ва уезд бошқармасининг бир нафар раҳбар ходимидан ташкил топган хўжалик қўмитаси томонидан бошқарилган. Касалхона фаолияти нозир орқали Фарғона области шифокори ва област маъмурияти томонидан назорат қилиб борилган. Нозир уезд бошлиғи томонидан тайинланган. Фельдшер эса, уезд врач томонидан танлаб олинган ва уезд бошлиғи томонидан лавозимга тайинланган. Нозир ва фельдшерлар касалхона атрофида яшаши учун турар-жойга эга бўлиши кераклиги белгиланган. Шаҳар касалхоналарининг штат бирликлари ва моддий таъминоти касалхона жойлашган уезд аҳолисининг сони ва уезд хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда белгиланган. Жумладан, Қўқон ва Наманган шаҳарларида касалхона 20

ўринга эга бўлса, Андижон ва Ўш шаҳарларида 15 ўринга эга бўлган. Янги муассасада тиббий хизмат кўрсатиш ҳамда хўжалик ишларини бошқариш уезд врачлари зиммасига юклатилган. Муассаса фаолиятини назорат қилиш ва юзага келиши мумкин бўлган муаммоларни ҳал этиш Фарғона области губернатори зиммасига юклатилган. Беморларни кунлик қабул қилиш ва муассаса хўжалик ишларини юритиш фельдшер томонидан олиб борилган. Фельдшер уезд врач томонидан танлаб олинган ҳамда уезд бошлиғи томонидан лавозимга тайинланган. У тиббий кўрик муассасасида турар жойга эга бўлган ва шу ерда истиқомат қилган. Уезд врач беморларни қабул қилиш учун камида икки марта, асосан, бозор кунларида тиббий кўрик муассасасига келиб турган. Ушбу тиббиёт муассасалари учта доимий ўринга эга бўлиб, ҳар бир беморнинг таъминоти учун кунлик харажат 40 тийинни ташкил қилган.

Беморларнинг таъминоти (шу жумладан, жиҳозларни таъмирлаш, озиқ-овқат, кийим-кечак, ёритиш ва иситиш ишлари) учун бир йилда жами 468 рубль маблағ ажратилган. Фельдшер йиллик 500 рубль, хизматчи-ошпаз эса 180 рубль маош билан таъминланган. XIX асрнинг 80-йилларидан маҳаллий аҳоли менталитетидан келиб чиққан ҳолда, аёллар ва болалар учун мўлжалланган шифохоналар очила бошлаган. 1887 йил 12 сентябрда Туркистон генерал-губернаторининг №99-сонли буйруғи билан Андижонда аёллар ва болалар шифохонасини очишга рухсат берилган. Шифохонага Туркистон Генерал-губернаторлигининг 1887 йил 23 октябрдаги №126-сонли буйруғи билан Терск области, Владикавказ шаҳрида яшовчи шифокор-аёл Олимпиада Сольнишкина мудира этиб тайинланган. Шифохона учун Андижон шаҳрида махсус бино бўлмаганлиги учун маҳаллий тадбиркор Шамсиддин Хўжа эғалигидаги уй ижарага олинган. Шамсиддин Хўжа олдиндан 700 рубль ва ҳар йили 300 рубль ижара ҳақи тўлаш шарт билан 1888 йил

бахоридан шифохона учун 3 та хона, алоҳида ваннахонага эга бўлган янги бино куриб беришни таклиф қилган. Туркистон генерал-губернатори томонидан бино курилиши учун берилган таклиф ижобий баҳоланиб, маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан кўрсатилган суммани ажратиш учун рухсат берилган. Туркистон Округ Ҳарбий-тиббиёт инспектори И.П. Суворовнинг 1888 йил 17 августидаги мурожаатномасида кўрсатилишича, шифохона 1888 йил 8 февралдан ўз фаолиятини бошлаган.

Юқоридаги шифохоналарга тиббий ёрдам сўраб мурожаат қилувчи аёллар ва болаларга тиббий маслаҳат, дори-дармон ва бошқа ашёлар бепул тарзда берилган. Шифохонанинг тиббиёт ва хўжалик бўлимларини бошқариш Округ ҳарбий-тиббиёт инспектори томонидан танлаб олинган аёл-шифокорлар зиммасига юклатилган. Улар беморларни қабул қилиш учун ҳар куни эрталаб соат 9 дан 14 гача шифохонада бўлишган. Шифохоналарда бир нафардан фельдшер-аёллар ҳам ишлаган. Улар беморларни қабул қилиш, ҳужжат ишларини юритиш ва шифокор-аёл томонидан берилган бошқа мажбуриятларни бажарган ҳамда тиббий ёрдам учун беморларнинг уйларига ташриф жараёнида шифокор-аёлга ҳамроҳлик қилишган. Шифохоналарда тиббиёт ходимларидан ташқари бир нафардан таржимон аёл, хизматкор аёл ва ҳовлибонлар ҳам ишлаганлар. Уларни ишга ёллаш ва ишдан бўшатиш уезд бошлиғи тавсиясига кўра, шифокор-аёл томонидан ҳал этилган. Хизматкор аёл ва ҳовлибонлар рус тилидан хабардор бўлиши ва шифохона ишларида ўзаро бир-бирларига ёрдам бериши шарт бўлган. Шифохона таъминоти ва ходимларнинг маошлари уездлар ёки шаҳар бюджети маблағлари ҳисобидан қопланган. Туркистон генерал-губернатори томонидан 1892 йил 30 июнда тасдиқланган “Эски Марғилон, Қўкон, Андижон ва Наманган шаҳарларида 10 та доимий ётоқ жойига эга бўлган маҳаллий аёллар ва болалар шифохоналарининг штат бирликлари

тўғрисида” ги қарорга кўра, шифохонада 3 нафар тиббиёт ходими ва 6 нафар ёрдамчи ходимлар штат бирликлари белгиланган. Шифохонанинг йиллик моддий таъминоти учун 6434 рубль маблағ йўналтирилган. Шундай қилиб, XX асрнинг бошларига келиб, 1900 йилда Фарғона областида доимий ётоқ жойга эга бўлган жами 11 та тиббиёт муассасалари аҳолига тиббий хизмат кўрсатган. Улар, 5 та шаҳар касалхоналари, 4 та аёллар ва болалар шифохоналари ҳамда 2 та тиббий кўрик муассасалари бўлиб, барчаси шаҳарларда жойлашган ҳамда маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан таъминланган. Умуман, ўлка аҳолиси янгича тиббий муассасаларни аста-секинлик билан қабул қила бошлаган. Бундай муассасалар маҳаллий аҳоли учун тамоман маблағнинг етишмаганлиги сабабли, Туркистон генерал-губернатори Кенгаши шифохона қурилиши учун энг зарур ҳисобланган участкаларни аниқлаш, ҳудудлар имкониятидан келиб чиққан ҳолда шифохона лойиҳасини қайта ишлаб чиқиш ва мавжуд маблағни фақат шу шифохоналарни қуришгагина йўналтириш лозим, деган ҳулосага келган. Шу ҳулоса бўйича, Фарғона областида шифохона қурилиши зарур деб ҳисобланган 10 та участка танлаб олинди, лойиҳаси ва харажатлар сметаси ишлаб чиқилган. Ушбу участка шифохоналари учун Андижон уездига Жалолобод, Бозоркўрғон, Избоскан, волостлари марказларидан 1200 кв. саржиндан кам бўлмаган ер ажратилиши кўзда тутилган. 1910 йил сентябр ойида 1910-1912 йилларда Туркистон ўлкаси областларида 22 та участка шифохоналарини қуриш учун 497569 рубль 69 тийин маблағ ажратилган. Шу жумладан, Фарғона областида танлаб олинган 10 та участкада шифохоналар қурилишига 198729 рубль 22 тийин маблағ йўналтирилган. Ушбу маблағ белгиланган шифохоналар қурилиши учун етарли бўлмаганлиги сабабли, шифохона лойиҳаси сметаси арзонлаштирилган ҳолда қайта ишлаб чиқилган.

Мисол учун, Избоскан, Заркент,

Бозоркўрғон ва Водил қишлоқларидаги шифохоналарини пишган ғишт ўрнига маҳаллий тошдан барпо этиш ҳисобига шифохоналарнинг харажатлар сметаси 4147 рублга арзонлаштирилган. Участка шифохоналари қурилиши тендер асосида маҳаллий тадбиркор усталар томонидан олиб борилган. Шу йили Фарғона областидаги участка шифохоналари қурилишига қўшимча 139669 рубль маблағ ажратилиб, қурилиш ишлари жадаллаштирилган. 14 июнда эса тендер асосида Андижон уездининг Избоскан, 14 июнда эса тендер асосида Андижон уездининг Избоскан, қишлоқларидаги участка шифохоналари қурилиши бошланган. Шундай қилиб, Андижон уездининг Избоскан, қишлоқ аҳолисига стационар тиббий хизмат кўрсатила бошлаган шифохоналарнинг қурилишига Избосканда 32666 рубль Андижон уездининг Бозоркўрғон қишлоғидаги участка шифохонасини қуришга 30339 рубль ажратилиб, қурилиш ишларига киришилган. Тиббий участкаларида тиббиёт ходимларига турар жой қуриш мақсадида қуйидаги ҳисобдаги маблағлар йўналтирилган:

Андижон уезди бўйича: Бозоркўрғон участкасида тиббиёт ходимларига турар-жой қуриш учун 20312,57 рубль;

Избоскан участкасида шу иш учун 19816,32 рубль;

Кўрғонтепа участка шифохонасини қуришга 35755,46 рубль, участкасида тиббиёт ходимларига турар-жой қуриш учун 20000,45 рубль;

Жалолобод участка шифохонасини қуриш учун 36607,28 рубль, участка тиббиёт ходимлари учун турар-жойлар қуришга 21155,50 рубль;

Мазкур участка шифохоналарининг ҳар бири учун 2900 рубль миқдорида тиббиёт ва хўжалик ашёлари сотиб олинган. Доридармон ва боғлов материаллари учун белгиланган тартибда ҳар бир тиббий ёрдам сўраб мурожаат қилувчига 5 тийиндан ажратилган. Юқоридаги ҳолатдан келиб чиқиб, 1913 йилда Туркистон генерал-губернатори

В.Е.Флугнинг сўровномасига асосан, қишлоқ участка шифохоналари тармоғини кенгайтириш мақсадида 1905 йилги қонунда белгиланганидан ташқари областларда уездлар бўйича нечта участка шифохоналари қуриш талаб этилиши масаласини қайта кўриб чиқилиб, тегишли таклифлар киритилган. Унга кўра Андижон уездига учта, шунинг ҳам алоҳида қайд этиш лозимки, айрим маҳаллий тадбиркорларнинг соғлиқни сақлаш тизимининг танг аҳволидан келиб чиққан ҳолда областда хайрия йўли билан хусусий касалхоналар қуриш ва уларни моддий таъминлашга рухсат беришини сўраб, Туркистон ўлка бошқармасига қилинган мурожаатлари бор.

Верста (қадимий рус ўлчов бирлиги. Қиймати 500 саженга, яъни 1,0668 км га тенг Верстаси (1000 сажен; 2,1336 км) қўлланилган. Бундай верста чегараларни белгилаш ва аҳоли яшайдиган пунктлар орасидаги масофани аниқлаш учун ишлатилган неча бор қаттиқ қаршиликка учраган. Мисол учун, 1913 йил 10 декабрда андижонлик 2-гильдия савдогари, Миркомилбой Мирмўминбоевнинг уезд бошлиғи номига Андижоннинг Гултепа майдонида аҳоли фойдаланиши учун турли миллат вакиллари, эркак ва аёлларга мўлжалланган, қирқ ўринли намунали шифохона ва бошқа ижтимоий биноларни қурилишига рухсат сўраб ёзган аризаси Андижон хўжалик бошқармасида кўриб чиқилади. Аризада қурилажак шифохонанинг жаррохлик, туғруқхона, ички касалликлар, секцион камералар ва ўликларни сақлаш учун ертўла, дезинфекцион камера каби бўлимлар ҳамда шифохона бошлиқлари, ходимлари

ва турли хизматчилар учун махсус бинога эга бўлиши, шифохона биносида марказий иситиш бўлими ҳамда сувларни биологик тозалаш хизматлари ташкил этилиши қайд этилади. Шунингдек, М.Мирмўминбоев, шифохона ва бошқа ижтимоий объектлар қурилишига 500 минг сўм ажратишини, шифохонани уч йил давомида ўз ҳисобидан таъминлашни бўйнига олишини айтади. Лекин, шунга қарамай, “Миркомилбой шаҳар марказини эгаллашга ҳаракат қиляпти”, “шаҳар марказида шифохона қуриш гигиена жиҳатдан хавфли, қолаверса, Андижон шаҳри аҳолиси учун мавжуд 30 касалга мўлжалланган шифохонанинг ўзи етарли” каби асоссиз баҳоналар кўрсатилган ҳолда кўпчилик овози билан шифохона қурилишига қаршилик кўрсатилади

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда умуман Ўрта Осиё халқларига замонавий медицина хизматидан фойдаланишда албатта Рус врачларини хизмати ва роли катта бўлди. Вақт ўтиши билан замонавий тиббиётнинг фойдаларини билган маҳаллий аҳоли европалик шифокорларнинг фаолиятига қизиқа бошлаган ҳамда уларга тиббий ёрдам сўраб мурожаат қилувчилар сони йилдан - йилга кўпайиб борган.

Шунга қарамай, тиббиёт муассасалари шифокорларининг хулосаларига кўра, аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш қониқарли даражада ташкил этилмаган. Халқимиз секин- асталик билан замонавий медицинадан фойдаланиш маданиятини ўзлаштириб олиш билан бирга замонавий медицинани ривожланишига ҳам ўз ҳиссасини қўшди.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон Миллий архиви, И.19-жамғарма, 1041-иш, 1-26-варақлар
 2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, И.19-жамғарма, 908-иш, 28-варақ
 3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, И.19-жамғарма, 1-рўйхат, 28237-иш, 33-варақ
 4. Ўзбекистон Миллий архиви, И.19-жамғарма, 1-рўйхат, 24096-иш, 3,20,21,23-варақлар.
 5. Ўзбекистон Миллий архиви, И.1-жамғарма, 16-рўйхат, 2065-иш, 1,9,13-варақлар.
- International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 2 issue 3 (25) | ISSN:

2181-4163 | Impact Factor: 8.2.56

6. Ўзбекистон Миллий архиви, И. 1-жамғарма, 16-рўйхат, 2065-иш, 1,9,13-варақ
7. Ўзбекистон Миллий архиви, И.19-жамғарма, 1-рўйхат, 32650-иш, 30, 53-54-варақлар.
8. Ўзбекистон Миллий архиви, И.1-жамғарма, 5-рўйхат, 850-иш, 22-варақ
11. Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 91 (1), 2022-2026.
12. Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi, (9-10-1), 259-260.
13. Elmurod, K. (2022). TARIX DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Yosh tadqiqot Jurnali, 1 (3), 49-54.
14. Karimov, E. (2020). YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASI GLOBALLASHTIRISH SHART. Nazariy va amaliy fanlar, (5), 863-865.
15. Parpiev, MT (2023). AXBOROTLANGAN JAMIYATDA AXBOROT VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI.
16. Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA "TA'LIM" FANINI O'QITISH VA O'QITISH TUSHUNCHASINING O'RNI. Fan va innovatsiyalar, 2 (B6), 98-101.
17. Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg'ona vodiysidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszłości, 24, 546-548.
18. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va katta, 1 (24).
19. Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOY-FALSAFIY TA'LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar, 2 (1 (23)).
20. Qosimbek o'g'li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TARG'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATIONNYE IDEI V MIRE, 20 (7), 39-42.
21. Poziljonov, J. (2023). Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI.

SURXONDARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI FAOLIYATI

Suvonov Jamshid Mashrab o'g'li
Termiz shahar IIB katta tezkor vakili,
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
suvonovjamshid1993@gmail.com
UDK: 94(575.151):351.74"1991/2023"
<https://orcid.org/0009-0008-2997-1312>

Annotatsiya: So'nggi yillarda Davlatimiz rahbari tomonidan Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida mamlakatimizning barcha sohalarini tubdan isloh etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, ilk kunlaridanoq, eng chekka qishloqda ham aholining salomatligi va xavfsizligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni jilovlash ishlarini "mahallabay" va "fuqarobay" tashkil etish – faoliyatimizning bosh mezoniga aylandi. Maqolada Surxondaryo viloyatida ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faoliyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "mahallabay" va "fuqarobay", jinoyatlar, Surxondaryo viloyati, profilaktika inspektorlari, "Sektor shtab"lari.

Аннотация: В последние годы главой нашего государства проводится обширная работа по коренному реформированию всех отраслей страны в целях создания нового Узбекистана. В связи с этим с самого начала вопрос обеспечения здоровья и безопасности населения даже в самых отдаленных селах был поднят на уровень государственной политики. С этой точки зрения обеспечение общественной безопасности, организация «районовой» и «гражданской» борьбы с преступностью стали основным критерием нашей деятельности. В статье говорится о деятельности органов внутренних дел по борьбе с преступностью в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: «махаллабая» и «гражданин», преступления, Сурхандарьинская область, инспекции

профилактики, «штаб сектора».

Abstract: In recent years, the head of our state has been carrying out extensive work on the fundamental reform of all sectors of the country in order to establish a new Uzbekistan. In this regard, from the very beginning, the issue of ensuring the health and safety of the population, even in the most remote villages, has been raised to the level of state policy. From this point of view, ensuring public safety, organizing "neighborhood" and "citizen" crime control activities has become the main criterion of our activity. The article talks about the activities of internal affairs bodies in the fight against crime in Surkhandarya region.

Key words: "mahallabay" and "citizen", crimes, Surkhandarya province, prevention inspectorates, "Sector headquarters".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'zbekiston demokratik fuqarolik jamiyatini qurish, har tomonlama rivojlangan erkin va farovon davlat barpo etish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Bunda jamiyatni yot illatlardan asrash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning har qanday shakl va ko'rinishiga qarshi murosasiz kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifalardan etib belgilangan.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan samarali tizim bu — ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat

bo'ladir", degan purma'no fikrlari tizim faoliyatiga berilgan yuksak bahodir.

Shunday ekan, ichki ishlar organlari xodimlari ona Vatanga, xalqimiz va Prezidentimizga halollik va sadoqat bilan xizmat qilib, mamlakatimiz mustaqilligini avaylab asrab jinoyatchilikka qarshi qat'iy kurash olib boradilar. Yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi yo'lidagi qat'iyatlik va sobitqadamlik davom etadi. Bu borada, birinchi navbatda, hushyorlik va ogohlik har bir yurtdoshimizning dasturiga aylanmog'i g'oyat muhimdir".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Mustaqillik yillarida ichki ishlar tizimi faoliyatining tarixiy jihatlari U.Tadjixanov, G.Rahimov, B.G.Siddiqov, M.Boboyev, O.Soatov, I.Yusupov, K.Davlatov, M.Abdullayev, M.Tillayev, A.Ermetov, Q.Qodirov, B.Allayorovlarning tadqiqot ishlari, monografiya va asarlarida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashda o'z hissalarini qo'shgan ichki ishlar organlari xodimlari haqidagi ma'lumotlar beriladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Hozirgi murakkab sharoitda xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash, joylarda huquq targ'ibotni saqlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarga barham berish, ularning profilaktikasini yanada samarali tashkil etish zarurati tug'ildi.

Xususan, 2017-yil 9-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida "Ichki ishlar organlari tizimida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalar to'g'risida"gi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash choralari ko'rildi.

Viloyatda jinoyatchilikka qarshi muhit yaratilishini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlarining jinoyatchilik va

huquqbuzarliklarning oldini olish borasida olib borayotgan hamkorlikdagi ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida har haftaning payshanba kuni "Jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktika kuni" deb e'lon qilindi.

2020-yilda viloyat hududida jinoyatchilikni barvaqt oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

E'tibor bering, islohotlar boshlangan 2016-yilga nisbatan viloyatimiz aholi soni oshib borayotganligiga qaramasdan, jinoyatchilik sur'ati, qariyb bir barobarga, ya'ni 4 072 tadan 2 280 taga (55,9 foizga) kamaydi.

Ma'lumot uchun: 2016 yilning 3 oyida 710 tadan 472 taga (66,4 foizga) kamaydi.

2020 -yilning 1 — choragida viloyat hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida bir qancha profilaktik chora tadbirlar amalga oshirildi.

Sodir etilgan jinoyatlar 152 taga (320/472) yoki 47,5 foizga, jinoyat qidiruv yo'nalishidagi jinoyatlar soni 99 taga (203/302) yoki 48,8 foizga ko'paygan.

Prezidentimizning 2018-yil 7-noyabrda PQ-4006-son qaror bilan, 2019-yilning 1-yanvaridan boshlab jazoni ijro etish tizimida Probatsiya xizmati tashkil etildi.

Prezidentimizning 2019 -yil 6-martdagi PQ-4229-son qaror bilan transport infratuzilmasida xavfsizlikni ta'minlashning yagona tizimi hamda qo'shimcha ravishda viloyatda Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tashkil etildi.

Muhtaram Prezidentimizning topshirig'iga asosan, 2020-yil mart, aprel oylarida Ichki ishlar vaziri boshchiligidagi ishchi guruh viloyatning barcha hududlarini o'rganib, amaliy yordam ko'rsatildi.

Bunda, koronavirus pandemiyasi davrida viloyatda amalga oshirilgan ishlar, aholi tomorqalari, bog' tok oraliqlari va dehqon xo'jaliklari yerlariga ekin yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, koronavirus kasalligiga chalingan fuqarolarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam, uy karantinida saqlanayotgan fuqarolar, aholini

karantin qoidalariga rioya qilishi, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar o'rganib chiqildi.

Shuningdek har bir hududda, Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 8-yanvar kunidagi PQ-4102-son Qaroriga asosan "Sektor shtab"lari faoliyati va kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Kreminogen vaziyatdan kelib chiqib mahallalarda jamoat tartibini saqlash uchun Termiz shahar va Denov tumanida 131 nafar profilaktika inspektorlarining yordamchilari o'z lavozimlariga qoldirildi.

2020-yilning 12 oyida 3176 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, ushbu jinoyatlarning 937 tasi yoki 29,9 foizi avvalgi yilda sodir etilib, 2020- yilda hisobga qo'yilgan jinoyatlarni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: viloyat hududida sodir etilgan jinoyatlar 896 taga (2280/3176) yoki 39,3 foizga, jinoyat qidiruv sohasidagi jinoyatlar soni 873 taga (1300/2173) yoki 67,2 foizga ko'paygan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, islohotlar boshlanganidan avvalgi (2016-yil) davr bilan taqqoslasak bugungi kunda viloyatda sodir etilayotgan jinoyatlar soni 896 taga kamaygan, shu jumladan bosqinchilik va talonchilik to'rt barobarga, o'g'irlik ikki yarim barobarga, tovlamachilik va bezorilik ikki barobarga kam sodir etilgan.

Ma'lumot uchun: 201- yilning 12 oyida 4072 tadan, 2020-yilning 12 oyida 3176 taga (22,1 foizga) kamaygan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bugungi kunga kelib hech bir mamlakatda yo'q – faqatgina bizda mahallaning o'zida mutlaqo yangicha tizim yaratildi.

Ya'ni, har bir mahallada:

- xavfsizlik bilan bog'liq masalalar o'z yechimini topishi uchun – profilaktika inspektori;
- aholining kunlik ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish uchun – mahalla raisi;
- mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun – hokim yordamchisi;
- yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish va faolligini oshirish uchun – yoshlar yetakchisi;

– ayollar bilan ishlash uchun – xotin-qizlar faollari kabi lavozimlar joriy etildi.

Ular har kuni aholi bilan kunlik ishni tashkil etib, ularga yaqindan xizmat ko'rsatmoqda.

Eng muhimi, Davlat rahbari tomonidan aholining kunlik ehtiyojlarini qondirish uchun barcha ijtimoiy-huquqiy, moliyaviy, ma'naviy yechim berildi.

Ayniqsa pandemiya davrida ko'pchilik iqtisodiy-ijtimoiy tomondan qiyin ahvolga tushgan bir vaqtda, Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, 3 ta daftarni yo'lga qo'yish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish, imtiyozlar berish kabi katta ishlar amalga oshirildi.

2023-yilda ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida o'tgan davr mobaynida xotin-qizlarning ijtimoiy-maishiy muammolarini ijobiy hal etish bilan bog'liq profilaktik ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, viloyatdagi 3 ming 116 ta oilalarning turmush tarzi o'rganib chiqildi;

– tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 229 nafar xotin-qizlarga "himoya orderi" rasmiylashtirildi (2022 y. 1 ming 980 ta);

– farzandning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan 105 ta oilalar muhokama qilindi;

– oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etgan 226 ta oilalar bilan profilaktik ishlar olib borildi;

– 121 ta oilaviy notinchliklarga barham berildi va 90 ta oilalar bilan olib borilgan tushuntirish ishlar natijasida, ularning ajrashib ketishi oldi olindi.

Shuningdek, 2023-yil 3 oyda viloyat ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan:

- 41 nafar xotin-qizlar ishga joylashtirildi;
 - 60 nafariga (1 nafari ilgari sudlangan) moddiy va ijtimoiy tomondan yordam berildi;
 - 21 nafariga davolanishga muhtojligi aniqlanib, tibbiyot dispanserlarga yuborildi; (ixtiyoriy, majburiy)
 - 30 nafarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari qayta tiklandi;
 - 14 nafariga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun yaqindan ko'mak berildi.
- Hamkorlikda amalga oshirilgan profilaktik

tadbirlar natijasida sogʻlom turmush tarziga oʻtganligi uchun 491 nafar ayollar, shu jumladan 11 nafar voyaga yetmagan, 1 nafar ilgari sudlanganlar va 98 nafar yoshlar (18-30 yosh) ichki ishlar organlarining profilaktik hisobidan chiqarildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, yangi Oʻzbekistonning kelajagi, uning ravnaqi bugun biz amalga oshiradigan ishlarga, samarali xizmat faoliyatimizga, burchimizga vijdonan yondashib, Vatanimizni sevib, uni koʻz qorachigʻimizdek avaylab asrashimizga

nechoʻgʻlik bogʻliq ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Zero, muqaddas hadislarda aytilganidek, “Vatanni sevmoq iymondandir”.

Oʻz kindik qoni tomgan tuproqni yuziga surtib, Vatanning sodiq farzandi boʻlishga nafaqat oʻzini, balki butun vujudini baxshida qilgan har bir inson hozirgi kunimizning ertasi yanada nurafshon va farovon boʻlishini chin yurakdan istamoqda. Shuning uchun ham tun-u kun ziyrak va hushyor xodimlarimiz yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi doimiy boʻlishi uchun sadoqat bilan xizmat qilmoqdalar.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. “Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni OʻRQ-407-son Qonuni Qonuni / <https://lex.uz/docs/-3027843?otherlang=1>
2. “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4102-son Qarori / <https://lex.uz/docs/-4145890?ONDATE=28.09.2020%2000>
3. Q.Qodirov. “Mustaqillik davrida Oʻzbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991-2011 yillar) mavzusidagi tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2019. 158-bet.
4. X.K.Boymirzayev Oʻzbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati, oʻquv-uslubiy qoʻllanma. Namangan, 2022. – 64 b.
5. Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi materiallari. 2020, 2021, 2022, 2023 yillar.

KASABA UYUSHMALARI VA JAMOAT TASHKILOTLARI O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI OMILLARI

Ahmedov Abdulhay Tosh-to'xtayevich,

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdulhayaxmedov5810@gmail.com

UDK: 331.105.441

<https://orcid.org/0009-0002-5693-4541>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari mazmun-mohiyatini haqida berilgan. Shuningdek, Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari va jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

Tayanch so'z va tushunchalar: Kasaba uyushma, Prinsip, islohot, Demokratiya va oshkoralik prinsiplari, hamkorlik, ijtimoiy himoya.

Аннотация: В данной статье описывается сущность сотрудничества профсоюзных организаций с другими общественными организациями. Также большое значение в решении социальной справедливости, трудовых прав и различных проблем в обществе имеет взаимное сотрудничество профсоюзных организаций с другими общественными организациями.

Ключевые слова: Профсоюз, Принцип, реформа, Принципы демократии и прозрачности, сотрудничество, социальная защита.

Abstract: This article describes the essence of cooperation between trade union organizations and other public organizations. Also, mutual cooperation of trade union organizations with other public organizations is of great importance in solving social justice, labor rights and various problems in society.

Key words: Trade union, Principle, reform, Principles of democracy and transparency, cooperation, social protection.

KIRISH. Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari

bilan o'zaro hamkorliklari ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari va jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. Bu hamkorliklar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu hamkorliklar ishchilar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, madaniy va ekologik muammolarni hal qilish kabi ko'plab sohalarda samarali natijalar beradi. Quyida ushbu hamkorliklarning ilmiy jihatlarini va ularning amaliyotdagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Kasaba uyushmalari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan institutlardan biridir. Ular ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qilish, adolatli ish sharoitlarini ta'minlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda katta rol o'ynaydi. Kasaba uyushmalarining faoliyati faqat huquqiy himoya bilan cheklanmay, balki keng qamrovli ijtimoiy, madaniy va ekologik loyihalarni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasaba uyushmalari ijtimoiy adolat va mehnat huquqlarini ta'minlashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular davlat organlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlash orqali ishchilarning huquqlarini himoya qiladi va ijtimoiy sheriklik prinsiplarini rivojlantiradi. Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan huquqiy hamkorligi, ayniqsa, inson huquqlari va ijtimoiy himoya sohalarida dolzarb hisoblanadi. Ushbu hamkorliklar mehnat huquqlarini himoya qilish, ishchilarni huquqiy savodxonligini oshirish va mehnat nizolarini hal qilishda

katta ahamiyatga ega. Sababi jihatidan, kasaba uyushmalari inson huquqlari tashkilotlari bilan birgalikda mehnat nizolarini hal qilishda samarali natijalarga erishadi. Bu, ayniqsa, mehnat shartnomalari, ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish masalalarida huquqiy himoya va maslahat xizmatlarini taqdim etishda muhimdir.

Kasaba uyushmalari ta'lim muassasalari, trening markazlari va boshqa ta'lim bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorliklar ishchilarning kasbiy malakalarini oshirish, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ish joyidagi kasbiy bilimlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek, kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan ta'lim dasturlari va treninglar ishchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu hamkorliklar yangi mehnat bozorining talablari va zamonaviy texnologiyalarga moslashish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari haqida ko'plab ilmiy adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlar mavjud. Bu tahlilda asosiy adabiyotlarga tayanib, kasaba uyushmalarining turli sohalarda boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorliklarini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini va muammolarni ko'rib chiqamiz.

Ko'plab adabiyotlarda kasaba uyushmalarining ijtimoiy roli ta'kidlanadi. Kasaba uyushmalari faqat ishchilarning huquqlarini himoya qilish bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va jamiyatdagi adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu borada, A.I. Lukashevich, o'zining "Kasaba uyushmalarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni" nomli asarida kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorliklar orqali ijtimoiy tenglik va mehnat huquqlarini ta'minlash masalalarini yoritib bergan. U, ayniqsa, kasaba uyushmalarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini alohida qayd etgan.

Kasaba uyushmalarining boshqa

tashkilotlar bilan huquqiy hamkorligi ko'p hollarda ishchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, mehnat nizolarini hal qilish va huquqbuzarliklar bilan kurashish maqsadida amalga oshiriladi. Bu bo'yicha V.Ivanov o'z tadqiqotida kasaba uyushmalari va inson huquqlari tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik masalalariga e'tibor qaratgan. U, ayniqsa, sud protsesslarida kasaba uyushmalarining ishtiroki va ularning ishchilarga huquqiy yordam ko'rsatishdagi rolini ta'kidlagan.

Kasaba uyushmalarining ta'lim va kasbiy rivojlanish sohasidagi hamkorligi haqida ko'plab maqolalar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu hamkorlik o'z a'zolarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan. J. Smith, (2019) "Professional rivojlanishda kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari hamkorligi" nomli maqolasida kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslari, seminarlar va treninglar orqali ishchilarning kasbiy ko'nikmalarini oshirish masalalarini keng yoritgan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu hamkorliklar turli sohalarda amalga oshiriladi va ular nafaqat ishchilarning huquqlarini himoya qilish, balki keng jamoatchilikka xizmat qiluvchi muhim masalalarni hal qilishga ham qaratilgan.

Mehnat huquqlarini himoya qilish: Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari o'z a'zolarining mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Mehnat xavfsizligi, adolatli ish haqi va mehnat sharoitlarini yaxshilash kabi masalalarda hamkorlik qilish orqali bu tashkilotlar ishchilar manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda kasaba uyushmalari mahalliy va milliy miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi. Ular turli ijtimoiy dasturlar va loyiha orqali iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish, bandlikni ko'paytirish va kambag'allikka qarshi kurashda faol ishtirok

etadilar.

Huquqiy himoya va ijtimoiy adolatni ta'minlash: Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida o'zaro hamkorlik qilishadi. Ular mehnat qonunchiligi va boshqa tegishli qonunlarga rioya etilishini nazorat qilishda faol ishtirok etishadi va kerak bo'lganda huquqiy yordam ko'rsatadilar.

Ta'lim va malaka oshirish: Ushbu tashkilotlar hamkorlikda kasbiy ta'lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etadilar. Bu orqali ishchilar va ijtimoiy guruhlarning malakasini oshirish, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishlariga yordam beradi.

Ijtimoiy va madaniy rivojlanish: Jamoat tashkilotlari bilan birgalikda kasaba uyushmalari ijtimoiy va madaniy tadbirlar tashkil etish orqali fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshiradi. Bu tadbirlar orqali aholi turmush darajasini yaxshilash va jamoaviy birdamlikni kuchaytirish maqsad qilib qo'yilgan.

Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari O'zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Quyida ushbu qonunlar va ulardagi kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorliklari haqida misollar keltiriladi:

“Kasaba uyushmalari to'g'risida”gi Qonunida (1992-yil 2-iyul, yangi tahriri 2019-yil 19-sentyabr) Ushbu qonun kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat tamoyillarini belgilaydi. Qonunga muvofiq, kasaba uyushmalari boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy muhofazani ta'minlash va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun faoliyat olib boradi. Misol tariqasida, 9-modda: Kasaba uyushmalari o'z a'zolarining huquqlarini himoya qilishda va mehnat munosabatlarini tartibga solishda boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishi mumkin. 17-modda: Kasaba uyushmalari jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ish joylarida mehnat sharoitlarini

yaxshilash va ishchilarning sog'lig'ini himoya qilish maqsadida chora-tadbirlar o'tkazadi.

“Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun (2014-yil 25-sentyabr). Bu qonun davlat organlari, kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik tamoyillarini belgilaydi. Qonun, ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillari sifatida kasaba uyushmalarining ijtimoiy sherik sifatida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligini ta'kidlaydi. Misol uchun, 5-modda: Kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklik subyekti sifatida jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. 8-modda: Kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari ijtimoiy sheriklik kelishuvlari asosida mehnat sharoitlarini yaxshilash, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy himoya masalalarida hamkorlik qiladi.

Hamkorlikning afzalliklari:

1. **Resurslarni birlashtirish:** Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari o'z resurslarini birlashtirish orqali yanada samarali va keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida aholining ko'proq qatlamlarini qamrab olish va ularning manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi.

2. **Tajribalar almashinuvi:** Ushbu tashkilotlar o'zaro tajriba almashinuvi orqali yangi tashabbuslar va strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Bu esa ijtimoiy adolatni ta'minlash, mehnat huquqlarini himoya qilish va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish yo'lida muhim ahamiyatga ega.

3. **Muloqot va kelishuv:** Tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik jamiyatdagi muhim masalalar yuzasidan muloqot olib borish va kelishuvlarga erishish imkoniyatini kengaytiradi. Bu, ayniqsa, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA. Hamkorlik doirasida kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari birgalikda o'quv dasturlari, seminarlar, treninglar tashkil etib, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan faoliyat olib boradi. Bu hamkorliklar nafaqat xodimlarning

huquqlarini himoya qilish, balki ularning kasbiy malakalarini oshirish, ijtimoiy va mehnat muhitini yaxshilashga ham qaratilgan.

Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan oʻzaro hamkorliklari nafaqat xodimlarning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni taʼminlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qoʻllab-quvvatlash va umumiy farovonlikni oshirishda ham muhim rol oʻynaydi. Ular mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy muhitni sogʻlomlashtirish uchun birgalikda kurashadi. Bu hamkorliklar kasaba uyushmalari va

jamoat tashkilotlarining jamiyatdagi rolini yanada kuchaytiradi va ular orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari oʻrtasidagi hamkorlik zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, huquqiy himoya va ijtimoiy adolatni taʼminlash uchun juda muhimdir. Bu tashkilotlar oʻzaro hamkorlik qilish orqali aholi manfaatlarini himoya qilishda katta rol oʻynaydi va jamiyatda ijobiy oʻzgarishlar yaratishda yetakchi kuch hisoblanadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Иноятов А.А. “Ўзбекистон Республикасининг меҳнат ҳуқуқи” –Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2002 й. — Б.140
2. Симагин А.В. Историческая роль и уроки профсоюзного движения. – СПб.: ЗУМЦ, 2009. – С. 68-69
3. Содиқова М. Касаба уюшмалари — фуқаролик ҳуқуқи ҳимоясида // <http://hugqburch.uz/uz>
4. Саттарова Г. Ўзбекистон Республикаси касаба уюшмаларининг фуқароларнинг меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилишни таъминлашдаги ўрни // Мақола // Инсон ва Қонун / 2014 й. – Б. 4.
5. Sh.M.Mirziyoyev– Oʻzbekiston kasaba uyushmalariga tabrigidan. Xalq soʻzi gazetasi. 11- Noyabr 2021 y
6. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat kodeksi. 24.07.2018 y.
7. Oʻzbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonun. Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 22.09.2016 yildagi OʻRQ-410-son.
8. Mehnat huquqi. Toshkent-2006.
9. Kasaba uyushmalari toʻgʻrisidagi qonun. OʻRQ–588-son 06.12.2019. (www.lex.uz).
10. Oʻzbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi – Vikipediya (wikipedia.org). Oʻzbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasining Portali (kasaba.uz).

MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATI YENGIL SANOATI

Xoliqulov Shuxratjon Boymaxammadovich,
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0007-9635-1022>

Annotatsiya: Jahonda aholini sifatli yengil sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash BMT ning ming yillik rivojlanish dasturida global muammo sifatida qaralmoqda. Yengil sanoati korxonalari doimiy ravishda moddiy-texnikaviy jihatdan sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan uskunalar bilan qayta jihozlanib borishini taqozo etadi. Yengil sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar, o'sib borayotgan aholi ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni hal qilish, ushbu tizimni doimiy monitoring qilib borish imkoniyatini ilmiy tahlil qilish mavzuni zaruriyatini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, yengil sanoat, G.I.Norkuvatova, paxta tozalash uskunalar, noto'qima materiallar, "Navbahor Tekstil".

Аннотация: Обеспечение мирового производства качественными производственными процессами рассматривается во всем мире в Программе развития тысячелетия Организации Объединенных Наций. Английским предприятиям приходится перерабатывать оборудование, служащее повышению качества и эффективности материально-технической жизни в условиях непрерывного производства. Выявление проблем с изменениями англоязычного контента, постоянный мониторинг отслеживания, внесение изменений.

Ключевые слова: Навоийская область, легкая промышленность, Г.И. Норчуватова, хлопкоочистительное оборудование, нетканые материалы, «Навбахор Текстиль».

Abstract: Ensuring world production with quality production processes is considered globally in the Millennium Development Program of the United Nations. English enterprises have to process equipment that

serves to increase quality and efficiency from material and technical life in continuous production. Identifying issues with changes to English content, continuously monitoring tracking, making changes.

Key words: Navoi region, light industry, G.I. Norchuvatova, cotton ginning equipment, non-woven materials, "Navbahor Tekstil".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli yengil sanoatni yanada rivojlantirish, yangi maralarni egallash, zamon bilan hamnafas rivojlanish, xalqimizning manfaatini himoyalash: "zamonaviy korxonalarni ko'paytirish orqali paxta xom ashyosini qayta ishlash, tayyor mahsulot eksportini kengaytirish zarur. Bu esa, yengil sanoat uchun zarur bo'lgan jahon andozalariga mos ilg'or innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masala hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Navoiy viloyati yengil sanoatini tadqiq etish borasida Karshiev R.M. ilmiy tadqiqotlarida 1958-1990 yillar kesimida [1], M.Vohidova O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ta'siri (Navoiy viloyati misolida) [2], F.U.Shamiyev Xorijiy sarmoya jalb etish jarayonini faollashtirish (Navoiy viloyati sanoati majmui misolida) [3], G.I.Norquvatova "Mintaqada yengil sanoatni rivojlantirish va hududiy tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida) [4] mavzularida nomzodlik dissertatsiyani himoya qilgan.

Respublikada mustaqillik yillarida yengil sanoat tarixini hududlar kesimida o'rganishga

bag'ishlangan bir qator monografiyalar yaratildi [5,6,7,8,9,10,11, 12,13,14,15].

X.R.Raupov esa O'zbekiston aholisini yengil sanoati iste'mol mollari bilan ta'minlash mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Yuqorida qayd qilingan tadqiqot ma'lumotlaridan dissertatsiyani hududlar kesimida qiyosiy tahlil etishda foydalanilgan[16].

F.U.Xolmanova 1991-2020 yillarda O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanish tarixini Surxondaryo viloyati misolida ochib bergan[17].

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sovet davlati inqirozga uchrashi arafasida O'zbekistonda bo'lgani kabi, Navoiy viloyatida ham yengil sanoat tarmoqlari sanoqli bo'lib, ularni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish markazda o'tirganlar yo'l-yo'rig'i bilan amalga oshirilgan edi. Istiqlool tufayli, sanoatning barcha sohalari singari yengil sanoatda ham mavjud inqirozni bartaraf etish uchun tizimli chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Yengil sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish ishlari olib borildi. Albatta bu o'zgarishlarni amalga oshirish o'z-o'zidan bo'lgani yo'q hamda ma'lum bir qiyinchiliklar ham bo'ldi. Jumladan, Sovet davlati inqirozga uchrashi bilan moddiy-texnik ta'minot izdan chiqdi. sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan, faqat xom-ashyo yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mash'um salbiy oqibatlariga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan edi.

1993-yil 11-iyun kuni Navoiy viloyati hokimining "Viloyat agrosanoat majmuida iqtisodiy islohotlarning borishi va uni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, tumanlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini ko'paytirish, mavjud shunday korxonalar quvvatini oshirib borish, qayta ishlash texnologiyasini zamon darajasiga olib chiqish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi[18].

Viloyat bo'yicha paxta tozalash uskunalarining nosozligi, ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari joriy etilmayotganligi tufayli me'yoridan ziyod paxta chang va chigitga chiqarib

yuborilgan. 1992-yilda Xatirchi paxta tozalash zavodida uskunalar eskirganligi sababli, 1261 tonna paxta chang va chigitga chiqarib yuborildi[19].

Bozor iqtisodiyoti va respublikamizda keng ko'lamli amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar paxta tayyorlash korxonalarining ilgariidek faqat tayyor mahsulotni qabul qilib olish emas, balki, bevosita paxtani qayta ishlash, uni realizatsiya qilish jarayonida ishtirok etishni taqozo etgan.

Bu davrda odamlarimiz qoniga va ongiga singib ketgan "Hamma narsa davlatniki" degan fikrni tamoman yo'qotish uchun hukumatimiz tomonidan jiddiy ishlar amalga oshirildi. Mustaqil davlatimizning kelajak avlodlari o'z mulkiga egalik qilishlari, samarali mehnat faoliyatlarini olib borish uchun yetarli imkoniyatlar yaratildi.

1993-yilda Navoiy viloyatida 13 ta mahalliy, 21 davlat savdosi, 337 ta maishiy xizmat sohasidagi korxonalar mulkchilikning boshqa shakliga o'tkazildi, ya'ni, xususiylashdi.

Navoiy viloyatida iqtisodiy islohotlarning borishi davlat tasarrufidan chiqarish dasturi asosida olib borildi. 1995-yil 5-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlikka tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish" to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida, 1995-yilga avgustiga qadar, 1925 ta xususiy korxonalar ro'yxatdan o'tkazildi. Shulardan 1369 tasi xususiy korxonalar, 556 tasi kichik korxonalar edi. Oxirgi 8 oy davomida viloyatda 8 ta kimoshdi savdosi, 2 ta ko'chmas mulkni sotish konkursi o'tkazilib, qo'yilgan 265 ta obyektidan 91 tasi o'z egasini topdi[20].

1995-yilda Navoiy viloyati "Biznes-Fond" boshqarmasi tashkil etilgan. Ushbu boshqarmaning asosiy vazifasi kichik biznes va tadbirkorlikni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi va sanoat infrastrukturasini rivojlantirish uchun imtiyozni kreditlar ajratishdan iborat edi. "Biznes-Fond" boshqarmasi tomonidan 1996-yil mobaynida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash uchun 16 ta loyihaga – 29339,1 ming so'm, mahalliy sanoatni rivojlantirish uchun 13 ta loyihaga – 38615,8 ming so'm ajratildi.

Navoiy viloyati paxta tozalash zavodida 1992-yil I-choragiga qaraganda 1993-yilda 6-15 foiz kamayish bo'ldi. Paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining jahon bozorida

bemalol raqobatlasha oladigan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishini ta'minlash muhim vazifa edi. Bu borada kamchiliklar ham yo'q emas edi. Jumladan, 1992-1993-yillarda paxtani qayta ishlash korxonalarida 5,9 ming tonna paxta me'yoriga nisbatan ko'p chiqitga chiqarilib, bundan xo'jaliklar 650 million so'm zarar ko'rishdi[21].

Paxtachilik sanoatini rivojlantirishning muhim yo'li bu – paxtani qayta ishlashni tashkil etishdan iborat edi. 1993-yilda Shvetsariyaning "ATC" firmasi bilan hamkorlikda yiliga 1200 tonna tolani qayta ishlovchi to'qimachilik fabrikasi qurilishi boshlandi. Isroil davlatining "YuCON-Ayzenberg" firmasi bilan 300 tonna chigitni qayta ishlovchi qo'shma korxona qurilishi boshlandi[22].

Qiziltepa tumanida 1992-yilda yiliga 30 ming tonna paxta, 300 tonna pilla, 300 tonna jun, 20 ming donadan ortiq qorako'l teri tayyorlangan. 1995 yilgacha tumanda 150 dan ortiq mahsulotlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini barpo etildi. Natijada, 6,5 ming ish o'rni yaratildi hamda yiliga 700 million so'mdan ortiq xalq iste'mol mollari ishlab chiqarildi. Shu bilan bir qatorda, paxta tozalash zavodi bazasida ip yigirish kombinati, to'qimachilik kombinati va tikuvchilik fabrikasi barpo etildi[23].

1993-yilda Navoiy shahrida noto'qima materiallar fabrikasida 70 tonna mahsulotni qayta ishlaydigan yigiruv sexi faoliyat ko'rsata boshladi[24].

1993-yilda Navbahor tumanida chorvadorlari davlatga 21 191 dona qorako'l teri, 1588 sentner jun, 222 tonna pilla topshirib, yillik rejani ortig'i bilan bajardilar. 1994-yil yilda Italiya davlati bilan hamkorlikda yiliga 1700 tonna paxtani qayta ishlaydigan ip yigiruv korxonasi qurildi[25].

1993-yilda Turkiyaning "Deri-maksan" firmasi bilan terini qayta ishlovchi zavod, Germaniyaning "Universal" firmasi bilan junni tozalab, xomashyo oluvchi liniyalar qurilishi ham boshlandi[26].

1994-yilda "Agama" qo'shma korxonasi 250 ming dollarlik ustki kiyimlar, 50 ming dollarlik paypoq mahsulotlarini chet davlatga eksport qildi. "Karakaral" qo'shma korxonasi filialida oyoq kiyimlari tayyorlash uchun teri

mahsulotlarini qayta ishlovchi baza yaratildi. Viloyatda "Tadbirkorbank" filiali tashkil etildi. Ushbu bank tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash maqsadida 350 million so'm miqdorida kredit ajratildi[27].

1995-yilda Nurota tumanida Kipr davlati bilan hamkorlikda "Nurota-Runo" junni qayta ishlash fabrikasi tashkil etildi. Ushbu korxona 170 tonna junni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lib, 100 ming dollarlik chet el texnologiyasi asosidagi dastgohlar bilan jihozlandi[28].

1996-yilda viloyat miqyosida jun 1578 tonna (1995-yilga nisbatan 94,4 foiz), qorako'l teri 445388 dona (1995-yilga nisbatan 114,4 foiz), pilla ishlab chiqarish 701 tonna (1995-yilga nisbatan 106,5 foiz)ni tashkil qildi. 1578 tonna jun, 443,7 ming dona qorako'l teri sotildi[29].

Bugungi kunda tumanda tekstil sanoati aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu sohada tumanda "Navbahor Tekstil" hamda "Bright Navoi Textile" qo'shma korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ular yirik ish beruvchi subyektlardan sanaladi.

2007 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan "Navbahor Tekstil" korxonasining yillik ishlab chiqarish quvvati 7800 tonnani tashkil etadi. 2013 yilda tashkil topgan "Bright Navoi Textile" qo'shma korxonasi esa yiliga 5 ming tonna paxtani qayta ishlash quvvatiga ega. Turkiya hamda Angliya davlati hamkorligida ish yuritayotgan mazkur korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar asosan eksportga yo'naltirilmoqda. Mazkur ikkita zavodning o'zida 800 nafarga yaqin aholi mehnat qilyapti.

2007 — yil kasanachilik ish o'rinlarini tashkil etish manzilli dasturga kiritilgan ayrim korxona va tashkilotlarda moliyaviy ahvoli nochorligi sababli belgilangan topshiriqlarni bajarmadi[30]. Hududlardagi maxsus ishchi guruhlar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida manzilli dasturga kiritilmagan boshqa korxonalar hisobidan belgilangan rejalar to'liq bajarilmadi. Jumladan, manzilli dasturga kiritilgan Navoiy, Zarafshon

shaharlari, Karmana, Nurota, Uchquduq tumanlarining kasanachilik ish o'rinlarini tashkil etish hududiy dasturlardagi bir qator korxona va tashkilotlar o'rniga kasanachilik ish o'rinlari tashkil boshqa korxonalar hisobiga viloyatda yillik reja bajarildi[30].

Navoiy viloyati hududidagi ishlab chiqarish korxonalarida 2008 yil davomida kasanachilik mehnatini tashkil etish manzilli dasturi hamda viloyatning 2008 yil birinchi yarim yiliga mo'ljallangan "Bandlik" dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat ishchi guruhi ham tuzildi. Viloyat hokimi o'rinbosari, ishchi guruh rahbari I.Samadovga viloyat dastur ijrosini ta'minlash va nazorat qilish, hududlarda vujudga keladigan muammolarni o'z vaqtida yechilishini ta'minlash maqsadida, ishchi guruh a'zolarini tuman va shaharlarga biriktirish, viloyat ishchi guruhi bilan birgalikda har bir tumanda ishlab chiqarish korxonalarida kasanachilik mehnatini tashkil etilishi hamda "Bandlik" dasturiga kiritilgan obyektlarda yaratiladigan yangi ish o'rinlarini har oyda yo'nalishlar bo'yicha o'rganish, ularning to'liq yaratilishini ta'minlash va tahlilini olib borish, tumanlardagi ishchi guruh ish faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilish, dastur ko'rsatkichlarini bajarilishida ortda qolayotgan muammoli korxonalar ro'yxatini shakllantirish va ular bilan doimiy ishlar olib borish, korxona rahbarlari va ishchi guruh faoliyatni tanqidiy baholash, o'tkaziladigan hokimlik soatlariga doimiy ravishda masalalar kiritish vazifasi topshirildi[31].

Shundan so'ng viloyatda, xususan, birgina «Qizilqumsement» OAJ ma'muriyati hukumat tomonidan 72 ta ish o'rni to'liq tashkil etilib, fuqarolar kasanachilik asosida ish boshladi. Ular orasida 42 nafar tikuvchi, 21 nafar chorvador, 3 nafar sartarosh, nafar 1 mehmonxona ma'muri, 2 nafar temirchi chilangar, 3 nafar kitob muqovalovchi bo'lib ishladilar. Zavodga qarashli ishchilar yotoqxonasida kasanachilik bo'yicha ish boshlagan ayollar faoliyati yo'lga qo'yildi[32].

Biroq, kasanachilikka alohida e'tibor berib kelayotgan davlatlar bilan solishtirganda O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirishda imkoniyatlardan shartli darajada

foydalanilmaganligi ham ma'lum bo'ladi. Bu kamchiliklar aholida kasanachilik faoliyati, afzalliklari va ish, xizmat taklif qilayotganlar haqidagi axborotlarning kamligi kasanachilar o'rtasida raqobat muhitining kam shakllanganligi kabilarda ko'rindi[33].

"Ayollarga andozalarni bergandan keyin korxonaga borib o'tirish yoki kerakli soatni ishlab berishi shart bo'lmadi", — deydi 1999-2000 yillarda Navoiy viloyat Karmana tuman iqtisod masalalari bo'yicha tuman hokimi o'rinbosari bo'lib ishlagan Musallam Ibragimova. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3707-son Farmoni chiqqanidan so'ng viloyatda kasanachilikka yanada ko'proq e'tibor berila boshladi. Bu vaqtga qadar ayollar qo'l mehnati bizda yaxshi rivojlanib kelgan edi. Farmon chiqqanidan so'ng kasanachilikda uch tomonlama shartnoma tuzildi va u Korxona — Mahalla — Kasanachi tartibida tashkil etildi. Bu uyda o'tirgan ayollar uchun juda qulay bo'ldi. Mahalla faollari uyda o'tirgan ayollarni ish bilan ta'minlash maqsadida buyurtmaga ehtiyoji bor korxonalardan ish topib ayollarni ish bilan ta'minladilar. Shu tariqa ayollarni asta-sekin ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'ya oldik. Hatto, ishlab chiqarish korxonalariga haftaning ma'lum bir vaqtida sartaroshlar borishi ham tashkil etildi. Tasavvur qiling, bizda korxonalar uch smenada ishlaydi, ishchilar ishdan chiqib maishiy ehtiyojlariga chiqishlari uchun sharoit yaratish maqsadida korxona xodimlarining ishdan chiqishiga yoki tushlik vaqtida korxonaning o'zida sartaroshlik xizmati yo'lga qo'yildi. Kasanachilar ko'proq, "Simzavod" "Navoiyissiqlikelektrostansiyasi", "Navoiyazot", "Navoiymetallurgiya", "Qizilqumsement" AJ da bo'ldi[34].

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 il 5 yanvardagi Farmonidan kelib chiqib, "Qizilqumsement" AJ da kasanachilik bo'linmasi tashkil etildi.

Bo‘linmada ikkinchi chorak yakunigacha boshliq, 1 nafar tikuv ustasi, 2 nafar patdo‘z, 48 nafar tikuvchi qabul qilindi. 2007 yilga kelib 10 nafar tikuvchilik ishi o‘rni yaratildi. 2012 yil korxonada maxsus ish kiyimlariga talab oshganligi bois yana 10 nafar tikuvchi ishga qabul qilindi. Bo‘linma tikuvchilari qishki va yozgi maxsus ish kiyimlari, issiq kurtka, nimcha, stullarga g‘ilof, choyshablar, korxonaning tibbiyot xodimlariga, ichki qo‘riqlash, yong‘in xavfsizligi xodimlariga maxsus kiyim tikish bilan shug‘ullandilar. Hatto, 2013 yil 12 nafar erkaklar korxonaning yordamchi xo‘jaligi uchun yem — xashak tayyorlovchi qilib ishga olindi[25].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xususiylashtirish jarayonining boshlanishi, mulkdorlar

sinfining shakllanishi, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin.

Respublikada bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida amalga oshirilgan ishlardan biri, rivojlangan xorijiy davlatlar o‘rtasida hamkorlik aloqalarining o‘rnatilishi, ular tomonidan yengil sanoat sohasiga investitsiyalarning kiritilishi natijasida soha o‘zgarishlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Yengil sanoat korxonalarini qayta texnikaviy jihatdan jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Viloyat paxta tozalash zavodlari va to‘qimachilik korxonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi, samaraliroq ishlaydigan, sifat ko‘rsatkichini oshiradigan agrigatlarining o‘rnatilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qarshiev R.M. Navoiy shahriining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti: tajriba va muammolar (1958-1990 yy): Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Andijon: 1996. — 147 b.
2. Vohidova M. O‘zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ta‘siri (Navoiy viloyati misolida): Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: 2018. — 48 b.
3. Shamiyev F U, Xorijiy sarmoya jalb etish jarayonini faollashtirish (Navoiy viloyati sanoati majmui misolida): Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Toshkent: 2004.— 127 b.
4. G.I.Norquvvatova “Mintaqada yengil sanoatni rivojlantirish va hududiy tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Urganch: 2023.— 148 b.
5. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005 — 240-bet.
6. Sattorov U. Navoiy viloyati. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.- 283 b.
7. R.Maqsudov, Q.Rajabov. Qiziltepa tarixi. (Uchinchi eng muhim qisqa ma’lumotlar). — T.: «Fan va texnologiya», 2016, 96 bet.
8. R. Maqsudov, Q. Rajabov. Qiziltepa tumani kecha va bugun. — T.: Sahnhof, 2021. — 117 b.
9. Xolmurodov R. Xatirchi tumani tarixidan lavhalar. —Toshkent: Fan, 1996, 10-11-b.
10. Hotamov A., Bekniyozov N... Karmana — qadimiy diyor. Toshkent: O‘zbekiston, 2007 — 152-bet.
11. Hotamov A., Halilov Sh. Yillar sadosi. Toshkent: Adolat, 1995 — 72-bet.
12. Azamat Zaripov, Shoyim Shernazar. Karmana kechmishi. Toshkent: Sahnhof, 2021 — 192-bet.
13. Olmaxon Hayitova, Xurshid Qurbonov. Karmana tarixi. Toshkent: Mashhur-press, 2018 — 216-bet.

14. Salimov T.U. Nurota va nurotaliklar. T.: Universitet, 2019. -158 b.
15. Inoyatov S., Yo'ldoshev N., Hayitova O. Ko'hna tarix guvohi (Karmana tarixidan lavhalar). Toshkent: Sharq, 2000 — 43-bet.
16. Raupov R.X. O'zbekiston yengil va oziq-ovqat sanoatining aholini iste'mol mollari bilan ta'minlash tarixidan. – Tarix fanlari nomzodi. diss. avtoref. – Buxoro, 1997.
17. F.U.Xolmanova. O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanish tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1991-2020 yy) tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Termiz–2022. — B. 137.
18. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 30-ish, 57-varaq.
19. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 30-ish, 41-varaq.
20. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 135-ish, 8-varaq
21. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 31-ish, 81-varaq
22. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 4-ish, 37-varaq
23. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 3-ish, 12-varaq
24. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 31-ish, 3-varaq
25. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 31-ish, 16-varaq
26. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 4-ish, 37-varaq
27. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 31-ish, 62-varaq
28. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 135-ish, 19-varaq
29. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 247-ish, 18-varaq
30. Navoiy viloyat hokimligi arxivi. F-100, ro'yxat-1, yig'ma jild-900, 45-46 varaqlar
31. Navoiy viloyat hokimligi arxivi, 1-100, ro'yxat-1, yig'ma jild-902, 34-35 varaqlar
32. Bayziyeva X. Korxona kasanachilikka yo'l ochdi / Do'stlik bayrog'i. 2006 yil 28-dekabr.
33. Rajabov U. Kasanachilik — bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbai iqtisod va moliya. -№ 6, 2017.- 13 bet.
34. Navoiy viloyat Karmana tuman iqtisod masalalari bo'yicha 1999-2000 yillarda tuman hokim o'rinbosari bo'lib ishlagan Musallam Ibragimova bilan qilingan suhbatdan. Suhbat 2022 yil 20 avgustda yozib olingan.
35. "Qizilqumsement" AJ joriy arxivi materiallari.

SURXONDARYO VILOYATIDA KOMMUNISTIK MAFKURANING ADABIYOT, SAN'AT VA MA'NAVIY MADANIYATGA SALBIY TA'SIRI

Hotamov Abduvohid Boboxonovich,

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Denov tuman adliya bo'limi Denov tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0006-0027-8588>

Annotatsiya: Mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida klublarning siyosiy-tarbiyaviy, madaniy-oqartuv faoliyati mazmuni partiya ilgari surgan kommunistik qurilish vazifalari, konkret tarixiy sharoit, ideologiya kuchlari joylashuviga qarab belgilandi. Klublar va boshqa madaniy-oqartuv muassasalarining oqartuv ishlari axborot oqimining tobora ortib borishiga, fan-texnika revolyutsiyasi yutuqlariga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Turli-tuman formalarda, axborot, bilim tarqatish, ularni propaganda qilish o'chog'i sifatida klublarning roli borgan sari oshib bordi.

Kalit so'zlar: adabiyot, san'at va ma'naviy madaniyat, Surxondaryo viloyati, kommunistik mafkura, "Alpomish", "Navro'z", "Mehrijon", Qurbon hayit, Ro'za hayit, "Kommunizm sari" nomli she'riy to'plami.

Аннотация: На каждом этапе развития страны содержание политико-просветительской, культурно-просветительской деятельности клубов определялось в зависимости от задач коммунистического строительства, выдвигаемых партией, конкретных исторических условий, расположения идеологических сил. Воспитательная работа клубов и других культурно-просветительских учреждений меняется в зависимости от возрастающего потока информации и достижений научно-технической революции. В различных формах роль клубов как центров информации, распространения знаний и их пропаганды все больше возрастает.

Ключевые слова: литература, искусство и духовная культура, Сурхандарьинская область,

коммунистическая идеология, поэтические сборники «Алпомиш», «Навруз», «Мехрджон», Курбан Хаит, Роза Хаит, «На пути к коммунизму».

Abstract: At each stage of the country's development, the content of political-educational, cultural-enlightenment activities of the clubs was determined depending on the tasks of communist construction put forward by the party, concrete historical conditions, location of ideological forces. The educational work of clubs and other cultural and educational institutions changes depending on the increasing flow of information and the achievements of the scientific and technical revolution. In various forms, the role of clubs as centers of information, knowledge distribution, and their propaganda has been increasing more and more.

Key words: literature, art and spiritual culture, Surkhondaryo region, communist ideology, poetry collection "Alpomish", "Navroz", "Mehrijon", Kurban Hayit, Roza Hayit, "Towards Communism".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ma'lumki, har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi adabiyot va san'at hisoblanadi. Adabiyotda xalqning muayyan tarixiy hayotidagi va ruhiyatidagi xususiyatlari aks ettiriladi. Sovet hukmronligi va ma'muriy buyruqbozlik tuzumining yakka hokimligi sharoitida O'zbekistonda, jumladan, Surxondaryoda milliy-an'anaviy qadriyatlarga zid bo'lgan yangi "o'zbek sovet adabiyoti" shakllandi. Ta'kidlash joizki, ma'muriy buyruqbozlik tuzumi g'oyalarni keng yoyishda adabiyot asosiy qurollardan biri vazifasini o'tadi.

Xalqning ma'rifatga, milliy an'ana va ma'naviyatga bo'lgan intilishi sovetlarga xos

bo'lgan siyosiy manfaatlar yo'liga burildi. Yangi avlodni shakllantirishda siyosiy manfaatlar ustuvor qilib qo'yildi. Eski adabiy muhitdan voz kechish ana shunday maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. Badiiy asarlardagi xalqning tarixi, diniy, milliy qadriyatlarini ulug'lashga bo'lgan intilishi hukmron mafkura tomonidan to'sqinlikka uchradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

P.X.Pulatov, N.Gaibov, V.V.Ustinov, K.A.Akilov, S.Shermuxammedovlarning asarlari kommunistik mafkura asosida yaratilgan bo'lsa-da, ularda gumanizm va madaniyat, madaniyatda milliylik va baynalmilallik dialektikasi va o'zaro bog'liqligining nazariy jihatlarini o'z aksini topgan.

X.G.Rasulov, A.Atamuradov, N.Xakimovlarning asarlari "qayta qurish" yillarida yaratilgan tarixiy va falsafiy asarlar hisoblanib, ularda zamonaviy o'zbek milliy madaniyatining holati va rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan.

X.Tursunov, L.K.Shek, N.Ahmedov, M.Pak., A.Ro'zmetov, B.Yu.Babaxanovlarning asarlarida mehnatkashlarni internatsionalizm ruhida tarbiyalash, bu jarayonda radio va televideniyaning o'rni, qayta qurish sharoitida partiyaning kadrlar siyosati kabi masalalar yoritilgan.

B.Yoqubov, T.Maminov, T.Qozoqboyev, U.Toshtemirov, U.Qoraboyevlarning asarlarida milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar nazariyasi tarixiga oid qator asarlar ham ma'lum nuqtai nazarda o'rganilgan va ularga tadqiqot muallifining munosabatlari bildirilgan.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ma'lumki, shaxsga sig'inish avj olgan davrda mustaqil fikrga ega bo'lgan, milliylikni ulug'lagan ijodkorlar qatag'on qilindi, ulardagi ijodiy mahorat va tashabbuskorlik yakson etildi. Shu bois adabiy muhit ahli ham kommunistik partiya qaror va buyruqlarini bajarib markscha-lenincha nazariyaga asoslangan asarlar

yaratdilar. Bu yillarda shubhasiz Lenin siymosi, kommunistik partiya, Stalinni madh etuvchi adabiyot, asar va maqolalar keng tarqaldi. S.Qodirovning "Partiya", Ch.Hamroyevning "Kolxoz qishloqlari", T.Jumanovning "Yangi rassom va yangi portret", N.Solayevning "Bu mening Vatanim", S.Ahmedovanning "Vatan" she'rlari va boshqa ko'plab adabiyot va asarlarda bu jarayonni ko'rish mumkin edi[4].

Surxondaryodagi ijodkor R.Uzoqovanning "Kommunizm sari" nomli she'riy to'plamiga g'oyaviy mazmundagi she'rlar kiritilgan edi. Shuningdek, bu davrda o'zbek xalqning qadimiy qadriyatlari, urf-odatlar va xalqchil g'oyalarini aks ettirgan xalq og'zaki ijodi namunalariga ham sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazarda tanqidiy tarzda baho berildi.

SSSR Yozuvchilar uyushmasi nizomida "sotsialistik realizm" uslubi ko'p millatli sovet adabiyoti va adabiy tanqidining asosiy uslubi ekanligi qayd etiladi. Mazkur "sotsialistik realizm" uslubi ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asosiy in'ikosi sifatida mavjud bo'lib keldi va adiblar tafakkuri va ijod erkinligini chekladi. Badiiy asarlarda sotsialistik tuzumga xos aqidalar, partiyaviylik, sinfiylik bayrog'i ostida g'oyabozlik avj oldirilib, badiiy mahorat, san'atdagi iqtidor kabi jihatlar e'tibordan ko'p holda chetda qoldirildi. Ammo, bir vaqtning o'zida ta'kidlash joizki, bu davrda yaratilgan asarlar ichida badiiy saviyasi nisbatan yuqori bo'lgan adabiyotlar ham yuzaga keldi.

Tadqiq etilayotgan davrda xalqimiz milliy bayramlari, diniy urf-odat va marosimlariga o'tmish sarqitlari sifatida qaraldi. "Navro'z", "Mehrjon", Qurbon hayit, Ro'za hayit bayramlari emas, «O'roq va bolg'a» bayrami, «Paxta bayrami», 16 yoshga to'lganlarga pasport berish marosimi, Ishchilar sinfi saflariga qabul qilish marosimi, «Kasbimdan faxrlanaman» temasidagi kechalar, veteranlarni pensiyaga uzatish va yoshlarni paxtakorlar safiga qabul qilish marosimlari, «Shanba oqshomi», «Gullar bayrami va «Qovun bayrami» singari bayramlar tashkillashtirildi. Chunki o'sha paytlar "Navro'z" va "Mehrjon" bayramlari sovet mafkurasining sodiq ijrochilari sanalgan

I.Usmonxo‘jayev va R.Abdullayevalarning qahriga duchor bo‘lgan davrlar edi[5].

Sovet hukmronligi davrida “Alpomish”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin” va boshqa qator xalq dostonlari jiddiy mafkuraviy-g‘oyaviy qarshilikka uchradi. 1952-yil 28-31 martda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiyotchilar uyida bo‘lib o‘tgan majlisida “Alpomish” dostoni muhokama qilindi. Ma‘lumki, Alpomish o‘zbek xalq qahramonlaridan biri bo‘lib, uning obrazida mehnatkash xalqning oliyjanob fazilatlar va orzu-umidlari ifoda etilgan³. Ammo, tabiiyki muhokama jarayonida Alpomishga qonxo‘r bek, kishilarni ezuvchi zolim kishi deb baho berildi. Bu dostonni g‘oyaviy nuqsoni ko‘p asar sifatida kitob do‘konlaridan olib tashlashga qaror qilindi. Holbuki, “Alpomish” dostoni dunyo estetik tafakkuri tarixida kamdan-kam uchraydigan favqulodda va noyob badiiy hodisalardan biri hisoblanadi. Qadimda yaratilgan bu epos baxshilar tomonidan asrlar davomida kuylanib, xalq an‘anasi sifatida bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. “Alpomish”da tasvirlangan voqealar Surxon vohasida yashovchi Qo‘ng‘irot qabilasi hayotini ifoda etgan[6].

Surxondaryo viloyat drama teatri repertuaridagi “Farhod va Shirin”, “Navoiy”, “Layli va Majnun”, “Alpomish” kabi sahna asarlarining o‘rniga rus va yevropa mualliflari asarlari, jumladan “Uylanish”, “Sedaya devushka”, “Goluboy Dunay”, “Kommunist” singari sahna asarlari asosiy sahna asarlari maqomiga erishdi[7].

Bu bilan milliy sahna asarlarini ijro etish tamoman orqaga surib qo‘yildi. Biroq g‘arb mualliflarining asarlarini sahnalashtirishning murakkabligi, dekoratsiya ishlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi teatrlar ijod ahlining ushbu asarlarni ijro etishdagi mahoratining to‘liq shakllanib ulgurmaganligi bois qator qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shu sababdan ham 1947-yildan O‘zbekistonning qator viloyatlardagi teatrlari musiqali drama teatrlariga aylantirildi. 1948-1957 yillar oralig‘ida Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri o‘z faoliyatini to‘xtatdi[8]. Shu davrda teatr sahnasida kommunistik

partiyaning “ijtimoiy buyurtma”si asosida sovet voqeligini tarannum etuvchi asarlari keng namoyish etildi. Masalan, K.Yashinning “Ikki kommunist”, N.Safarovning “Uyg‘onish”, K.Simonovning “Rus masalasi”, G.Muxtorovning “Muhabbat g‘unchasi” kabi asarlar shular jumlasidan sanaladi[9].

Sovet rejimining turli mafkuraviy tazyiqlariga qaramasdan madaniyat sohasida ham talantli ijodkorlar yetishib chiqdi. to‘g‘ri bu davrda ko‘plab klublar, madaniyat uylari, teatr va kinoteatrlar bunyod etildi. madaniyat muassasalarida xizmat qiluvchi ko‘plab mutaxassislar tayyorlandi. biroq, Sovet rejimi madaniyat muassasalariga o‘z siyosati va mafkurasining targ‘ibotchisi va yo‘riqchisi sifatida munosabatda bo‘ldi.shu sababli sovet rejimining mafkuraviy yo‘l-yo‘riqlari madaniy jarayonning to‘laqonli faoliyatiga yo‘l bermadi. aksincha milliylik va milliy ruh singdirilgan asarlarni yaratishishiga jiddiy tarzda qarshilik qildi. Bu esa butun O‘zbekistonda bo‘lgani singari Surxondaryo viloyati aholisining madaniy hayotida ham anchagina salbiy iz qoldirdi[10].

Sovet mafkurasi 1980-yillarda sovet yoshlar kelajak yaratuvchilari g‘oyasi asosida ularni yangi zamonaviy yashash, turmush tarzini kommunizm e‘tiqodlariga moslashtirish, ularni o‘z millati urf-odatlar, an‘analari, marosimlar va qadriyatlaridan voz kechishiga olib kelish, uni o‘ringa yevropa madaniyatini bir bo‘lagi bo‘lgan rus va rusiyzabon millatlar madaniyatiga jalb etish davlat siyosatining muhim dolzarb masalasiga aylangan edi. Shu munosabat bilan 1981 yil 20 aprel kuni Y. Oxunboboyev nomli sovxoz klubida mexanizator rayon sovetining deputati, ijroiya komitetining a‘zosi, mexanizatsiyalashgan brigada boshlig‘i Shaydulloh Hazratov bilan uchrashuv o‘tkazildi. Kechaga sovxoz mehnatkashlari, Oybek nomli 16-o‘rta maktab bitiruvchilari taklif etildilar. Hazratov Sh. mehnat yutuqlari va mexanizatorlik kasbi haqida batafsil gapirib berdi. Kecha savol javob asosida o‘tdi. Kech oxirida Y.Oxunboboyev nomli sovxozning "Gulbahor" ansambli katta konsert namoyish etdi. 1981-yilda rayonda yangi urf-odalarni hayotga tatbiq etishda

qishloq klublari faoliyati ko'rsatib mehnat qildilar. Pasport topshirish, pensiyaga kuzatish, kelin-kuyovlarni tantanali ravishda FHDIYO idorasidan o'tkazishi kabi tadbirlar qo'shib o'tkazildi. Rayonda 1981- yilda 61 ta nikohdan o'tish bo'lgan bo'lsa, shuning 20 tasi rayon madaniyat uyida va qishloq klubi tantanali ravishda o'tkazildi. Shular jumlasidan: Boypo'latov Abdujabbor, Rahimov Oysanam, Mamatmurodov Ro'zimurod, Ergashev Salim, Nurmatov Ahmad, Qobilov Karomat, Isayev Temir, Qurbonova Menglixol kabilarning nikohlari tashkil etildi[11]. Bu tadbirlar milliy mentaliteti va milliy o'zlikka qarshi qaratilgan siyosatining o'ziga xos usullaridan biri edi.

1980-yillarning ikkinchi yarmida o'zbek yozuvchi va shoirlarning she'riy asarlari, qissa va hikoyalarda ham sovet davri illatlarini fosh etish istagi ustuvorlik qilgan[12]. 1980-yillar oxirida esa milliy ong va xalq tafakkuridagi yangilanishlar samarasi sifatida o'zbek adabiyotida faqat unga xos ijtimoiy-estetik xususiyatlar namoyon bo'lgan[13]. Shuningdek shu yillar she'riyatida ham kuchli ijtimoiy ruh hukm surgan, buning ustiga mamlakatda ro'y bergan liberal kayfiyat tufayli she'rda badiiyatsizlik, pand-nasihat, quruq chaqiriqlar, yozg'irishlar tendensiyasi ham kuchaygan.

Milliy adabiyotimizda qayta qurish davriga mos tarixiy haqiqatni tarannum etuvchi zamonaviy qahramon masalalariga ham

muayyan darajada e'tibor qaratila boshlandi. Ijobiy qahramonning yangi bir shakli, ya'ni "kamchilikli ijobiy qahramon" yaratish an'anasi paydo bo'ldi. Chunonchi, Omon Muxtorning "Davr mening taqdirimda", "Tug'ilish" romanlari, Odil Yoqubovning "Muqaddas", "Tilla uzuk", "Bir feleyton qissasi" asarlarida, shuningdek boshqa yozuvchilarning bir qancha asarlarida ham shu holatni ko'rish mumkin[14]. Shu bilan birga, bu davrda adiblarimizning zamonning o'zgara boshlaganligini yorqin tasavvur etuvchi asarlari nashr qilina boshlandi[15].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sovet mafkurasi aholi orasida kommunistik g'oyani keng targ'ib etishda teatr va madaniyat muassasalaridan unumli foydalandi. Jumladan, bu to'g'risida partiya hujjatlarida shunday jumalarni uchratish mumkin: "Sovet teatri o'zining eng muhim vazifalaridan biri bo'lgan aholini tarbiyalash ishini faqatgina sovet davlati yashashining asosi bo'lgan sovet tuzumi siyosatini faol targ'ib qilgandagina uddalay oladi[16]. Shu boisdan ham teatlarda sovet voqealigini madh etuvchi asarlar ko'plab namoyish etildi. Xalqning milliy mentaliteti, qadriyat va udumlari sof o'zbekona turmush tarzini targ'ib qiluvchi asarlar deyarli sahnalashtirilmadi. Shunday asarlarni sahnalashtirishga uringan dramaturg va rejissiyorlar ta'qib ostiga olindi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /

REFERENCES):

1. Yunusova X.E. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. –T.: Zarqalam, 2005. -B.42.
2. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgasida. – Toshkent: Sharq, 2001;
3. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004;
4. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 313-фонд, 1-рўйхат, 417-иш, 13-варақ.
5. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 313-фонд, 1-рўйхат, 427-иш, 12-13-варақлар.
6. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 313-фонд, 1-рўйхат, 430-иш, 42-варақ.
7. Сурхондарё вилояти давлат архиви 313-фонд, 1-рўйхат 36-иш, 21-варақ
8. Маннон Уйғур номидаги Сурхондарё вилоят мусикали театри. Театр ҳақидаги китоб 80-ёшда. – Термиз, 2015. – Б 15.
9. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 313-фонд, 1-рўйхат, 56-иш, 96-97-варақлар.

10. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 313-фонд, 1-рўйхат, 439-иш, 19-варақ.
11. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 54-фонд, 1-рўйхат, 123-иш, 11-12 варақлар.
12. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – 654-б.
13. Ўзбекистон Республикаси. Т. 2002 йил 397-398-бетлар.
14. Акрамов Э. Тарихий шароит ва бош қаҳрамон. – “Ўз АС”, 1985 йил 7 июнь.
15. Мирзаев С. Бадий ҳақиқат талаби. – “Шарқ юлдузи”, 1986 йил “11, 196-б.
16. Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. – Б.39.

SURXONDARYO VILOYATIDA KOMMUNISTIK MAFKURA ATEISTIK TASHVIQOTI

Jumayev Bekzod,

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi,

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0065-4278-616X>

Annotatsiya: Hozirgi kunda sovet davri tarixini o'rganishda chuqur ilmiy tahlil va tarixiylikka asoslangan obyektiv ilmiy tadqiqotni olib borish va ilmiy xulosalar chiqarish tarixiy tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shuningdek, bu davr tarixini o'rganishning muhim qirralaridan biri diniy masala bilan bog'liq sovet hukumatining faoliyatini tadqiq etishdir. Ushbu maqolada sovet hukumati davrida Surxondaryo viloyatida kommunistik mafkura ateistik tashviqoti bilan bog'liq holatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ateistik tashviqot, "Xudosislar ittifoqi", "xurofot o'chog'i" shiori, Iso Termiziy, at-Termiziy maqbaralari, ateistik matbuot.

Аннотация: В настоящее время при изучении истории советской эпохи одной из важнейших задач исторического исследования считается проведение объективного научного исследования, основанного на глубоком научном анализе и историчности, и составление научных выводов. Также одним из важных аспектов изучения истории этого периода является изучение деятельности советского правительства, связанной с религиозным вопросом. В данной статье анализируются обстоятельства, связанные с атеистической пропагандой коммунистической идеологии в Сурхандарьинской области в период советской власти.

Ключевые слова: атеистическая пропаганда, «Союз атеистов», лозунг «рассадник суеверий», Иисус в Термизи, мавзолеи аль-Термизи, атеистическая пресса.

Abstract: Nowadays, in the study of the

history of the Soviet era, conducting an objective scientific research based on deep scientific analysis and historicity and drawing scientific conclusions is considered one of the most important tasks of historical research. Also, one of the important aspects of studying the history of this period is to study the activities of the Soviet government related to the religious issue. This article analyzes the circumstances related to the atheist propaganda of the communist ideology in the Surkhandarya region during the Soviet government.

Key words: Atheist propaganda, "Union of the Atheists", slogan "hotbed of superstition", Jesus at Termizi, al-Termizi mausoleums, atheistic press.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sovet jamiyati tarixida 1920-yillarning oxiri 30-yillarda diniy muassasa va tashkilotlar hamda din peshvolari, dindorlarga nisbatan munosabat o'ta reaksiya, shafqatsiz tarzda bo'lib, ateistik harakatning keng miqyosida kuchayishi bilan ta'riflanadi. Sovet hukumati kommunistik partiya rahnamoligida diniy va milliy qadriyatlarga qarshi kurash olib borib, ruhoniylar ta'qib etildi, tarixiy ahamiyatga ega obida va muassasalar yopib qo'yildi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda g'oyaviy kurash avj oldirilib, ateistik tashviqot va targ'ibot, ateistik matbuotga keng e'tibor qaratildi. Ateistik tashviqotning suhbat, ma'ruza, savol-javob kabi shakllari asosida ish tashkil etildi.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tarixiy yodgorliklarga nisbatan ko'r-ko'rona munosabatda bo'lish, mahalliy aholining boy madaniy merosini

mensimaslik oqibatida tarixiy yodgorliklarga jiddiy ziyon etkazildi. Termiz va uning atrofidagi bir qancha obidalar yo'q qilindi. Shu yillarda Salovotda muqim yashab kelgan sayyidlarining avlodlari ta'qib qilindi[2]. Natijada ularning ko'pchiligi chet ellarga ketib qoldilar, ayrimlari esa qatag'on qilindilar. Salovotdagi machit, Sulton Saodat maqbarasining darvozaxonasi, qadimiy xonaqosi buzib tashlandi. 1932-yilda hozirgi katta o'zbek trakti yo'lida (Sherobod yo'lida) joylashgan Termizdagi eng qadimgi minora ham yo'q qilindi.

1944-yil oxiri va 1945-yil boshlarida Surxondaryoda 10 ta masjid islomga e'tiqod qiluvchilar tomonidan hukumat ruxsatisiz qurilgan va ta'mirlangan[3].

Qattiq senzura tartiblari, asosida belgilab berilgan faoliyatgagina ruxsat berilgan. Agarda ushbu yo'nalishdan kim chetga chiqsa yoki markaz ko'rsatmasiga xilof ish tutsa tegishli tarzda partiyaviy jazoga tortilgan. Misol uchun Surxon vohasining ma'rifatparvar insonlaridan biri Eshboy Pardayev ham ana shunday balolarni o'z boshidan kechirdi. Eshboy Pardayev Leningrad til va adabiyot instituti aspiranturasiga kirib, XVI asr o'zbek tili grammatikasi"ni o'rganish yuzasidan tadqiqotlar ham olib bordi. 1945-yilda maktabda ishlab yurgan kezlarida ta'lim berayotgan bolalarga "Qur'oni Karim"ni ko'rsatganligi uchun dinni targ'ib qilinishida ayblanib NKVD tomonidan besh yilga qamab yuborildi.

1947-yilda SSSR Fanlar Akademiyasining Tarix institutida din tarixi va ateizm sektori ish boshladi. 1964-yilda esa Ijtimoiy fanlar akademiyasi huzurida ilmiy ateizm instituti tashkil etildi[7].

KPSS Markaziy Qo'mitasining 1954-yil 7-iyuldagi qarorida "O'rta Osiyodagi qadamjolarni ziyorat qiluvchilar soni ko'pligi, u erda ko'plab mol-qo'ylar so'yilib, diniy bayramlarni nishonlash xalq xo'jaligini izdan chiqarib, mehnat intizomiga putur etkazayotganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, diniy xurofot va bid'atlar sovet kishilari bir qismining ongini zaharlab, ularning kommunizm qurilishida xalaqit bermoqda"[8],

deb qayd etiladi.

Muqaddas joylarga, ularni ziyorat qilishga qarshi kurash KPSS MKning 1958-yil 28-noyabrdagi **"Muqaddas joylarni ziyorat qilishni tugatish bo'yicha choralar to'g'risida"**gi qaroridan keyin ayniqsa kuchaydi. Bu qarorga asosan, barcha muqaddas joylar yopilishi kerak edi. O'zbekiston diniy ishlar bo'yicha kengash vakilining ma'lumotiga ko'ra, respublikada 1959-yil 30-maygacha hisobga olingan. **"Muqaddas joylar"** 176 ta edi. Shulardan 138 ta muqaddas joy yopilgan edi. O'zbekiston diniy ishlar bo'yicha vakilining 1962-yil 4-fevraldagi ma'lumotiga muvofiq, 1960-yil 1-yanvarda respublikada faoliyat ko'rsatgan muqaddas joylar 295 ta bo'lgan. 1960-1961 yillarda ko'rilgan choralar tufayli 245 ta muqaddas joylar yopilgan. 1962-yil 1-yanvarda respublikada faqat 49 ta muqaddas joylar faoliyat ko'rsatgan.

SSSR va O'zbekiston SSR konstitutsiyalarida fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, sovet hokimiyati kommunistik partiyasi dindorlar va diniy muassasalarga nisbatan dahriylikdan iborat siyosatini XX asr 50-yillari oxirida yangidan kuchaytirish siyosatini ilgari surdi. Ayni paytda din va diniy ta'lim marksizm-leninizm g'oyalariga ilmiy qarshi qo'yish kuchaytirildi. Bu davrdan boshlab fanni dinga qarshi qo'yish, undan dahriylik targ'ibotida foydalanish, yoshlar orasida e'tiqodsizlikni kuchaytirish, sof kommunistik mafkurani yaratish kampaniyasi boshlab yuborildi.

O'zbekistonda "xudosizlar ittifoqi" tashabbusi bilan "Xudosizlar" jurnali nashr etilib, respublikada, xususan, islom, uning marosimlari, urf-odatlar diniy sarqit sifatida talqin etilib, unga qarshi kurash muhim masala sifatida kun tartibidan tushmadi. Jumladan, respublika miqyosida tashkil etilgan dinga qarshi kurash "xudosizlar ittifoqi"ning bo'limlari Surxondaryo viloyatida ham faoliyat olib bordi. O'zbekistonning janubida ham "xudosizlik"ni targ'ib etuvchi, dinni qoralovchi maxsus lektor-ateistlar maktablari ochildi.

Jumladan, Surxondaryo viloyatida 1981-

1982 o'quv yilida viloyat partiya komiteti huzuridagi marksizm-leninizm universitetining ideologiya fakultetida lektor-ateistlar bo'limi ochilib, unda mazkur o'quv yilida 30 lektor-ateist tayyorlandi[7]. O'sha o'quv yilida Termiz davlat pedagogika instituti huzurida ham yosh ateistlar maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi[4]. Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlarida 2 yillik ilmiy-ateizm bo'yicha maktablar ochildi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida diniy ishlar qo'mitasi ish olib borib, mazkur qo'mita joylarda masjid, madrasa va qabristonlar o'rnini qayta ko'rib chiqish va boshqa shunga o'xshash masalalar bilan shug'ullangan[5]. Komissiya qarori va say'i harakati tufayli Surxondaryodagi ko'plab masjidlar faoliyati to'xtatib, ular yopib qo'yildi.

Surxondaryodagi hadisshunos olim, musulmon dunyosining taniqli allomalari Imom Termiziy, Al-Hakim-Termiziy maqbaralari qarovsiz holga keltirildi va u erlarga kishilarning ziyorat qilishlari ta'qiqlandi.

“Xudosizlar ittifoqi” nafaqat diniy muassasalar, balki diniy va milliy bayramlar va marosimlarga ham qarshi kurash olib bordi.

Surxondaryoning qishloq hududlarida Termiz, Denov, Boysun, Sherobod va boshqa janub shaharlarida hayit marosimlarini bayram sifatida nishonlash man etish darajasiga etgan edi. Jarqo'rg'on, Boysun, tumanlarida dinga qarshi targ'ibot kuchaygan yillarda ham hayit bilan bog'liq an'analar yashirin davom ettirilib, yangi jihatlar bilan boyib bordi.

Sovet davrida madaniyat, milliy urf-odatlar, an'analarga zarba berilib, o'zbek xalqining uzoq yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlari, urf-odat va an'alari “o'tmishning zararli sarqiti” sifatida qoralanib, ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan din “xurofot va bid'at” deya talqin qilindi. Kommunistik mafkuraning dinga qarshi kurashi oqibatida mamlakatimizdagi tarixiy obidalar achinarli holatga kelib qoldi. Yuzlab, minglab masjidlar, maqbaralar, ziyoratgohlar “Din-xalq uchun afyundir” hamda “xurofot o'chog'i” shiorlari ostida yopildi, buzib

tashlandi yoki boshqa maqsadlarda foydalanildi.

Ilmiy-ateistik propaganda ishlari, ayniqsa, Surxondaryo viloyati madaniy-oqartuv muassasalarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu erda ilmiy-ateistik propagandaning eng ta'sirchan va keng tarqalgan formalari bo'lgan leksiya va suhbatlarga alohida e'tibor qaratilgan edi. Madaniyat uylarida ilmiy-ateizmga bag'ishlangan lektoriy tashkil etilgan. Unda planli ravishda «Dinning paydo bo'lishi», «Diniy marosimlar va ularning mohiyati», «Kommunistik axloq va diniy axloq» kabi mavzularda leksiyalar o'qilgan. Rayonlaridagi madaniy-oqartuv muassasalarida esa ateistik mavzularda ko'plab tematik kechalar uyushtirilgan. Shahar madaniyat bo'limining ilmiy-ateistik propagandaga doir ishlariga ko'ra, mahallalarda ilmiy-ateistik mavzularda leksiya va suhbatlar muntazam o'tkazilgan. «Fan va din», «Odamning paydo bo'lishi», «Xudo bormi?», «Diniy marosimlar va ularning zarari», «Meditsina va din», «Quyosh va Oy tutilishining sabablari» kabi mavzulardagi leksiya va suhbatlarni o'tkazishda ateistik propagandaning ko'rgazmali agitatsiya vositalaridan keng foydalanilgan.

Qishloq klublarida ateistik mavzularda savol-javob kechalarini o'tkazish an'ana bo'lib qolgan. Oblastdagi barcha klublar huzurida ateizm burchaklari mavjud edi. Ularda ateizmga oid turli adabiyotlarni, jurnallarni, plakatlarini, shuningdek, ilmiy-ateizmga oid kitoblar ro'yxatini topish mumkin bo'lgan.

Oblast madaniy-oqartuv muassasalarining xodimlari dinga ishonuvchilar bilan individual ish olib borishgan. Bunda ilmiy-ateistik propagandaning suhbat formasidan keng foydalanilgan. Suhbatlarni o'tkazishda har bir dinga ishonuvchining yoshi, kasbi, ma'lumoti, dunyoqarashi va hokazolar hisobga olingan, albatta.

Ko'pgina madaniy-oqartuv muassasalari huzuridagi xotin-qizlar klublarida ilmiy-ateizm mavzularida leksiya va suhbatlar o'tkazishdan tashqari ilmiy-ommabop va badiiy kitoblardan parchalar, gazeta va

jurnallardan dindan voz kechganlarning maqolalari va ular haqida yozilgan materiallar o'qib bergan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, mazkur yillarda mamlakatda diniy idoralarni qattiq nazorat ostiga olish, ularning sonini kamaytirish va faoliyatini doimo nazorat ostida olib turish

kuchaydi. Jumladan, dafn va ta'ziya marosimlariga "sotsialistik" mafkuraning salbiy ta'siri natijasida azador xonadonga ta'ziya bildirgan rahbar yoki ziyoli qatlami vakillari uchun og'ir ish va sinov bo'lganligini ko'rish mumkin.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Salmonov A. "O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati" – Toshkent: Tafakkur, 2015.
 2. Mirzo J. Termiz sayyidlari. – Samarqand-Termiz, – 2001. – B. 19 – 6.
 3. O'zR MA, 2456-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 44-varaq.
 4. Ateistik tarbiya hujumkor bo'lsin / Qashqadaryo haqiqati. 1982 yil 24 avgust.
 5. Muloqot. -Toshkent, 1993. -№ 9-10. -B.23-24.
 6. Tojiboyev M. Sovetlar davrida musulmon diniy tashkilotlari faoliyatiga chek qo'yilishi // Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 23(100), часть 1 июля, 2024. -Б.84-87.
 7. Атеистик энциклопедик луғат. -Т.: Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1988. -Б. 38.
- Қонун, дин черков.-Тошкент: Ўзбекистон, 1987.-Б.56-57.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI KOMMUNAL INFRATUZILMASIDAGI O'ZGARISHLAR

Mirzayev Xusniddin Xolmo'minovich,

Surxondaryo viloyati Termiz shahar kasb-hunar maktabi

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktori o'rinbosari,

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0009-9116-5829>

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida aholiga uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatishni tubdan yaxshilash, uy-joy fondi va ijtimoiy obyektlardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining ish sifatini yuksaltirish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash borasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Maqolada Surxondaryo viloyati kommunal infratuzilmasidagi o'zgarishlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, iste'molchi, tabiiy gaz bilan ta'minlash, elekto-energiya ta'minoti, isitish tizimi, sovuq va issiq suv, Qiziriq tumani.

Аннотация: В годы независимости осуществляется ряд мер по коренному улучшению обеспечения жилищно-коммунальными услугами населения Сурхандарьинской области, дальнейшему совершенствованию системы использования жилищного фонда и социальных объектов, повышению качества жилищно-коммунального хозяйства. работы объединений собственников частного жилья, а также по обеспечению их финансово-экономической устойчивости были сделаны положительные шаги. В статье исследованы изменения в коммунальной инфраструктуре Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, потребитель, газоснабжение, электроснабжение, система отопления, холодная и горячая вода, Кызырикский район.

Annotation: In the ears of independence,

there are a number of measures to fundamentally improve the provision of housing and communal services to the population of Surkhandarya region, to further improve the system of using the housing fund and social facilities, to improve the quality of work of private housing owners' associations, and to ensure their financial and economic stability. positive things have been done. Changes in the communal infrastructure of Surkhandarya region are studied in the article.

Key words: Surkhandarya region, consumer, natural gas supply, electricity supply, heating system, cold and hot water, Kyziriq district.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Uy-joy kommunal xo'jaligi – murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, aholining hayotiy ehtiyojlarini qondiradi, xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlarga ichimlik va issiq suv, oqava suvlarni chetlatish, issiqlik, gaz, elektr energiyasi kabi zarur resurslarni etkazib berish bilan birga katta miqdorda mehnatga layoqatli aholini ish o'rnlari bilan ham ta'minlaydi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan aholining turmush tarzini yaxshilash, kundalik zarur ehtiyojlarni ta'minlash, zamonaviy uy-joy qurilishi komplekslarining qurilishi, gaz va ichimlik suv tarmoqlarini ishga tushirish bo'yicha muhim ishlar qilindi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /DISCUSSION). 1991-yilda Surxondaryo viloyati shaharlarida aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash atigi 13,6 foiz edi. Mustaqillik

yillarida shahar aholisining gaz ta'minotiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tegishli tadbirlar amalga oshirildi. 2000-yilga kelib, bu ko'rsatkich 55,5 foizga etdi, ichimlik suvi bilan ta'minlash 50 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda 75,4 foizni tashkil etdi. 2022-yilga kelib Termizda tabiiy gaz tarmog'i 279,2 kilometr ga etadi, tabiiy gaz ta'minoti bilan ta'minlanish darajasi shaharda 85% ni tashkil etadi. Shundan 15 foizi suyultirilgan gaz balonlar bilan ta'minlangan[11].

Mustaqillik yillarida Surxondaryo neft-gaz xodimlari ham respublikamiz va voha aholisini gaz bilan ta'minlash ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish maqsadida o'zlarining mehnatlarini ayamadilar. 1991- yilning dastlabki to'rt oyida qiyinchiliklarga qaramasdan Surxondaryo viloyatida 5 million kubometr tabiiy gaz qazib olinib, iste'molchilarga etkazib berildi. 1993- yilda gaz olish bo'yicha yillik reja 101,3 foizga bajarildi, rejadan tashqari 122 ming kubometr gaz qazib olindi[2].

Mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos shahar infratuzilmasini shakllantirish alohida e'tiborga molik masala bo'lib qoldi. Aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mamlakatimizda namunaviy uylarning loyihalarini takomillashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy va arzon qurilish materiallaridan foydalanishga alohida ahamiyat berildi. Lekin sohada kamchiliklar etarlicha edi. Jumladan, 2002-yilga kelib, Termiz shahridagi 178 ta ko'p qavatli uylarning aksariyatida isitish tizimi ishdan chiqdi. Bundan tashqari, shahardagi 12 ta maktab, 20 ta bolalar bog'chasida, 8 ta kasalxonada, hattoki shahar hokimiyati binosida ham isitish tizimi ishdan chiqqan edi[12].

Jarqo'rg'on tumanida 1991-1996 yillarda shaharni to'liq tabiiy gaz bilan ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor berilib, to'liq tabiiy gazlashtirishga erishishga harakat qilindi. 1991-1998 yillarga kelib tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi Jarqo'rg'on tumanida 51,2 km uzunlikda gaz quvurlari tortilib, shahar aholisining 94 foizi gaz bilan ta'minlandi. 1991-1998 yillarda Jarqo'rg'on tumanida 145,1 km suv quvurlari tortilib,

shahar aholisining 85 foizi ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Jarqo'rg'on shahrida aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasida sezilarli ishlar qilindi. 2005-yilda shahardagi 6 ta aholi yashaydigan dahada 16 ta nasoslar ta'mirlanib, 2,8 mingga yaqin aholi ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Ichimlik suv quvurlarini ta'mirlashda homiylar tomonidan 8500000 so'mlik mablag' sarflandi. 3,6 km suv quvurlari yangidan o'rnatildi.

Jarqo'rg'on shahri 2005-yilda to'liq gazlashtirilib, yangi qurilgan aholi yashaydigan dahalarga 3,5 km gaz quvuri byudjet mablag'i hisobidan qurildi. Tuman aholisini iste'mol mollari bilan ta'minlash uchun savdo tarmoqlarini rivojlantirish, savdo xizmati ko'rsatish madaniyatini oshirish, savdo shoxobchalarini zamonaviy usulda qurib ishga tushirish uchun muhim tadbirlar amalga oshirildi.

Jarqo'rg'on tumanida ijtimoiy sohada xizmat turlari yanada rivojlanib, aholining turmush darajasini yuksaltirish maqsadida tuman hokimligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan amaliy ishlar bajarildi. Tuman hokimligi ijtimoiy sohaning har bir yo'nalishiga jiddiy e'tibor qaratib, davlat siyosatidan kelib chiqib muhim qarorlar qabul qilib, uning natijalariga amaliy jihatdan e'tibor berdi. 2007-yilda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlar tumanning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. 2007-yilda aholi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan 8,5 m² uy-joy qurilishi, 1,1 km ichimlik suv quvurlari qurib ishga tushirildi.

Qumqo'rg'on tumanida 2005 — yilda uy-joy qurilishi, gaz va suv tarmoqlarini ishga tushirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarga e'tibor berilganda davlat dasturlari asosida keng qamrovli ishlar bajarilganligi tahlil etildi. 2005-yilda Qumqo'rg'on tumanida aholi uy- joylari qurish 35,6 ming. kv.m. shu jumladan, yakka tartibdagi uy-joy qurish 35,6 ming. kv.m. ichimlik suv quvurlari 20,2 km va 26 km gaz quvurlari qurib ishga tushirildi[9].

2007-yilda aholi bandligini ta'minlash dasturida 29374 yangi ish o'rinlari yaratish vazifasi bajarildi. Tuman aholisining tabiiy

gaz va ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 2005-yilda 30 km gaz va 20 km suv quvurlari, «Olatemir» hamda «Yalti» mahallalarida 4 km masofaga yuqori bosimlik gaz quvurlari tortildi. 2006-yilda 244567,2 million so'mlik aloqa xizmati ko'rsatilib, o'n bir kilometr masofaga gaz quvurlari tortilib, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish 7,5 foizga o'sishga erishildi. 2009-yilda 2,5 km. gaz tarmog'i, 17,2 km ichimlik suvi tarmog'i o'rnatilib, aholiga etkazib berilgan kommunal xizmatlari uchun tumanda 2009-yil 1-yanvar holatiga 10485 xonadondan 65425 kishi, 8 sanoat va 37 byudjet hamda 110 maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari tabiiy gazdan foydalandi. Tabiiy gaz bilan ta'minlangan 10485 xonadonga 9082 gaz hisoblash uskunasi o'rnatilib, tumanda gazlashtirish ishlari 1990 -yildan boshlangan bo'lib, 2010-yilda tuman aholi xonadonlarining 47,6 foiz gazlashtirilgan, tumanda jami bo'lib 442 kilometr gaz quvuri bo'lib, shundan yuqori bosimli gaz quvuri 38,4 kubometr, o'rta bosimli 112,5 kubometr va 291,1 kubometr past bosimli gaz quvurlari aholiga gaz etkazib berildi. Tumanda gaz tarmog'iga 379 dona gaz taqsimlash qurilmasi o'rnatilgan bo'lib, shundan 25 donasi yuqori bosimli, 356 donasi o'rta bosimli gaz taqsimlash qurilmalaridir. 2009-yilda barcha aloqa korxonalari tomonidan olingan ta'rif daromadlari 360,9 mln. so'mni, o'sish sur'ati 115,8 foizni, shu jumladan aholidan olingan ta'rif daromadlari 140,8 mln. so'mni, jumladan 110,6 foizni tashkil etdi.

Sho'rchi tumanida aholiga xizmat ko'rsatishning yildan-yilga takomillashib borishi, xonadonlarni issiq va sovuq suv bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor berilib, 2007-yil iyul oyida issiq va sovuq suv o'lchagich asboblari o'rnatildi. Natijada Sho'rchi tumanida 2007-yil 1-iyulgacha issiq va sovuq suv o'lchagich asboblari o'rnatish, shaxsiy turar joylarga 2083 ta, ko'p xonadonli turar joylarga 93, ko'p xonadonli turar joylarga 329 ta issiq suvlar uchun maxsus o'lchagich asboblari o'rnatildi. Sho'rchi tumanida 2006-2010 yillarda tumanda gaz va suv asboblarni o'rnatish va ta'mirlash servis xizmati markazlarini ochish hamda uylarning

podezdlarini, fasadlarini ta'mirlash, uy ichidagi muhandis-kommunikatsiya servis xizmatlar markazlarini ochish maqsadida 2006- yilda 1 ta, 2007-yilda esa 2 ta shunday servislar tashkil etildi[6].

Tumanda 2009-yilning 3-choragida “Mustaqillik”, “Ko'klam”, “Navro'z”, “Alisher Navoiy” mahallaridagi 310 ta xonadon gazlashtirildi. “Baxshitepa” va “Qo'qon” mahallalarida gaz quvurlari ta'mirlanib, 250 xonadonga gaz ta'minoti yaxshilandi. “Elbayon” mahallasida 15 million so'mlik, “Serg'ayrat” mahallasida 20 million so'mlik transformatorlar homiylar mablag'i hisobida o'rnatildi. Tumanda 2009-yilda ijtimoiy infrastruktura obyektlarning ishga tushirish masalasida muhim amaliy ishlar bajarilib, uy-joy qurilishi yakka tartibda 40,5 ming kv metrni, tabiiy gaz quvurlari o'tkazish 2,5 km, ichimlik suv quvurlari o'tkazish 19,4 km, maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari 4 dona, savdo ob'ektlari 4, umumiy ovqatlanish nuqtalari 2 taga ko'payib aholining turmush sharoitini yaxshilashga e'tibor berildi.

Qiziriq tumanida aholining sifatli ichimlik suvidan foydalanishini yaxshilash chora — tadbirlarini amalga oshirish doirasida suv quvurlari tarmog'i ishga tushirildi. Faqat 2009- yilning o'zidayoq 169,3 mln. so'mlik ish bajarilib, 5 ta aholi punkti ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Sariq shaharcha fuqarolar yig'ini tarkibidagi mahallalarga qaytadan ichimlik suvi tarmog'i o'tkazish uchun “Osiyo taraqqiyot banki” hisobidan mablag' ajratilib, “Qiziriq suv oqova” unitar korxonasining Normo'min Poyonov boshliq jamoasi ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash borasida qizg'in ish olib bordi[10]. 2019-yilda tumanda ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi soni 96191 nafarni, suv quvurlari tarmoqlari uzunligi esa 1078,4 kilometrni tashkil etib aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 55 % ni tashkil etdi.

2010-yilda esa viloyat bo'yicha 859400 kv.metr uy — joy aholiga foydalanishga topshirilgan bo'lsa, Qiziriq tumanida 50500 kv.metr 2019-yilda esa 65,7 ming kv metr uy — joy aholiga foydalanishga topshirildi[13].

Viloyat bo'yicha 2002-yilda 789807 kv.metr uy — joy foydalanishga topshirilgan

bo'lsa, Qiziriq tumanida 48637 kv.metr, 2019-yilda 65,7 ming kv m uy — joy foydalanishga topshirildi[14]. 2005-yilda aholi yashash uy — joylari 524 ming. kv.mni, shu jumladan yakka tartibdagi uy — joy qurilishi 524 ming kv.m, ichimlik suv quvurlari 252 kmni, gaz quvurlari 337,7 kmni tashkil qilgan bo'lsa, Qiziriq tumani aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi ayni paytda 80,1 foizni tashkil etdi va bu boradagi ishlar uzluksiz davom ettirilib kelinmoqda. Ya'ni, Qiziriq tumanida aholi uy — joylari qurish 36,7 ming. kv.m, shu jumladan, yakka tartibdagi uy — joy qurish 36,7 ming. kv.m, ichimlik suv quvurlari 21,2 km va 24,3 km gaz quvurlari qurib ishga tushirildi[14].

Qiziriq dashtida dastlabki kichik elektr podstantsiyalar o'tgan asrning ikkinchi yarmida ishga tushirildi va tuman elektr tarmoqlari korxonasining tashkil etilishiga zamin yaratildi. Bu sohada Abdusattor Umirov bosh bo'lgan fidoyi muhandis — texnik xodimlar samarali ishlarni amalga oshirdilar. 2019-yilda to'rtta transformator podstantsiyalari, 380 ta past kuchlanishli transformatorlar, elektr tarmoqlari uzunligi esa tuman bo'yicha 1715,1 km ni tashkil qildi.

2010-yilda tuman aholisini tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi 66,6 foiz bo'lib, "Janubgazta'minot"ning tuman filialida bu boradagi ishlarni yanada yaxshilash uchun qat'iy intizom va mas'uliyat bilan ish olib borilib, Qayum Nodirov jamoaga rahbar etib tayinlangach, yangi gaz quvurlari o'tkazish, eskilarini kapital ta'mirlash ishlariga kirishildi va uzoq qishloqlardagi aholiga ballonli gazlar etkazib berish uchun maxsus gaz tashuvchi avtomashinalar keltirildi.

Denov tumanida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasida juda katta ibratli ishlar amalga oshirilib, 2004-yilda 55.4 ming kvadrat metr uy-joy qurilib, 14.2 kilometr toza ichimlik suv quvurlari, 32.3 kilometr gaz quvurlari tortib ishga tushirildi. 2006-yilda 41,5 kvadrat metr uy-joy, 8 kilometr tabiiy gaz, 15 kilometr ichimlik suv quvurlari o'rnatilib, foydalanishga topshirildi. 2006-2008 yillarda tumanda davlat, xususiy, shaxsiy sektorlar tomonidan 120 ming kvadrat metr uy-joy qurilib, 35 kilometr toza ichimlik

suv quvurlari, 58.5 kilometr gaz quvurlari ishga tushirilib, aholining maishiy turmush darajasi yaxshilandi[3].

Boysun tumanida 2004-yilda 7510 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanib, aholining suv bilan ta'minlanish darajasi 52,5 foiz, 2005-yilda 7841 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanib, aholining suv bilan ta'minlanish darajasi 52,6 foiz, 2006 yilda esa 8150 ta xonadon ichimlik suvi bilan ta'minlanib, aholining suv bilan ta'minlanish darajasi esa 52,7 foiz, 2007-yilda 25 kilometr masofada

«Xo'jamayxona-Darband-Chilonzor» yo'nalishidagi suv quvurining o'tishi munosabati bilan Tillokamar, Sayrob, Munchoq, Chilonzor qishloqlarida yashovchi 10 ming nafar aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishga erishildi. 2007-yilga kelib tuman bo'yicha aholining suv bilan ta'minlanish darajasi 56,3 foizga etkazildi[4].

Tuman aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi 2003-yilda 52,3 foizga bo'lgan bo'lsa, 2004-yilda 55,2 foizni, 2005-yilda 55,3 foizni, 2006-yilda esa 55,5 foizni tashkil etadi. 2007-yilda tuman bo'yicha aholining gaz bilan ta'minlash darajasi 66,2 foizni tashkil etdi. Tabiiy gaz bilan ta'minlangan xo'jaliklar soni 6500 tani tashkil etdi.

2009-yilda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishini yaxshilash maqsadida «Pasurxi» va «Kuchkak» mahallalarida 2,9 kilometr ichimlik suvi quvuri tortilib, foydalanishga topshirildi. «Avlod» yo'nalishi bo'yicha Bog'ibolo-Sariosiyo qishloqlarida 3,5 kilometr gaz quvuri tortilib aholini tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoji qondirildi. Aholining suv bilan ta'minlanish darajasi 59,9 foizga etkazilgan bo'lsa, gaz bilan ta'minlanish darajasi 66,6 foizga etkazildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Aholiga maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish tizimi kundalik turmushning muhim sohasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mazmun-mohiyati xalq farovonligini yuksaltirishdan iborat bo'lib, eng avvalo, ijtimoiy sohaning muhim qismi bo'lgan uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini yangi texnologiyalar manbaida rivojlantirishdan

iborat bo'lib kelmoqda.

Uy-joy kommunal xizmatlarini yanada yaxshilash, tarxi (planirovka) qulay va arzon bo'lgan raqobatli loyihalar tuzish va bu asosda texnika jihatdan sifatli qurilgan zamonaviy ko'p qavatli va yakka xo'jalik turar-joy binolari va

uskunalangan madaniy-oqartuv, sport va kommunal-maishiy obyektlar, ularning tashqi va ichki jihozlanishini aholining turmush tarziga moslash, muhandislik xizmat (servis)larning texnologik jarayonini uzluksiz ta'minlash davr talabiga aylandi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgusida. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 382.
2. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004. – B. 608.
3. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. –B. 501.
4. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Toshkent: Akademnashr, 2011. –B. 560.
5. Tursunov S., Tursunov A., Tog'ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 356.
6. Tursunov S., Eshboyev Q. Sho'rchi tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. –B. 320.
7. Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev B., Umarov I. Termiz tarixi. – Toshkent: YANGI NASHR, 2019. – B. 292.
8. Tursunov S., To'xtayev A., Annayeva Z. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 320.
9. Tursunov S., Eshboyev Q., To'xtayev A.Q., Xo'janazarov A.Z. Qumqo'rg'on tarixidan lavhalar. –Toshkent: YANGI NASHR, 2019. – B. 352.
10. Норқобилов А. Алимов Ч. Юртпарварлар юрти: Қизириқ тумани ҳаётидан лавҳалар. – Т. “*F.Фулум*,” 2010 йил. 38-б.
11. Termiz shahar hokimligi arxivi. Shahar hokimining Sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jaligi masalalari bo'yicha majmuasi. Yig'ma jild № 03-22. Majmua tarkibiga kiruvchi tashkilotlar bilan yozishmalar. 2021- yil dekabr.
12. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 1092 -фонд. 1-рўйхат, 918-иш, 9-варақ.
13. Сурхондарё вилояти рақамларда. 2001 — 2010 йй. статистик тўплам. – Термиз — 2011. – Б.197.
14. Сурхондарё вилояти рақамларда. 1991 — 2002 йй. статистик тўплам. – Термиз — 2004. – Б. 240

SURXONDARYO VILOYATI MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI TA'MIRLASH VA REKONTSTRUKSIYA QILISH JARAYONLARI TARIXIDAN

Mamatkulova Shoxista Anvarovna,
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
shoxistaanvarovna84@gmail.com
UDK: 94(575.1)
<https://orcid.org/0009-0001-0233-4106>

Annotatsiya: O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab boshqa sohalarda bo'lgani singari Respublika hududidagi moddiy va nomoddiy yodgorliklarga munosabat ham tubdan o'zgardi. Shu asnosida ularni o'rganish, sovet yillarida xarobaga aylantirilgan yodgorliklarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari boshlab yuborildi. Maqolada Surxondaryo viloyati madaniy meros yodgorliklarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish jarayonlari tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarixiy-madaniy meros, Hakim at-Termiziy maqbarasi, Imom Termiziy majmuasi, So'fi Olloyor maqbarasi.

Аннотация: С первых дней независимости Узбекистана, как и в других сферах, отношение к материальным и нематериальным памятникам на территории республики коренным образом изменилось. В этом контексте была начата работа по их изучению, ремонту и реконструкции памятников, превратившихся в руины в советские годы. В статье рассказывается об истории реставрации и реконструкции памятников культурного наследия Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: историко-культурное наследие, мавзолей Хакима ат-Тирмизи, комплекс Имама Термизи, суфийский мавзолей Оллояра.

Abstract: Since the first days of Uzbekistan's independence, as in other areas, the attitude towards tangible and intangible monuments on the territory of the Republic has changed radically. In this context, the work of studying them, repairing and reconstructing the monuments, which were turned into ruins during the Soviet ears, was

started. The article talks about the history of restoration and reconstruction of cultural heritage monuments of Surkhandarya region.

Key words: historical and cultural heritage, Hakim al-Tirmizi mausoleum, Imam Termizi complex, Sufi Olloyar mausoleum.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). O'zbekiston davlati tarixiy-madaniy yodgorliklarni, moddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, tadqiq etish va targ'ib etishga yuksak e'tibor qaratmoqda. Davlat organlari yodgorliklarni muhofaza qilish, madaniy meros obyektlarini aniqlash va ro'yxatga olish, ularni o'rganish, ahamiyatlilik darajasini aniqlash, buzg'unchi tabiat va antropogen ta'sirlarga duchor bo'lishining oldini olish bo'yicha huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni tiklash masalalari haqida S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, S.Jo'rayeva, J.Mirzayev, M.Azimov, P.Ravshanovlarning risola va tadqiqotlarida ma'lumotlar keltirilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Al-Hakim Termiziy majmuasida mustaqillikning ilk yillarida, keyinroq, 1999-2001, ayniqsa, 2007-2011 yillarda olib borilgan yirik bunyodkorlik ishlari tufayli majmua va uning atrofi tanib bo'lmaydigan darajada o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-apreldagi 112-son qaroriga asosan "Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan

milliy kurash bo'yicha xalqaro turnirni tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida 1995 va 1997-yillarda Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha 2- va 3-xalqaro milliy kurash turnirlari tashkil etildi[1]. 2000-2001-yillarda Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish davrida Hakim at-Termiziy maqbarasi, Qirg'iz qal'asi, Sulton Saodat majmuasi, Kokildor ota xonaqosi mohir ustalar tomonidan qayta ta'mirlandi. Ushbu maqsadlarga respublika byudjetidan 348.0 mln. so'mdan ortiq mablag' sarflandi[4]. Voha aholisining fidokorona mehnati tufayli maqbara nafaqat viloyatimizning, balki respublikamizning eng go'zal ziyoratgohlaridan biriga aylantirildi. Maqbara atrofi obodonlashtirilib, turli daraxtlar, anvoyi gullar ekildi. Majmua yonida «Termiz va Termiziylar merosi tarixi» muzeyi qurilib ishga tushirildi. Marmar sag'ananing bu kunga kelib eskirib qolgani sababli Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning shaxsan rahnamoligida eski sag'ana xuddi o'ziga o'xshatib yasalgan yangi marmar sag'ana bilan almashtirildi. Eski marmar sag'ana bo'lsa «Termiz va Termiziylar merosi tarixi» muzeyidan alohida joy ajratilib o'sha erga o'tkazib o'rnatildi.

Bu erda kuniga minglab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Ziyoratchilar uchun deyarli barcha sharoitlar yaratib berildi. Bugungi kunga kelib ushbu maqbara Termiz shahrining timsoliga aylangan.

Mustaqillik yillarida Imom Termiziy majmuasini obodonlashtirish ishlari uzluksiz davom ettirildi. 2000-2001 yillarda Termiz shahrining 2500 yilligi yubileyi munosabati bilan Imom Termiziy majmuasi qayta ta'mirlandi. Xususan, majmua poydevorini zaxdan saqlash tadbirlari bajarildi. 1,5-2 metr zahlangan devorlar almashtirildi, imorat ichkarisiga g'isht yo'laklari to'shaldi, ganchlanib sayqal berildi. Qandillar va Xiva shahridan keltirilgan gujum daraxtidan yasalgan eshiklar o'rnatildi. 2001-yil mart oyida Nurota marmar konidan olib kelingan tosh samarqandlik usta Ahror Hamdam tomonidan ishlov berilib, maqbara poyiga o'rnatildi. Kirish darvozasi, ikki tomondagi

devorlar qayta tiklandi. Maqbara-masjid binosiga kirish-chiqish eshiklari ustida uchta gumbazli ayvon qurildi. Bu gumbazlar imoratni saqlash maqsadida qilingandi. Mehmonxona, o'choqxonalar ham yangitdan bunyod etildi. Samarqandlik usta Vahob Aslonov rahbarligidagi usta-hunarmandlar ayvonni yog'ochdan sharqona usulda yog'och o'ymakorligi an'analari asosida qayta qurdilar. Hovuz qayta tiklanib marmar toshlar bilan bezatildi. Majmua atrofiga plitalar yotqizilib chiqildi, atrof to'raligicha g'ishtin devorlar bilan o'rab olindi. Yangidan artezan qudug'i qazilib suv chiqarildi.

2016-2017 yillarda majmuani kengaytirish borasidagi ishlar davom etdi. Yodgorlik majmuasini qayta ta'mirlash borasida dastlab O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan farmoyish qabul qilingan edi. Farmoyishga muvofiq ayni vaqtda maqbara qaytadan ta'mirlanib, yonidan yangi maqbaraga kirish binosi qurildi. 2016- yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev majmuaga tashrif buyurib uni qaytadan qurish borasida ko'rsatmalar berdi. Bosh loyihani tayyorlash Madaniyat Vazirligining «Ijod chashmasi» loyihalash guruhiga topshirildi. 2016-yil avgust oyida Sh.M.Mirziyoyev tayyorlangan loyiha bilan tanishdi. Qurilish ishlarini boshlash uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri va O'zbekiston Respublikasi Musulmonlar idorasi bosh muftisi bilan birgalikda birinchi qurilish g'ishti qo'yildi. Qurilish ishlari bilan tanishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016- yil oktyabr, 2017-yilning 10-fevralida tashrif buyurdi va bu borada o'zining takliflarini berdi.

Hakim at-Termiziy dunyoviy ilmlar va jahon ijtimoiy falsafiy fikrlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast mutafakkir olimdir. Alloma 400 ga yaqin asarlar yozgan bo'lib, shulardan 60 ga yaqini bizgacha etib kelgan va ingliz, fransuz, nemis, fors, arab va boshqa tillarga tarjima qilingan hamda jahon olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Allomaning 1250 yillik yubileyini jahon

miqyosida nishonlash uchun YUNESKOning 2002 va 2003-yillardagi yubileylari ro'yxatiga kiritish bo'yicha amaliy harakatlar qilindi[5]. Yubileyga atab 1250 raqami bilan o'zbek, rus ingliz tillarida albom, kalendar, otkritkalar va har xil esdalik sovg'alar, suvenirlar tayyorlangan, filmlar yaratilib, allomaning asarlari chop etilgan[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 14-fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2024-yil 15-avgustdagi "Imom Termiziy tavalludining 1200-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Natijada Muqaddas islom dini ilmlari rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk olim, vatandoshimiz Imom Abu Iso Muhammad Termiziyning (keyingi o'rinlarda — Imom Termiziy) ulkan ilmiy merosini yanada chuqur o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari yanada kuchaydi.

Qurilish asosan hashar yo'li bilan, homiy tashkilotlar hisobidan amalga oshirildi. Bu borada viloyat hokimi E.O.Turdimov rahbarligida, viloyat tashkilotlaridan «Surxon don» korxonasi majmuaga kirish darvozasi va 400 metrli devor qurish, «Sho'rchi don» jamoasi kirish portalini barpo etish, Sherobod va Boysun yo'l qurilish tashkiloti majmuaga boradigan yo'llarni ta'mirlash, Surxondaryo elektr-ta'minot korxonasi elektr tarmoqlarni ta'mirlash va transformator o'rnatish, viloyat gaz ta'minot boshqarmasi majmuaga 4,5 kilometrlik gaz quvuri o'tkazish, o'rmon xo'jaligi boshqarmasi jamoasi ko'kalamzorlashtirish ishlarini bajardilar. Shu bilan birga, majmuada 500 o'rinli katta masjid, kutubxona va konferensiya zali, erkaklar va ayollar tahoratxonalari, oshxona kompleksi, besh ayvon va 1,75 gektar maydonda obodonlashtirish, devor qurilishi ishlari amalga oshirildi. Qurilish ishlari davomida 32 gektarlik qabriston atrofi balandligi 2,5 metrli devor bilan aylantirilib, unda obodonlashtirish ishlari bajarildi. Qurilish-obodonchilik ishlari 2017-yil iyuni, muborak ramazon oyida to'liq yakunlandi. Majmua tom ma'noda,

yurtdoshlarimizning muqaddas maskanlaridan biriga aylandi.

1994-yilda Denov shahrida "Xoja Alouddin Attor hayoti va ijodi"ga bag'ishlangan ilmiy nazariy konferensiya o'tkazilgan. Mustaqillik yillarida aziz-avliyolarning ilmiy merosi, ziyoratgohlariga katta e'tibor qaratilganligi munosabati bilan 2000-yil Denov tumani hokimi va mahalliy aholi tomonidan hashar yo'li bilan qabr yoniga maqbara qurilgan. 2019-2020 yillarda mahalliy homiylik tomonidan eski maqbara buzib tashlanib, qabr ustiga pishiq g'ishtdan kvadrat shaklda usti gulohi gumbaz bilan yopilgan hashamatli maqbara qurilgan. Qabr maqbaraning erto'la qismiga olinib, tepasiga ramziy qabr qo'yilgan[11].

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Termiz sayyidlari dafn qilingan Sulton Saodat tarixiy yodgorligida ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Oltinsoy tumanining Vaxshivor qishlog'ida yashab ijod qilgan alloma va shoir So'fi Olloyorga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilgan[7].

Surxondaryo viloyat hokimining 1995-yil 24-noyabrdagi "Tasavvuf ilmining yirik namoyondasi, shoir So'fi Olloyor tavalludining 370 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 322-sonli qarori asosida 1995-yilning dekabr oyi davomida So'fi Olloyor tavalludiga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etildi. Viloyat komissiyasi Oltinsoy tumani hokimligi bilan birgalikda So'fi Olloyor maqbarasini ta'mirlash va uning atrofini obodonlashtirish hamda maqbaraga keladigan avtomobil yo'llarini tuzatish ishlari amalga oshirilgan[8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 2-fevraldagi 57-F-sonli farmoyishini bajarish bo'yicha tarixiy va madaniy yodgorliklarni 2001-2002-yillarda ta'mirlash uchun 270 mln. so'm mablag' Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan[9]. Jumladan, 2004-yilda Shayx Attor Valiy, 2005-yilda Xaydarqul xoji bobo maqbarasi, 2006-yilda Sulton Sanjar Moziy maqbaralari sharqona va zamonaviy usullarda qayta qurildi. Shayx Attor Valiy va Sulton Sanjar Moziy ziyoratgohlaridan

tushadigan mablag'larni hisob kitobini nazorat qilish uchun maxsus mutavallilar birlashtirildi. 2006-yilda Uzun tumanida "Oltin meros" jamg'armasiga qarashli 1 ta Oq Ostona bobo maqbarasida zamonaviy tahoratxona qurildi. Obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Muzrabot tumanida joylashgan Muzrabot ota va Cho'ponota ziyoratgohlari 2006-yilda obodonlashtirilib, ushbu mashhur shayxlar qabrlari ustida maqbara va gumbazlar o'rnatildi. Qiziriq tumanidagi Takiya ota va Chilgaz ota ziyoratgohlarida ham ta'mirlash ishlari amalga oshirildi[10].

Qiziriq tumanidagi Takiya ota ziyoratgohi 1996-1997 yillarda mahalliy aholi tomonidan maqbara ta'mirlangan. 2014-yilda tuman hokimi O.T.Alimardonov tashabbusi bilan hamda mahalliy homiylar yordamida majmua ustidagi 5 ta gumbaz qaytadan qurilgan, tashqaridagi ikkita qabr ham ichkariga olinib, ikki xonali maqbara bitta katta xonaga

aylantirilgan. 2015-yilda yo'qolib ketgan chillaxona ochilib, yangidan tiklangan. 2020-yil avgustida mahalliy hokimiyat va homiylar yordamida 100 mln. oshiq mablag' evaziga urgutlik ustalar tomonidan yomg'ir tufayli yoritib, ta'mirtalab bo'lib, qolgan 4 ta gumbazlar qaytadan restavratsiya qilinib, maqbara yangidan to'liq ta'mirlangan[12].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxondaryo viloyati o'zining qadimiy tarixi, ko'hna qadriyatlari, moddiy yodgorliklari, muhtasham me'morchilik inshootlari bilan ajralib turadi. Bu hudud qadimdan o'zining ajdodlari yaratgan manguyolqamga daxldor ilm-fan kashfiyotlari bilan jahon jamoatchiligining diqqat markazida bo'lib kelgan. Mazkur vohadan etishib chiqqan olim-u shoirlarning nodir asarlari dunyo xalqlari xazinasini boyitibgina qolmay, jahon ilm-fanining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Djurayeva S.N. O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni. Diss. doktor. nauk. – T., O'zMU, 2022. – B. 300.
2. Safarov S. Mustaqillik yillarida Janubiy O'zbekistonda madaniy meros obyektlari va zamonaviy turizmning rivojlanish jarayonlari. – T., TerDU., 2023. – B.158.
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 382-yig'ma jild, 205-varaq.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 1447-yig'ma jild, 69-varaq.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 1011-yig'majild, 56-varaq.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 1450-yig'majild, 27-varaq.
7. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 322-yig'ma jild, 93-varaq.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 280-yig'ma jild, 78-varaq.
9. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro'yxat, 1444-yig'ma jild, 15-varaq.
10. Surxondaryo viloyati davlat arxivi.1091-fond, 1-ro'yxat, 2628-yig'ma jild, 32-34-varaqlar.
11. <https://surxon-turizm.uz/complex/view?id=13>
12. <https://surxon-turizm.uz/complex/view?id=30>

ETNOGRAFIYA

SHODMON BAXSHINING TERMA KUYLASH MAHORATI

Ro'ziqul Mustafqulov,

*Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti boshlang'ich ta'lim
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

Sayfiddinova Nafosat,

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-2553-8845>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shodmon baxshining baxshichilik mahorati, qanday qilib bu darajaga erishgani hamda termalarining talqini yoritilgan. Asosan baxshining termalari va undagi bo'g'inlarga, mazmun va mohiyatiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: terma, bo'g'in, baxshi, misra, guzarim, qofiya, doston.

Аннотация: В данной статье описывается мастерство Шодмона Бакши как бакши, как он достиг этого уровня, а также трактовка его терминов. Основное внимание уделяется терминам бакши и его слога, содержанию и сущности.

Ключевые слова: терма, слог, бакши, мисра, гузарим, рифма, эпос.

Annotation: This article describes Shodmon Bakhshi's skill as a bakhshi, how he reached this level, and the interpretation of his terms. Mainly attention is paid to the terms of bakhshi and its syllables, content and essence.

Key words: terma, syllable, bakshi, misra, guzarim, rhyme, epic.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Terma degani yurakdan quyilib kelganda, baxshi so'zining ravishini izlab turmaydi. Yurakning qulfi ochilganday ichdan qaynoq bir nafas yuqoriga, ovoz pardalarini kuchga to'ldirib borliqqa favqulodda jarang sochadi. Qadim, jo'shqin bu ohanglar odamlar qalbida aks-sado beradi. Baxshi hayot hodisalarini haqqoniy va ishontirarli yoritish orqali, badiiylikning yetuk va zavqbxsh bo'lishiga alohida e'tibor

qaratadi.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston xalq baxshisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Shodmon baxshi Xo'jamberdiyev 1967-yil Surxondaryo viloyati SHEROBOD tumanining Kallamozor qishlog'ida tug'ildi. SHEROBOD baxshichilik maktabining yirik vakillaridan biri bulbulzabon Boyqul baxshi va uning o'g'li Shoto'ra yuzboshilarga Shodmon baxshi ham ota avlod, ham ona avlod vorislaridan hisoblanadi. Baxshi o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i Kallamozor haqida seli-sebar kuylaydi.

Tug'ilgan maskanim, otajon elim,
Men shundan mag'rurman, duoda qo'lim.
Toabad seni deb sayraydi tilim,
Sen mening oqibat so'nggi guzarim,
Otingdan aylanay Kallamozorim...

...Hali bu eldan ne bir zo'rlar bo'lajak,
Nelarni ko'rsatar buyuk kelajak,
Bu termam abadiy bo'lib qolajak,
Ta'rifing kuylayman, qo'limda torim,
Shodmonni sayratgan Kallamozorim.

Baxshi tug'ilib o'sgan qishlog'i ta'rifi asosida, ota-onasiga mehr-muhabbati qiyos qilib kuylanadi. Ha, tug'ilgan maskani otajon eli, undan doimo mag'rurda, duoda qo'li, toabad shu maskanni deb sayraydi tili, hatto oxirgi manzili ham shu tabarruk tuproq ekanligi, quyoshi, shoni-sharafi, jismiga jon ato etgan ham shu qishlog'i. Unda ne bir zotlar yashab o'tganligi, tarixi qalbida beg'uborlik, intilganga madad berishi, hali bu qishloqda yana necha bor zo'rlar tug'ilajak,

ona-Vatan uchun qo'lidagi tori baxshini sayratadi, kuylatadi va bu terma avlodlar qalbida yashab qolishi o'z tizmasini hosil qilgan.

Gapimizning isboti misolida Shodmon baxshining ijodiy faoliyatini badiiy jihatdan tahlil qilishga o'tamiz. Baxshining "Kallamozorim" termasi badiha yo'li bilan aytilgan bo'lib, 20 misradan iborat, dastlab 10 misra, so'ng 6 misra ketma-ket qofiyalangan. Undan keyin yana 10 misra kelib, uning besh misrasi o'zaro qofiyalangan.

Termaning bo'g'inlashuv tartibi barmoq she'r tizimining ma'lum qoidalariga muvofiq. Ular mazmun va baxshining maqsadi, talabi bilan uch o'rinda bo'g'in o'zgarishlari bor. U asosan, 11 bo'g'inli, 6+5 tarkibida turoqlashgan. Ammo, to'rtinchi misra mazmun talabi bilan 10 bo'g'inli 15-16 misralar 13 bo'g'inli tarkibida turoqlashgan. O'ninchi misra 10 bo'g'inli 8+5 tarkibida turoqlashgan. O'n besh, o'n oltinchi misralar 12 bo'g'inli 7+5 tarkibida turoqlashgan, keyingi misralar 13 bo'g'inli, 7+6 tarkibida turoqlashgan.

Shodmon baxshining "Turkon daryo nomli (SHerobod daryosining qadimgi nomi) shunday boshlanadi:

Noming sening Turkon daryo,
Xudo chindan bergan daryo,
El-u xalqni tergan daryo,
Yurtga hayot bergan daryo,
Avlodlarim ko'rgan daryo,
Piyodalab kechib o'tdim,
Bahri dilim ochib o'tdim,
Yurtga quvvat bergan daryo,
Suvig kelar uzoqlardan,
To'dalanib buloqlardan,
Shovqinlaring ketmas quloqlardan,
Menga ilohim bergan daryo[12].

Termadagi qofiyalarga qarang? Turkon daryo, ko'rgan daryo, bergan daryo, tergan daryo, ochib o'tdim, ichib o'tdim, kechib o'tdim, uzoqlardan, buloqlardan, quloqlardan, turgan daryo, yurgan daryo va boshqalar. Albatta bu she'rdagi qofiyalar nafas va noziklikni, ta'sirchanlikni oshirgan.

Turkon daryoga bag'ishlangan termasi 28 misradan iborat bo'lib, dastlab 5 misra, so'ng 24 misra ketma-ket, misralar a+a+b+a

shaklida qofiyalangan. Terma, asosan, 8 bo'g'inli, 4+4 tarkibida turoqlashgan. Bu daryo haqida O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston Respublikalarida nom qozongan Shodmon baxshining yetti pushti sulolalari ham o'z termalarida kuylab o'tishgan. Bir davrada muxlislaridan biri Shoto'ra yuzboshidan «Yuzboshi, sizning baxshichilik kasbingiz qaysi bir farzandingizga nasib qiladi?» — deb so'raydi. Shunda baxshi o'ylanib turadi-da, afsus ila: «Ha, mening kasbim o'zim bilan ketadi», — deydi. Birozdan keyin qo'shib qo'yadi: «Qanchadir yillar o'tadi, bilmadim, avlodlarimizdan bir chapaqay bola tug'iladi. Mening kasbimni o'sha chapaqay davom ettiradi». Bu gap odamlarning yodidan chiqmay, tildan — tilga ko'chib yurdi. Afsonaviy gap vaqt o'tib haqiqatga aylanganda, odamlar hayratda qoldilar. Kallamozorda chapaqay — Shodmon baxshi paydo bo'ldi. U o'n yoshida qo'liga soz oldi. Baxshi bola shunday terma aytdi:

O'n yoshimdan qo'limda sozim,
Avjlanadi suhbat-u bazm,
Elu xalqimga bo'ldim lozim,
Haq-hurmatiga qilay ta'zim,
Olqishlaringdi oqlay o'zim,
Shoto'ra oqinga avlod o'zim,
Qodir, Chorsha baxshi ustozim,
Ustoz bilan baland parvozim[13].

Ushbu termada ham baxshining badihago'ylik mahoratining yuksakligi sezilib turibdi. Termadagi sozim, qofiyalarga e'tibor qarataylik: bazm, lozim, ta'zim, o'zim, so'zim, ustozim, parvozim va boshqalar. Bu qofiyalar bir zarb bilan aytilgan va to'qilgan terma go'yo seldek quyilib kelgan qofiyalar tizmalaridir.

Shodmon baxshi Sherobod dostonchilik maktabining yetuk vakillari Qodir baxshi Rahimov, Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Xushvaqt baxshi Mardonaqulov, Shoberdi baxshi Boltayevlardan baxshichilik saboqlarini olganligini faxr bilan aytib yuradi.

1980-yildagi bir uchrashuv Shodmon baxshi hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. O'sha davrda el og'ziga tushgan qashqadaryolik mashhur Qodir baxshi Rahimov Qiziriq tumanidagi bir to'yga keladi.

Bundan xabar topgan rahmatli Nosir akasi Shodmonni olib o'sha to'yga boradi va ukasini tanishtiradi. "Bu yigit Sizga shogird bo'lsa..." deya aytadi. Qodir baxshi so'rovi bilan Shodmon berilib bir kuyni chaladi. Shunda Qodir baxshi "Oh-ho, bu bola mendan ham o'tib ketibdi-ku!" degan maqtovi o'smir shogirdning ko'nglini tog'day ko'taradi.

Shodmon baxshi Qodir baxshining xonadonida uzoq yillar yashab, bu dargohda doston kuylash sir – asrorlarini puxta o'rgandi. Baxshi yosh Shodmonni o'z farzandidek ko'rib, unga alohida mehrini berdi. Qobiliyatli shogird ustozning ko'nglidan borar, dostonlarni xatosiz yod olar, bobo baxshilardak ijrosidan hayratlanardi. Qodir baxshi Rahimov keyinchalik o'z xotiralarida "shogirdlarim orasida surxondaryolik Shodmon Xo'jamberdiyev baxshichilik san'atiga juda barvaqt qadam qo'ydi, u so'zga chechan, xotirasi kuchli, xalq uslubida termalar yaratish salohiyati bilan boshqalardan ajralib turadi" deb e'tirof etadi. Ha, hayot taraqqiyotda, avlodlar o'sib-ulg'ayishida, an'analar halqalarday avlodlarni birlashtiradi.

Ma'lumki, yurtimizda ko'plab baxshichilik maktablari taraqqiy etgan bo'lib, Sherobod dostonchilik maktabi alohida o'ringa ega. Afsuski, maktabning ilgari namoyondalari haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat XX asr boshlarida yashagan Bobo shoir, undan keyin o'tgan Qosim ko'r baxshi (1914 yilda vafot etgan), Sherna yuzboshi Beknazar o'g'li haqida ayrim ma'lumotlarga saqlangan. Birgina Sherna baxshining mahorat maktabidan Mardonoqul Avliyoqul o'g'li, Umir baxshi Safarov, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Jo'ra Eshmirza o'g'li, Nurali Boymat o'g'li kabi 20 ga yaqin dostonchilar yetishib chiqqan.

Shodmon baxshining yodkash, bir termasini yana o'zgarishsiz takror aytadimi, yo'qmi degan maqsadda (Mahmud Abulfayz bilan 2001-yil 12-may) "Do'mbira" termasini ikkinchi borganimizda aytib berishini iltimos qildik[14]. Baxshi ikkinchi aytganda do'mbira haqida butunlay boshqacha terma aytib berdi. Shodmon baxshi yana "Do'mbiram" deya o'z termasini baland pardalarda kuylab berdi.

Qo'sha toring qo'shilganda sayraydi,
Seni chalsam mening ko'nglim yayraydi.
Ikkovlashib bog'da bulbul sayraydi,
Chini bilan sayrab chiqqan do'mbiram.
Qo'lga olsam g'am tashvishim mot bo'lar,
Ustoz bergan ta'limlari yod bo'lar,
So'z qonlarim dengizdayin chayqalar,
El xalqimga yayrab chiqqan do'mbiram...

Yo'ldosh-u hamroh, qalbining yolg'iz sirdoshiga aylangan do'mbira sozi yana dasht-u kengliklar osha sado berdi. Baxshi unga ezgu niyatlarini, orzularini jo'r etib kuylaydi. Bu terma ham g'oyaviy-badiiy jihatdan muvaffaqiyatli chiqqanligi ko'zga tashlanib turadi.

Baxshining termalaridagi so'zlar salmoqliligi uning mazmunini to'ldirib kelishi qalam tekkazishga hojat qoldirmaydi. Undagi so'zlar tizimidagi baxshi qo'llagan so'zlarni boshqa so'z bilan almashtirib ham bo'lmaydi.

Shodmon baxshi keyingi yillarda bir qancha doston va termalar ijod qildi. "Xondalli", "Lolatosh" kabi dostonlar, "Surxondanman surxondan", "Kuy-la Surxon do'mbirasi" kabi termalar to'plamini nashrdan chiqardi. O'zbek she'riyatining qonun-qoidalarga mos kelishini ta'minlagan. She'rlarida bo'g'in, turoq, ritm, radif kabi qoidalarga qat'iy amal qiladi. Ayniqsa she'rda qofiyalar zo'r bo'lsa, so'zlarning o'ynoqiligi, ohangdorligi kuchli bo'ladi.

O'zi tug'ilib o'sgan qishlog'ini ulug'lash, hamqishloqlarining hayoti, ajdodlar an'analari qarshisidagi burchdorligini to'ldirib kuylaydi. Baxshi odamlarni yaxshi yashab, yaxshi rohat ko'rish uchun halol mehnat qilishga chaqiradi, mehnatsiz turmushni umrning zavoli deb biladi.

Yigitni saqlasin Ollohim omon,
Dovrug'i ketsin-da, elda har tomon.
Yalqovlik qurisin, dunyoda yomon,
Mehnatsiz dunyoda rohat ko'rmadim.

Necha zamonlar dovrug'li bo'lgan Sherobod dostonchilik maktabi ko'plab chechan baxshi – shoirga oltin beshik bo'ldi. Keyingi yigirma yil ichida bu maktabning shuhrati yanada ortib borayapti. O'nlab O'zbekiston xalq baxshilari shu maktabda yetishib chiqdi. Bitta narsani komil-ishonch bilan aytib o'tish mumkinki, ular minglab

odamlarga xalq ogʻzaki ijodiyotining kuch-quvvatini, katta tarbiyaviy ahamiyatini roʻy-rost namoyon etib kelmoqda.

Terma, dostonlarning yigʻin, davralarda aytib yurilgani yaxshi, tilda boʻlgani yaxshi. Lekin agar qogʻozga tushmasa, bir kun unutilib ketishi ham mumkin. Afsuski, tariximizda bunday voqealar koʻp boʻlgan. Qogʻozga vaqtida tushirib olmaganimiz bois ne bir, ne bir bulbulmonand baxshi-shoirlarning aytgan noyob terma, dostonlari, oʻziga xos uslubi tamomila unutilib ketdi. Albatta, bu ishni kimdir qilishi kerak edi. Eʼtirof etmoq joiz Qarshi davlat universiteti folklorshunos olimi, filologiya fanlari doktori Abdiolim Ergashev ana shu xayrli ishni amalga oshirdi. Olim nafaqat Shodmon baxshi ijodiyoti, balki butun Surxondaryo folklori jonbozidir. U koʻplab xalq ogʻzaki ijodini qishloq-ma qishloq yurib yozib olgan folklorshunos olim.

Yana baxshining Mustaqillik haqidagi termasiga shunday koʻz tashlaymiz:

Mustaqillik murodlarga yetkazdi,
Gʻam-alamni qalbimizdan yetkazdi.

Boysun togʻdan poyezd yoʻlni oʻtkazdi,
Buyuk ishlar mustaqillik tufayli[15].

Oddiygina satrlar, lekin samimiyat, mahorat bilan aytilgani bois, sizga bir olam maʼnoni hadya etadi. Yoki baxshining mana bu “Kunlarim” degan umumiy nom bilan aytiladigan termasi deyarli barcha baxshi-shoirlar ijodida uchraydi. Bunday termani maʼlum maʼnoda oʻsha aytayotgan odamning tarjimai holi, boshidan koʻrgan-kechirganlari deya ham qabul qilish mumkin. Bu azaliy anʼanani chetlab oʻtmagan holda Shodmon baxshi ham “Kunlarim” degan termani aytib yuradi. Bu termani taxminan oʻttiz- qirq yilning tarjimai holi deb aytish mumkin. Terma jozibasi, shiraligi bilan qalblarga kirib boradi. Uni qogʻozda oʻqiganingizda ham baribir qanoat hosil qilasiz. Buni endi Shodmonning baxshichilik salohiyatidan deb bilmoq kerak.

Xizmat qildim elga kunduz-kechalar,
Xizmatimdan foydalandi nechalar.
Onam ketib ega boʻldi chechalar,
Chechalarim ega boʻlgan kunlarim.
Borib qaytdim Gʻuzor bilan Qarshidan,

Ulgʻu oldim yomon bilan yaxshidan.
Duo soʻrab Chori, Qodir baxshidan,
Ustozlardan duo olgan kunlarim.

Baxshining har bir terma va dostonlarini oʻqib, ularning fikr va xayol kengliklariga, tasavvurining bepoyonligiga, xotirasining kuchiga qoyil qolasan, kishi. Kuylash jarayonida goʻyo sheʼriyat mulki “tegirmon doʻlidan” bugʻdoy quyilganiday quyilib kelaveradi. Sheʼriyatning qonun-qoidalari ham oʻz oʻrniga tushib ketaveradi. Bunday joʻshqinlik va badihagoʻylikni Ergash Jumanbulbul, Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, viloyatimizda ijod etgan Eshqobil baxshi Qoʻshoqov, Boborahim baxshi Mamatmurodov, Chorsha baxshi Rahmutullayev, Qora baxshi (marhum), Chori baxshi Umirov, Abdunazar baxshi Poyonov (marhum) lar ijodiga mengzaymiz.

Shodmon baxshi “Navroʻz” termasida navroʻzga xos anʼanalar, marosimlarni xalq shodiyonasini ulugʻlaydi. Navroʻz taomlari, oʻyinlari, sayil quvonchlarini yanada joʻshqinlik bilan taʼrif-tavsif etadi. Quvonch-quvonchlarga ulashaverishiga ishonch bildiradi. Yurtning tinchligi, elning totuvligi, yilning serbarakatligi uni yanada bezaydi. Shuning uchun ham baxshi hayajon bilan “Atir purkab, guli chamanzor keldi” deydi:

Koʻzlar quvonib ketar, qarasangiz har yoqqa,

Koʻk yalpiz somsa hidi anqib kelar dimoqqa,

Sayr qilgandek boʻlasiz, huri-jannat chorboqqa,

Bir tomonda oʻspirinlar oʻynashib oshiq-soqqa.

Dasturxonchi kayvoni keling deydi bu yoqqa.

Quvonchim sigʻdirolmay, qalbim bugun tor keldi,

Shodmon baxshi doʻmbirasin chertadi.

Zavq-shavq bilan Navroʻz madhin aytadi.

Har kishida gʻubor boʻlsa ketadi,

Bu kamollik baraka baxsh etadi.

Atir purkab guli-chamanzor keldi[16].

Baxshining mazmun va maqsad talabi bilan doʻmbira kuyini va sheʼrini turli ohanglarda ijro etadi. Mazmun izchilligi va ohangdorlik taʼsirchanlikni taʼminlashga

xizmat qiladi.

Shodmon baxshi kuylayotgan termalar ham rang-barang mavzularda bo'lib, ularda ona yurt maqtovlari, xalq tarixi, buguni va kelajagi bilan bog'liq ezgu tasvirlar, sof insoniy fazilatlarini ulug'lash kabi motivlar mavjud. Baxshining termalari o'zining o'ynoqligi, quvnoqligi, yumorga boyligi, mag'zning to'qligi bilan tinglovchining e'tiborini o'ziga tortadi. Baxshilar do'mbira chertganda, behisob kuchga to'laveradi. Baxshini bepoyon xayolot olamiga boshlab ketadi. Biz (2002 yil Mahmud Abulfayz bilan) ko'pgina baxshilardan do'mbirasiz terma aytib berishini talab qilib ko'rdik[17]. Afsuski, ularning termalari 8-10 misraga borib to'xtab qolaverdi. Ha, bunday aytganda baxshining do'mbirasi qo'shqanoti, Go'ro'g'lining G'irko'k, Alpomishning Boychiboriday har qanday jang-u jadallardan olib chiqib ketganiday do'mbirasi baxshiga qo'shqanot bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan do'mbiram termasining ikkinchi varianti:

Bobo meros soz ushlasam qo'lima,
So'z bulog'i qaynab kelgay tilima.
Terma, doston aytar bo'lsam elima,
Bulbuldayin sayrab chiqqin, do'mbiram.

Ijod qildim el ichidan izlanib,
Qo'sha toring cho'zilganda sozlanib.
Nag'ma qilding kelinchakday nozlanib,
Chini bilan yayrab chiqqin do'mbiram.

Tog'laringda bo'ktar-bo'ktar qoring bor,
Men biluvdan chanog'ingda siring bor,
Alpomishday nomusing bor, oring bor.
Mardlaringni kuylab chiqqin, do'mbiram.

O'zbekiston Yozuvchilar ushmasi a'zosi Mahmud Abulfayz "Shodmon do'mbiradan, do'mbira Shodmondan ayrilgan emas" deganidek, ellik yildirki, bular bir-biriga suyanishib yashaydi.

Qarshi davlat universiteti dotsenti Abdiolim Ergashev shunday yozadi: "O'z davrining mashhur baxshisi Qodir baxshi Rahimov Shodmonning ovozini eshitib, sozdagi mahoratini ko'rib shogirdlikka oldi, davralarda, to'y-tomoshalarda yonidan qo'ymadi. Quymaquloq, (xotirasi kuchli) chapaqay Shodmon baxshi tezda e'tibor

qozondi" deb yozadi. "Shodmon baxshi badihago'ylikda O'zbekistonda eng oldingi o'rinlarda turadigan baxshilardan biri hisoblanadi. Ovozi tiniq, yoqimli, ustozlariga sadoqatli va ayni paytda shogirdlariga mehribon baxshidir". Olimning gapida jon bor Shodmon baxshi hozirjavob, tezkor va topib aytadigan noyob iste'dod egasidir. Ko'rganini qo'shiq qiladi, degan iborani Shodmon baxshiga nisbatan ishlatadi. Ko'pincha hozirjavoblik baxshida aytishuvlarda ko'zga tashlanadi. Shodmon O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston kabi respublika baxshilari bilan bellashib g'oliblikni qo'lga kiritgan. Ko'pincha Qahhor baxshi bilan uzoq vaqt aytishuvlari tinglovchilar qalbida katta taassurot qoldirgan.

Sherobod tumanida Xo'jaqiya qishlog'ida yashaydigan mashhur dehqon-anor yetishtiruvchi Suyun hoji Yoqubovning ishlari bilan tanishdik. Shodmon baxshi ham bor edi[18]. Davrada undan-bundan gap ketdi. So'ngra baxshi do'mbirasini "ting-ting" qilib turdi-da, mana bu termanni aytib boshladi:

Suyun hoji hojilarning sarasi,
Qoratovday ko'rinadi qorasi.
Savolinga javob bering hoy bobo,
Qancha bo'lar ikki anor orasi?

Agar adashmasam, bu terma barcha o'tirganlarning yodida mixlanib qoldi. Chunki oddiy va esda qoladigan satrlar edi.

Ustozim Qodir baxshi aytar edi: "Chin baxshi har safar bir matnni takrorlab yotmaydi, balki har gal aytganida uni ohorlaydi, sayqallaydi, jilo beradi,-deya xotirlaydi Shodmon baxshi,- yana aytardiki, haqiqiy baxshi badihago'y bo'ladi. Lekin ayrim baxshilar ham bo'ladiki, o'zi ijod qilolmaydi, yodlaganini aytadi, xolos. Bilasizmi, nima, Qodir aka tozayam zo'r aytardi-da. Berilib, to'lib- toshib, gohida yurak-bag'ri vayron bo'lib aytardi[19]. Mana bu termanni ham ustozim aytgan" deydi Shodmon baxshi:

Baland tovlar boshi qolar qorayib,
Bovridagi bo'ktar qordan ayrilsa.
Savdogarning yuki qolar qalashib,
Qatorida qora nordan ayrilsa.
Podsholar yig'laydi, eldan ayrilsa,
Bulbullar zor qaqshar, guldari ayrilsa.

Mard yigitning o'lganidir shu-yoronlar,
Xudo urib, toza yo'ldan ayrilsa.

Qarang-da? Biz sharhlayotgan sakkiz satr termamizga. Baxshi odamni qanchalik o'ylantiradigan, achintiradigan masalani kuylagan. Baland tog'lar boshi qolar qorayib, Bovridagi bo'ktar qordan ayrilsa. Bu termanni faqat toqqa nisbatan aytilgan deb ham bo'lmaydi. Uni inson hayotiga, inson bag'ridagi buyuk ne'matlaridan ayrilsa,-chi?

Biz Shodmon baxshi termalari asnosida katta ustoz baxshilar termalariga ham ko'z tashlab o'tdik. Ana shu dostonlar an'anasini davom ettirgan baxshi termalarda an'anaviylik va ustoz-shogirdlikning o'ziga xos jihatlari sezilib turibdi. Ustoz-shogirdlik bir-ikki marta uchrashib savol-javob, so'rab surishtirish orqali baxshichilikni o'rganib qolmaydi. Qadimda ota-bobolarimiz uydagilariga aytib, aytmay hatto o'n yillab uzoq o'lkalarga ustoz izlab ketishgan. Shu jumladan, Shodmon baxshi ham ustoz Qodir baxshining uyida besh-olti yil ham farzand, ham shogird bo'lib baxshichilikning sir-sinoatlarini o'rgangan. Shodmon baxshi ijodida Qodir baxshi marhum, Chorsha baxshi marhum, Hushboq baxshi, Qora baxshi marhum, Chori baxshilar ijodining andozasi sezilib turadi. Shu jumladan ustozlarida uchraydigan badihago'ylik va ijro jarayonida, ichki ovozda aytilish usullari saqlanib kelmoqda. Bular orasida nodir iste'dodga ega bo'lgan marhum Qodir baxshi Raximov izidan borayotgan o'g'li Qahhor baxshi Rahimov, Xushvaqt baxshi Mardonaqulov, aka – uka Qori va Chori Umirovlar, Abdunazar Poyonov, Boborayim baxshi, Shodmon baxshi, Ro'zi Qulturayev, Jovli Tangirov kabi badihago'y dostonchilarni ko'rsatish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, Shodmon baxshi artisona ijro etishdan uzoqda, orqada.

To'g'ri, xalq og'zaki ijodida yuqorida aytilgan qoidalar ayrim o'rinlarda buzilish hollari ham uchraydi. Bu ustoz-baxshilar ijodida ham uchraydigan kamdan kam hodisa. Bizning baxshilar bilan bo'ladigan ko'pgina ilmiy-ijodiy safarlarimiz Mahmud Abulfayzov, Bolta Yoriyev, Bahrom Normurodov televideniye xodimlari bilan

hamkorlikda uyushtirilgan va matbuotlarda e'lon qilingan.

Ko'plab jozibali termalarning muallifi, o'nlab dostonlarni o'ziga xos yo'sinda va yoqimli ovozda ijro etadigan turkiy zaminda taniqli bo'lgan yurtodoshimiz Shodmon baxshi Egamberdi o'g'li qizg'in ijod, o'rganish shavqi bilan yashayotir. U shodmon kunlarimizni, o'tayotgan oylar, yillar mazmuni, taassurotini adabiyotga olib kelmoqdaki, bu qutlug' yumushdir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Istiqloq tufayli umuminsoniy va milliy qadriyatlar va xalqlarning etnik kelib chiqishi muammolarini ajdodlarimizning boy adabiy merosining xilma-xil shakllari, uslub va janrlarini o'rganishni yanada rivojlantirish uchun keng ufqlar eshigi ochib qo'yildi.

Surxondaryo folklorida terma va dostonlarning badiiyati – ularning janrlari tabiati, ko'lami va ilmiy-badiiy xususiyatini o'rganish bo'yicha qilingan tadqiqotlar doirasini, bu sohada qarashlar ko'lamini kengaytirishga, uning mavjud namunalarini jahon adabiyoti namunalarida takrorlanib kelgan xususiyatlar ko'zgasiga solib baholashga yo'l ochadi.

Surxondaryo folklorida terma va dostonlarni yozib olish, to'plash hamda tahlil etish, ilmiy jihatdan batafsil o'rganishni taqozo qiladi. Zero, xalq og'zaki ijodi, uning janr taraqqiyoti va tarbiyaviy ahamiyatini atroflicha yoritish, erishilgan yutuqlarni ilmiy asosda umumlashtirish, mavjud nuqsonlarni ishonarli dalillar asosida asoslash navbatdagi ijodiy yutuqlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Baxshining har bir terma va dostonlarini o'qib, ularning fikr va xayol kengliklariga, tasavvurining bepoyonligiga, xotirasining kuchiga qoyil qolasan, kishi. Kuylash jarayonida go'yo she'riyat mulki "tegirmon do'lidan" bug'doy quyilganiday quyilib kelaveradi.

Shodmon baxshi termalari asnosida katta ustoz baxshilar termalariga ham ko'z tashlab o'tdik. Ana shu dostonlar an'anasini davom ettirgan baxshi termalarda an'anaviylik va ustoz-shogirdlikning o'ziga xos jihatlari

sezilib turibdi. Ustoz-shogirdlik bir-ikki marta uchrashib savol-javob, soʻrab surishtirish orqali baxshichilikni oʻrganib qolmasligining ham guvohi boʻldik.

Shodmon baxshi nafaqat baxshilarga balki shoir va shoiralarga ham oʻrnak boʻladigan darajada sermahsul ijodkordir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent: “Oʻzbekiston”. – B. 387.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1- jild. Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017. 570 – b.
3. Mustafouqlov R.B., Surxondaryo folklorining hozirgi yashash holati va badiiyati. Monografiya. “Xonjiza maskani” nashriyoti 2023-yil. nashriyoti 2023-yil.
4. Mustafouqlov R.B., Uslubiy qoʻllanma. Xalq pedagogikasi sarchashmasi. Ter DU NMM nashriyoti 2023-yil.
5. Qahhorov A. Yangi dostonlar, T., “Fan”, 1998.
6. Mustafouqlov R.B., “Alpomish Talqinlari” (Ilmiy –metodik qoʻllanma) Termiz davlat universiteti. Termiz 2000. 4.7 bet.
7. Mustafouqlov R.B., Xalq ogʻzaki ijodi-tarbiya maktabi Xalq pedagogikasi Xalqaro simpozium materiallari. 95-96-betlar. Termiz-1995 y.
8. Mustafouqlov R.B., Termalarning folklordagi oʻrni. Oʻzbekiston filologiyasi va uni oʻqitish metodikasi masalalari. 13-19-betlar Termiz-2008 y.
9. Sobirov O. Umir shoir Safarov T., “Fan”, 1982. 10 b.
10. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi, T., “Oʻqituvchi” 1990. 23-42 b.
11. Mustafouqlov R.B., Choʻpon qoʻshiqlari “Nasab” nashriyoti. Qarshi 2009. 3 bet.
12. Xoʻjamberdiyev Sh. Kuyla Surxon doʻmbirasi. “Surxon-nashr” nashriyoti-2019, 40 b.
13. Xoʻjamberdiyev Sh. “Surxondanman Surxondan” (Termalar) Qarshi “Nasaf” nashriyoti. 2017. 20 b.
14. Mahmud Abulfayz bilan hamkorlikdagi suhbatimizdan. 2000 yil 18-aprel.
15. Xoʻjamberdiyev Sh. Kuyla Surxon doʻmbirasi. “Surxon-nashr” nashriyoti-2019, 40 b.
16. Mustafouqlov R., Hayitova F., Ziyoyulov M. Navroʻz bayrami tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish metodikasi. Toshkent, “Tafakkur avlodi” 2021. 73 b.
17. Mahmud Abulfayz 2002-yil 15-may suhbatimizdan.
18. Mahmud Abulfayz bilan hamkorlikda 2013-yil 22-oktyabrdagi suhbatdan.
19. Shodmon baxshi bilan 2012-yil 17-mart kuni suhbatimizda.

BOQIY QADRIYATLAR

Tunsunov Jovli Narzullayevich,

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası**dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0007-2912-4887>

Annotatsiya: Maqolada oila, oilaviy munosabatlar masalalari yoritib berilgan. Keksa avlod vakillaridagi tajriba, o'giti, nasihatning oilaviy munosabatlarni tashkil etishda o'ziga xos ta'siri xususiyatlari bayon etilgan. Keksalarning o'zbek oilalari shaxslararo munosabatida ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy hayot, oila munosabatlari, keksalar, keksalik davri, oila muhiti, oila ta'siri, keksalar tajribasi, keksalar o'giti, farzand, ma'naviy-axloqiy muhit.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы семьи и семейных отношений. Описаны особенности специфического влияния опыта, обучения, советов представителей старшего поколения на организацию семейных отношений. Анализируется влияние пожилых людей на формирование духовно-нравственной среды в межличностных отношениях узбекских семей.

Ключевые слова: семья, семейная жизнь, семейные отношения, пожилые люди, старость, семейная среда, влияние семьи, опыт пожилых людей, воспитание пожилых людей, ребенок, духовно-нравственная среда.

Abstract: The article describes issues of family and family relations. Features of the specific influence of the experience, training, advice of the representatives of the older generation on the organization of family relations are described. The impact of the elderly on the formation of the spiritual and moral environment in the interpersonal relations of Uzbek families is analyzed.

Key words: family, family life, family relations, elderly, old age, family environment, family influence, experience of the elderly,

education of the elderly, child, spiritual and moral environment.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan[1].

Darhaqiqat, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. O'zbek oilalarida shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda keksalarning o'z o'rnini bor. Ular ajdodlar yaratgan boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning xazinaboni, davomchisi va yangi sharoitlarning bunyodkori sifatida yosh avlodni tarbiyalovchi beminnat murabbiy sanaladi. Xalqimiz tomonidan asrab-avaylanib kelayotgan boqiy qadriyatlar mavzusini yoritish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Keksalari haqida gap ketganda, biz ularni xonadonimiz farishtasi, xayr-u barakasi, deb ataymiz. Xalq donoligi, ming yillik tajribalar, milliy an'analar qariyalarimiz ongi, faoliyati, turmush tarzida

jamlangandir. Ular yosh avlodning ustozlari, murabbiylari, hayot dorilfununidir.

Donishmandlar «Qari bilganini pari bilmas», deb bejiz aytishmagan. Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati benihoya bo'lib, bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo'lga qo'yishda, chinakam xalqchil tarbiya, oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qilib kelganlar, yoshlarga ta'sir etishning eng samarali shakllarini tanlaganlar. Katta avlod vakillari oilaning ma'naviy rahbarlari ham bo'lishadi. Xuddi shu keksalar tufayli xonadonimiz fayzli, to'kin va osoyishtadir. Ular bolalarni jonlaridan ortiq suyardilar, nevaralari-yu chevaralarini «danagimning mag'izi» deb quvvatlanadilar, ertag-u, naqlar aytib hayot sabog'ini beradilar. Ayniqsa, onasi yo otasi hayotdan erta ketse, unda ular o'sha bolalarga ota yo ona o'rmini bildirmay, nevaram deb emas, balki bolam deb, o'ksitmay voyaga etkazishga harakat qiladilar, bunda ularning hayotiy tajribalari, aniqrog'i yaqin o'tmishda o'zlarining shunday «tarbiyalash sinovlari»dan o'tganliklari asqotadi. Ular bolalarga xalq urf-odatlarini, ilg'or an'analarini o'rgatish bilan cheklanib qolmaydilar, o'z o'rnamaklari bilan ham saboq beradilar. Bu – o'zbek turmush tarzining milliyligi alomati.

Xalqning madaniy taraqqiyotidagi yuksalish katta avlodni e'zozlash va hurmat qilish bilan ham bog'liqdir. Inson o'z hayotida qanday yo'lni tanlaganidan qat'i nazar, unga yoshi ulug' kishilar tomonidan hayotiy nasihat, o'git sifatida etkazib berilgan donolik, hikmatlar uni muvaffaqiyatlar sari etaklaydi. Donishmandlik va tajriba orttirish hech qachon o'z kuchini yo'qotmaydi. Aksincha, ma'naviy takomil uchun yangidan-yangi sur'atlarda yuksalib boraveradi.

Aynan keksalar tajribasi yoshlarning aniq hayotiy pozitsiyani tanlab olishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Keksalar hayotidan lavhalar, ibratli hikoyalar, o'zi va o'zgalarning xatolarini o'z vaqtida payqab olish, mehribonlik ko'rsatishga intilish va boshqalar – bularning barcha-barchasi ma'naviy yuksalish uchun

rag'batlantiruvchi turtki bo'la oladi. Shuningdek, katta avlodning hayotiy tajribasi va donishmandligi oilalarda bunday axloqiy me'yorlarning qaror topishida qo'l keladi. Keksalarning yoshlarga qiladigan pand-nasihatlarini ularda tafakkurni shakllantirib, to'g'ri hayotiy maqsadni tanlab olishga yordam berishi mumkin. Islomda qarindoshlar va yaqinlarning holidan xabar olish ham asosiy burchlardan hisoblanadi. Inson har doim, hamma vaqt bag'rikeng bo'lishi kerak, ayniqsa, yoshi ulug' kishilarni e'zozlash, ularga yordam ko'rsatib turish lozim.

Ulug' bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temurning etti yillik yurishi paytida Mordin qal'asi qamal qilinadi. Qamal chog'ida Mirzo Ulug'bek tug'ilgani haqida xabar keladi. Saroy munajjimlarining bashoratiga ko'ra, Mirzo Ulug'bekning kelajakda ham sulton, ham ulkan olim bo'lishi bildiriladi. Amir Temur bu xabardan juda ham sevinadi.

Amir Temur xonadonida o'rnatilgan tartibga ko'ra, shahzodalar tarbiyasi ularning onalari zimmasida emas, balki buvi-bibilari zimmasida bo'lgan. Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim bo'la turib, uning oilaviy tarbiyasi bilan Saroymulkxonim shug'ullangan. Amir Temur bobo sifatida Mirzo Ulug'bekning harbiy ish, davlatni boshqarish, ilm egallash borasidagi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Natijada Mirzo Ulug'bek nodir shaxs, ma'rifatparvar davlat arbobi, butun dunyoga mashhur olim bo'lib etishadi.

Amir Temur farzandlari, nabiralarning kelajagi oldidagi otalik, bobolik burchi va mas'uliyatini chuqur anglaganligi diqqatga sazovordir. «Temur tuzuklari»da sohibqiron o'z avlodlarining oila qurishi, sog'lom farzandlar ko'rishi haqida astoydil qayg'urganligini ko'rsatuvchi shunday fikrlar bor: «O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirish tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, etti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lik-salamatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasli-nasabi, odob-axloqi,

sogʻlom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli boʻlsagina, el-yurtga toʻy-tomosha berib, kelin tushirdim. Oʻgʻillarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib, xotinlariga yaqinlashishni man etdim. Zero, sharobning taʼsirida bunyodga kelgan farzand nasl-nasabining buzilishiga taʼsir etgay, debon shu pokiza yoʻlni tutdim»[2].

Umuman olganda, psixologiyadan maʼlumki, bolalik davrida yosh xususiyatiga koʻra bola shaxsi atrofidagi narsa, hodisa, voqealarga nisbatan qiziqishi nihoyatda ortadi. Shuning uchun ham bolalik davrining dastlabki 3–6 yosh pallasida oʻta qiziquvchanlik davri ham deb ataladi. Bu davrda ona uy yumushlari, roʻzgʻor ishlari, ayrimlari esa umuman ijtimoiy-jamoat ishlari bilan band boʻlsalar, bolaning qiziqishi, intilishi va yuzaga kelgan koʻplab savollariga javob bera olmaydilar. Bu davrda bolaning fikri toʻla shakllanishi uchun uning savollariga javob topib bera oladigan suhbatdosh kerakdir. Uning nafaqadagi buvisi, bobosi bu vazifani ado eta oladi. Chunki nafaqadagi kishilarning yosh xususiyatida muloqotga ehtiyoj, kim bilan boʻlsa-da, oʻz hayotiy tajribalari bilan boʻlishish, oʻz kechinmalarini soʻzlab berish hissi yuqori darajada ifodalangan boʻladi va bolaning savollariga ular bimalol javob topib bera oladilar.

Natijada bobo, buvisining muloqoti bola fikr doirasi keng boʻlishiga yordam beradi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarda erta shakllangan «bola-buvi», «bola-bobo» tizimi bolaning mustaqil fikrlaydigan, erkin va tarbiyalangan shaxs sifatida voyaga etishida etarli darajada zamin yaratadi. Buvijonlarimiz allalarni shunday mehr bilan aytadilarki, bunday allalar farzandlarimizga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qoʻymaydi, alla eshitgan farzandlarning mehr-u muhabbatli boʻlishi har tomonlama tasdiqlangan. Bobo va buvilar nevaralariga oilada amalga oshiriladigan ishlarni oʻz tajribalariga tayanib oʻrgatishda katta hissa qoʻshadilar. Oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, iqtisodiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi.

Oila tarbiyasi – oilada ota-onalar, bobo-buvilar, umuman katta yoshli qarindoshlar tomonidan bolalarni tarbiyalash jarayoni boʻlib, azaliy turkiy udumga koʻra ota-onalarga qaraganda bolaga bobo-buvilarning tarbiyaviy taʼsiri kuchli boʻlgan.

Oʻzbek millatiga xos urf-odatlarimiz, udumlarimiz boʻlmish «sovchilik», «oq oʻrar», toʻy marosimlari va beshik toʻylar keksalarimiz boshchiligida oʻtadi. Hech bir oʻzbek oilasi yoʻqki, bunday marosimlarni oʻz bobo-buvijonlarisiz oʻtkazsa. Masalan, sovchilikda hal qiluvchi bosqichni buvajonlarimiz va buvijonlarimiz amalga oshiradilar. Kelinni oʻzlari koʻradilar yoki kuyov bilan oʻzlari suhbat quradilar. «Oq oʻrar» va toʻy marosimlarimiz ham ularning pok duolari bilan boshlanadi. Keyinchalik yoshlar farzandli boʻlganlarida esa eng katta «suyunchi»ni oʻzlari oladilar. Lekin shu bilan birga «Azon aytish», «Choʻmiltirish» va «Beshikka belash» kabi udumlarimiz ham ularsiz oʻtmaydi.

Keksalarimizning oilani tinchligi, mustahkamligiga ham taʼsiri katta. Masalan, keksalar bor joyda ularning hurmatini qilib tinchlik saqlanadi, turli nizoli munosabatlar oʻrnatishdan tiyiladi. «Otam hurmati», «Onam hurmati» kabi iboralar qoʻllanadi. Yana bir tomoni, keksalar shunday nizoli vaziyatlarni toʻgʻri hal qilishda etakchi boʻladilar, ular orqali oiladagi turli nizolar bartaraf etiladi. Shuning uchun ham oilasi ibratli keksalardan iborat mahallada oqsoqollar majlislari tashkil etiladi. Mahallada koʻrilayotgan muammoli vaziyatlar ham keksalarimiz ishtirokida hal qilinadi. Lekin hozirgi oilalarni kuzatadigan boʻlsak, aksariyat oilalar nuklear, yaʼni er-xotin va farzandlardan iboratdir [3]. «Nuklear» lotincha soʻzdan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosi «yadro» demakdir[4]. Bunday oilalarda tarbiya olayotgan bolalar xususiyatlarida salbiy xislatlar ham shakllanadi:

- nazorat kamligi tufayli koʻcha muhitiga taʼsirchan boʻladilar;

- ota-onalari ish faoliyati bilan band bo'lgan vaqtlarda kun tartiblarini o'zlaricha tashkil etadilar;
- bo'sh vaqtlarini uydan tashqarida o'tkazadilar;
- daydilik, ichish-chekish odatlari paydo bo'ladi;
- katta avlod vakillariga nisbatan munosabatlarida izzat-hurmat qilish qoidalariga kam darajada rioya qilinadi.

Keyinchalik bunday mafkura ta'sirida keksalarga nisbatan e'zoz va hurmat emas, balki noo'rin munosabatlar shakllanadi. Afsuski, qariyalar uylarining O'zbekistonda ham borligi, o'z halovatini o'ylagan ayrim farzandlarning keksayib qolgan ota-onalarini shunday g'aribxonalarga joylashtirishi ham haqiqat, bunday farzandlar ertaga o'zlarini ham shunday qismat kutayotganini o'ylamaydilar.

Holbuki, ota-onalari keksayganda xizmatlarini qilib, duolarini olmagan farzand qarg'ishga uchrashi haqida hadisi sharif ham bor[5].

Abu Hurayra aytadilar: «Xor bo'lsin, xor bo'lsin, xor bo'lsin!» – o'n marotaba takror qildilar. Shunda sahobalar: «Yo, Rasululloh, kimni aytayapsiz?», deb so'rashdi. Rasululloh: «Ota-onasining ikkalasi yoxud bittalari keksayib qolgan vaqtida (ularni rozi qilmay) o'zini do'zaxga tushishga muhtalo qilgan kishini», dedilar [6]. Boshqa bir hadisda esa: «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo[7] nasib bo'lib, Alloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi»[8], deyilgan. Shu hadislar zahirida tug'ilib, ajdodlarimiz tajribasida sinalgan «Ota rozi – xudo rozi» naqli ham keksa avlodni hurmat qilish an'anasini shakllantirishda o'zgacha xizmat qiladi. Binobarin, keksa avlodni hurmat qilish, ehtiyot qilib avaylash, ehtiyojlarini ta'minlash o'zbek oilalarining betakror fazilatlariga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi «Oila»ga oid to'rtta moddadan iborat bo'lib, uning 80-moddasida ota-onalarni e'zozlash kabi an'anaviy milliy qadriyat qonun kuchi bilan mustahkamlangandir: «Voyaga etgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar»[9].

Chindan ham, hayotning achchiq-chuchugini tatib, xilma-xil sinovlarda toblanib zakovat timsoliga aylangan keksa avlodning ezgu-o'git nasihatlarini oilalar ma'naviy-axloqiy kamolotining mustahkam poydevori hisoblanadi. Ayni chog'da shu ma'naviy poydevor qay darajada ekanligi jamoatchilik fikriga daxldorligi bilan ham benihoya qimmatlidir.

Oila har bir insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi uchun eng qadrlil maskandir. Shunday ekan, keksalarning hayotiy tajribasi, ibratini, sabog'i orqali oilada shaxslararo munosabatlarni tashkil etish insonni komillik, odob-axloq sari etaklashi shubhasizdir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Vatanimiz ravnaqi, uning kelajagi bo'lmish yosh avlodni munosib darajada tarbiyalashda, shuningdek, boy tariximizning o'chmas sahifalari, ajdodlarimizning buyuk merosini, qadriyat va urf-odatlarimizni kelajak avlodga etkazishda o'zining matonati, irodasi bilan fidoyilik qilayotgan keksa avlod vakillari davlatimiz va Prezidentimizning e'tiborida ekan, ular hamisha e'zoz va ehtiromda bo'lalilar.

Demak, ma'naviy merosimizni yosh avlodga etkazishda keksa avlod vakillarining o'rni beqiyos. Keksalarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Qariyalarning roli va o'rni qay darajada bo'lsa, oila shu darajada mustahkam, tinch va farovon bo'ladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2023. –B. 39.

2. Akramova F.A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – T.: «Shams-A», 2005. –B. 68.
3. Amir Temur o'g'itlari: To'plam. / Tuzuvchilar: B.Axmedov, A.Aminov. – T.: «Navro'z», 1992. –B. 64.
4. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: «O'zbekiston», 1990. –B. 20.
5. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. // O'quv qo'llanma. – T., 2006. –B. 142.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. –B. 210.
7. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: «Ma'naviyat», 1998.
8. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2008. –B. 296.
9. Shoumarov G.B. va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. Uslubiy qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. – B. 312.

ЧОРВАДОР ХАЛҚЛАРДА МАТО ТАЙЁРЛАШНИНГ ЭТНИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Абуллаева Насибохон Арабовна,
Андижон давлат педагогика институти
Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
УЎК 391.4:746(575.121)
<https://orcid.org/0009-0008-4513-879X>

Асоснома: Фарғона водийсида яшовчи ярим кўчманчи, ярим ўтроқ, кейинчалик ўтроқлашган қирғиз, қорақалпоқ, турк, қипчоқ, курама, минг, юз каби этник жамоаларнинг манзилгоҳларидан тадқиқот учун зарур материалларни тўплашга асос бўлди.

Калит сўзлар: қирғиз, қорақалпоқ, турк, қипчоқ, курама, минг, юз, этник жамоа, атоноқ, урчуқ, чиллак.

Аннотация: Основанием послужил сбор необходимого для исследования материала из поселений таких этнических общностей, как полукочевые, полусидячие, а позднее оседлые киргизы, каракалпаки, турки, кипчаки, Курамы, мин, сто, проживавшие в Ферганской долине.

Ключевые слова: киргиз, каракалпак, Турк, Кипчак, курама, тысяча, сотня, этническая общность, атоноқ, урчуқ, чилл.

Abstract: The basis was the collection of the material necessary for the study from the settlements of such ethnic communities as semi-nomadic, semi-sedentary, and later settled Kyrgyz, Karakalpaks, Turks, Kipchaks, Kurams, Min, Sto, who lived in the Ferghana Valley.

Key words: Kyrgyz, Karakalpak, Turk, Kipchak, kurama, thousand, hundred, ethnic community, atonok, urchuk, chill.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Фарғона водийсида яшовчи ярим кўчманчи, ярим ўтроқ, кейинчалик ўтроқлашган қирғиз, қорақалпоқ, турк, қипчоқ, курама, минг, юз каби этник жамоаларнинг манзилгоҳларидан тадқиқот учун зарур материалларни тўплашга асос бўлди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА

МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Фарғона водийсида У.Абдуллаевнинг “Фарғона водийсида этнослараро муносабатлар” монографиясида “Россия империясининг Туркистон ўлкасига қарашли Фарғона вилоятида яшаган умумий аҳолининг 52,7 % (828080 нафар) ини ўтроқ ўзбеклар, 26,3 % (423639 нафар) ини қирғизлар ва 9,8 (153780 нафар) ини ярим кўчманчи, (ярим ўтроқ) ўзбеклар, 6,6 % (103931 нафар) ини тожиклар, 1,7 % (25971 нафар) ини қорақалпоқлар ва 2,9 (34561) ини бошқа этник жамоа вакиллари ташкил қилган[1].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ярим кўчманчи ва ярим ўтроқ ҳолда яшаб, кейинчалик ўтроқлашган, қирғизлар асосан водий бўйлаб жойлашган бўлса-да, Марғилон (29, 6%), Наманган (25, 7%), Андижон (39, 6%) ва Қўқон (6, 0%) ҳамда Хўжанд аҳолисининг салмоқли қисмини ташкил этган. 1897 йилги маълумотга кўра рус Туркистонига қарашли Фарғона вилоятида яшовчи қирғизлар 423639 нафарга тенг бўлган.

1926 йилги аҳолини рўйхатга олишда эса ҳозирги Андижон, Фарғона ва Наманган вилоятлари ҳудудида 58960 нафар қирғизлар яшаётгани қайд этилган.

Қорақалпоқлар водийнинг Сирдарё ва Қорадарё қирғоқларида жойлашган ва Андижондан то Қўқонгача бўлган ҳудудларда ўтроқлаша бориб, ўзларини қатор қишлоқларини барпо этган. Ш.И.Иноғомов таъкидлаб ўтган эдики, Косонсойда (3,580), Қўқонда (2180 нафар), Андижон (2053нафар), Наманган (2180 нафар), Балиқчи (1960 нафар), Шаҳрихон

(1780 нафар), Бувайда (850 нафар), Чуст (815) ҳамда Жалакудук, Қўрғонтепа, Олтиарик, Бешарик, Кува, Риштон, Фарғона ва водийнинг бошқа туманларида яшаган.¹³¹

Турклар 1897 йилдаги маълумотга кўра, Фарғонадаги умумий турклар сони 14 441 нафар бўлиб, 1926 йилда эса 24 279 нафарни ташкил қилган. Туркларнинг асосий қисми Андижон ва Фарғона вилоятларида яшаганлар. Андижонда 20063 нафари ва Фарғона вилояти худудида, 4216 нафари Ўш ва Жалолободда яшаганлар. Андижон вилоятининг Марҳамат ва Хўжабод туманларида барлос кабиласи, Фарғона вилоятининг Кува, Кувасой, Охунбобоев туманларида, Ўратепа ва Хўжанд шаҳри теваарида ҳам турклар яшаган[1]. Юзлар Фарғона водийси худудидаги Андижон вилоятининг Балиқчи, Асака, Шаҳрихон, Фарғона вилоятининг Бувайда туманидаги бир канча қишлоқларда яшаган.

Қипчоқлар Норин дарёси қуйи қисмида Мойлисув, Қорадарё, Наманган уездидаги Косонсой, Сумсар, Подшоота, Гова каби дарё ва сой хавзаларида яшаганлар. Хусусан, Фарғона водийсининг Поп, Бувайда, Данғара, Чуст, Косонсой, Норин, Учқўрғон, Чинобод, Избоскан туманлари худудида яшаган.¹¹⁶

Курамаларнинг 2690 нафари Фарғона водийси худудида яшаган бўлиб, Наманган, Избоскан, Янгиқўрғон, Косонсой, ва Учқўрғон туманларида яшайди. Чорвадор халқ ҳам ўтроқ халқ сингари ўзининг мато тайёрлаш усулига, кийим тайёрлаш аъаналарига эга бўлиб, водийда яшаётган ўтроқ халқларнинг мато тайёрлаш усуллариининг айрим жиҳатлари билан ажралиб турган. Бу ҳақида К. И. Антипинанинг «Особенности материальной культуру прикладного искусство южных киргизов» асарида Баткен район қирғизларини мато тайёрлаш усуллариининг айрим жиҳатларини кўрсатиб берган. Бунда кашта тикишда ишлатиладиган чокларини бўз матога «терскайик», «ярим крест», «джормомо», «мушкул», «болгаркрест» тикилишини,

кашталар орнаментларини баъзи элементларини тикилишини, расмларини, тери охорлаш жараёни ва унинг хусусиятларига, палос тайёрлаш унинг орнаментларини ҳақида маълумотлар берган. Чорвадор халқларда мато тайёрлаш усуллари бўйича бир қатор асарлардан маълумотлар олишимиз мумкин. М. Ф. Гавриловнинг «Орнамент киргиз сусамира»[2], К. И. Антипина ва бошқа ҳаммуаллифларнинг «Народные традиции в современной материальной культуре и прикладном искусстве киргизии»[3], Академия наук киргизиского института истории «Взаимосвязии киргизского народа с народами России, Средней Азии и Казакстана (конец XVIII-XIX в.)»[3]. Бу асарларда чорвадор халқларнинг мато тайёрлаш уларнинг чорвачилик билан шуғулланиши, уларнинг мато тайёрлаш усуллари, терига ишлов бериш жараёнларидан махсулотлар тайёрлаши, палос тайёрлаш «ширдак», яъни палос, «чираш», яъни зардевор, «джабык баш», яъни бош ёпки, «джасдык» болишпуш, «саба», яъни теридан кимиз қуйиладиган махсус коп тайёрлаш жараёнлари, уларни тайёрлашда ишлатиладиган орнаментлар, уларни тикишда ишлатиладиган чоклар: «ильме» илма, «джормомо» йўрма, «мушкуль» мушкулнинг ишлатилиши ҳақида маълумотлар берилган. Бу буюмларга ишлатилган орнаментларнинг нусхалари «кучкорок» ҳамда тоғ гуллариини айрим элементлари кашталари ҳақида маълумотлар берилган. Бу маълумотлар Фарғона водийсида яшаган чорвадор халқнинг мато тайёрлаш усуллариини ўрганишда ёрдам берди.

Фарғона водийсида яшаган чорвадор халқ ҳам худди ўтроқ яшаган халқлар сингари ўз эҳтиёжини қондириш учун мато тайёрлаганлар. Бунинг учун хом ашё сифатида ўзларининг меҳнат маҳсули ҳисобланган чорвачилик маҳсулоти жундан фойдаланган. Шунинг учун жун мато (шерст) деб аталган ҳамда тери маҳсулотидан этик, маҳси, сумка, пўстин, қимиз учун халта, қалпоқ, плаш тайёрлаганлар.

Жунни, аввало, офтобга ёйиб қуритганлар ва у ёпишган ўт-ўлан қолдиқлари, яъни хашаклардан тозаланган. Шундан сўнг жун ювилган ва офтобда қуритилиб савачўп (беҳи новдасидан тайёрлаган чўп) билан уриб титилган. Титилган жун атоноқ, урчук ва чиллак каби кўл асбоблари билан йигирилиб, ип ҳолига келтирилган. Фарғона водийси халқлари жунни йигиришда атоноқ ва кўпроқ урчукдан фойдаланганлар. Жун ип эса махсус қозонларда қайнаб турган тузли, аччиқ тош эритмаси аралаштирилган ёки сиркали бўёқ сувга солиб, бўялган. Бўяш ҳам уй шароитида амалга оширилган. Бунинг учун жун ишқорли сувда қайнатилиб, оқар сувда чайилган. Қозонга солинган жун 30 дақиқа қайноқ сувли бўёқ ичида турган, сўнг уни ёғоч дастак ёрдамида олиб, махсус қуритиш учун ясалган мосламаларга осиб қуритилган. Шундан сўнг жун иплар тайёр ҳолатга келтирилган. Жундан палос тўкиш учун ўтроқ аҳоли фойдаланган “дўкон” деб аталувчи асбобдан фойдаланган. Арқок ипда ҳам, танда ип ҳам жун иплардан фойдаланиб тўкилган. Жун тайёрлаш ва уни ип шаклига келтириш турли асбоблар ёрдамида амалга оширилган. Айрим жойларда иптова билан, бошқа жойларда урчук ва бошқа жойларда эса чиллак билан, жун ип ҳолига келтирилган. Бу ҳақда В. Д. Жуков, С. Т. Толстов, В. М. Массон, А. И. Треножкин, С. Р. Русайкина ва бошқа мутахассисларнинг фикрига кўра, бу асбоблардан хунарамандлар эрамиздан аввалги 2 минг йиллик ўрталаридан буён фойдаланиб келинган. Чорвадор халқларда мато тўкиш жараёнида тайёрланадиган буюмлардан бири палос(кигиз) ҳисобланади. Бу палос далада, яйловларда шуғулланувчи, ярми ўтроқ халқнинг эҳтиёжи ҳамда қора уйлар қуриш учун зарур бўлган. Уларни тайёрлашда ҳам фойдаланган[3]. Бунинг учун улар жун-палос тайёрлашган. Жун офтобда яхшилаб қуритилгандан сўнг уни ем-хашак қолдиқлари ва бошқа нарсалардан тозалаб, жун махсус сава чўп ёрдамида саваб титилган. Барча ахлатлардан

тозалангандан сўнг жунни ювиб тозаланган, офтобда қуритилган. 1 та палос тайёрлаш учун палоснинг ҳажмига кўра 80-100 кг жун ишлатилган. Бунинг учун жунни йилига 2 маротаба, яъни баҳор ва куз ойларида қўйлардан қирқиб олинган. Сўнг тозаланган жунни камишдан тўкилган махсус намати ерга тўшашдан олдин, намати юқори томонига ва пастки томонига 3-4 м келадиган арқон ипни ташланади, сўнг унинг устига наमत тўшалади. Наматнинг устига жун ёйиб бир хил қалинликда яъни 5-10 см қалинликда ёйиб чиқилган. Сўнг махсус савачўп билан уриб текисланган. Унинг устига қайнаб турган қозондан сувларни олиб 3-5 челақ сув юнг устига қуйилган. Сўнг эса палосга танланган гулни солиш учун бўялган жунни палос устига гул шаклига кўра ёйиб чиқилган ва савачўп билан гул шаклидаги жун текисланган. Шундан сўнг текисланган гул шакли устига қайноқ сув қуйиб чиқилган.

Намат иккитадан аёл ёрдамида 2 томондан тахлаб чиқилган ва икки аёл ҳар иккиси икки томонга алмашиб тортиб, сув сиқиб чиқарилган. Қолиб кетган сувни тўкмок билан уриб, қолган сув ҳам жун таркибидан чиқарилган. Шундан сўнг палос 3 кун офтобда ўралган ҳолда қўйилади[4]. Сўнг уч кундан сўнг ёйиб офтобда қуритилади. Бунда жун сифати, палоснинг ранги ҳисобга олинади. Палослар қора рангли ва малла, кулранг ҳолларда тайёрланади. Қора ва кулрангдаги палослар бўялган жунлардан тайёрланади. Малла ранг палос эса асосан бўёқсиз жундан тайёрланади. Қора уйларни устки қисмини ёпишда асосан бўёқ берилмаган жундан тайёрланган кигизлардан фойдаланади. Бунинг сабаби қишда совуқдан, ёзда эса иссиқдан сақлайди. Бунинг яна бир афзаллиги шундаки, ёмғир ва қорда, офтобда уни ранги ўзгармайди. Бошқа рангли палослар қора уйларни безаш учун ва бозорларда маҳсулот сифатида сотиш учун тайёрланган[4].

Чорвадор халқ бундан ташқари қўй, эчки, мол, от, туя ва эшак терисидан

килинган чармлардан турли оёқ ва бош кийимлари, камар, уй-рўзгор буюмлари, хўжалик асбоблари тайёрлаган. Мазкур чармлар саур, мигрен, кемунт, деб номланган. Булардан убғори, кайроқи, такакий, хаккорий, поғайи каби этиклар жуда машхур бўлган. Теридан махсулот ишлаб чиқариш учун териға чорвадор халқлар ишлов беришган. Бу жараёни К. И. Антипина, А. Джумагулов, К. Мамбеталиева “Народные традиции в современной материальной культуре прикладном искусстве Киргизии” алоҳида айтилган. Бунда “тери ошлаш” жараёни “кўнчилик” деб аталган жараён бажарилган. Сўйилган хайвоннинг териси олиниб, у бир кун мобайнида оқар сувга тўсик тўсиб ботириб қўйилган. Сўнг эса оқар сувдан олиниб, оҳак уютилган сувга солинган. Бу сувда тери жунлардан тозаланган. Кейин эса сульфат тузи эритмали сувга солинган. Бу сувда тери юмшайди. Ҳар 5 та сигир териси учун 2 кг туз солинади. Шундан сўнг тери “тиғ” ёрдамида бир хил қалинликка келтирилади, ортиқча нарсалардан тозаланади. Тери ишқорли сувга солинади. Терини чидамлилиги оширилади, тери оқар сувга солинади. Оқар сувдан олинган тери офтобда қурилади. Ерга ёйиб қора рангга бўялади. Бўяш қўл меҳнати билан амалга оширилади. Биринчи бўёқдан сўнг терининг орқа томонидаги тивитлардан тозаланади. Иккинчи бўёқни беришдан олдин тери махсус рамкага тортилади. Текис таранг тортилган териға махсус мочалка билан қора ранг берилди. Бўёқ берилган тери махсус рамкадан олиниб, қафтланади (қафт билан текисланади). Бунда тери текис холға келади. Бу холатдан кейин оҳирги учинчи қора рангли бўёқ билан бўялади, тери қурилади. Тайёр тери “тери бозори” га олиб чиқиб сотилади. Тайёр терини этикдўзлар, махсидўзлар, сумка тикувчилар, чакмон тикувчилар сотиб олиб, махсулот тайёрлашган. Ҳозирги кунда тери ошловчилар Андижон шаҳрининг “Бой маҳалла” худудида “кўнчилар” маҳалласи бўлиб, бу маҳаллада 15 дан ортиқ хонадон

тери ошлаш билан шуғулланади. Улардан Нўмоновлар оиласи XIX асрдан бери бободан-отаға, отадан-ўғилға мерос бўлиб келмоқда. Нўмонов Нўмон, Нўмонов Аҳмад, Нўмонов Ўқтам, Нўмонов Искандарлар шулар жумласидандир. Яна шундай оилалардан Юлбарсовлар хонадони, Тожибоевлар хонадони шулар жумласидандир[5]. Жун ва жундан тайёрланадиган махсулотлар хунармандчиликнинг бир тури бўлиб ажраб чиқмаган[4] Чорвадор халқларда жун ипдан мато ҳам тўқишган. Бунинг учун ўтроқ аҳоли фойдаланган «Дўкон» деб аталган дастгоҳдан фойдаланилган. Жундан мато тўқишда арқоқ ип ҳам, ўриш ипи ҳам жундан тайёрланган ипдан фойдаланилган. Жун матони тўқиш жараёни ўтроқ аҳолининг тўқиш жараёнига ўхшайди. XIX асрда чорвадор халқлар томонидан «ширдак» ёки «тақир гилам», «патсиз гилам» ҳам тўқилган. Бунга Андижон адабиёт ва санъат музейида сақланувчи «Хидирша», деб аталувчи худудда яшовчи аҳоли томонидан тўқилган гилам мисол бўлади. Гиламни тўқишда махсус “дўкон” деб аталган дастгоҳдан фойдаланган. Бу дастгоҳ ўтроқ аҳоли мато тўқишда фойдаланган дастгоҳдан фарқ қилади, шунингдек, чорвадор аҳоли мато тўқишда фойдаланган “дўкон” деб аталган дастгоҳдан ҳам. Бу дастгоҳнинг тузилиши оддий бўлиб, у ҳам беҳи ёки ёнғоқ дарахтидан қилинган. 2 тадан тирсак деб аталувчи ушлаб турувчи оёқ қисми бўлиб, ерга дастгоҳ тегиб турмаслиги учун кўтариб туради. 2 та катта тирсак вертикал (тик) қисмдан иборат бўлиб, 2 та нов деб аталувчи горизонтал (кўндаланг) қисмдан иборат. 2 та кўндаланг қисмдаги новға пишиқ йигирилган пахта ипи параллел (ёнма –ён, кетма -кет) қилиб тортилади. Сўнг дастгоҳда ёнма-ён ипларнинг орасидан ипни ўтказиб, тўқиб чиқилади. Бу усулда асосан тақир гиламлар ҳам, патли гиламлар ҳам тўқилади. Чорвадор халқларда «курок» деб номланган буюм тайёрланган бўлиб, буни кашта тикиш усулига ўхшаб кетади. Бунда нақшлар

тикишда чизилмай, мато парчаларидан фойдаланган ҳолда нақш тайёрланади, нақш эса мато парчаларини бирлаштириш ҳисобига ҳосил бўлади. Ҳар бир матони тўғри чок билан бирлаштириш ҳисобига ҳосил бўлади. Бунда ҳосил қилинаётган нақш ёки гул куроқ тайёрлаётган чеварнинг ижодий фаолиятига, унинг орзу-ўйларига, мақсад-муддаоларига боғлиқ. У ўзи хоҳлаган нақшни, ифодамоқчи бўлган тасвирни турли хил рангли матолар бўлаклари орқали ифодалайди. Мато бўлакларини асосан қайчи билан тўртбурчак, квадрат, учбурчак, доира, ярим доира, ромб каби геометрик шакллар қирқиб, тайёрлаб олинади. Сўнг эса бу мато бўлаклари игна ва ип ёрдамида бирлаштирилади. Бирлаштириш жараёнида ишлатилган чок асосан матонинг орқа томонида қолади. Устки томонида эса нақш ҳосил бўлади. Куроқ ёрдамида ҳосил қилинган нақшлардан келинлар сепи учун ёстик жилди, кўрпача, елпиғич, деворларни безаш учун зардеворлар, нон узишда ишлатиладиган енгчалар тайёрланган. Кураклар ёрдамида қозонларни ушлаш учун «тутки», чойнақлар қўйиш учун таглик, чойнақдаги чойни совиб қолмаслигининг олдини олиш мақсадида чойнақ қалпоқлар тикилган[6].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, Фарғона водийсида яшовчи чорвадор халқлар ҳам қадимдан кашта буюмлари тайёрлаганлар. Кашта буюмларидан қора уйларни безаш учун палослар, ёш келинлар уйларини безаш учун буюмлар, келин сарполарининг ичидаги келинлик либослари, от ёпқилар, дўппилар, юк халталар, гиламлар тайёрлаганлар. Ўтроқ халқлар кашта буюмларидан турли маросимларда фойдаланган бўлса, чорвадор халқлар ҳам ўзларининг маросимларида кашта буюмларидан фойдаланган. XIX аср охири XX аср бошларида Фарғона водийси ҳудудида ўтроқ халқлар қатори, чорвадор халқлар каштачилик буюмлари, жумладан мато ишлаб чиқариш яхши ривожланган. Кашта тикишда чорвадор халқлар “жормомо”, “басма”, “илмоқ”, “терскайик”, “болғар чок” каби чоклардан фойдаланган. Биз ўрганаётган даврда чорвадор халқларда ҳам кашта буюмлари кўп таёрланган. Бу буюмлардан “жой ёпки”, “болишпўш”, “ширдак”, “от жапки”, “хуржун халта”, “қиз кўйлак”, “кигиз колпоқ” лар тайёрланган[4].

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдуллаев У. С. «Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар» 2006. Т. 51-60 бет.
2. М.Ф. Гаврилов. «Орнамент киргиз сусамира» - Т: 1929. стр. 104-110.
3. К.И. Антипина идр. Народные традиции всовременной материальной культуре и прикладном искусстве киргизии. -Москва: Изд «. НАУКА»1964. стр. 91—93. (конец XVIII-XIX в.). - Фрунзе: Изд. «Илим»1985. стр. 35-47.
4. Дала материаллари. Андижон вилояти. Жалакудук тумани. Капа қишлоғи. Турсунхон Маметова.
5. Нўмонов Ўктам. Андижон шаҳри. Эски шаҳар.Кўнчилар маҳалласи. Дала ёзуви. Андижон вилояти. Жалакудук тумани. Гулойим Адишева. Х. Адишева.

ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ НАМУНАЛАРИНИ ЁЗИБ ОЛИШ ВА НАШРГА ТАЙЁРЛАШ

Наргиза Раҳматуллаева,

Республика Маънавият ва маърифат маркази

Сурхондарё вилояти бўлими раҳбари

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0002-0021-5611>

Аннотация: Мақолада халқ оғзаки ижодини излаб топиш, фольклоршуносларнинг машаққатли меҳнати, дostonларни ёзиб олиш ва нашрга тайёрлаш технологияси ўз ифодасини топган.

Калит сўзлар: фольклор, дoston, “Алпомиш”, “Бадаш”, Хушбок бахши Мардонакул ўғли.

Аннотация: В статье описаны поиски фольклора, кропотливый труд фольклористов, технология записи былин и подготовки их к изданию.

Ключевые слова: фольклор, эпос, «Алпомиш», «Бадаш», Хушбак бахши Мардонакул оглы.

Annotation: The article describes the search for folklore, the hard work of folklorists, the technology of recording epics and preparing them for publication.

Key words: folklore, epic, "Alpomish", "Badash", Khushbak bakhshi Mardonaqul oglu.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Ўз моҳияти билан мустақил давлат кураётган ўзбек халқининг маънавий қиёфасини бойитишга хизмат қилувчи ўтмишда яратилган, халқ оғзаки адабиёти намуналарини ўрганиш ҳозирги куннинг энг муҳим масалаларидан биридир.

Халқ ўз ҳаётидаги бўлиб ўтган, гувоҳи бўлган, жамият тараққиёти учун ғоят аҳамиятли воқеаларнигина дostonларга мавзу қилиб олади.

Шуни алоҳида қайд қилиб ўтиш керакки, мазкур асарларда бошқа бир қанча масалалар билан бирга меҳнаткаш халқнинг ахлоқий қарашлари ҳам ўзининг

етук бадий ифодасини топгандир. Уларнинг аксариятида ватанпарварлик, душманга нафрат, эрксеварлик, меҳнатсеварлик, инсонпарварлик каби ажойиб фазилатлар мужассамлашган инсон образи яратилган.

Халқ оғзаки поэзияси асрлар мобайнида меҳнаткаш омманинг онгига самарали таъсир ўтказиб, илғор ғояларнинг шаклланишига замин ҳозирлади, инсонда юксак ахлоқий ва ижтимоий-сифатларни қарор топтирди, шунингдек бу поэзия турмушдаги чиркин одатларни, ярамасликларни қаттиқ қоралади. Чунки, фольклорнинг бутун мазмуни шундаки, у халқ руҳини, орзу-армонларини ифодалайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Академик Ю.М.Соколов ибораси билан айтганда “Фольклор бу ўтмишнинг акс садоси ва бу куннинг ҳам баланд овозидир”.

Ҳа, фольклор – ўтмишнинг акс садоси. У халқ билан бирга пайдо бўлган, халқ билан ҳамнафас яшаб келмоқда, уни яшаш ва курашга чорламоқда.

Фольклоршуносларнинг меҳнат машаққати жуда оғир. У битта қўшиқ, ё битта дostonни топиш, уни ёзиб олиш учун минглаб чақирим масофаларни, қанча қишлоқ ва шаҳарларни кезиши керак

Профессор Баходир Саримсоқов шундай ҳикоя қилади: “Маросим қўшиқларини тадқиқ қилаётган йилларим. “Хур қиз” қўшиғи борлигини эшитганман-у, қўлимда на матн бор, на қай тарзда, қай оҳангда айтилишини биламан. Иттифоқо (бу кунни ҳеч кимнинг бошига солмасин!)

қариндошлардан бирининг бўйга етган қизи қазо қилади. Таъзияга бордим. менга яқин аёллардан бири мен билан йиғлаб кўришди, бўйнимдан кучоқлаб олган. Биламан, ҳали мурда ювилмаган. Ҳозир қизнинг янгалари кириб уни ювиб кафанлашлари керак. Ҳамиша ёнимда гугурт кутисидек магнитофон юради, ўшани таваккал қилиб йиғлаб кўришаётган хотиннинг камзул чўнтагига солиб юбордим. Билиб қолса шармандам чиқади. Нима қилай? Азага борган кампир ўз дардини айтиб йиғларкан. Ўлик кафанланди. Ҳаёлим ҳалиги хотинда. Аста яқинлашдим. У – бу деб гапга солиб чўнтагига қўл сукдим. Иш қилни ҳамирдан суғургандек битди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўрта асрнинг донишманд тилшуноси, бутун Ўрта Осиёни, Хитойни, бир қанча шарқ мамлакатларини қадамлаб кезиб чиққан Махмуд Қошғарий ўзининг “Девону луғатит турк” асарида жуда кўп халқ кўшиқларини, мақолларини келтирадики, бу кўшиқлар-у мақоллар туркий халқларнинг қадимий тарихига бориб тақалади. Бу гўзал шеърӣ намуналар туркий халқларнинг меҳнатга, табиатга муносабатларидан ташқари эстетик дидининг қай даражада бошлангани-ю шаклланиганидан ҳам далолат беради. Ана шу кўшиқ, терма дostonларни айтувчи ёки яратувчиларни бахшилар деб аташган.

Хўш, ўша бахшилар қачон пайдо бўлган, дерсиз.

Эҳтимол, инсоният бадий тонги уфқидаги биринчи ижодкор бахши бўлгандир. Шунинг учун ҳам қачонлардир яратилган ота мерос халқ дostonларини унга нисбатан бир “ижоддош” (М.Шайхзода) сифатида ўзининг хайратомуз хофизасида асрлар тўфонидан, даврлар елидан сақлаб қолиб, бизгача олиб келган, баъзан ўзи ҳам қадимий ва барқарор эпик анъана асосида янги асарларни ижод эта бошлаганлар.

Помир – Олойдан Урал тизма тоғларига қадар. Эдил дарёси бўйидан Хитойгача тарқалган, гўдақдан тортиб кекса одамгача

завқ билан куйловчи халқнинг қадимий кўшиқлари ахир кимнингдир томонидан бадиха йўли билан куйлаб юборилмаганми?! Фольклор соҳасининг билимдонлари Чўқон Валихонов, А.Диваев, Фитрат, Г.Потанин, В.Жирмунский, Ҳоди Зариф, Музайяна Алавия ва бошқа кўпгина муаллифларнинг китобларида қайд этилишича “дoston шоирнинг кўрки”, деган мақол жуда қадимиятдан бизгача етиб келган. Модомики, шундай экан, - дoston инсоннинг қадимий ҳамроҳи. Нонсиз уй бўлиши мумкин, аммо кўшиқсиз, дostonсиз уй бўлмаган. Халқлар уруғ-уруғ, қабила-қабила бўлиб яшаган даврларда ҳам ўша уруғ, ўша қабилага оид маъракаларини, байрамларни кўшиқ ва ўйинсиз, куй ва оҳангсиз ўтказмаганлар. Абул Фараж-ал-Исфохонийнинг “Оҳанглар китоби” (“Книга песен”. Москва, изд. “Наука”, 1980) да хабар берилишича, ҳар бир уруғнинг, ҳар бир қабиланинг ўзига хос кўшиғи, оҳанги бўлган ва уруғлар, қабилалар ўртасида кўшиқлар ва оҳанглар бўйича доимий мусоҳабалар бўлиб турган. Бу мусоҳабалар асосан маълум тантанали кунларда ўтказилган. Энди бир тахминни ўртага ташлаш мумкин: эҳтимол ана шундай мусоҳабалар-бугуннинг тили билан айтганда “конкурс”лар бахшиларнинг етишиб чиқишига замин ҳозирлагандир? Махмуд Қошғарий “Девон”ида ва Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг асари”да келтирилган Алп-эр-тонг ва Афросиёб ҳақидаги илк эпик кўшиқларни ким биринчи куйлаган? Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асарида келтирилган барча эпик афсоналар туркий халқларники эканлиги маълум. Демак, Эдил ва Амударё (Жайхун) оралиғидаги Хитой (Чин-Мочин)гача чўзилган жуда улкан ҳудудни эгаллаган туркий халқларнинг эпик анъаналари жуда қадимий даврларга бориб тақалади. Фольклор манбалари ёзиб олинди дейлик. Энди ёзиб олинган манбаларни китоб ҳолида чоп этиш керак. Бу жараённинг юки жуда ҳам оғир.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, “Маънавият фидойиси”

нишони совриндори Тоштемир Турдиев шундай хикоя қилади: Хушбоқ бахши Мардонакул ўғлидан “Алпомиш” достонини ўн етти кун давомида ёзиб олдик.

Видео тасмадаги достон қоғоз вариантга тушди. Достонни ўқиб чиксак, ҳали бир талай камчиликлари бор. Яна шоирга мурожаат қилишга тўғри келди. Бахшини яна Деновга чорладик. Қоғозга тушган достонни ўқиган бахши “Бу достонни мен айтганим йўқ-ку”, дейишга борган.

Сўнгра достонни шоир билан бирга бошдан оёқ тузатиб чикдик ва нашрга тайёрладик.

Наشريёт эса ўз йўналиши бўйича китобни (достонни) чоп этишга киришди.

Шундай қилиб, “Алпомиш” достони 1991 йилда Ғ.Ғулом нашриётида 10 минг нусхада босилди.

Шуни айтишим керакки, халқ оғзаки ижоди менинг ҳаётимнинг бир бўлагига айланган. “Алпомиш” ва “Тўрўғли” туркумига кирувчи достонларни Ўзбекистон халқ бахшиси Хушбоқ Мардонакуловдан ёзиб олиб нашрдан чиқардим.

Булар жумласига “Шерна бахши унинг авлодлари”, “Заркокил ва Нурали”,

“Соқибулбул” каби достонларни келтириш мумкин. Бу достонлар ёшларни ватанпарвар, юртга содик, мард ва жасур бўлиб вояга етишига хизмат қилади.

Шунингдек, Абдуназар Поёновдан “Торкистон”, “Келиной” ҳамда “Санам ва Гавҳар”, “Алланазар Олчинбек” достонларини ёзиб олиб нашрга тайёрладим. Тарих фанлари номзоди Тўхташ Аннаев билан ҳаммуаллифликда воҳа тарихини ўзида акс эттирувчи “Ангор археология ёдгорликлари” китоби нашрдан чиқардим. Масъул муҳаррирлигимда М.Азимовнинг

“Нотиклик санъати” китоби чоп эттирдим.

Қувонарлиси Ўзбек миллий мукасафининг қадимий турларидан “Бадаш” санъатининг ёшлар маънавиятида тутган ўрни юзасидан илмий изланишлар олиб бормоқдаман. Изланишлар натижасида “Бадаш – маънавият, маърифат, маданият” деб номланган илмий-оммабоп китобим нашрдан чиқди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хуллас, мамлакатимизда маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини оширишда, халқимизнинг мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлашда халқ оғзаки ижоди, достончиликнинг ўрни бекиёсдир.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдулғозий. Шажараи турк. Тошкент 1992 йил. “Чўлпон” нашриёти.
2. А.Абдурахмонов. Саодатга элтувчи билим. Тошкент – 2001. “Мовароуннахр”.
3. Н.Норбоев. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. Тошкент-1997.
4. С.Турсунов, Т.Турдиев. Денов Тошкент – 2009. “Фан”.
5. Т.Турдиев. “Қуёш ардоғидаги юрт” Сурхон нашр, 2021.
6. Т.Турдиев Шажара. “Нур” - 1991 йил.
7. Ўзбек халқ шоирларининг совет давридаги ижоди. ЎзССР ФА нашриёти. Ташкент, 1958 йил.
8. Ҳоди Зариф. Донгдор куйчи. Ўздавнашр, 1949 йил.
9. Ҳамид Олимжон “Алпомиш” достонига ёзилган сўзбоши. 1957 йил.
10. Н.Саидов. Халқ севган достончи “Ўзбекистон” нашриёти, Тошкент, 1972 йил.
11. Тўра Мирзаев. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари “Фан” нашриёти.
12. Т.Турдиев. “Ғозил Йўлдош ўғли”, Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 йил.

13. Х.Мардонакулов, Н.Раҳматуллаева “Заркокил ва Нурали” “Сурхон-Нашр” нашриёти 2019 йил.
14. Т.Аннаев, Н.Раҳматуллаева “Ангор археология ёдгорликлари” “Сурхон-Нашр” нашриёти 2017 йил.
15. Х.Мардонакулов, Н.Раҳматуллаева “Шерна баҳши ва унинг авлодлари” “Сурхон-Нашр” нашриёти 2020 йил.
16. Н.Раҳматуллаева. “Соқи булбул” “Сурхон-Нашр” нашриёти. 2020 й.
17. Н.Раҳматуллаева. “Бадаш маданият ва маънавият сарчашмаси” Тошкент. “Renesans” нашриёти 2022 й.

XALQNING TABIAT KULTLARI VA ARXAIK TASAVVURLARI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLARINI O'RGANISHDA XX ASR ETNOGRAFIYASINING AHAMIYATI

Boboxo'jayev Ilhom Sultonovich,

Termiz davlat universiteti doktranti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0006-1244-0205>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo va Qozog'iston, xususan, Surxon vohasi an'anaviy xo'jaligi bilan bog'liq marosimlarida tabiat kultlari va arxaik tasavvurlar e'tiqodiy ko'rinishlari va Surxon vohasi aholisining an'anaviy oilaviy marosimlarida tabiat kultlari va arxaik tasavvurlari bilan bog'liq etnolokal xususiyatlari XX asrda sovet davri etnograflari tomonidan o'rganilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, marosimlar va kultlar, etnografiya, N.P.Lobacheva, muqaddas-homiy darajasi, O.A.Suxareva, mahalliy-etnolokal.

Аннотация: В данной статье рассматриваются религиозные проявления культов природы и задних изображений в обрядах, связанных с традиционным хозяйством Сурханского оазиса, Средней Азии и Казахстана, а также культы природы и архаики в традиционных культурных обрядах народов Сурханского оазиса. Этнолокальные особенности, связанное с воображением советских людей в XX веке

Объясняются исследования этнографов того периода.

Ключевые слова: Сурханский оазис, ритуалы и культы, этнография, Н.П. Лобачева, уровень святителя-покровителя, О.А.

Abstract: In this article, religious manifestations of nature cults and back images in ceremonies related to the traditional economy of Surkhan Oasis, Central Asia and Kazakhstan, and nature cults and archaic in traditional cultural ceremonies of the people of Surkhan Oasis are discussed. Ethnolocal characteristics associated with the imagination of the Soviet in the XX century

The study by ethnographers of the period is explained.

Key words: Surkhan oasis, rituals and cults, ethnography, N.P. Lobacheva, saint-patron level, O.A. Sukhareva, help-ethnolocal.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION).

Inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimida qadimdan ota-bobolarimiz o'zlari uchun qanday o'rin tutganliklari haqida yaxshi tasavvurga ega edilar. Qadimdan odamlar imkon qadar muqaddas narsalar orasida, muqaddas narsalar bilan o'ralgan holda yashashga harakat qilganlar. Ya'ni, g'ayritabiiy kuchlar tabiiylik bilan uzviy bog'liq ravishda hamohang bo'lgan. Inson tabiat hodisalarini o'z tajribalari, his-tuyg'ulari va intilishlari natijasida o'rgandi. Dunyo, tabiat insonga shunday namoyon bo'lganki, unda muqaddaslikning turli xil ko'rinishlarini kashf qilish imkonini bergan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Xususan, turli xalqlar hayotini ilmiy adabiyotlar orqali har tomonlama ko'rib chiqib, etnografiya fani diniy fanlar bilan qo'shilib ketishini, bunda e'tiqodlar, marosimlar va kultlarni o'rganishda deyarli barcha fanlar asosan etnografik ma'lumotlarga asoslanishini, qolaversa, ilk diniy qarashlarni o'rganishda ham butunlay etnografik materiallarga bog'liq bo'lib, etnografiya faniga tayanib, tahlil qilish mumkinligi ko'plab ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlangandir. Qolaversa, etnografiya yo'nalishida e'lon qilingan tadqiqot ishlari, maqolalardan foydalanilib, shuningdek, dala etnografik materiallari yaxlit holga keltirilib, mavzu doirasida bir butun tizimga solinib, ya'ni aholi o'rtasidagi shaxsiy muloqotda, kuzatishlar va odamlar bilan suhbatlar asosida

ilmiy talqin qilish mumkin.

Shu jihatdan olganda, marosimlar va kultlarni hamda arxaik tasavvurlarni o'rganishda sovet davri etnografiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri xalqlarning an'anaviy madaniyati va hayotini o'rganish doirasida olib borilgan ishlarga murojaat qilish mumkin. Xususan, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining kundalik hayoti diniy e'tiqodlar bilan bog'liq g'oyalar va urf-odatlardan iborat ekanligini, ya'ni islom dini kirib kelgandan keyin ham mahalliy aholi kundalik hayotida ko'plab marosim va urf-odatlarni davom ettiraverib, qo'llab kelganliklari shu davrda yaratilgan ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi.

Jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy marosimlari, e'tiqodlari va kultlariga bag'ishlangan to'plamda O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining musulmonlikgacha bo'lgan e'tiqod va marosimlarining qoldiqlari, ya'ni, bir paytlar islom dinini qabul qilgan barcha xalqlarning kundalik hayotida ko'plab eski qarashlar va marosimlar saqlanib qolinganligi atroflicha tahlil etib berilgan[12].

Tadqiqot ishimizda vazifalar aniq belgilab olingan va o'ziga xos masalalar, ya'ni Surxon vohasi an'anaviy xo'jaligi bilan bog'liq marosimlarida tabiat kultlari va arxaik tasavvurlar e'tiqodiy ko'rinishlarining turli jihatlariga bag'ishlangan bo'lsa, keyingi asosiy vazifa Surxon vohasi aholisining an'anaviy oilaviy marosimlarida tabiat kultlari va arxaik tasavvurlari bilan bog'liq etnolokal xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Shu jihatdan olganda, birinchi asosiy vazifa yuzasidan, ayniqsa, sovet davri etnograflaridan N.P.Lobacheva[18], O.A.Suxareva[20], J.X.Karmisheva[13], I.Muxiddinov[19] larning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Xususan, voha aholisining an'anaviy dehqonchiligi va chorvachiligi bilan bog'liq marosimlarida tabiat kultlari va arxaik tasavvurlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari hamda an'anaviy hunarmandchilikda islomiy qarashlari bilan o'zaro qorishgan tabiat kultlari va arxaik tasavvurlar izlarini o'rganishda ushbu yuqorida keltirilgan mualliflarning maqolalariga va ilmiy izlanishlariga e'tibor

qaratilib, qiyosiy maqsadda kerakli o'rinlarda foydalanishga harakat qilindi.

Tadqiqot ishimizdagi ikkinchi asosiy vazifa an'anaviy oilaviy marosimlar bilan bog'liq bo'lgani uchun nikoh to'yi hamda farzand tug'ilishi bilan bog'liq an'ana va marosimlarda tabiat kultlari va arxaik tasavvurlari, ya'ni, sog'lom bo'lish, kasalliklardan shifo topish hamda himoya qilishning sehrli usullari, xalq tabobati amaliyoti aks etgan asarlar qiyosiy maqsadda o'rganib chiqildi. Bu o'rinda asosan, V.N.Basilov[2], K.Ismoilov va K.Tayjanov[24], G.P.Vasilyeva[7] larning maqolalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari, Surxon vohasi an'anaviy dafn-xotirlash marosimlarida arxaik tasavvurlarning o'ziga xos mahalliy-etnolokal xususiyatlarini boshqa mintaqalar bilan taqqoslab o'rganishda B. X. Karmishevaning Farg'ona vodiysi o'zbeklarining dafn va xotira marosimlariga bag'ishlangan maqolasi sinchiklab o'rganildi[14].

Ilmiy adabiyotlarga yana sharh beradigan bo'lsak, sovetetnografiyasi fanida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari etnografiyasini o'rganish doirasida ushbu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari yaxshi ifodalab berilgan ko'plab maqolalar jamlangan to'plamlar muhim ahamiyatga ega bo'lib bordi[11].

Ushbu to'plamdan joy olgan O.A.Suxarevaning maqolasida tekislikda yashovchi tojik xalqlari orasida demonologiya va shamanizm qoldiqlarining saqlanib qolganligi batafsil misollar bilan yoritib berilgan bo'lsa[21], O. Murodov esa Zarafshon vodiysining o'rta qismida yashovchi tojiklar o'rtasida shamanlik marosimlarining folkloriga e'tibor qaratgan[15].

Shuningdek, V.N.Basilov hamda K.Niyozqilichevlar shodur turkmanlari orasida shamanizm qoldiqlarini o'rgangan bo'lsa[3], B.N.Basilovning Turkman-ota kultining kelib chiqishi haqida[4], S.M.Demidov esa mashhur so'fiylar tarkibiga kiruvchi, ya'ni, turkmanlar orasida muqaddas-homiy darajasiga ko'tarilgan Maxdumlar

borasida batafsil ma'lumot bera olganlar[9].

Ushbu maqolalar O'rta Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning qadimiy marosimlari, e'tiqodlari va kultlariga bag'ishlangan e'tiqodlarini qiyosiy o'rganishda ushbu mintaqadagi azaldan bir-biri bilan qo'shni bo'lib yashab kelayotgan xalqlarning o'ziga xos urf-odat va marosimlarining o'xshash jihatlari va farqlarini o'rganishda ahamiyatli o'ringa ega bo'ldi.

Shuningdek, E.G.Gafferberg tomonidan balujiylar orasida diniy g'oyalar qoldiqlarining o'rganilishi[8], S.P.Polyakov va A.I.Chernomyxlar esa Zarafshon vodiysi aholisining dafn marosimlarini tahlil etishi[25], N.G. Borozna esa O'rta Osiyo aholisining hunarmandchiligida, ayniqsa, zargarlik buyumlaridan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan tumorning magik ko'rinishlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirishi[6], va, nihoyat, N.P.Lobachevaning O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining to'y marosimlariga bag'ishlangan maqolasida turli xil arxaik tasavvurlarning o'ziga xos mahalliy-etnolokal xususiyatlari ilmiy jihatdan yaxshi yoritib berilishi mavzuni yoritishda o'ziga xos ahamiyatga egadir[26].

Bundan tashqari, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining tabiat kultlari va arxaik tasavvurlarini, ilk diniy qarashlarini hamda ko'plab saqlanib qolgan urf-odat va marosimlarni o'rganish borasida kitoblar turkumi bilan ifodalangan maxsus yo'nalish yaratildi. Xususan, quyida nomlari zikr etilgan etnograf-tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy qarashlariga ham e'tibor qaratish ushbu mavzuni to'ldirish, ilmiyligini oshirishda birmuncha xizmat qiladi. Jumladan, etnograf olimi O.A.Suxareva tomonidan O'zbekiston aholisining islom dini bilan bog'liq qarashlarining o'ziga xos tarzda yoritilgani[22], G. P.Snesarevning Xorazm

o'zbeklari orasida musulmonchilikgacha bo'lgan e'tiqodlari va marosimlarining tahlil etib berilishi[23], V.Y. Basilov tomonidan islomda avliyolar kulti ahamiyatining ko'rsatib berilishi[1], T.D.Bayaliyeva esa qirg'iz xalqi orasida islomgacha bo'lgan e'tiqodlarning yoritilishini tahlil qilib berganligi bizning tadqiqot ishimizda salmoqli o'ringa egadir[5].

Shuningdek, xalqlarning islomgacha bo'lgan urf-odat va marosimlarini o'rganish doirasida S.M.Demidovning tadqiqot ishi diqqatga sazovor bo'lib, turkman ovullari kundalik turmush tarzida e'tiqodiy kultlar bilan bog'liq marosim va urf-odatlarining ko'rinishlarini talqin etgan bo'lsa[10], O.Murodov esa Zarafshon vodiysi tojiklari orasida qadimiy afsonaviy obrazlarning saqlanib qolganligini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatib berdilar[16].

Ayniqsa, bu ilmiy tadqiqotlar orasida keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim yo'nalish ochib bergan "O'rta Osiyoda musulmonlikgacha bo'lgan e'tiqod va marosimlar" nomli maqola muhim o'rinni egallab, ushbu mintaqada yashaydigan xalqlarning kultlariga batafsil to'xtalib o'tilgan[17].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ilmiy asarlar, maqolalar, tadqiqotlar aholining kundalik hayotida uchraydigan va amal qilib kelgan islomgacha bo'lgan e'tiqodlarning saqlanib qolganligini, o'ziga xos tarzda azizlarga sig'inish, ruhlarga ishonish, shamanizm va marosim yordamida sehrgarlikning turli shakllari, davolash usullari hamda xalq dunyoqarashining o'ziga xos shakllarda namoyon bo'lishini ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy o'rganib tahlil qilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Басилов В. Н. Культ святых в исламе. - М.: «Мысль», 1970. 144 с.
2. Басилов В.Н. Пережитки шаманства у туркмен-гёкленов // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. - С. 94-109.

3. Басилов В.Н., К. Ниязклычев. Пережитки шаманства у туркмен-човдуров //Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. – С.123-137.
4. Басилов В.Н. О происхождении туркмен-ата (простонародные формы среднеазиатского суфизма) //Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. — М.: ГРВЛ, 1975. – С.138-168.
5. Баялиева Т. Д. Доисламские верования и их пережитки у киргизов. Фрунзе: Изд-во Илим, 1972. - 171 с.
6. Борозна Н. Г. Некоторые материалы об амулетах — украшениях населения Средней Азии//Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. – С. 281-297.
7. Васильева Г.П. Магические функции детских украшений у туркмен // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. –С. 182-195.
8. Гафферберг Э.Г. Пережитки религиозных представлений у белуджей //Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. – С. 224-247.
9. Демидов С.М. Магтымы (историко-этнографический этюд) //Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. – С. 169-190.
10. Демидов С. М. Туркменские овлады. Ашхабад; Ылым, 1976. - 196 с.
11. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. - 344 с.
12. Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. - 208 с.
13. Кармышева Дж. Х. Земледельческая обрядность у казахов // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. – С. 47-69.
14. Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. –С. 139-181.
15. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана //Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. – С.94-122.
16. Муродов О. Древние образы мифологии у таджиков долины Зеравшана: этнографические исследования к истории религии и атеизма. – Душанбе: Дониш, 1979. – 115 с.
17. Литвинский Б. А., Григулевич И. Р., Стратанович Г. Г. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. - СЭ, 1977, № 1.- С. 164-169.
18. Лобачева Н.П. К истории календарных обрядов у земледельцев Средней Азии // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. –С. 6-30.
19. Мухиддинов И. Обряды и обычаи припамирских народностей, связанные с циклом сельскохозяйственных работ // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. – С. 70-93.

20. Сухарева О.А. Празднества цветов у равнинных таджиков (конец XIX — начало XX в.) // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. - С. 31-46.
21. Сухарева О.А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. - С. 5-93.
22. Сухарева О. А. Ислам в Узбекистане. -Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1960. - 90 с.
23. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. - М.: Наука, 1969. - 336 с.
24. Тайжанов К., Исмаилов Х. Особенности доисламских верований у узбеков-карамуртов // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. Отв.ред. В.Н. Басилов. Сборник статей. - Москва: Наука, 1986. - С. 110-138.
25. Поляков С.П., Черемных А.И. Погребальные сооружения населения долины Зеравшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. - С. 261-280.
26. Лобачёва Н.П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. Отв.ред. Г.П. Снесарев, В.Н. Басилов. Сборник статей. - М.: ГРВЛ, 1975. - С. 298-333.

SURXON VOHASI AHOLISINING IJTIMOY HAYOTIDA OILAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

Bo'riyev Ravshan Rustamovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tayanch doktoranti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0004-0397-4118>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining oilaviy qadriyatlari, oila bilan bog'liq munosabatlar etnografik aspektida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, nabira, xalq, millat, patriarxal oila, nuklear oila, qarindosh urug'chilik.

Аннотация: В данной статье с этнографической точки зрения анализируются семейные ценности жителей Сурханского оазиса, отношения, связанные с семьей.

Ключевые слова: семья, ребенок, внук, нация, нация, патриархальная семья, нуклеарная семья, родство.

Abstract: In this article, the family values of the inhabitants of the Surkhan oasis, the relations related to the family are analyzed from an ethnographic point of view.

Key words: family, child, grandchild, nation, nation, patriarchal family, nuclear family, kinship.

KIRISH (ВЕВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Jamiyatimizning tayanchi, poydevori oila hisoblanadi. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos "tabiiy-biologik" (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehr-oqibat tuyg'usi va boshqalar) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Oilani tashkil etish va boshqarish hamisha katta aql tafakkurni talab qilgan hamda aql oilani har qanday noxushlik va balo-qazolardan saqlab qolganligi sharqona hikmatlarda o'z ifodasini topgan.

Oilaning ma'naviy asosini yuqorida aytib o'tilganidek ahillik, fikriy birdamlik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, odoblilik, axloqiy tozalik, totuvlik, bilimga, kasb-hunarga intilish, o'z sha'nini asrash, obro'sini saqlash, sog'lom turmush tarzi, har qanday nopok, jirkanch, qonunga to'g'ri kelmaydigan ishlardan saqlanish, xush muomalalik, mehr-shafqatli, oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va boshqalar tashkil etadi.

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash uchun qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. 1998-yil 2 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi" Respublika Oila ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. Bu qaror Prezidentimiz tomonidan 1998 yilni "Oila yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilindi. Ushbu qarorda "oilaning jamiyatni o'zgartirishdagi tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy – axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va izchil ta'minlash" ta'kidlanadi. Oila manfaatlarini ta'minlash borasidagi tadbirlar Davlat dasturi kompleks tusga ega bo'lib, u 150 dan ortiq tadbirni o'z ichiga oladi. 1998 yilda ushbu tadbirlarni bajarish uchun davlat byudjetidan 144.8 mlrd so'm mablag' ajratildi[1].

1999- yil "Ayollar yili" deb e'lon qilindi va ushbu yildagi Davlat dasturida ham oilani himoya qilishga, oilaning ustunligidan biri bo'lgan ayollarning manfaatini himoya qilishga alohida ahamiyat berildi[2].

2000-yil “Sogʻlom avlod yili”, 2001-yil “Ona va bola” yili boʻlib tarixga kirdi. Bu yillarda oilaning asosiy tayanchi boʻlgan onalar va bolalar haqida katta gʻamxoʻrlik qilindi. Oʻnlab yangi sanatoriylar, dam olish uylari, tibbiy binolar qurildi. 2002-yil “Qariyalarni qadrlash yili” deb nomlandi va oilaning koʻrki, maslahatchisi, gʻamxoʻri boʻlgan ota-onalarga katta hurmat koʻrsatildi [3].

Umuman olganda oila va mahalla jamiyatining muhim yacheykasi hisoblanib, uni yanada mustahkamlash uchun butun choralar koʻrilmoqda. Zero, demokratik jamiyatida mahalla va oilaning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni beqiyosdir.

Oilaga nisbatan ijtimoiy birlik deganda, ikki jinsdagi yoshning bir jamoa – oila boʻlib qoʻshilishini, tinch-totuv turmush kechirishini anglash lozim. Darhaqiqat, bu ijtimoiy birlik yigit va qizning oʻzaro ixtiyoriy xohishi, istagi mehr-muhabbati asosida barpo etiladi va u koʻp qirrali, murakkab hayotga kiradi. Chindan ham hayot va turmush koʻp qirrali va murakkabdir, chunki oilaning oʻziga xos xususiyatlari, oila aʼzolarining bir-biriga nisbatan burch, talab va vazifalari mavjud. Chunonchi: otaning burch va vazifalari, onaning burch va vazifalari, farzandlarning burch va vazifalari, shularga ogʻishmay amal qilinsagina, oila mustahkam va ishonchli boʻladi, erdan uy-roʻzgʻorni moddiy taʼminlash, maʼnaviy-ruhiy qoʻllash, xotiniga, farzandlariga hurmat-ehtirom, ularga nisbatan mehr-muhabbat va har tomonlama gʻamxoʻrlik, vafodorlik va shu kabilar talab qilinadi. Sharqona odob-axloq ajdodlarning avlodlarga qoldirayotgan munosib tuhfasidir, bebaho tarbiyasining mevasidir. Ana shu taʼlim-tarbiya jarayonining boshlangʻich nuqtasi ota ibratining farzandga oʻtishi, oʻtganda ham otaga xos vatanga, xalqqa, oilaga muhabbat, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, halollik, ibrat, dushmanlarga nafrat, ishyoqmaslarga, ikkiyuzlamachilarga nisbatan shafqatsiz boʻlish hamda xalqimiz urf-odatlarini, anʼanalari, qadriyatlariga hurmat tuygʻularining singdirilishi asos boʻlib xizmat qilgan. Sharq xalqlari otaga nihoyatda katta hurmat bilan qaraydilar, uni eʼzozlaydilar,

oilaning poydevori, shohi, taʼminotchisi, himoyachisi, tarbiya maktabining ustozlari deb undan faxrlanadilar.

Maʼnaviyatli odob-axloqli oila tarbiyasida ota-onaga xos aql maktabida qoʻyidagi mulohazalar bayon etilgan: “Umrni-gʻanimat biling?. Oʻz qadr-qimmatingizni saqlang?. Boʻlar-boʻlmasga gʻam, tashvish chekavermang?. Har ishda oʻrtanchalik yaxshi ekanligini unutmang”. Paygʻambarimiz s.a.v.qayd etganlaridek:” Bu dunyo deb, u dunyodan, u dunyo deb, bu dunyodan voz kechmanglar” [4].

Millatimizga xos odob-axloq haqidagi hikmatlarda ota-onaning oila oldidagi burchlari, bir-birlariga sadoqati oʻzaro fikr almashinuvi, kamchiliklarni maslahatlashgan holda aql bilan bartaraf etishlari alohida bayon qilingan. Donolar bisotida qayd etilganidek:” Oilada erkak podshohdir, ona esa vazirdir. Vazir faqat yaxshi maslahatchidir. Hukmdor emas. Biz bilamizki, podshoh vazirlarini xohlagan paytda oʻzgartirish, almashtirish huquqiga ega, ana shuni esdan chiqarmaslik kerak. Biroq aqlli vazir oʻzining aql farosati, tadbirkorligi, ishbilarmonligi bilan bunga yoʻl qoʻymasligi zarur” [5].

Ayol zimmasiga vafodorlik, shirin tavoze, muloyimlik, uy-roʻzgʻorni sarishta-saranjom tutish, ozodalik, pazandalik, chevarlik, farzandni tarbiyalash, shirin soʻzlik singari talab va vazifalar tushadi. Shuningdek, Fotima -ul Banot taʼbiri bilan aytganda, erga yoqmaydigan soʻzni aytmaslik, unga maʼqul tushmaydigan ishni qilmaslik, erga chiroyli va goʻzal boʻlib koʻrinish, xullas, erga xush keladigan narsalarni bekam-u koʻst, darhol bajarish lozim. Ana shundagina oila mustahkam boʻladi, er-xotin oʻrtasida mehr-oqibat orta boradi. Oila bir gulshanki, unda muhabbat chechagi qiygʻos ochilur. Oila bir bogʻdirki, unda orzu-umid daraxtlari meva tugadi. Oila bir qasrki, baxt naqshlari rangorangdir. Oila bir ummonki, his-tuygʻular toʻlqinlari koʻzni quvontiradi.

Oila sevgi asosida bir- birini tushungan, ota-ona oʻz burchlarini toʻgʻri bajara oladigan, har qanday sharoitda bosiq, oʻzlarni aqlan boshqara oladigan, jismonan baquvvat, odob – axloqda hikmatlar durdonasiga amal

qiladigan fazilatli makondir. Sevgi muhabbat haqida cheksiz hikmat durdonalari yaratilganki, ular yosh oilalarni mustahkamlash uchun xizmat qilib kelmoqda.

Sevgi oila ustini, farzandlar tarbiyasi kamoli, uyning fayz-u barokati ekanligini, oila tinch, baquvvat, ishonchligi bo'lishi sevgi asosida oila qurganlarning bir – birlariga bo'lgan insoniy muloqotlarini kuzatgan kishilar tomonidan nazarga olinadi. Chunki, sevgiga sodiqlik oila shakllangan kundan boshlanadi.

Ma'naviyatimizga xos odob-axloqda sevgi asosida qurilgan oila eng boqiy, hayotlari ibratli, odobli, kasb – hunarli, farzandlari mo'min qobil, farosatli tarbiyalangan ilohiy maskan hisoblangan. Bu barcha millat oilalariga xos fazilatdir. Biroq oila mazmun va mohiyatiga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos diqqatga sazovor xususiyatlarga egadir. Sharqda oila tushunchasi oila qurish va uning mustahkamligini, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, o'zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: “Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.

Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan oila farovonligini ta'minlash hukumatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buning uchun oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq barcha masalalarni o'zida mujassam etgan muhim ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy ma'rifatini oshirish, oilaning ijtimoiy-

iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy – maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Oilaning o'ziga xos qator vazifalari mavjud bo'lib, uning asosiy vazifalaridan farzand ko'rish, ajdodlar davomiyligini, er yuzida insoniyat tarixiy-taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir. Oiladagi reproduktiv faoliyat er-xotin, qaynona-kelin, qaynota-kuyov o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi, qon-qarindoshlar ichida mehr-muhabbat rishtalarini qattiqroq bog'laydi. Xalqimizda “Bolalik uy bozor — bolasiz uy mozor” gap bor, bolalik uyda shod-u xurramlik, tinchlik-osoyishtalik hukm suradi. Bunday oilaning har bir kuni mazmunli, rejali va aniq maqsadli o'tadi. Farzandsiz oila aksariyat hollarda notinch, omonat bo'ladi.

Farzandsiz er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar go'yoki soxta oilaga, atrof-muhitga, turmushga munosabatlari yuzaki, kelajakka intilishlari maqsadsiz bo'lib, ular ota-onalik mehr-muruvvati hissiyotidan bebahra qoladilar. Bunday oilalarning taqdiri er-xotin o'rtasidagi nikohning bekor qilish bilan o'z taqdirini yana boshqa bilan qonuniy nikoh asosida sinab ko'rish bilan bog'liqdir. Er-xotin va bolalardan iborat bo'lgan oila naslli oila deb ataladi. O'zbek oilalari ko'p bo'g'inli bo'lib, aksariyat hollarda qaynona-qaynota, o'g'il va kelin, qayin aka va qayin singil, opa, nevaralar birgalikda yashashadi. Bunday oilalar shu oilaning o'zi uchun xos bo'lgan o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarining mustahkamligi va shu kabi axloqiy qadriyatlarning keyingi avlodlarga etkazilishida muhimdir. Shuningdek, oiladagi katta kishilarning yoshlarga oila saboqlarini, ro'zg'orshunoslik bo'yicha tajribalarini, bola tarbiyalashdagi yutuqlarini kelin, o'g'il va qizlariga o'rgatishlari oila mustahkamligini ta'minlash

uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qaynota-qaynona bilan bir oilada yashaydigan kelin uchun baxt va saodat eshigi ochiqdir. Chunki, boshqa oila sharoitida o'sib tarbiyalangan qiz bola begona oilaga kelin bo'lib tushadi, har bir oilaning o'z ichki tartib qoidasi bo'lib, unga amal qilgan, izzat-ikromini joyiga qo'ygan kelingina shu oila a'zolari, shu avlod o'rtasida hurmat topadi, tub qo'yib, palak yozadi. Bu o'rinda qaynona-qaynota o'giti, tajribasi, ta'lim-tarbiyasi, namunasi kelin uchun mayoq hisoblanadi. Xalqimiz o'rtasida "Qarisi bor uyning parisi bor", "Qaynonasiz kelin masxara kelin", "Qari bilganini pari bilmas" kabi maqollar bejiz paydo bo'lmagan.

Oilaning vazifalaridan yana biri iqtisodiy-moliyaviy xo'jaligining faoliyatini to'g'ri yuritish hisoblanadi. Katta jamiyatning o'z iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy masalalari bo'lganidek, oilaning ham o'ziga yarasha iqtisodi, byudjeti, kirim-chiqimi, daromadlari kabi o'ziga xos moliyaviy jihatlari mavjud. Oila a'zolarining oila daromadlarini rejali sarflashi, kundalik turmush uchun zarur bo'lgan ro'zg'or asbob-anjomlarini, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlarini me'yori bilan xarid qilishi, tejamkorligi, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi – shu oilaning har tomonlama gullab yashnashi uchun zamindir. Oilani iqtisodiy rejalashtirish, undan oqilona foydalanish oila boshliqlaridan juda katta boshqaruv, tadbirkorlik va rahbarlik mahoratini talab etadi. Albatta, bu o'rinda oila boshliqlarining hayotiy tajribasi, nazariy va amaliy bilimi, ishbiarmonligi, tadbirkorligi oiladagi boshqalarga namuna bo'lmog'i zarur. Chunki har bir oila o'z moliyaviy mavqeyi jihatidan alohida daxlsiz saltanatdir, bu saltanatning moliya vaziri ota o'rinbosari esa onadir.

Oilaning eng muhim vazifalaridan biri tarbiya hisoblanadi. Oila — tarbiya maskani. Aynan shu maqsadda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr- oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik,

insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bolaning xatti-harakati mazmuniga singib boradi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan gaplar oila tarbiyasining negizini tashkil etadi.

Oilada bola tarbiyasiga bobo, momo va ota-onalar mas'ul bo'lgan, ota-ona uchun hamma farzandlar o'g'il yoki qiz bo'lishdan qat'iy nazar bir xilda qadrlanadi. Ammo o'g'il va qiz bola tarbiyasida ma'lum farqlarning mavjudligi seziladi. O'g'il bolalarni haqiqiy erkak, va oila boshlig'iga xos xususiyatlar doirasida tarbiyalashga, qiz bolalarni esa bo'lg'usi uy bekaligiga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bola tarbiyasida onalar asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Chunki oilada bola doimo ona nazoratida bo'ladi. O'g'il bolalar tarbiyasida ularga halollik, to'g'riso'zlik, qat'iylik, sobitqadamlik va mardlik fazilatlarini singdirishga harakat qilinadi. O'g'il bolalarni tarbiyalashda ko'proq qat'iylikka, chidam va sabrga ega bo'lish kabi xislatlar tarbiyasiga alohida o'rin berilgan. Bolalarga tarbiya berish jarayonida pand-nasihat, namuna ko'rsatish, rag'batlantirish, tushuntirish va zarur bo'lganda jazolash shakllaridan foydalaniladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Oilaviy marosimlar ijtimoiy hayot zaruriyati natijasida paydo bo'lib, inson aql zakovati, ma'naviy-axloqiy va huquqiy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan. Shu jihatdan oilaviy marosimlar uzoq davr davom etgan tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Chunki, «Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va osoyishtalikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Shuningdek, oilaviy marosimlar xalqimizning ma'naviy jihatdan barkamollik sari etaklab, o'zlikni anglashda, yoshlarimizni Ona-Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat hamda mustaqillik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Murodov M.M O‘zbek qadriyatlari. Toshkent. “Cho‘lpon”, 1995.
2. Qoraboyev U. O‘zbekiston bayramlari-T., 1991.
3. Jabborov I. M. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. T., 2003.
4. Мусурмонова О. Оила маънавияти –миллий ғурур. Т..Ўқитувчи. 1999.
5. Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. –Тошкент: Tafakkur, 2020. – 208 б.
6. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов А., Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Тошкент: Мухаррир, 2012. – 200 б.

TARIX

Tursunov Saypulla Narzullayevich. Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası mudiri, Tarix fanlari doktori, professor «*Katta qirg'in*»ning katta talofotlari.....3

Shomat Samatov. Termiz davlat universiteti falsafa kafedrası professori, falsafa fanlari doktori. *Termiz davlat universiteti tarixidan lavhalar (Termiz davlat universitetiga asos solinganligining 70 yilligiga)*.....8

Якубов Ўткир Шермаматович. Термиз давлат педагогика институти доценти, география фанлари номзоди. *XX асрнинг биринчи ярими якунида Ўзбекистонда “тикланиш даври” ва демографик жараёнлар*.....12

Худайбердиев Хурсанд Худайбердиевич. Термиз муҳандислик-технология институти Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедрасининг доценти, фалсафа фанлари номзоди. *Миллий маънавият тараққиётимиз гарови*.....17

Karimova Naila Minnigayanovna. Associate professor of the Music Education Department, Termez State University, Termez, Uzbekistan. **Karimova Kamilla Vyacheslavovna,** Teacher of the Music Education Department, Termez State University, Termez, Uzbekistan. *Musical heritage of Uzbek people*.....23

Бўриев Соатмўмин Донаевич. Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди. *XX асрнинг бошларида Бухоро хонлигининг жанубий ҳудудларида ер — сув ислохотларининг амалга оширилиши ва унинг натижалари (Сурхондарё вилояти мисолида)*27

Кадилова Нигора Якуббековна. Андижанский государственный педагогический институт Кафедра социальных наук, кандидат исторических наук, доцент. *Из историй подготовки национальных рабочих кадров в системе профессионально-технического образования*.....33

Kadirova Yakitjan Buvabayevna. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti. *Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati sanoati taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning o'rni*.....38

Атабаева Нигора Махмуджановна. Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси. *Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабага Фаргона области саноатчиларининг қўшган ҳиссаси*.....43

Ergasheva Sayyora Abdusoatovna. Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası katta o'qituvchisi. *Surxon vohasi hunarmandchiligining mahalliy xususiyatlari*.....47

Yusupova Sevara Nizamitdinovna. Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi. **Bakhronov Bekhruz.** Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi. *Talabalarda millatlararo totuvlik va hamjixatlik to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasi (O'zbekistonning eng yangi tarixi fani misolida)*52

Ирискулов Бекзод Жахонгирович. Ўзбекистон-Финландия педагогика институти ўқитувчиси. *Россия империясининг Туркистонда мустамлакачилик сиёсати (Бюджет сарфланиши мисолида)*57

Базоров Қосимжон. Андижон давлат педагогика институти ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси. *Чор Россияси мустамлакачилик даврида Фарғонна вилояти Андижон уездига замонавий тиббий хизмат кўрсатиш тарихидан*63

Suvonov Jamshid Mashrab o'g'li. Termiz shahar IIB katta tezkor vakili, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Surxondaryo viloyati ichki islar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi faoliyati*70

Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich. Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi. *Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi omillari*74

Xoliqulov Shuxratjon Boymaxammadovich. Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Mustaqillik yillarida Navoiy viloyati yengil sanoati*78

Hotamov Abduvohid Boboxonovich, Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Denov tuman adliya bo'limi Denov tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti. *Surxondaryo viloyatida kommunistik mafkuraning adabiyot, san'at va ma'naviy madaniyatga salbiy ta'siri*84

Jumayev Bekzod. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Surxondaryo viloyatida kommunistik mafkura ateistik tashviqoti*89

Mirzayev Xusniddin Xolmo'minovich. Surxondaryo viloyati Termiz shahar kasb-hunar maktabi Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktori o'rinbosari, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati kommunal infratuzilmasidagi o'zgarishlar*93

Mamatkulova Shoxista Anvarovna. Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Surxondaryo viloyati madaniy meros yodgorliklarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish jarayonlari tarixidan*98

ETNOGRAFIYA

Ro'ziqul Mustafokulov. Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. **Sayfiddinova Nafosat.** Termiz davlat pedagogika instituti talabasi. *Shodmon baxshining terma kuylash mahorati*102

Tursunov Jovli Narzullayevich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi. *Boqiy qadriyatlar*109

Абуллаева Насибaxon Арабовна. Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Чорвадор халқларда мато тайёрлашнинг этник хусусиятлари*114

Наргиза Раҳматуллаева. Республика Маънавият ва маърифат маркази Сурхондарё вилояти бўлими раҳбари. *Халқ оғзаки ижоди намуналарини ёзиб олиш ва нашрга тайёрлаш*.....119

Boboxo‘jayev Ilhom Sultonovich. Termiz davlat universiteti doktoranti. *Xalqning tabiat kullari va arxaiik tasavvurlari bilan bog‘liq marosimlarini o‘rganishda XX asr etnografiyasining ahamiyati*.....123

Bo‘riyev Ravshan Rustamovich. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tayanch doktoranti. *Surxon vohasi aholisining ijtimoiy hayotida oilaviy qadriyatlarning o‘rni*.....128

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURXHONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-3 2024

«СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР» ЖУРНАЛИДА ЧОП ЭТИЛАДИГАН МАҚОЛАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

“SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR” JURNALI TAHRIRIYATIDAN

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali yiliga 4 marta (har chorakda) nashr qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi (OAK)ning 2021 yil 12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati asosida ro‘yxatga olingan. Jurnal “Tarix” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalda o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqolalar nashr etiladi. Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi: maqola hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim. Maqola tahririyatga Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, qolgan tomonlardan 2 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2023 dasturi, doc yoki docx formatida tursunovsafullo12@mail.ru elektron pochta manzili hamda +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55 raqamli telegram sahifalari orqali qabul qilinadi.

Maqolaga tegishli fan sohasi bo‘yicha fan doktori, professor, fan nomzodi, dotsent yoki tegishli fan bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lgan xodimning taqrizi talab qilinadi (Ilova tariqasida maqolaga yozilgan taqrizning imzolangan nusxasi rangli holatda, skanerlangan variantda yuborilishi kerak).

Maqolani rasmiylashtirilganda, tashtlab yuqori chap tomondan UO‘K (UDK) qaydi, bir oraliqdan so‘ng bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to‘liq, o‘zbek, ingliz va rus tillarida yoziladi. Keyin o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so‘zlar keltiriladi. Matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslarda ko‘rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi. Maqolalar kirill va lotin alifbosida qabul qilinadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING 2024-YIL 31-YANVARDAGI 24-SON BUYRUG‘IGA BINOAN maqolalar xalqaro IMRAD talablari asosida quyidagi namuna bo‘yicha qabul qilinadi:

NAMUNA

MAVZU (O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA)

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li, ish joyi, lavozimi, ilmiy unvon (o‘zbek, ingliz va rus tillarida), elektron pochta manzili, muallifning ORCID identifikatori, ya’ni identifikatsiya raqami; maqolaning DOI raqamli obyekt identifikatori (DOI.org platformasidan ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi identifikator raqami).

Annotatsiya (Abstract / Аннотация): Annotatsiya o‘rtacha 200-250 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim. Agar maqola o‘zbek va rus tilida yozilgan bo‘lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida ABSTRACT beriladi.

Kalit so‘zlar (Key words / Ключевые слова): Kalit so‘zlar o‘rtacha 8-12 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Kirish, kirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (iqtibos)

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Xulosa, xulosa.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G‘oziyev.E.G. Umumiy psixologiya –T.: Sharq, 2010. – B. 459.

2. Doniyorov H.T. O‘zbekistonda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta’minlash – ijtimoiy barorlikning bosh omili sifatida. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali. Toshkent, 2018 yil - № 2 - B. 57- 61.

3. Buranov S.M. China’s geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem // International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing. 2020. – P.127-132.

4. Rahmatjonova K. Hindiy va o‘zbek tillaridagi kelishik shakllarida izomorfizm hodisasi // Ilm sarchashmalari. - Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali, №1, 2019 yil. - B.38-40.

5. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba’in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).

6. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developingcross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0> (adabiyotlar shu tartibda yozilishi lozim)

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va to‘g‘riligiga mualliflar javob beradi.

Bog‘lanish uchun muallifning telefon raqami, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi shart. Muallifning sifatli fotosuratining elektron shakli taqdim etilishi lozim.

Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e’lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo‘lyozmalarini qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi. Maqolani tahrir qilish, nashrga tayyorlash va chop qilishga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun __ ming so‘m miqdorida badal puli to‘lanadi.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining mavjud sonlari bilan nashrning rasmiy sayti <https://surxondaryoilmtafakkur.uz> orqali tanishishingiz va yuklab olishingiz, telegram kanalga <https://t.me/surxondaryoilmtafakkur> havolasi orqali kirishingiz mumkin.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali bosh muharriri Tursunov Saypulla Narzullayevich.

Tel: +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55